

TURKIY ADABIYOT
DURDONALARI

O‘ZBEK MUMTOZ SHE’RIYATI ANTOLOGIYASI







TURKIY ADABIYOT
DURDONALARI

O‘ZBEK MUMTOZ SHE’RIYATI ANTOLOGIYASI



1619294
TDTU ... KUTUBXONA
ARM (KUTUBXONA)

“O‘ZBEKISTON”
TOSHKENT — 2022

UO‘K 821.512.133.09
KBK 83.3(5O‘)
O‘ 16

Tahrir hay’ati:

Xayriddin Sulton – hay’at raisi,
Ibrohim G‘afurov, Sirojiddin Sayyid, Asadjon Xodjayev,
Behzod Yo‘ldoshev, Minhojiddin Mirzo, Muhammad Ali,
Ahmadjon Meliboyev, Kengesboy Karimov, Isajon Sulton

Ishchi guruh:

Ikrom Bo‘riboyev, G‘ofur Eshmurodov, G‘ayrat Bozorov,
G‘ayrat Majid, Rustam Musurmon, Risolat Haydarova, Umid Hayitov

To‘plovchi va nashrga tayyorlovchilar:

Hamidulla Boltaboyev, Dilrabo Qozoqboyeva

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2019-yil 15-oktabr kuni Ozarbayjon poytaxti Boku shahrida bo‘lib o‘tgan Turkiy davlatlar hamkorlik kengashining yettinchi sammitida tashkilotga a’zo davlatlar adabiyotining eng sara namunalaridan iborat “Turkiy adabiyot durdonalari” deb nomlangan 100 jildlik kitoblar turkumini har bir mamlakatning ona tilida nashr etish g‘oyasini ilgari surgan edi.

Ushbu ezgu tashabbus asosida birinchi bo‘lib O‘zbekistonda mana shu muhtasham adabiy majmua yaratildi.

Mazkur keng ko‘lamli, zalvarli badiiy silsilaga umumturkiy adabiyotning eng yetuk namunalari, O‘zbekiston, Turkiya, Qozog‘iston, Qirg‘iziston, Ozarbayjon, Turkmaniston va Vengriya davlatlarining atoqli shoir, adib va mutafakkirlarining asarlari kiritildi.

Turkiy tilli davlatlar orasida ilk bor ro‘yobga chiqarilgan ushbu yirik loyiha ona yurtimizda madaniyat va san’atga ko‘rsatilayotgan ulkan g‘amxo‘rlikning, xalqimizning qardosh xalqlar va ularning so‘z san’atiga nisbatan yuksak hurmat-ehtiromining ramzidir.

ISBN 978-9943-8569-8-1

©“O‘zbekiston” nashriyoti, 2022

O‘ZBEK MUMTOZ ADABIYOTINING MUHTASHAM YO‘LI

Ildizi ming yillar qadar qadimgi davrlarga borib taqaladigan turk tilli adabiyotlar orasida o‘zbek mumtoz adabiyotining o‘z o‘rni bor. Bu faxrli o‘rin birgina turkiy xalqlar adabiyotidagina emas, balki umumsharq va jahon adabiyoti xazinasiga qo‘shgan olamshumul hissasi bilan baholanadi. Ilk yozma adabiyot manbalari hisoblangan “Devon-u lug‘otit turk” va “Qutadg‘u bilig” kabi muhtasham ilmiy va badiiy asarlar adabiyotimiz dastlabki davrlardan boshlaboq ma’rifat yo‘lini asos qilib olganini ko‘rsatadi. Turk tasavvuf adabiyotining boshlang‘ichi hisoblangan “Devoni hikmat” birgina yangi davr, yangi adabiy janr yaratuvchisi bo‘libgina qolmay, deyarli XX asr boshlariga qadar davom etgan o‘zbek hikmatnavisligining ham ibtidosidir. “Hibat ul-haqoyiq” singari ta’limiy doston hech bir adabiyotda kuzatilmagani kabi u o‘z ildizlarini Qur’oni karim va Hadisi shariflardan olib, bu muqaddas kitoblarda bayon qilingan hikmatlar asosida manzum doston qilish an’anasini boshlab berdi. Ma’lumki, umumturk adabiyoti nafaqat nazm hisobiga, balki nasriy yo‘lda ham muhtasham asarlar bitishga qodir ekanini “Qisasi Rabg‘uziy” orqali isbotladi. Bu mo‘tabar asar tarkibida kelgan g‘azal, ruboiy, masnaviy va baytlar o‘zbek mumtoz she’riyatining kichik janrlarda ham tajribasi benazir ekanini ko‘rsatdi. Nihoyat so‘nggi mo‘g‘ul xonlari davri va Oltin O‘rda adabiy muhiti tom ma’noda mumtoz she’riyatning maskani bo‘lganini ta’kidlaydigan bir qator nazm namunalari borki, ularsiz mumtoz she’riyatimizning temuriylar davridagi parvozini tasavvur qilish mumkin emas.

Sayfi Saroyining dilbar g‘azal va qasidalari, hikmatga to‘la qit’a va ruboiylari XIV asr o‘zbek mumtoz she’riyatining yuksak namunasi o‘laroq qabul qilindi. O‘ziga xos ijodiy yo‘liga ega bo‘lgan bu shoir fors mumtoz adabiyotidan “Sindbodnoma”, “Guliston” kabi asarlarni tarjima qilish bilan cheklanmay, u an’ana-

lar asosida "Gulistoni bit-turkiy" asarini yozish orqali o'zbekcha hikoyat janrining ilk namunalarini yaratdi. "Suhayl va Guldursun" kabi dostoni orqali ishq-muhabbat, vafodorlik va Vatanga sadoqat motivlarini ilgari surdi. Sirdaryoning go'zal sohillaridan birida joylashgan Sig'noq qasabasida yashab ijod etgan Xorazmiy o'zining "Muhabbatnoma" asari orqali masnaviy she'r shaklini epik dostondan ishqiy maktub sari yo'naltirdi. Birgina asarda 11 ta she'riy maktubni (uchtasi fors tilida) joylash barobarida uning tarkibida bir necha janrlarga o'rin berdi, g'azal, masnaviy, to'rtlik va boshqalar imkoniyatidan foydalanib dunyoviy muhabbatning insonlantiruvchi qirralarini ochib berdi. Ilk davrda ma'rifiy mavzu va da'vatlar yetakchilik qilgan bo'lsa, Xorazmiy ijodidan boshlab o'zbek she'riyati tom ma'noda lirik kechinma va ramziy timsollar bilan ish ko'ra boshladi.

Amir Temur va temuriylar davri adabiyotda Ikkinchi renecsansning poydevorini qo'ygan va uning dunyo miqyosida taraqqiy topishi uchun asos bo'ldi. Markazlashgan davlat tizimi, nisbatan iqtisodiy barqarorlik madaniyatning taraqqiy etishiga, adabiyot va san'atning gullab-yashnashi uchun bosh omil bo'ldi. O'zbek she'riyati ayni davrda janrlar xilma-xilligi nuqtayi nazaridan ham, mavzu rang-barangligi jihatidan ham, obrazlarga boyligi-yu, mahorat mohiyatidan ham yuksaklikka erishdi. Atoyi, Gadoiy, Sakkokiy kabi shoirlar, asosan, mumtoz she'riyatning shoh janrlari — g'azal va qasida bilan ish ko'rishgan bo'lsa-da, kichik janrlar sifatida e'tibor topgan ruboiy va tuyuqlar, qit'a va fardlarning shakllanishida Lutfiy, Hofiz Xorazmiy, Haydar Xorazmiy kabi ijodkorlarning asarlari yetakchi omil bo'lib xizmat qildi. "Devoni Shayxzoda Atoyi" nomi bilan bizgacha yetib kelgan she'riy to'plamdagi 260 ta g'azal irfoniy timsollari va tasavvufiy sifati bilan muxlislar e'tiborini topdi. Shoir tasavvuf adabiyoti nafaqat an'anaviy obrazlar bilan ish ko'rishi, balki dunyoviy she'riyat orttirgan tajribadan oziqlanib, insonning qosh, ko'z, zulf kabi tashqi go'zalliklari ham irfoniy ma'ni tashiy olishini, ular ramziy ma'noda ilohiy tajalli sirlarini ochishga yo'naltirilishi mumkinligini isbotlab berdi. O'zini forsiy g'azal podshohi Hofiz Sheroziyga mengzab, uning taxallusini turkiyda qo'llab nafaqat Xorazmda, balki Samarqand-u Buxoro, Bog'dod-u Tabriz-

da nash'u namo topgan Hofiz Xorazmiy o'zining mingdan ortiq g'azallari bilan, murakkab strukturali janr hisoblangan tarji'band-u tarkibbandlari bilan o'zbek she'riyatini boyitdi. She'r tilini xalq tiliga yaqinlashtirdi, g'azalning timsoliy ufqlarini kengaytirdi va buning barobarida o'zbek she'riyatining mazmun-mundarijasi, falsafiy teranligi va insonparvarlik ruhini badiiy mahoratning talablari darajasiga olib chiqdi.

O'z davrining "malik ul-kalom"i Mavlono Lutfiy she'riyati Navoiyga qadar kechgan o'zbek mumtoz adabiyotining ko'rki hisoblanadi. Chunki Lutfiy o'zi yashagan barakali umrni, asosan, ijodga bag'ishladi. She'riyatning barcha shakl-u shamoyili, go'zal san'atlari shoir she'rlarida namoyon bo'lish bilan birga, turkiy she'riyatgagina xos bo'lgan tuyuq janrini yuksaklikka ko'tardi, uning poetik imkoniyatlarini kengaytirdi. G'azalning ixcham bag'rida maqol-u matallarga ham keng o'rin berish mumkinligini isbotladi. Agar shoir Sakkokiy o'zining go'zal qasidalari bilan she'riyatimizni boyitgan bo'lsa, Gadoiyning o'lmas g'azallari tarkibida inson ruhiyatining turli holatlari, kechinma go'zalliklarini uchratamiz. Ayni mazmunda Haydar Xorazmiy ijodida epik janrlar taraqqiyotini kuzatamiz. Nizomiy panjasiga panja urgan ilk o'zbek shoiri sifatida "Maxzan ul-asror" dostonini erkin tarjima qilish bilan tarjima imkoniyatlarini kengaytirdi. Keyinroq shoirning o'zi ham "Gul va Navro'z" kabi ramz va timsollarga boy doston yaratar ekan, masnaviy she'rda Nizomiy maktabi an'analari qanchalik asqotishi mumkinligini ko'rsata oldi.

XV asr o'zbek she'riyati turkiy adabiyotning quyoshi bo'lib porlashida nafaqat Hazrat Alisher Navoiy ijodi, balki ulug' shoir yashagan davr va adabiy muhit, zamon hukmdorlarining alohida o'rni bor. Shu jihatdan Xuroson podshohi Husayn Boyqaro o'zbek she'riyatida Husayniy taxallusi bilan nafis asarlar bitgan g'azalxon shoir ham hisoblanadi. Garchi bir vazn (ramal) imkoniyati doirasida bo'lsa-da, o'zbek she'riyatining rangin go'zalliklarini ko'rsata oldi. Navoiy yaratgan she'riyat bog'ining bo'stonga aylanishida Husayniy ijodining samarali o'rni bor.

Jahon adabiyotini Sharq she'riyatidagi mavjud barcha janrlar bilan boyitgan, turk (o'zbek) tilini adabiyot ufqiga aylantirgan,

risola, tazkira, manoqib kabi adabiyotshunoslik sohalarida o'zbek tilida dastlabki ilmiy-ma'rifiy asarlar yaratgan Hazrat Alisher Navoiy adabiyoti o'z davri uchun ham, o'zidan keyingi zamonlar uchun ham benazir ta'sir manbayi bo'lib xizmat qildi. Navoiydan keyingi qariyb besh yuz yil davomida o'zbek she'riyati oziqlanib kelgan bu ma'naviy sarchashma halizamon o'zining sirli jihatlari bilan ijodkorlar uchun mahorat maktabi bo'lib keladi.

Bobur she'riyatidan boshlangan boburiylar sulolasi zullisonayn adabiyot sifatida muhojirlikda o'z faoliyatini davom ettirdi. Butun Sharq mamlakatlariga dovruq solib, ingliz olim-u siyosatdonlarining e'tiborini tortgan boburiylar adabiyoti Humoyun Mirzo, Komron Mirzo, Gulbadan begim, Zebunniso kabi ijodkorlari bilan ham zabardast edi.

XVI–XIX asrlar davomida o'zbek mumtoz adabiyoti katta rivojlanish yo'liga o'tdi, mumtoz adabiyotimiz yo'lida nafaqat temuriylar sulolasi, balki taxt almashishi tufayli hokimiyat tepasiga chiqqan shayboniylar sulolasi vakillari ham ta'bli shoir va fozil edilar. Birgina Sha'boniy taxallusi bilan g'azallar bitgan Muhammad Shayboniyning "Devon"i va tasavvuf adabiyotining yorqin ifodasi o'laroq maydonga chiqqan "Bahril-hido" ("Hidoyat dengizi") shoh va shoirning ta'b-iste'dodidan darak beradi. Uning jiyani Ubaydulloxon bir jihatdan zullisonayn shoir sifatida elga tanilgan bo'lsa, ikkinchi jihatdan Markaziy Osiyoda o'z asarlarida o'zaro raqobatda bo'lgan ikki tariqat yassaviylik va naqshbandiylikni targ'ib etgan, qaysidir ma'noda ularga adabiy ko'prik vazifasini o'tagan edi.

Markaziy Osiyoda uch xonlik saroyida qaror topgan mumtoz adabiyotning keyingi umri Buxoro, Xiva va Qo'qon adabiy muhitlarida davom etdi. Buxoroda shayboniylardan keyingi sulolalar ashtarxoniylar, mang'it amirliklari tomonidan idora qilingan davrlarda ham o'zbek adabiyoti muayyan darajada taraqqiyotda bo'ldi. Ana shu taraqqiyotning alohida bosqichlari sifatida Abulg'ozi Bahodirxon, Pahlavonquli Ravnaq, Roqim va Nishotiy kabi ijodkorlar Xorazm adabiyotining shakllanishida muhim omil bo'ldi.

Hamidulla Boltaboyev,
filologiya fanlari doktori, professor.

SAYFI SAROYI

(1321–1396)

Sayfi Saroyi shoir va tarjimon sifatida turkiy adabiyotda o'z o'rniga ega. Asl ismi Sayfi (lug'aviy ma'nosi — qilich) bo'lib, Saroyi taxallusidir. 1321-yilda Xorazmdagi Qamishli qishlog'ida tug'ilgan. Oltin O'rda davlatining poytaxti Saroy shahrida o'qidi. O'zbekxon o'g'li Tinibek va Jonibek hukmronligi davrida o'z yurtini tashlab, Misr va Anado'lida yashadi.

Sayfi Saroyi o'zbek adabiyoti taraqqiyotiga g'azal, qasida, qit'a, ruboiylar, "Suhayl va Guldursun" dostoni bilan hissa qo'shgan. "Sindbodnoma", "Guliston" kabi asarlarni erkin tarjima qilgan. Sayfi Saroyining lirik she'rlari devon tariqasida tartib berilmagan. Bizgacha yetib kelgan g'azallar "Gulistoni bit-turkiy" asarining Muqaddima va Xotima qismlaridan olingan. Sayfi Saroyi she'rlari mavzu jihatdan turlicha bo'lib, unda ishq-muhabbat, vafodorlik va sadoqat mavzulari yetakchilik qiladi. Shoir g'azallari o'zining ohangdorligi, sodda va o'ynoqiligi bilan ham ajralib turadi.

Sayfi Saroyi Xorazm tabiati haqida 24 baytlik qasida yozgan, bu asar Iskandariya hokimiga bag'ishlangan. Bundan ko'rinadiki, o'zbek tilidagi ilk qasida muallifi ham Sayfi Saroyidir.

Bulardan tashqari, Saroyi Sa'diyning "Guliston" asarini erkin tarjima qilib, uni "Gulistoni bit-turkiy" deb atagan. Asarning qo'lyozma nusxasi Leyden universiteti kutubxonasida saqlanadi. Asar erkin tarjima bo'lgani uchun unda Sa'diy asariga qo'shimcha ravishda yangi hikoyatlar, qit'a va baytlar uchraydi. Har hikoyatning oxirida masal yoki falsafiy mavzudagi baytlar bor. "Gulistoni bit-turkiy" o'zbek adabiyoti tarixida ham tarjima, ham shoir iste'dodini namoyish etuvchi o'ziga xos asar sifatida ham ahamiyatlidir.

G‘AZALLAR

Taolalloh, zihi surat, zihi mahbubi ruhoniy,
Kim oning husni shavqindin ko‘ngullar bo‘ldi nuroniy.

Mufarrih shevali dilbar, tili to‘ti, so‘zi shakkar,
Kiyik ko‘zli, qamar manzar, malohat mulki sultoni.

Ko‘ngul olur ko‘zi oli, farah berur engi oli,
Bo‘yidur sarvning toli, yuzi jannat gulistoni.

Gunashtek belgili shohid, jamoli qavlima shohid,
Kechar hasrat bilan zohid yiroqdan ko‘rmaga oni.

Alo, ey dilbari manzur, bu ko‘rkingga bo‘lub mag‘rur,
Ko‘ngullar qilmag‘il ranjur, kechar bu husn davroni.

Bu muddatni g‘animat bil, bu fursatda vafolar qil,
Bu izzat birla bo‘l ko‘p yil, xaloyiqning sevar joni.

Qoshing chun bayram oyidur, jahon husning gadoyidur,
Qulung Sayfi Saroyidur, bukun ul sun’ hayroni.

* * *

Ul yuzi oykim, jahonning jonidur,
Bu zamona xo‘blarining xonidur.

Yosamin tan, qomati sarvi ravon,
Zulfi jannat bog‘ining rayhonidur.

G‘amzasining oltina olam asir,
Ko‘zlari davri qamar fattonidur.

Kirpugining o‘qina jonlar nishon,
Qoshi yosining jahon qurbonidur.

Shams aning har kun yoqosindan tug‘ar,
Ul sababdan bu jahon nuroniydur.

Beslasin ushshoq jonin, chun bukun
Ko‘z qamar, yuz husnining davronidur.

Ko‘rgali Sayfi Saroyi qul ani
Haq taolo sun’ining hayronidur.

* * *

Bu falak nechun meni doim qaro qinda tutar,
Bu otim Sayf o‘ldug‘ uchunmi qaro qinda tutar?

Qanda bir erdam yeri bo‘lsa oni ko‘zdan solib,
Tekma bir erdamsiz yerni ko‘z qaroqinda tutar.

So‘zlarimning javharin orif ko‘rub, qadrin bilib,
Ko‘p baholi dur bekin doim quloqinda tutar.

Ol bilan oldi ko‘ngul mendin bir oy yuzli malih,
Kim muanbar xoli asvad ol yangoqinda tutar.

Husn ichinda yo‘q naziri, lekin ul joni jahon
Doimo oshiqlarini ishtiyoqinda tutar.

Odati budur hamisha bevafo ma’shuqaning,
Kim aning vaslin tilasa, o‘l firoqinda tutar.

Bu falak javri bekin Sayfi Saroyi bag‘rini
Ul yuzi oy hajr o‘tining ihtiroqinda tutar.

* * *

Dilbarimning zulfi sunbul, chehrasi gulzor erur,
Bo‘yina oshiq sanavbar, yuzina gul zor erur.

Og‘zi fastuq, ko‘rki tangsuq, o‘zi mushfiq yor erur,
Husnining chovi Xito-u Chin ichinda bor erur.

Asli alchin, so‘zlari chin, ko‘zlari totor erur,
Ming yashar harkim dudog‘i sharbatin totor erur.

Ishqining elchisina ko‘nglum munaqqash dor erur.
Zulfina tushgan ko‘ngullarning maqomi dor erur.

Nechakim ishqi o‘ti bu jon ichinda bor erur,
Kahrabo uzra ko‘zumdan dam-badam durbor erur.

Shahd so‘zi, orif o‘zi, voqifi asror erur.
Vasl bo‘stonida xush oshiqlarin asror erur.

Vasfina Sayfi Saroyining ishi ash’or erur,
Andin o‘zga birla oshiqqa yemak osh or erur.

* * *

Ey ko‘rklilar xayoli bilan mubtalo ko‘ngul,
Ko‘zi bilan keturgan o‘zina balo ko‘ngul.

Ne yerda bir qamar kibi yuz ko‘rijak ravon,
Ko‘zung yumub tusharsan oning o‘tino, ko‘ngul.

Bir gul yangoqli jodu qaraqlig‘a ug‘rasang,
Joning fido qilursen o‘shul dam ango, ko‘ngul.

Sultonlar o‘g‘li zulfina gustox qo‘l sunan,
Sensan elinda bir yo‘li yo‘q benavo, ko‘ngul.

Ul kim seni jafo bila o‘lturmaga tilar,
Ming jon bilan qilursen anga xush duo, ko‘ngul.

Tortib zamona xo'blarining javrini mudom,
Ko'rdungmi hech birinda bulardin vafo, ko'ngul.

Kuydum sening bila necha kez furqat o'tina,
Yillar chekib sening bila jabr-u jafo, ko'ngul.

Qozi evi ne yerda, ajab mufti qaydadur.
Qilg'ay edim sening bila xush mojaro, ko'ngul.

Sayfi Saroyini bu qaro qinda bog'lasang.
Xo'blar jafosi birla bo'lursen fano, ko'ngul.

* * *

Topulmas husn mulkinda senga teng bir qamar manzar,
Na manzar, manzari shohid, na shohid, shohidi dilbar.

Bu kun Yusuf jamolini qilibtur Haq sanga baxshish,
Na baxshish, baxshishi davlat, na davlat, davlati mafxar.

So'zung durr-u javohirdur, ko'ngullar ganjina loyiq,
Na loyiq, loyiqi xisrav, na xisrav, xisravi kishvar.

Shakardan totlidur xulqung, karamda xotiring matlab,
Na matlab, matlabi ma'dan, na ma'dan, madani javhar.

Zihi davlatli oshiqkim, sening birlan qilur ishrat,
Na ishrat, ishrati jannat, na jannat, jannati kavsar.

Bu husnung shavqi zavqinda ko'ngul to'tilari tobti,
Na tobti, tobti xush lazzat, na lazzat, lazzati shakkar.

Jamoling naqshina Sayfi Saroyi bag'ladi surat
Na surat, surati hasno, na hasno, husni jonparvar.

* * *

Ko‘rkli yuzungga boqqan ko‘zlarga jon ko‘runur
Doim murassa’ og‘zing gavharfishon ko‘runur.

Bozor ichinda husnung ishva sotib olur jon,
Bo‘ston ichinda qadding sarvi ravon ko‘runur.

Haq sun’i oy yuzungni qilmoq uchun tamosho
Har subhidam qopungda xalqi jahon ko‘runur.

Erta-kecha ko‘zumdin ketmas uchun xayoling,
Ne yerga boqsam anda husnung ayon ko‘runur.

Sayfi Saroyi nazmi husnung sifoti birla
Doim bu el tilinda xush dilsiton ko‘runur.

* * *

Qurub qoshi yosin qaro ko‘zlaring,
Otar kirpuk o‘qin mango ko‘zlaring.

Bir o‘q birla Rustamni otdin yiqar,
Necha otsa qilmas xato ko‘zlaring.

Qaroqchi balo qilsa tuz yozida,
Qilur doim elda balo ko‘zlaring.

Olur sabr jondin, ko‘nguldan qaror
Kima boqsa bir kez qiyo ko‘zlaring.

Ko‘ngullarni bog‘lab qaro zulfina,
O‘sanmasmi jonlar olo ko‘zlaring.

Ne yo‘ldan bu Sayfi Saroyining o‘sh
To‘kub qonin ichar qano ko‘zlaring.

Agar hay demasang, jahonni xarob
Qilur g‘amza bilan yono ko‘zlaring.

* * *

Qamar yuzungdin bo‘lur munavvar,
Shakar so‘zungdan kelur mukarrar.

Gunash yuzungni ko‘rub xaloyiq,
Bo‘lub tururlar sanga musaxxar.

Ko‘ngulga doim farah berurga
Kelib xayoling bo‘dur musavvar.

Tugandi umrum firoq elinda,
Qachon visoling bo‘lur muyassar.

O‘qur sifoting bu Sayfi shaydo,
Yozib dafotir uza mufassar.

* * *

Yangi oydur qoshing, ey ko‘rkaboyim,
Qilur bayram yuzungni ko‘rsa soyim.

Suv ichkanda dudog‘ingdan suv tomsa,
Bitar qand-u shakar ul yerda doim.

Jamolingdur bu kun olam safosi,
Xayolingdur hamisha jon fizoyim.

Kerak o‘ltur, kerak asra, qulungman,
Muborak buyrug‘ungdur qutlu royim.

Mufarrih nazm etib Sayfi Saroyi
Sifotingni o‘qur, ey ko‘rkaboyim.

FI AVSOFI SHUARO

Jahon shoirlari, ey gulshani bog‘,
Kimi bulbul durur so‘zda, kimi zog‘.

Kimi to‘ti bekin chaynar shakarni,
Kimi lafzi bilan o‘rtar dararni.

Kimining so‘zlari mavzunu shirin,
Kimining loyiqi tashrifu tahsin.

Kimi o‘zganing ash’orin menim der,
Kimi halvo kibi shalg‘am cho‘bin yer.

Kimi ma’niy qo‘yub lafzin tuzotur,
Kimi vaznin buzub san’at kuzotur.

Alarning o‘sh biri Sayfi Saroyi,
Jahon oriflarining xoki poyi.

Ani sen jumla shoir kamtari bil,
Qamar yuzga hamisha mushtari bil.

QASIDA

Oltun qanotin ochti esa subh sunquri,
Ko‘k ko‘lga botti jumla kavokib kabutari.

Isfandiyori Rum chiqib tiktisa alam,
Bo‘ldi ko‘rub hazimat oni shom lashkari.

To‘kti qirmizi may qon aqitib charx tosina,
Tunnung yurak tomirin ochib subh nishtari.

Qushlar ko‘rub havoda ani boshladi ravon,
Tili otilancha o‘kmaga allohu akbari.

Jannat mengiz bezadisa ul dam o‘zin jahon,
Raqs urdi oshiqona yurub charx chanbari.

Bo‘ston ichinda turli chechak anjuman qurub,
Rahmat sharobi birla bo‘lub mast har biri.

Sundi piyola lola qizil gulga gul ichib,
Bulbulga qarshi ochti jamolin yana tari.

Bulbul mug‘anniy bo‘ldi navoda tuzub nag‘am,
Nargisni uyg‘arib yana esritti abhari.

Ma’shuqa qomati kibi turlik chechak aro,
Xush qo‘llarin solib solinur sarv ari-bari.

Bo‘ston ichinda mushk sota boshladi sabo,
To‘ldi jahon dimog‘ina gullar muattari.

Ul anjuman ichinda edim, keldi nogahon
Bir xush habib manzaru ushshoq dilbari.

Qaddin ko‘rub yer o‘pti aning sarvi bo‘ston,
Zulfi buroqti olama mushk ila anbari.

Aydi ravon qasidan g‘arro qilib bu kun,
Eltkil aning qatinakim ul dahr mafxari.

Iskandariyaning maliki bo‘zlar ahli jud,
Kim Hotami zamona kerak bo‘lsa chokari.

Hamza yurakli erdam eri Rustami zamon
Bu asr ichinda o‘zlarining yo‘q barobari.

Ey ma’dani shijoat-u mahdiyi ro‘zgor,
V-ey manbayi saxovat-u iqbol manzari.

Sen ul yagona forisi chobuksuvorsen,
Bir o‘q bilan yiqarsen urubon g‘azanfari.

Shatranji baxt-u nardi saodat sening bilan
Kim o‘ynadi utuldi-yu bog‘landi shash dari.

Bazmingda tutti Zuhra bu ushshoq pardasin,
Soqiy qamar bo‘lub sanga tegruchi mushtari.

Sayfi Saroyi xidmatinga madh o‘qub to‘kar
Bahri aruz ichindan olib durri javhari,

Bo‘ldi g‘idoyi ruh-u ko‘ngullar mufarrihi,
Ko‘rkli sifatlaring bila devon-u daftari.

Bu madh ul qasidag‘a qildim javobkim
Tun zulfini kesarda tutub subh xanjari.

Necha to‘zutsa bodi bahoriy abiru mushk,
Necha chamanda bodi xazon qilsa zargariy.

Onchag‘a tegru egu oting xayr uza qolib,
So‘zlansin el tilinda jahonning dilovari.

QIT’ALAR

Nedur ul kim so‘qub tartib bungalmas,
Boshi zaxmi davo birlan o‘ngalmas.

* * *

Kim keldi esa jahong‘a, shak yo‘qki, ketar,
Oqil kelibon bu yerda ko‘p xayr etar,
Sen yeguluk et dag‘i tengizga solg‘il,
Yozida sanga yaqin bil ul xayr etar.

XORAZMIY

(XIV asr)

Xorazmiy o'zbek adabiyotida noma janrining asoschisi, go'zal masnaviy muallifi sifatida iz qoldirgan. Shoirning hayoti va ijodi haqida ma'lumot beruvchi yagona manba uning "Muhabbatnoma" (1353) asaridir. Unda shoir Sirdaryo bo'yidagi shaharlardan birida tug'ilgani, daryo sohilidagi Sig'noq shahrida yozilgani aytilgan. Asar Oltin O'rda xoni Jonibek (1342–1357) hukmdorlaridan Muhammad Xo'jabekning taklifi bilan yozilgan (1353). Asardan ma'lum bo'lishicha, Xorazmiy fors tilida ham bir qancha she'rlar yozgan.

"Muhabbatnoma" mundarijasidan ma'lum bo'ladiki, oshiqning mahbubasiga yo'llagan 11 she'riy nomasi jamlangan, ulardan uchtasi fors tilida. Har bir maktub muallifning chuqur kechinmalari, murojaati bilan boshlansa-da, unda ma'shuqa husn-u jamoli, fe'l-atvorining mubolag'ali tasviri birinchi o'ringa chiqadi. Nomalar mohiyat-e'tiboriga ko'ra, ma'shuqa vasfi va madhidan iborat.

Asardan xabardor bo'lgan Alisher Navoiy "Muhokamat ul-lug'atayn"da turkiy tilning boyligini isbotlamoq maqsadida "Muhabbatnoma"dan misol keltiradi. "Muhabbatnoma"ning 2 ta qo'lyozma nusxasi (uyg'ur va arab yozuvlarida) ma'lum. Nomalar aruzning mafoilun-mafoilun-foulun vaznida yozilgan.

"Muhabbatnoma" ta'sirida Xo'jandiy "Latofatnoma", Yusuf Amiriy "Dahnoma", Sayyid Ahmad "Taashshuqnoma" asarlarini yozganlar.

"MUHABBATNOMA"dan

AVVAL KO'RUSHKANIN AYTUR

Tun oqshomkim ko'rundi bayram oyi,
Muhammad Xo'jabek davlat xumoyi.

Buyurdi o'zga shodurvon uruldi,
Qadah kelturdilar majlis quruldi.

Husayniy pardasi uzra tuzub soz,
Mug'anniy bu g'azalni qildi og'oz.

G'AZAL

Chi mah ruyi tu, ey sarvi sarafroz,
Ki memonad bi ro'yat gul dahanboz.

Ba yodi qomatat mebo'samash poy,
Niholeroki mebinam sarafroz.

Badan monad turo dur banogo'sh,
Ki gardad zuhra bo xurshid hamroz.

Xati sabzat birezad ja'di mushkin,
Chu to'tibachchayi dar changali boz.

Chi monandbo labat har la'l-u yoqut,
Na dar har xotame meboshad ejoz

Tu bo mo to tavoni noz mekun,
Ki xush boshad zi yori nozanin noz.

Kamand afkon chu zulfat hindue nast,
Chu chashmat tez turki novak andoz.

Tu sultoni sariri mulki husni,
Ba mo bechoragon goh-goh pardoz.

Guliston qay buvad xli zi bulbul,
Jamoli ro'yi xubon be nazar boz.

Xusho ro'zeki Xorazmiy bimolad,
Qadamxohi turo bar diydaho boz.

BAYONI VOQEYI AYTUR

Tabassum qildi, aydi: "Ey falone
Keturgil bizga loyiq armug'one.

Ko'ngul bahrinda ko'p gavharlaring bor,
Ochunda porsiy daftarlaring bor.

Muhabbat nardini ko'plardin uttung
Shakartek til bila olamni tuttung.

Tilarmenkim bizing til birla paydo,
Kitobe aylasang bu qish qotimdo.

Kim ush eltek kechar ayyomi foniy,
Jahonda qolsa bizdin armug'one".

Qabul qildim, yer o'pdim, aydim: "Ey shoh!
Eshiking tuprog'i davlatli dargoh.

Kuchum yetmishcha ko'p xizmat qiloyin,
Jahonga neku otingni yoyayin.

Bu kun tongqa tekin may no'sh qilg'in,
Badiha bu g'azalni go'sh qilg'in".

G‘AZAL

Yuzungni ko‘rdum, ey jon bayram oyin,
Munung shukronasi qurbon bo‘loyin.

Agar kun tug‘masa ham yoqtu qilg‘ay,
Yuzung nuri bu dunyining saroyin.

Gar Aflotun sening ishqingda tushsa,
Berur elga qamuq tadbiru royin.

Shakartek til bila to‘ti tilingiz,
Necha ko‘p sayd etar jonlar humoyin.

Saodat birla baxt ikisi bichti,
Bo‘yingizga latofatning buqoyin.

Ijozat bersangiz tong yoqtusitek,
Jahonga hushuhguz jonni yoqtusitek,

Siza teb keldi, Xorazmiyni asrang,
Kim asrorlar qamuq shahlar gadoyin.

MASNAVIY

Rovisqincha g‘azal shah go‘sh tutti,
Manga xil’at kiyurib qo‘sh tutti.

Biroz kechti do‘g‘i majlis isindi,
Qadah chavruldi-yu, may boshqa mindi.

Yana fursat bila bo‘ldum mahalni,
O‘qudum xizmatinda bu g‘azalni.

G‘AZAL

Yarotqon kim tan ichra jon yarotti,
Seni ko‘rkluklar uzra xon yaratti.

Quyosh yanglig‘ yuzungizni yorutti,
Falaktak bizni sargardon yaratti.

Xaloyiq qiblasi bo‘ldi jamoling,
O‘shal kunkim seni yazdon yaratti.

To‘lin oy ta’biya sarv uzra qildi,
Oy ichra g‘unchayi xandon yaratti.

Jamolingni jahonga jilva qildi,
Meni ul surata hayron yaratti.

Eshitting ersa Yusufning jamolin,
Seni husn ichra sad chandon yaratti.

Karim Tengri kamolin qilsa izhor,
Sen oyni bo‘yla benuqson yaratti.

Zihi qodir kim ul bir qatra suvni,
Muhabbat gavharinga kon yaratti.

MASNAVIY

Kitobat boshladim anjoma yetgay,
“Muhabbatnoma” Misr-u Shoma yetgay.

Bu xon uzra saloyi oma qildim,
“Muhabbatnoma”ni o‘n noma qildim.

Qiloyin ikki bobinin porsiy ham,
Kim atlas to‘n yaroshur bo‘lsa mu’lam.

Burun alqissa bek madhin ayoyin,
O‘shandin so‘zlarimni boshlag‘oyin.

AVVALG‘I NOMANI AYTUR

Ayo ko‘rk ichra olam podshohi,
Jahon tutti sening husning sipohi.

Pari ruxsoralarning ko‘rkka boyi,
Yuzing navro‘z qoshing bayram oyi.

Ko‘ngil shirin so‘zingg‘a bo‘ldi Farhod,
Ko‘zing Kashmir jodusig‘a ustod.

Qaro meng ol yangoqingda yaroshur,
Boshim doim adoqingg‘a yaroshur.

Bo‘ying sarv-u sanubartek, beling qil,
Vafo qilg‘on kishilarg‘a vafo qil.

Aqiqing suhbatindin jon bo‘lur so‘z,
Qamardek chehrangg‘a boqsa qamar ko‘z.

Urur nargislaring navakni jong‘a,
Kular chehrang chechaktek arg‘uvong‘a.

Muhabbat nori jondin ketmadi hech.
Qo‘lim sim olmangizga yetmadi hech.

Saroydin bordi Chin Moching‘a choving,
Qiyo boqsang, bo‘lar arslonlar oving.

Tabassum qilsangiz shaker uyolur,
Tishing injusidin gavhar uyolur.

Jamoling yetti olamg‘a sipahlar,
Qotingda yer o‘parlar jumla shahlar.

Falak ishqing yo‘lingda besar-u poy,
Isirg‘ang donasi Zuhra, yuzing oy.

Latofat mulkida sultonsen, ey jon,
Qamuq boshdin ayoqqa jon sen, ey jon.

Qatiq kulsang, magar og‘zing belurgay,
Pari ko‘rsa seni mentek telurgay.

Soching bir torini ming hur yetmas,
Yuzingning nurina ming nur yetmas.

Agar bersa suyurg‘ab Haq taola,
Kerakmas sensizin firdavs a’lo.

Ko‘ngulning qoni qaynab barcha toshqay,
Ko‘zumning yoshidan kavsar bulashqay.

Kishining sensizing ne joni bo‘lsin,
Aningtek umrning ne son bo‘lsin.

Shaker irning naboti Xizra o‘xshar,
Ayog‘ing kimki o‘psa mangu yashar.

Jamolingtek kishining yo‘q jamoli,
Dareg‘o bo‘lmasa erdi zavoli.

Qiyomat ko‘rklusen husningga ne so‘z,
Yiroq bo‘lsun jamolingdin yovuz ko‘z.

Bu kun yo‘qtur sen oytek ko‘kta asra,
Quling bechora Xorazmiyni asra.

MASNAVIY

Kel, ey soqiy, keturgil bodayi nob,
Kula o‘yna-yu ichsunlar bu as’hob.

Kim o‘sha eltek kechar ayyomi foniy,
Ajaldin hech kishining yo‘q amoni.

Saburdin yaxshi yo‘qtur pasha qilsam,
Bu yo‘lda sabr yo‘q andisha qilsam.

ATOYI

(XV asr)

Navoiygacha bo'lgan o'zbek she'riyatining yetuk mutasavvif shoirlaridan biri Atoyi Xoja Ahmad Yassaviy avlodidan bo'lib, Balx shahrida tug'ilgan. Samarqand, Buxoro va Balxda yashagan. Turk va fors tillarida ijod qilgan.

Alisher Navoiy "Majolis un-nafois" asarida Atoyiga yuksak baho bergan.

Mutaxassislar Atoyi devonining muqovasida "Devoni Shayxzoda Atoyi" deb qayd etilgani uchun ham Atoyini shayxlar oilasidan degan xulosaga kelishgan.

Atoyi g'azallarida muhabbat mavzusi bilan bir qatorda, may ham kuylanadi. Mayda hayot zavqi, uning barcha go'zalliklari va lazzatlari vasf etiladi. Atoyi lirikasining mavzusi rang-barang. Unda hayot vasfidan tortib tasavvufiy mazmundagi g'azallargacha o'z aksini topgan. G'azallarining vazni yengil, misralari qisqa, so'zlari oddiy, uslubi sodda va ravon. Shuning uchun ham uning she'rlari xalq qo'shiqlariga aylanib ketgan. Atoyi lirikasida ta'zod, tanosub, tajohuli orifona, laffu nashr kabi badiiy san'atlardan keng foydalanilgan. Atoyi "Devon"i XVI asrda ko'chirilgan bo'lib, uning tarkibida 260 ta g'azal bor.

G‘AZALLAR

Necha jonimg‘a sendin dard-u g‘amdur?!
Magar mehring jafo, lutfung sitamdur.

Muhiblarg‘a jafo qilmoq yozuqsiz,
Muhabbat yo‘lida bisyor kamdur.

Manga dushvor erur sensiz tirilmak,
Sanga men bo‘lmasam, ey jon, na g‘amdur?!

Necha jonimg‘a tekding va’da birla,
Kechar dunyo, vafo qil , dam bu damdur.

Ko‘zung, zulfung bila og‘zing g‘aminda
Vujudim hosili ayni adamdur.

Gunah qildimki, hajringda tirildim,
Vale mendin gunah, sendin karamdur.

Atoyi ushbu yo‘lda xok bo‘lsa,
Murodi xo‘blardin bir qadamdur.

* * *

Ul sanamkim, suv yaqosinda paritek o‘lturur,
G‘oyati nozuklukindin suv bila yutsa bo‘lur.

To magarkim, salsabil obina javlon qila,
Keldi jannat ravzasindin obi kavsar sori hur.

Ul ilikkim, suvdin oriqtur, yumas oni suvda,
Balki suvni pok bo‘lsun deb ilik birla yuyur.

Emdi bildim rost emish, balki ko‘rdim ko‘z bila,
Ulki derlar, suv qizi goh-goh ko‘zga ko‘rinur.

Qoshlaring yosin Atoyi ko‘rgali husn ichra toq,
Subhidam mehroblarda surayi yosin o‘qur.

* * *

Xasta ko‘nglumdin xayoling bir zamon ketmas, begim,
Nechakim, vasling etakiga qo‘lum yetmas, begim.

Netayin, darmonda bo‘ldum men bu ko‘nglum ilkida,
Sensizin hech yerda bir lahza qaror etmas, begim.

Garchi sen dashnom etarsen, men duochiman senga,
Oshiqi sodiq jafodin elini chetmas, begim.

Sen meni ta’zim etib qulllar soninda tutmag‘il,
Itlaring xaylinda bo‘lsam, ne manga yetmas, begim?!

Ta’nadin qovmas Atoyini eshikindin raqib,
Hech gadoy it ursa eshikni qo‘yub ketmas, begim.

* * *

Kel, ey dilbarki, bo‘ston vaqti bo‘ldi,
Gul ochildi, guliston vaqti bo‘ldi.

Qilay nola, boqib guldek yuzungga,
Chu bulbullarg‘a afg‘on vaqti bo‘ldi.

Gul-u bulbul bikin gulbunlar ichra,
Nishotu ayshi pinhon vaqti bo‘ldi.

O‘qub gul baxtini majlisda har dam,
Bo‘lub sarxush, gulafshon, vaqti bo‘ldi.

Turub mahbub olida muhibg‘a,
Chu gul choki giribon vaqti bo‘ldi.

Mug‘annilarg‘a bulbullar bikin zor,
Hazoron nav’i alhon vaqti bo‘ldi.

Bu damkim, gul qilur bulbulg‘a altof,
Atoyig‘a ham ehson vaqti bo‘ldi.

* * *

Oh, o‘lturdi firoq ul gul uzorimdin yiroq,
Lola yuzluq, sarv bo‘yluq to‘g‘ri yorimdin yiroq.

Nola qilsam har zamon ayb etmang, ey ushshoqkim,
Andalibi benavomen lolazorimdin yiroq.

Ixtiyor ettim ul oyni ikki dunyodin, vale
Netayin soldi falak o‘z ixtiyorimdin yiroq.

Sa’y etar zohid meni jannatning eski bog‘ina,
Men borurmenmu yuzungdek navbahorimdin yiroq.

Menda ham sabr-u qaror-u, aql-u hushe bor edi,
Ne baloliq ishq edikim, soldi yorimdin yiroq.

Gar falak o‘ltursa yuz qatla meni, hech boq emas,
Bu o‘lumdurkim, o‘ladurmen nigorimdin yiroq.

Ketmagay o‘lsam Atoyidek bo‘yung sarvi uchun,
To qiyomat sayayi rahmat mozorimdin yiroq.

* * *

Ay, gul chehralik sarvi ravonim,
Fido bo‘lsun senga jon-u ravonim.

Sulaymon mulkudur ham Nuh umri
Saning bila kechurgan bir zamonim.

Agar zulfung uchun chopsang boshimni,
Yuz evursam maning bo‘ynumg‘a qonim.

Belingda garchi bir qilcha gumon bor,
Vale og‘zingda yo‘qtur hech gumonim.

Jamoling oyatidur husn ichinda,
Ne hojat bu mening sharh-u bayonim.

Bu dog‘e kim, qo‘yar jonimg‘a hajring,
Ajab qolg‘ay mening nom-u nishonim.

Yuzung mehrinda jon berdi Atoyi,
Demading bir kun: o‘ldi mehribonim.

* * *

Bovujudi orazing bargi samandin kim desun?
Loladin kim so‘zlasun, ham nastarindin kim desun?

Dunyoni tutti saning husnung bila dardim so‘zi,
Yusuf-u Ya’qub ila Bayt ul-hazandin kim desun?

La’lingiz birla dam urmas zarra sarrofi aql,
Ore, yaxshi bor ekan, asli yamondin kim desun?

To visolingdin yiroqmen, yovumas hech kim manga,
Joye uldur, ayb emas, jonsiz badandin kim desun?

Zulf-u xolingdin muattar bo‘ldi olam, ba’dazin
Nofayi ohu-yu Totor-u Xo‘tandin kim desun?

Makr-u fan aylab meni, sayd etti derlar el seni,
Men azaldin mubtalomen, makr-u fandin kim desun?

Eshikingdakim, shahanshahlarga anda bor yo‘q,
Bu Atoyidek gadoyi bevatandin kim desun?

* * *

Kuyar jonim, netay, dilxoh unutti,
Ko‘ngul ahvolidin ogoh unutti.

Falakka yetsa ohim ne ajabkim,
Meni ul Zuhra ko‘zluk moh unutti.

Qani bir mushfiqekim, yod bersa,
Gadoyi muxlisin ul shoh unutti.

Bu qulg‘a bor ekan bis’yor lutfi,
Ne kamlik bo‘ldikim, nogah unutti.

Ne yo‘lsiz keldi mendinkim, munungdek,
Azaldan jon ila hamroh unutti.

Firoqingda manga tasbih bo‘ldi
Bu so‘zkim: Oh unutti, oh unutti!

Atoyi xayma ur mulki adamda,
Chu sendin ul buti xirgoh unutti.

* * *

Shoho, bizga nazar qilsang ne bo‘ldi?
Gadoni mu’tabar qisang ne bo‘ldi?

Ko‘ngul yuz poradur gul, g‘uncha yanglig‘,
Sabodek bir guzar qilsang ne bo‘ldi?

Qaro baxtim bikin hijron kechasin
Visolingdin sahar qilsang ne bo‘ldi?

Boqib usruk ko‘zungdin, nosihimni
Meningtek bexabar qilsang ne bo‘ldi?

O‘tar ohim o‘qi to‘quz falaktin,
Vafo birla sipar qilsang ne bo‘ldi?

Baloqqedur raqib, oxir balodin,
Xudoy uchun hazar qilsang ne bo‘ldi?

Keturdi mohazar jonin Atoyi
Qabuli mohazar qilsang ne bo‘ldi?

* * *

Yuzung xurshedtek tobanda bo‘lsun,
Jamoling to abad poyanda bo‘lsun.

Takallum qil, sochilsun durri gavhar,
Tabassum qil, jahon purxanda bo‘lsun.

Yuzungdin burqa’ olg‘il bir zamon-e,
Uyolsun oy-u kun, sharmanda bo‘lsun.

Meni o‘lturgali g‘amzang qilichi,
Ko‘zungdek kofiri burranda bo‘lsun.

Pariruxsorlarning xusravisen,
Seningtek joni shirin qanda bo‘lsun?

Agar o‘lsam tilarmen tengridinkim,
G‘aming jonimg‘a, darding tanda bo‘lsun.

Faloni qullarimdindur demushsen,
Atoyi ushbu so‘zga banda bo‘lsun.

* * *

O‘ltutur erdi meni hijron xayoling bo‘lmasa,
Yo umidi davlati vasli visoling bo‘lmasa.

Oy-u kun zarra muoriz bo‘lg‘ay erdi yuzunga,
Mu’jizi xusn-u malohat zulf-u xoling bo‘lmasa.

Sevmagay erdi kishi olamda sendin o‘zgani,
Gar vafo qilmoqta oshiqqa o‘soling bo‘lmasa.

Ey jamoling xusravi sayyora husn aflokida,
Tengridin tun-kun tilarmenkim, zavoling bo‘lmasa.

Nechaye bo‘lsa malak, ko‘rgach seni inson bikin
Ne ajab mahsharda ham so‘ruq-savoling bo‘lmasa.

Odamiyliqdin emaskim, ul paridin ayrilib,
Bu tiriklikdin ko‘ngul gar infioling bo‘lmasa.

Qil-u qolingdin, Atoyi, ma’rifat tutma umid,
Ul og‘iz, beling xayoli birla xoling bo‘lmasa.

* * *

Jamoling vasfini qildim chamanda,
Qizordi gul uyottin anjumanda.

Tamanno qilg‘ali la’lingni ko‘nglum,
Kishi bilmas anikim, qoldi qanda.

Chu jonimdin aziz jonona sensen,
Kerakmas jon manga sensiz badanda.

Manga ul dunyoda jannat ne hojat,
Eshiking tuprog‘i basdur kafanda.

Solib borma meni, ey Yusufi husn,
Bu kun Ya'qubtek bayt ul-hazanda.

Uzun sochingdin uzmasmen ko'ngulni,
Oyog'ing qanda bo'lsa, boshim anda.

Tilar el mansabi oliy va lekin
Atoyi sarvi ozodinga banda.

* * *

Mujda berdi subhidam zulfung nasimindin sabo,
Jon muattar bo'ldi, ko'nglum topti yuz turluk safo.

Yuzuma surttim oyog'in, xoki rohin ko'zuma,
Dedim: ey jon hamdami, ahlan va sahlan, marhabo!

G'uncha bo'ldum g'amdin ilkin domaninga yetmayin,
Gul bikin jon ko'nglaki hasrat bila bo'ldi qabo.

Jimi zulfung, nuni qoshing qasdi jon aylab edi,
Boqi bo'lsun, lutf etib kirdi alif qadding aro.

Lola o'xshatsa o'zin ruxsoringga ma'zur tut,
Yozida o'z boshiga qo'bqondur ul ko'ngli qaro.

Ne falakning mehri bordur, ne sening ko'nglungda rahm,
Yo falak javri, nigoro, yo sening darding mango!

Etakingda ko'rgali yo'ldin o'tarda bargi koh,
Chehrasin qildi Atoyi rashk alinda kahrabo.

1619294

* * *

Jonimg‘a dog‘ qo‘yg‘uchi ul yuzda xoldur ,
Andin umidi marhamu dor-u muholdur.

Savsan hikoyat etgali qadding niholini,
Sarvi chamang‘a bog‘ ichida infioldur.

Har kim, ki sevsa sen kibi sohib jamolni,
Sohib nazarlar olida sohib kamoldur.

Kel, beniqob chiqqil uyungdin tom ustina,
Ahli zamona xo‘blarini bir uyoldur!

Qo‘yg‘il Atoyi boshni sanamlar ayog‘ina,
Emdi chi joyi madrasavu qilu qoldur?

* * *

Jamoling ravzayi bog‘i jinondur,
Labing sarchashmayi ruhi ravondur.

Soching sunbul, yuzung sarv-u sanubar,
Ko‘zung nargis, yang‘og‘ing arg‘uvondur.

Beling, og‘zing so‘zi har qayda bo‘lsa,
Xayoli nozuk-u, ramze nihondur.

Ne hojat muncha javr etmak, ravon ol,
Agar maqsud bu bir qilcha jondur.

Necha g‘am butasinda sizg‘ururseh,
Sanga chun naqdimu qalbim ayondur.

Atoyini qiyos etma o‘zungga,
Agar sen o‘zga bo‘ldung, ul hamondur.

* * *

Ne jonsen, ey pariruxsora mahbub,
Qamuq boshtin oyoq matbu'u marg'ub.

Sanga bersun ilohi Nuh umrin,
Manga ham furqatingda sabri Ayyub.

Murodim bo'lmasun hargiz muyassar,
Ko'ngulda sendin o'zga bo'lsa matlub.

Bu g'am kim, bizdadur, bu husn sizda,
Seni Yusuf desunlar, bizni Yaq'ub.

Sevar ham javr-u, ham lutfin Atoyi
Chu xo'blardin ne kim kelsa, erur xo'b.

* * *

Usruk ko'zungki, jon-u ko'nguldin kabobi bor,
Har go'shada maning kibi yuz ming xarobi bor.

Gashti chaman qilurda araq qilsa englaring
Bargi gulidururki, yuzinda gulobi bor.

Xurshedi xovarini yuzung infiolidin
Har kun tug'arda ko'rki, naylar, iztirobi bor.

Jon komini shakar bikin aylar achig'lanib
Shirin labingki, qand-u asaldin unobi bor.

Haqqo, qilur edim bu to'quz haymadin vido',
Bo'ynumda, netayin, qaro zulfung tanobi bor.

Daryoyeidurur ko'zum yoshi hajringdakim, bukun
Yuzinda misli qubbayi gardun hubobi bor.

Xo'blar eshikida bu gadoyeg'a obro'y
Xoki yuzining ustida chashmi pur obi bor.

* * *

Yanog‘ung ravzanung jannat gulidur,
Bo‘yung tubi, labing kavsar elidur.

Ko‘zung nargis, yuzung nasrin-u zulfung
Gulistoni eramning sunbulidur.

Azaldin to abad jon andalibi,
Jamoling gulshanining bulbulidir.

Sabo dovari zulfungdin o‘tarda
Sulaymon lashkarining g‘ulg‘ulidur.

Atoyini agar olamg‘a sotsang,
Sot, ey zohidki, ul xo‘blar qulidur.

* * *

Labing qonim to‘karga tashnalabtur,
Dami Iso-yu o‘lturmak ajabtur.

Ko‘tarmak boshni mahbub eshikindin
Muhabbat bobida tarki adabtur.

Meni o‘ltur, vale quvma qoshingdin
Kim, enchu qulni quvmoq besababtur.

Manga vasling qachon yetsun, bilurmen,
Vale oshiq ishi sa’yu talabtur.

Atoyi qulg‘a bir lutf aylamassen,
Hulagu o‘g‘li, muncha ne g‘azabtur?!

* * *

Seni husn ichra oydin pok derlar,
Meni mehring yo‘linda xok derlar.

Munajjimlar ko‘rub shirin yuzungni,
Sharafdin xusravi aflok derlar.

Suman pirohaningdan rashk etib,
Qilur gultek yaqosin chok derlar.

O‘shal turkona ko‘zlar qullug‘inda
Menging hindularin cholok derlar.

Soching zanjirini devonadin so‘r
Ki, qilmish aql ani idrok derlar.

Agar bo‘lsa visolingdin umide,
Firoqing zahrini taryok derlar.

HOFIZ XORAZMIY

(XIV–XV asr)

Hofiz Xorazmiyning asl ismi Abdurahim bo'lib, Xorazmda tug'ilgan. Notinchliklar tufayli XIV asr oxirlarida o'z vatanini tashlab ketishga majbur bo'lgan. Samarqand, Buxoro, Xo'jand, Iroq, Kirmon, Isfahon, Tabrizda bo'lgan, Sheroz shahrida turg'un yashagan. Ibrohim Sulton saroyiga yaqin bo'lgan. Hofiz Sheroziy ijodiga ergashb, uning an'analarini o'zbek she'riyatiga olib kirgan.

Hofiz Xorazmiy o'zidan boy adabiy meros qoldirgan. Devonida 1052 g'azal, 9 qasida, muxammas, tarje'band, tarkibband, ruboiy, qit'alardan iborat 37264 misra she'r bor.

She'rlari mazmun-mundarijasining kengligi, falsafiy teranligi, insonparvarlik ruhi, yuksak badiiyati bilan ajralib turadi. Tili sodda, ravon, xalq tiliga yaqin, Xorazm shevasiga xos unsurlar ko'p uchraydi.

"Devon"ining XV asrning 30-yillarida ko'chirilgan yagona qo'lyozmasi Hindistonning Haydarobod shahridagi Salorjang muzeyi kutubxonasida, fotonusxasi O'zbekiston Fanlar akademiyasi Sharqshunoslik institutida saqlanadi.

G'AZALLAR

Diydor izlangiz bu tun, ey ko'zlari bedorlar,
Bedorlarg'a ro'ziydur chun davlati diydorlar.

Bu xori hastiyni qachon yoqsang muhabbat o'tina,
Ko'rguzg'ay erdi ko'zinga yuzin gul-u gulzorlar.

Xori balog'a sabr qil bu olami foniydakim,
Lutfi bila bo'lg'usidur gulzorlar bu xorlar.

Vobasta bo‘lma o‘zungga bu yo‘lda izdasang kushod,
Bog‘lanmasang bu o‘zunga ochilg‘ay erdi korlar.

Bozori ishq izdar ersang kechgil ziyon-u suddin,
Sud-u ziyondin kechmayin topmas chu jon bozorlar.

Ma’mur izdagan kishi boqiy jahonda jonini,
Munchamu qildi foniy dunyoda dov-devorlar.

Uryon bo‘lub chun mehr-u mah ko‘nglungda nuri haq tila,
Diydorg‘a mone erur chun ko‘zguda zangorlar.

Zohirda murshidman temak ne foyda berg‘ay sanga,
Joning Belinda chunki bor pinhon base zunnorlar.

Chun bir erur asli jahon, ul birin hosil aylagil,
Tahaqquqi ilm ushbu erur, nega kerak takrorlar.

Sog‘inma o‘z-o‘zingni san mantak jahonda yo‘q teyu,
Chun oqibat boshdin chiqar bu manlugu pindorlar.

Ul kim sanga hamroh emas, vollohki jonning boridur,
Ey jon, jon dedim, taqi eshitmading san borlar.

Bossang qadamin faqrning yo‘ling‘a sodiqlar bikin,
Balgurgay erdi ul zamon ag‘yor birla yorlar.

Mardona jon birla bosh o‘ynag‘il muhabbat yo‘lida,
Chun jon bila bosh o‘ynadi sarvarlar-u solorlar.

Yaxshi-yomon teb, Hofizo, hech kimga inkor etmasang,
Kelturgay erdi mo‘min-u kofir sanga iqrorlar.

* * *

Senga kim tedi, ey jon, noz qilma,
Manga noz aylamakni oz qilma.

Niyoz aylarman, nozing tilarman,
Niyozimni ravo qil, noz qilma.

Nasibi dard-u g‘amni baxsh etarda
Manga san o‘zgani anboz etma.

Gadolarg‘a jafo qilmoq tilasang,
Duochi bandadin og‘oz qilma.

Ko‘ngul sirrini bo‘lmasun tesang fosh,
O‘shul g‘amzani san g‘ammoz qilma.

Sanga man oshiqi jonboz erkan,
Nazar o‘zgaga, ey jon, boz qilma.

Bu Hofiz yonina ohang qilmay,
Jafo qonunini san soz qilma.

* * *

Ul parivash zulfidin devona bo‘ldum oqibat,
Ko‘rgil emdi xalq aro afsona bo‘ldum oqibat.

Ishq asrorin bilib, ko‘rgil, vafo yo‘linda man
Jon berib jononag‘a, jonona bo‘ldum oqibat.

Eshigining itlarig‘a oshno bo‘lub, ko‘rung
Barcha yor-u do‘stdin begona bo‘ldim oqibat.

Furqat o‘tig‘a yonib-yonmay ravon jondin kechib,
Sham’e ruxsori uchun parvona bo‘ldum oqibat.

Benishon bo‘lib jahonni sarbasar kezdim, vale
Ganji husnin topmayin vayrona bo‘ldum oqibat.

Ko‘z yoshim daryo qilib g‘avvostak, ko‘rgil mani,
Ishq bahringa cho‘mub, durdona bo‘ldum oqibat.

Qochib ul dilbar jafosindin xayole etadur,
Hofizi miskin bila hamxona bo‘ldum oqibat.

* * *

Qaro kofir ko‘zung ayni balodur,
Yangaqlaringning oli ko‘ngul oladur.

Yuzung uzra ko‘rinur boqiy,
O‘shandin yuzungga ko‘zum boqodur.

Nechakim yoqsa ishqing o‘ti jonni
O‘shal yoqmoqi jong‘a xush yoqodur.

* * *

Voy, o‘shul miskingakim, bir g‘amguzore topmasa,
Ishqda jon o‘ynasa-yu, e’tibore topmasa.

Kechsa kor-u bordin bir yo‘li-yu, o‘z shohining
Eshiginda itlarincha kor-u bore topmasa.

Ne tariqa bo‘lg‘ay ul bechora oshiq holikim,
Bulbuli oshufta yanglig‘ guluzore topmasa.

Bulbuli nolon bikinkim gul yuzidin sayradim,
Bilg‘ay ul qadrimni gar mantak hazore topmadim.

Benishon bo‘lg‘anda bilg‘ay qadri holimni sanam —
Kim, mani isdasa-yu, mandin g‘ubore topmasa.

Yorliqning dardini ul damda bilg‘ay yorimiz —
Kim, kishini sevsa-yu, hamdard yore topmasa.

Chunkim ul dildorining zulfinga ko‘runmas qaror,
Ne ajab bo‘lg‘ay agar Hofiz qarore topmasa.

* * *

Jahonda barchadin dildor yaxshi,
Tuman ag‘yordin bir yor yaxshi.

Raqib aning qoshinda yaxshi bo‘lmas,
Chu gul qoshinda bo‘lmas xor yaxshi.

Hamisha xastadur dardi bilan jon,
Bo‘la bilmadi bu bemor yaxshi.

Tilarman doimo bedor anikim,
Saodat doimo bedor yaxshi.

Kerakmastur manga kunji savomiy,
Chu andin xonayi xammor yaxshi.

Qora zulfi bila ko‘zi xush erur,
Chu tarror iladur ayyor yaxshi.

Ko‘zi Hofiz ko‘zingga xush ko‘rinur,
Chun erur barcha mardumdor yaxshi.

* * *

Jonsan temay, ul sarvi ravong‘a ne teg‘ayman,
Mundin o‘ngin ul ofati jong‘a ne teg‘ayman.

O‘q yangli qading rost mani o‘rtadi temay,
Ul sharti bu buzuq, qavli yolong‘a ne teg‘ayman.

Umrumdur o‘shul qadingu umrumni savarman,
Temayin o‘shul umri javong‘a ne teg‘ayman.

Yaxshilar aro men kim ani yaxshi bilibman,
Yaxshi temayin, yaxshi yamong‘a ne teg‘ayman.

Ko‘rgali yuzini bo‘lubon volavu shaydo,
Bilmasman o‘shul huri jonong‘a ne teg‘ayman.

Ul qosh ila g‘amza qiladur jonima chun qasd,
Tuhmat qilibon tiru kamong‘a ne teg‘ayman.

Suchi so‘z ila tor og‘zi jon tilar ersa,
Hofiz bikin ul sirri nihong‘a ne teg‘ayman.

Noz-u karashma birla jigarxun qilar habib,
Bu dard uchun davo topa olmadi har tabib.

Jon pora bo‘ldi ishq qo‘lindin, vale hanuz
Odobi aqldin manga pand aytadur adib.

Gar yorning inoyati bo‘lsa bu bandasiga,
Ayyorlik qilib ne qila bilgay bu raqib.

Surat ko‘zi bila mani ko‘rma ba’idkim,
Ma’noda jon bikin manga jononadur qarib.

Gulning visoli qadrini hijronda xush bilib,
Faryod-u nolalar chakadur emdi andalib.

Qassom qismatini jahong‘a tegurgali,
Tegdi ko‘ngulga dard diloromdin nasib.

Ozodalar jahinda giriftor bo‘lg‘ali,
Bo‘lmadi o‘z diyorida Hofiz bikin g‘arib.

* * *

Qaro ko‘zung biki jodu jahonda yo‘q ustod,
Chu dam-badam qiladur ushbu fanda bir bunyod.

Bo‘yungg‘a bo‘lgali sarvi sihiy ko ‘ngul bila qul,
Ko‘runur ul chaman-u bog‘ ichinda bas ozod.

Niholi tol bikin qadding aylagali xirom,
G‘am ichra qoldi-yu, bo‘lmadi shod ham shamshod.

Hamisha jon bila mashg‘ul yoring erurman,
Bahona birla taqi qilmading mani bir yod.

Ko‘ngulni olg‘ali zulfung kamandini yozg‘il,
Chu yozdi domni payvasta sayd uchun sayyod.

Mudom javr ila bedod qilmasang jonga,
Tilamagay edi ko‘nglum jafong elindin dod.

Chakar hamisha eshikingda ushbu Hofiz oh,
Chu bulbul ayladi bo‘stonda oh ila faryod.

* * *

Jon bo‘lg‘ali shakartak shirin labidin zokir,
Shakar bandin o‘shaningdur payvasta ko ‘ngul shokir.

Ko‘rguzdi manga jonon xurshidi jamolini,
Ko‘rganda o‘z-o‘zumni g‘oyub bo‘lubon hozir.

Zarroti jahon ichra husnini ko‘ra ko‘rgil,
Xurshidi jamoli chun har zarradadur zohir.

Har qayda nazar qilsang maqsad-u murod uldur,
O‘zgaga nazar qilma manzur erur nozir.

Surgil ko ‘ngul evidin g‘ayrat bila g‘ayrni,
Chun mulki vujud ichra ul shoh erur qohir.

O‘rtada qachon bo‘lg‘ay o‘zgaga vujud, ey jon,
Chun zohir-u botindur ham avval-u, ham oxir.

Husn ichra o‘shul sulton chun nodiri davrondur,
Ishqi bila, ey Hofiz, san ham bo‘la ko‘r nodir.

* * *

Labidur to‘ti-yu shakarpardoz,
Zulfidur hinduyi kamandandoz.

Muxtasar bo‘ldi og‘zi birla so‘zum,
Garchi zulfitak erdi dur-u daroz.

Nozini yuz niyoz ila tilasam,
Noz bir qilg‘ali qilur yuz noz.

Banda erdi Ayoz-u shax Mahmud,
Banda Mahmud bo‘ldi, shoh Ayoz.

Lutf qilsa manga g‘arib ermas,
Man g‘arib-u, o‘shul g‘aribnavoz.

Holi zorimni g‘am bilur shaksiz,
Yo‘q manga g‘amdin o‘zga mahrami roz.

Ishqning o‘tina yonar jonim,
Shamning ishidur chu so‘z-u gudoz.

Chaksaman eshiginda oh-u fig‘on,
Ul jahondin eshitgasiz ovoz.

Kech bu Xorazmdin ravon, Hofiz,
Tilar ersang Iroq-u ham Sheroz.

* * *

Maydinki bu majlisda to‘l-u jom ko‘runmas,
Majlis ishida qatra saranjom ko‘runmas.

Kom izdayur ersang chakako‘rjomni har dam,
Chun jomsizin umrga xushkom ko‘runmas.

Har nechaki bo ‘ston-u gulistonni kazarman,
Andog‘ manga bir sarvi gulandom ko‘runmas.

Yuzi bila zulfi so‘zin avrod qilibman,
Oshiqg‘a chu mundog‘ sahar-u shom ko‘runmas.

Ayyom balosing‘a sig‘inurman o‘shandin,
Ul sho‘x bikin fitna chu ayyom ko‘runmas.

In’omi labi la’lin o‘shaning talab aylab,
Jon yetti tudoqimg‘a-yu in’om ko‘runmas.

Ko‘z tutmag‘il, ey Hofiz, o‘shandin shafqatni,
Kofir ko‘zi davrinda chu islom ko‘runmas.

* * *

Chakilibdur qalami sun’ bilan ul ko‘z-u qosh
Kim, aning naqshina hayron ko‘rinur yuz naqqosh.

Tosh ichinda ko‘runur siym hamesha, illo
Bas ajab, aiymbare ichra erur ko‘ngli tosh.

Ohim o‘ti ko ‘nglingga asar etkay erdi,
Bo‘la bilsa edi ohimning o‘ti sartarosh.

Bosh borur bo‘lg‘ay aning qayg‘usidin oxir kor
Kim aning qayg‘usidin bo‘ldi yuragimda tosh.

Bo‘lmasun zarra g‘ubore teb aning yo‘linda,
Bo‘ldi ko‘z mardumi saqqo, taqi kirpuk farrosh.

Yig‘latur abri bahori biki ko‘zlarimni,
Magar ul sarviravon ko‘z yoshidin bo‘lur yosh.

Muddaiy hech ko ‘ra bilmadi Hofiz so‘zini,
Tong emas ko‘rmasa xurshid yuzini xuffosh.

* * *

Ko‘rarman jon ko ‘zi birla, aningtek ko‘rklu jonon yo‘q.
Manim jonimg‘a javr etkuchi andog‘ hech sulton yo‘q.

Adoqi tuproqin ko‘rub uyalg‘anindin o‘sh emdi,
Bo‘lubdur xalqi olam orasinda obi hayvon yo‘q.

Qila bilman o‘shul kofir qaro zulfi bila savdo kim,
Oytak yuzidin boshga ko‘rarman nuri iymon yo‘q.

Agar parda jamolindin ketarsa bir zamon ul shah,
Jamol-u husni rashkindin bo‘lur xurshid tobon yo‘q.

Nechakim javr etar bo‘lsa, manim jonimg‘a rahm etmay,
Sevarman jon-u tan birla, bu so‘zda zarra yolg‘on yo‘q.

Jahon bahrinda ko‘p qazdim vale xush she’rdin loyiq,
O‘shul sulton quloqing‘a ko‘rarman durri g‘alton yo‘q.

Qazib gul yuzi ishqinda chu bulbultak ravon sayrar,
Ko‘rarman ushbu davron ichra Hofiztak g‘azalxon yo‘q.

* * *

Jahonni tutdi, ey dilbar, jamoling,
Jamoling‘a ko ‘radur ham jaloling.

Hamesha oshiq uchun ravshan o‘lg‘ay
Jahonning ichra mehri bezavoling.

Qoshing nun erur, og‘zing mim yanglig‘,
Sari zulfung chu dol-u nuqta xoling.

Beling fikrinda bo‘ldum man xayoliy,
Taqi ne qilg‘usi nozuk xayoling.

Yuz oling birla jonlarni olursan,
Muningtakkim ko‘runur yuzda oling.

Zakoti husningizdin lutf aylab,
Bering bir bo‘sa, miskin ko‘nglin oling.

Keturdi so‘zga jonning to‘tisini,
Bu Hofiz yanglig‘ ul shakkar maqoling.

* * *

O‘zgalar birla borib mayli sharob aylamagil,
Jigarimni g‘am o‘ti birla kabob aylamagil.

Nozaninsan, sanga yuz turlu niyozim bor ekan,
O‘zgalarning haqqina noz-u itob aylamagil.

G‘am-u darding bila ma’mur erur jon-u ko‘ngul,
Dard-u g‘am bermay o‘sh onlarni xarob aylamagil.

Goh-gahi kelibon bo‘lg‘an aro bandanavoz,
Umrtak ketgali har lahza shitob aylamagil.

Lani la'ling havasi birla ko'zumning yoshin,
Tabaqi zar uza chun durri xushob aylamagil.

Pech-u tob izdamasang xasta manim jonim uchun,
Gul uza sunbuli serobini nob aylamagil.

Tiyra bo'lmasun agar tesang Hofiz ko'nglin,
Zulfi shabrangingni yuzingga niqob aylamagil.

* * *

Jonimni ravon qildim-u jong'a yetishdim,
Qullik sifatin bildim-u sultong'a yetishdim.

Bedard kishi hosil eta bilmadi darmon,
Man dard bila oxiri darmong'a yetishdim.

Boroni balo birla ko'zum evini yiqib,
Holimni ko'rungkim dili vayrong'a yetishdim.

Ko'rdim jigarin xun labining rashki elindin,
Tog' bag'ridakim la'li Badaxshong'a yetishdim.

Iymonni talab qildim aning zulfi yo'linda,
To kufri xami zulfida iymong'a yetishdim.

Zarroti jahon borcha ko'rundi manga tolib,
Chun xok bo'lub mamlakati jong'a yetishdim.

Bas xori balo xasta ko'nglumga tikildi,
To oqibatu-l-amr gulistong'a yetishdim.

Qadg'-u bila hasrat elida g'uncha bo'lubon,
Gulzor orasinda guli xandong'a yetishdim.

Gulzorda gul yuzina bulbulni ko'rub zor,
Hofiz bikin ul murg'i xushalhong'a yetishdim.

* * *

Qo‘l berdi inoyat bila emdi manga jonon,
Go‘yo o‘zina chakdi qulin latf ila sulton.

Rahm ayladi holimg‘a-yu ko‘z yoshin oqitdi,
Andog‘ki tushar gulning uza qatrayi boron.

Andog‘ xushoyanda ko‘zum qoshidin oshdi
Kim, gulshani jonda yurusa sarvi xiromon.

Ul holda olam manga zindon edi, illo
Zindonni inoyati bila qildi guliston.

Ko‘rguzdi yuz-u ayladi holimni ravon jam’,
Garchi qaro zulfitak edim holi parishon.

Loyiq o‘shanga peshkashim yo‘qdur-u jon bor,
Jonimni qabul aylasa o‘shda chakayim jon.

Hofizga navo tegmasa Xorazmda, andin
Qilgay edi ohangi Hijoz ila Sipahon.

* * *

Bu xastani taqi dildor yod qilmasmu,
Shikasta ko‘nglini bir lahza shod qilmasmu.

Ne ehtiyoj mani javr birla o‘lturmak,
Firoqina bu qadar e’timod qilmasmu.

Ko‘zim hamisha tilar jon bila savodi xattin,
O‘shul ko‘zi qaro dilbar savod qilmasmu.

Ikki ko‘zum yoshi o‘sh emdi qong‘a bo‘ldi badal,
Muhabbatingga hanuz e’tiqod qilmasmu.

Jafo qilur manga dildor oshiqimdur teb,
Vale jafosi muhabbat ziyod qilmasmu.

Murod bo‘lg‘ali dildor nomurodiman,
Bu nomurodliq asli murod qilmasmu.

Asir Hofizi bechora bo‘ldi zulmindin,
Aystangiz ne bo‘lur adl-u dod qilmasmu.

* * *

Javrdin o‘zga bu xasta jong‘a dildor etmadi,
Soldi ko‘zingdin yiroq-u o‘zina yor etmadi.

Tor og‘zi oldi ko‘nglumni-yu inkor ayladi,
Nechakim so‘rdim o‘shandin zarra iqror etmadi.

Manmu yolg‘iz bo‘ldum aning bandi zulfingga asir.
Qoni bir jonekim, oni ul giriftor etmadi.

Bog‘-u gulzor izlamadim yuzini ko‘rgalikim,
Yuzi qilg‘an ishni hargiz bog‘-u gulzor etmadi.

Savma ichragi zohid dayr zavqin ne bilur,
Zulfi zanjiridin oning chunki zunhor etmadi.

Jilvayi noz aylaganda o‘zgalarning haqqina
Ne jafolarkim manim haqqimg‘a dildor etmadi.

Garchi qildi o‘zgalarni ixtiyor ul nozanin,
Ixtiyor o‘zgani bu Hofiz vafodor etmadi.

QIT'ALAR

Rishtayi jontak elimda bor ma'no rishtasi,
Rishtayi nozuk-u, lekin Qof yanglig' bosabot.

Tesamkim, Xizri vaqt erurman emdi ayb emas,
Chunki manda bordur sarchashmayi obihayot.

Turk jinsinda payambar bo'lmoqi bo'lsa ravo,
Bo'lgay erdim man payambar, she'rlarim — mo'jizot.

* * *

Oshiq ersang yorg'a, ag'yor javrin torta ko'r,
Chun topilmadi bu olam ichra yor ag'yorsiz.

Teshayi sabr-u qanoat birla bo'lub kunjkov,
Ganjin topsang taqi qayda bo'lur ul morsiz.

Gulistonning ichra bulbul yuz tuman zoriy qilib,
Izdadi-yu topmadi umrinda gulni xorsiz.

* * *

Do'stliq qilma ul kishi bilakim,
Bo'ldi dushmanga mahrami asror.

Do'stkim, bo'ldi do'st dushmanga,
Mehribon bo'lmog'i erur dushvor.

Qo'zini qayda saqlasun itkim,
Bo'ldi yozida bo'ri birla yor.

* * *

Xalqdin ne jafo sanga tegsa,
Orif ersang ko‘ngulni tang etma.

Ohutak bo‘lmoq izdasang mushkin,
Kibr ila o‘zungni palang etma.

Barcha sulh etmagin tilar bo‘lsang,
Xalqdin xashm ye-yu jang etma.

RUBOIYLAR

Parvona bo‘lur yuzung ko‘rib shami falak,
Ham bandayi ehsoning erur mulk-u malak.
So‘rub unutur esam labi la’lingni,
Tutsun mani, ey joni jahon, haqqi namak.

* * *

Rahm aylamas ul ko‘nguli po‘lod bikin,
Jodu qaro hindu ko‘zi jallod bikin,
Shirin labi la’lini tilagan oshiq
Jonin, ne ajab, berursa Farhod bikin.

* * *

Chun ishqi ko‘ngulning ichra bunyod aylar,
G‘am birla xarob mulkin obod aylar.
Jon birla aning g‘aminga bo‘lsam banda,
Ul damda mani g‘amindin ozod aylar.

* * *

Nokas kishi hech mahrami jon bo‘lmas,
Sho‘ra yer uza bog‘-u guliston bo‘lmas.
Kim dardi diloromni savmasa jontak,
Hargiz o‘shaning dardina darmon bo‘lmas.

LUTFIY

(1366–1465)

Mavlono Lutfiy zamonining "malik ul-kalomi" ("so'z podshohi") unvonini olgan shoiridir. Lutfiy tavallud topgan joy haqida Hirotning Dehi Kanor mavzesi va Shayx Ahmad Taroziyning "Funun ul-balog'a" asaridagi "ma'dan ul-latoyif Lutfiyi Shoshiy" jumlasiga asoslanib Toshkent degan fikrlar bor.

Navoiyning yozishicha, yuz yilga yaqin umr ko'rgan. Lutfiy ham dunyoviy, ham tasavvufiy ilmlarni chuqur egallagan. Lutfiyning she'riyati — xilma-xil shakllardan tarkib topgan mazmundor, rangin she'riyat. Shoir "Devon"ining o'ttizdan ortiq qo'lyozmalari yetib kelgan, uning hajmi 5548 misradan ortiq. "Devon"dan asosan, g'azallar o'rin olgan. Lutfiy nainki ruboiy tuyuq, qit'a, fard kabi janrlarda ham she'rlar yozgan.

Lutfiy devonidagi bosh mavzu ishq va asosiy maqsad oshiqning hasb-u holini tasvirlashdan iborat bo'lsa-da, shoir deyarli har bir she'rida mavzuga yangicha yondashib, betakror ohanglar yaratadi. Lutfiy ruboiy, tuyuq, qit'alarni ham san'at namunasi maqomiga ko'tara olgan.

G'AZALLAR

"Dudog'ing ma'dani jondur", — dedim, aytur: "Senga ne?!"
"Qomating sarvi ravondur", — dedim, aytur: "Senga ne?!"

"Qamar otlig' yuzung ollidadur oy bir habashiy,
Dag'i yuzungda nishondur", — dedim, aytur: "Senga ne?!

"Tal'ating husni jahoni-yu oning ustidagi
Soching oshubi jahondur", — dedim, aytur: "Senga ne?!"

“Yoy-u o‘q qop-qora bo‘lmas, magar ul qosh-u ko‘zung
Ne ajab tiyr-u kamondur”, — dedim, aytur: “Senga ne?!”

Xizrdin so‘rmisham: “Irningmu durur obihayot,
Iso anfosi hamondur”, — dedim, aytur: “Senga ne?”

Xurdabinlar ul og‘izniki: “Adamdur”, — dedilar,
“Onda bir zarra gumondur”, — dedim, aytur: “Senga ne?”

“Zulf-u yuz-u, ko‘z-u qosh-u, mengu g‘amzang — barcha
Fitnayi ahli zamondur”, — dedim, aytur: “Senga ne?!”

“Oy yuzung kun kibi zarroti jahon mazharida
Barcha olamg‘a ayondur”, — dedim, aytur: “Senga ne?!”

Bo‘ldi ko‘p fikri daqiq ichra xayoli Lutfiy,
“Bu ne mo‘yu ne miyondur?” — dedim, aytur: “Senga ne?!”

* * *

Kelmadi sentek jahonda dilbari ayyora-ye,
Nasli odam ichra yo‘q mundoq pari ruxsora-ye.

Qon to‘kar, el bilmasunlar deb o‘zin to‘g‘ri qilur,
Ko‘rmadi hech kim ko‘zidek joduyi makkora-ye.

Tortaram yuz ming jafo ko‘nglum elindin, koshki
Bergay erdi haq ko‘ngul, berguncha sangi xora-ye.

Yopma yuzkim, haq yaratmish yaxshilarni lutf ila
Kim, alarning ko‘rkidin osonlagay bechora-ye.

Hajr uzotur erdi ko‘p zulm ilgini tan mulkida,
Bo‘ldilar jon-u ko‘ngul bir-birisi ovora-ye.

Husn to‘nin kiyding-u, esking uchun bo‘ldi talosh,
Tortishib gul topti oxir ko‘nglagi sadpora-ye.

Lutfiyning yo ko‘nglin olgil, yoxud o‘ltur tiyg‘ ila,
Har netak ko‘nglung tilar, bechorag‘a qil chora-ye.

* * *

Ko‘zung qorasi fitna, vale oqi balodur,
Jonlar oladur, vah, ne balo ko‘zi qarodur?

Ko‘z ustida jon olg‘uvchidur xoli-yu qoshi,
Bir-birga bari fitna qotilg‘an ne balodur?

Hamdardtur aytay anga holimkim, inong‘ay,
Gulshandin o‘shul bulbuli miskin, ki judodur.

“Bosh o‘ynayin-u, jon berayin vasl uchun” — ayttim,
Xush-xush kulub aytur mangakim:”Yaxshi bahodur!”

Ko‘p qilma aning javridin, ey Lutfiy, shikoyat,
Kim, husn elining shevasi payvasta jafodur.

* * *

Jonim chiqadur dard ila, jononima ayting,
Men xasta gado holini sultonima ayting.

O‘rtanmag-u, ko‘z yoshi-yu o‘lmakturur ishim,
Bu qissani ul shami shabistonima ayting.

Qat-qat yuragim bog‘ladi qon g‘uncha meng‘izlik,
Bu dardi dilimni guli xandonima ayting.

Qon yoshim erur yux uza yulduz kabi sonsiz,
Ul ko‘zlari cho‘lpon, mahitobonima ayting.

Lutfiyi dilafkor tilar hajr eliding dod,
Ahvolini ul begimau xonima ayting.

* * *

Meni shaydo qiladurg‘on bu ko‘nguldur, bu ko‘ngul,
Xor-u rasvo qiladurg‘on bu ko‘nguldur, bu ko‘ngul.

O‘qdayin qomatimizni qora qoshlig‘lar uchun,
Muttasil yo qiladurg‘on bu ko‘nguldur, bu ko‘ngul.

Meni yozg‘urma “sevar” deb, ki mening haddim emas,
Ul tamanno qiladurg‘on bu ko‘nguldur, bu ko‘ngul.

Borma derlar eshiki sori damo-dam, netayin,
Ko‘p taqozo qiladurg‘on bu ko‘nguldur, bu ko‘ngul.

Qora mo‘yin havasi birla qorong‘u kechada,
Jonni savdo qiladurg‘on bu ko‘nguldur, bu ko‘ngul.

Dushman-u do‘st orasinda meni g‘ofilni mudom
Be sar-u po qiladurg‘on bu ko‘nguldur, bu ko‘ngul.

O‘zgadin ko‘rma, ki ko‘zung yoshini, ey Lutfiy,
Ayni daryo qiladurg‘on bu ko‘nguldur, bu ko‘ngul.

* * *

Qad-u og‘zingg‘a boqsam, oh derman,
Seni ko‘rgan sayin Alloh derman.

Tilar ko‘nglim seni olamda-u bas,
Bu nisbatin seni dilxoh derman.

Meni haddim emaski, istasa vasl,
“Ko‘z uchi birla boq goh-goh”, — derman.

Qusuri tab'din derman seni sarv,
Erur ul noravo bir oh derman.

Etagingga kishining ilki yetmas,
Seni bu vajh ila men moh derman.

Sening qadding bila nozik yururda,
Erur o'zga nima hamroh derman.

Jamoling Lutfiy so'zin qildi rangin,
Sening husnungga "shay'anlilloh" derman.

* * *

Nega jonima jafo qilursan?
Vaqti o'ldi agar vafo qilursan.

Jonim chiqadur firoq o'tindin
Dardimg'a qachon davo qilursan?

Ul zulfni solma yuzung uzra,
Kim yuz bila ming balo qilursan.

Bo'ynungda qonim, ki bizni, ey ko'z,
Xo'blar bilan oshno qilursan.

Jondin ilikingni, Lutfiy, yuvg'il,
Chun ishq bila marhabo qilursan...

* * *

Qon bo'ldi ko'ngul firoqingizdan,
Jon kuydi ham ishtiyoqingizdan.

Din-u, dil-u aql bo‘ldi yag‘mo,
Jon olg‘uvchi ul qaroqingizdan.

O‘qtek bo‘yimiz egildi yodek,
Ul fitnalik ikki toqingizdan.

Su bo‘ldi jonim, vale damo-dam
O‘tqa yoqilur dudoqingizdan.

Oltun kabi chehra bo‘ldi sorig‘,
Ul sim tikin saqoqingizdan.

Ko‘rsam kerak oy-u kun bulutsiz,
Sochni ketoring yangoqingizdan.

Bu Lutfiyi xastani so‘rungkim,
Bechora o‘lar firoqingizdin.

RUBOIY VA TO‘RTLIKLAR

Umrimiz kechti g‘am-u mehnat bila,
Xizmatingda yuz tuman hasrat bila.
Yorlig‘ingdin bizga naf’e tegmadi,
Emdi ozod aylagil minnat bila.

* * *

Ey ko‘ngul, bu yo‘lda ne g‘amdur senga
Kim, xayoli yor hamdamdur senga.
Sevdung o‘z haddingdin ortuq yorni,
Gar seni kuydursalar, kamdur senga.

* * *

Furqatingni chekkali jon qaydadur,
Sabr etarga sensiz imkon qaydadur!
Bizni bir yo‘li faromush aylading,
Ul burunqi ahd-u paymon qaydadur?!

* * *

Dilbaro, Yusuf jamoli sendadur,
Dilraboliqningki xoli sendadur.
Umr kechti-yu meni bir so‘rmading,
Bevafoliqning kamoli sendadur.

* * *

Bu ne qosh-u g‘amzayi ayyor erur?
Bu ne shakl-u, sheva-yu raftor erur?
Sizga osondur agar men bo‘lmasam,
Sizsizin lekin menga dushvor erur.

* * *

Ulki, xalq oni malohat koni der,
Ruh oni husn ichra xo‘blar xoni der.
O‘rtadi, kul qildi bizni ishq o‘ti,
Ul jihatdin bizni otashdoni der.

* * *

Ozg‘urur olamni so‘zung, ey begim,
Ne balodur fitna ko‘zung, ey begim?
Aytayin derman senga ko‘nglumdag‘in,
Ne deyin, bilursan o‘zung, ey begim.

* * *

Ul mening jon-u jahonimg‘a salom,
Jondin ortuq mehribonimga salom.
Bir zamon xoli emasmen yodidin,
Munisi jon-u ravonimga salom.

* * *

Sen latofat paykarining xonisen,
Husn avjining mahi tobonisen.
Gar pari desam seni, ma'zur tut,
Chin ko'zum insonidin pinhonisen.

* * *

Ey, visoling davlati ahli futuh,
Zulf-u yuzung yodidur oromi ruh.
Gar ilik tutsang, ravon tutqil, begim,
Sabri Ayyub o'lsa, yo'qtur umri Nuh.

* * *

Ko'rgamen nogah yangoqing dardini,
Tortayin ko'zga ayoqing gardini.
Topqamen deb vaslidin bir kun davo,
Tortaram doim firoqing dardini.

* * *

Sensizin aysh-u sururim qolmadi,
Yig'lamoqtin ko'zda nurim qolmadi.
Ul quyosh yuzungdin ayrulg'on uchun,
Qayg'udin zarra huzurim qolmadi.

* * *

Sayd qildi bizni jayron ko'zlari,
Delva bo'ldi jon eshitib so'zlari.
Yor agar qilsa inoyat ne ajab,
Qulni chun devona qildi o'zlari.

Qomatimni necha qoshing yo qila?
Necha hajr o‘ti jonimda yoqila?
G‘amza birla to‘kti qonim ul sanam,
To hinotek qon elina yoqila.

* * *

Qoshlaring xush lojuvardi toq erur,
Husn ichinda benazir-u toq erur.
Torta olmasmen firoqing, netayin,
Qilcha tanga bori ishqing toq erur.

* * *

Ko‘ngluma har yonki boqsam, dog‘i bor,
Har necha dardimni desam, dog‘i bor.
Qilcha tanga bori ishqing yor edi,
Bir sari bo‘ldi firoqing dog‘i bor.

* * *

Bog‘i husnungdin gule gar tergamen.
Bosh agar borsa bu yo‘lda, tergamen.
Oy yuzungni kunga o‘xshatqon uchun
G‘arqa bo‘lmishmen uyottin terga men.

* * *

Tuz, begim, bu damda suhbat ko‘kini,
Tut ayog‘, kes dard-u g‘amning ko‘kini.
Ilikingdin chiqsa boshqa bir ayoq,
Ko‘zga ilmon dunyoning yer-ko‘kini.

* * *

Garchi qurutmas ko‘zumning yoshini,
Haq uzun qilsun ul oyning yoshini.
Yig‘lama ko‘p, bu vujuding ishq o‘ti,
Ne qurug‘in qo‘yg‘usi, ne yoshini.

* * *

Necha dedim: “Ul sanamg‘a bormag‘in!”
Qilmadi ul tark oxir bormag‘in.
Munchakim, xudraylig‘ ko‘rguzdi ul,
Aql hayrat qildi tishlab barmog‘in.

* * *

Men sening ishqingdin, ey dil, bandaman,
Vah, qachon yetkayman ul dilbanda man.
Bevafolarg‘a meni qilding asir,
Sen menga sultonsan, ey dil, bandaman.

GADOIY

(1404-1492)

Shoirning asl ismi noma'lum, bizga ma'lumot uning "Devon"i va Navoiyning "Majolis un-nafois" tazkirasi orqali yetib kelgan. Navoiy o'z tazkirasini yozgan paytida (1490-yillar) Gadoiy 90 yoshlar atrofida bo'lganini eslaydi. Gadoiyning kichik bir qasidasida Abulqosim Bobur va Xalil Sulton sifatlari xususida so'z ketadi. Shu kabi faktlardan kelib chiqib, Gadoiy yashagan davr sifatida XV asrni olish mumkin.

Shoir "Devon"ining yagona nusxasi Parij Milliy kutubxonasida saqlanadi. She'rlari orasida g'azal janri yetakchilik qiladi, birgina mustahzod va ixcham qasida uchraydi. Asarlarining tili sodda va ravon.

O'zbek tilining ohorli va go'zal uslubida nazm bitgan. She'rlarining aksariyati muhabbat mavzusida. Asosan, insoniy sevgini tarannum etsa-da, ayrim she'rlarida tasavvufiy timsollar muhim o'rin egallagan.

G'AZALLAR

Naxli qadding birla shirinlik toloshur payshakar,
Bu achiqdin band-bandini kerak qilsam judo.

Chini zulfingdin dam urdi o'ziga mag'rur o'lub,
Lojaram bo'ldi qarorib dam-badam mushki Xito.

Hazratingdin bir og'iz so'rmoq tilar xasta ko'ngul,
Emdi qand irning oni shirin kerak qilsa ado.

Qosh-u ko'zungdin shikoyat qilsam, aytur kirpukung:
"Ayb emastur bir-bir ustinda kelur, kelsa balo".

Ibtiloyi hajr-u g‘urbatg‘a bo‘yunsundum, netay,
Qilsa, bo‘lmas chora chun bo‘lg‘on qazoga juz rizo.

Holi zorimga nazar qilg‘in zakoti husn uchun,
Lutf-u ehson ko‘rsa sultondin ne bo‘lg‘ay bir Gado?

* * *

Ohkim, devona ko‘nglum mubtalo bo‘ldi yana,
Bu ko‘ngulning ilkidin jong‘a balo bo‘ldi yana.

Do‘sttin oyirdi bu charxi jafogustar yana,
Ey darig‘o, hojati dushman ravo bo‘ldi yana.

Necha bo‘lsun, soqiyo oxir g‘ubori xotirim?
Tut mayi sofiyki, hangomi safo bo‘ldi yana.

Xushdurur, oyo, paripaykar bila gulgashtkim,
Bo‘ston bog‘i Iramtek dilkusho bo‘ldi yana.

Chini zulfindin dam urmog‘lik ne nisbat, ey abir,
Bu kinoyat bori sendin, bas, xato bo‘ldi yana.

Shod bo‘lg‘il, ey Gadokim, mavsumi navro‘zdin
Gulbuni ummed bobargu navo bo‘ldi yana.

* * *

Umr, sen ore balekim, umrdin kelmas vafo,
Xush ko‘rinmaydur dag‘i bir yo‘li anvoyi jafo.

Ixtiyor ettim, nekim roy-u murodingdur saning,
Ush turubmen, har ne qilsang javr bobindin mango.

Dam-badam hajring meni o‘lturgusidir xor-u zor,
Hoziri dam bo‘l, azizim, ush xabar qildim sango.

Lablaringning shavqidin, jono, ko‘ngul bemor erur,
Oh-u vovaylo, agarkim qilmasang fikri davo.

Sunbulungning atridin jon rishtasin tindurmayin
Har sahar zunnortek to‘lg‘ondurur kofir sabo.

Lutfi guftoring Masih e’jozini mansuh etar,
Bu ne alfozu iborattur, zihi sun’i xudo!

Tavri ishqingda manga kashf o‘ldi bu asrorkim,
Sen kalimullohsen, ul zulfi purham-ajdaho.

Ohkim, irnimga yetti jon jamoling shavqidin,
Qondasen, ey lablari shakkar, buti shirin liqo.

Naqdi vaslingni tilab, topquncha oqardi ko‘zum,
Ul kishikim sendin o‘zga qilsa yuziga qaro.

* * *

Multafat bo‘lmas bu ko‘nglum sendin, ey jon, o‘zga
Ey habibim, sen borinda bori ne son o‘zgaga?

Sen bikin ruhi mujassam bor etgach, ey ko‘rkka boy,
Lofi husn urmoqliq erur asr-u tovon o‘zgaga.

Hech ravo ermas bu, ey kofir, musulmonlar aro
Kim, sen o‘lturgaysen-u anvoyi bo‘hton o‘zgaga.

G‘oyati sahvu qusuri tab’din bo‘lg‘ay, begim,
Sen borinda bu Gado gar bo‘lsa qurbon o‘zgaga.

* * *

Ey ko‘ngul, dilbar xayoli chunki hamdamdur sanga,
Vodiyi hijron ichinda o‘zga ne g‘amdur sanga?

Alhaq, ushbu lutfi xulq-u husni istig‘no bila
Kishvari ko‘rk ichra sultonlig musallamdur sanga.

Ul ko‘zi o‘tluqni sevdung o‘z haddingni bilmayin.
Ishq o‘ti har necha kuydursa, hanuz kamdur sanga.

Qon yutarmen rashk elindin har kecha tongg‘a degin
Kim, nechuk bodi sabo hamrozu hamdamdur sanga.

Ayb emastur, gar parishonsen dog‘i oshuftahol,
Ey Gado, chun orzuyi zulfi purxamdur sanga.

* * *

Yoz fasli el bori bu lazzat-u ishrat bila,
Elguzun men mubtalo dard-u, g‘am-u mehnat bila.

Xalq xush gulgasht etarlar g‘unchatek o‘ynab-kulub,
Kunji mehnattur dag‘i men yig‘lay-u hasrat bila.

Yerga tushgay kul bo‘lub bu saqfi mino shaksizin,
Subhidan gar oh urub qilsam fig‘on riqqat bila.

Hosid aytur: “Ul eshikda xorsen tuproqtek”,
Og‘zi, og‘ziga urung, (u) so‘zlasun izzat bila.

Ey raqib, oxir seni ovora qilg‘umdur, deding,
To ne yerga yetgasen, sen nahs, bu niyat bila.

Chun azaldin g‘ussa-yu g‘amdur nasibing, ey ko‘ngul,
Ne ishing bordur jahonda shodi- yu lazzat bila?

Garchi hasrat birla o‘lturdung Gadoni xor-u zor,
To qiyomat umr bersun haq sanga davlat bila.

* * *

Bo‘lg‘ali ko‘nglum giriftori sari zulfi duto,
Ayshdin begona bo‘ldum, dard-u g‘amga oshno.

Qilmag‘umdur to abad qat’i nazar , gar qilg‘asen
Bevafolig‘ tig‘i birla bandi-bandimdan judo.

Har sahargah shum raqibing alida joni hazin,
Nechakim oh ursa aytur: bu g‘am-u, dard-u balo.

Nuh to‘fonindin oshti ko‘zlarimning seli, oh,
To ne yerga yetgusidur oqibat bu mojaro?

Davlati diydoridin, yo rabki, mahrum o‘lg‘amen,
Bovujudi dardi ishqing gar tilar bo‘lsam davo.

Xush tabibesenkim, erur oshiqi dilxastag‘a
Xoki poying no‘shdor-u, eshiging dorush-shifo.

Har g‘amekim kelsa dilbar soridin, aytur Gado:
Chun azizimning g‘amisen, xayra maqdam, marhabo!

* * *

Bu ko‘ngul ko‘rgach yuzingda donayi anbar g‘arib,
Tushti zulfung domina bechorayi muztar g‘arib.

Muntahodur oy yuzung qoshinda ul Cho‘lpon ko‘zung
Kim, quyosh yoshinda erur matlayi axtar g‘arib.

Sunbulungni ochibon ko‘rsam yuzung man etmakim,
Ko‘rinur yaldo tuninda axtari xovar g‘arib.

Xush yaroshur ul nabot irning uza mushkin xating
Kim, ko‘rinur obi hayvon uzra nilufar g‘arib.

G‘urbat ichra poymol etti Gadoni dardi yor,
Ey musulmonlar, ilohiy, tushmasun kofar g‘arib.

* * *

Ey sipehri husn uza mohi jahonoron iyd,
Ikki qoshingdur sening sarfitnayi g‘avg‘oyi iyd.

Masnadi ko‘rk uzra ul sohibqiron senkim, bukun
Bo‘ldi tug‘ron jamolingdin durust imzoyi iyd.

Iydgah xalqini qirdi hosilan kofir ko‘zung,
Qilmadi hech kim jahonda sen kibi g‘avg‘oyi iyd.

Bu zarofat, bu tarovat birla, ey qoshi hilol,
Qo‘ymading olamda husni lutf-u istig‘noyi iyd.

Vasl tig‘i birla qonimni bukun gar to‘kmasang,
Mushkul, ey jonkim, meni topsang tirik fardoyi iyd.

Bu shamoyil birla gar sen otlanib chiqsang bukun,
Qolmag‘ay el-u ulusg‘a zarraye parvoyi iyd.

Men Gadog‘a garchi tegmas shakkar irningdin nasib,
Bir chuchuk so‘z bori o‘zga bo‘lmasa halvoyi iyd.

* * *

Ey na’imu nozi olamdin manga dildor umid,
Dilrabolarning ichinda jonuma diydor umid.

Bok emasdur, barcha el gar bizga ag‘yor o‘lsalar,
Jumlan zarroti olamdin sen-o‘qsen, yor, umid.

Rasm erur bemora bermak har ne ko‘ngli orzular,
Xasta ko‘nglumga erur ul la’li shakkarbor umid.

Muztarib bo‘lub, parishonliqdin o‘zga ko‘rmadi,
Kimki tutsa men bikin ul zulfi anbarbor umid.

Multafit bo‘lmay, begim, har nechakim ko‘rsangiz,
Men Gadoga hazratingda bordurur bisyor umid.

* * *

Dudoqung ko‘ngluma maqsudi jondur,
Qaroqning fitnayi oxir zamondur.

O‘romung iti birla e’tiqodim,
Ne hojat sharh, chun elga ayondur.

Nechakim bo‘lsa taqsirim farovon,
Sening lutfung, afalloh, besh az ondur.

Muborak maqdamingning uzri uchun,
Ne deydursiz, begim, jon darmiyondur.

Agar yor o‘zga qilsa, oni bilmon,
Bihamdillah, Gado, bori hamondur.

* * *

O‘lturur bizni g‘am, ey oromijon, andoq durur,
Rahm qilmassen manga, nomehribon, andoq durur.

Xor o‘lub hijrona-yu galduk yuzungning shavqidin,
G‘unchatek bo‘ldi bu bag‘rim to‘la qon, andoq durur.

Nolan zorimni eshitib, demassen dog‘i bir,
Kim, nedindur ushbu faryod-u fig‘on, andoq durur.

Bu ko‘ngul mulkin buzub, hargiz imorat qilmading,
Nechakim bo‘lsang, begim, sohibqiron, andoq durur.

Bu Gado kimdur bori shukr-u shikoyat qilg‘ali,
Har ne roying bo‘lsa, ey joni jahon, andoq durur.

* * *

Ey jamoling partavindin munfail shams-u qamar,
Ko‘zlaringning fitnasindin olami pur sho‘r-u shar.

Ey darigokim, dudoqing hasratindin qolmadi,
Bu tani bemor ichinda zarraye jondin asar.

Tengrilik uchun, mening bu xasta ko‘nglum holina
Lutf etib qilsang, ne bo‘lg‘ay, qiz uchindin bir (nazar).

Hinduvi zulfing meni kofir deding, deb To‘lg‘onur,
Chin emasmu, ey ko‘zi kuffori Xaybardin batar?

Har qachon irning ramuzindin so‘rar bo‘lsa ko‘ngul,
Noz ila g‘amzang xayoli aytur: “Oni kim topar?”

Avvalo o‘z jonidin mendek ilik yuvsa kerak,
Ul qoni to‘lg‘onki, sentek ofati jonni sevar.

Oqibat miskin Gado yuz hasrat-u anduh ila
Ul tor og‘zing shavqidin bo‘ldi adam, so‘z muxtasar.

* * *

Jamoling avji husn uzra magar xurshidi anvardur,
Kim, oning partavindin jumlayi olam munavvardur.

Bu turluk lutf-u isboti malohatlar sanga haqqo,
Azaldin ko‘rk iqliminda sultonliq muqarrardur.

Agar hur-u pari bo‘lsa manga soqiy, mayi sofiy,
Kerakmas sensizin, valloh, agarkim obi kavsardur.

Meni bulbul masallik sayratur yuz ming navo birla,
Jamolingkim kamoli lutf ila gulzora mengzardur.

Jahonda topmadi tiybi shamimi mushk-u anbardin,
Nasimi sunbulungdin to dimog'i jon muattardur.

Mening qon yoshlu ko'zim to jamolingdin yiroq o'ldi,
Ko'ngulning evida, ey jon, yuzung naqshi musavvardur.

Gado chun dard-u hasratta jonin berdi, mazorini
Kelib bir kun tavof ayla, begim (ki), hajji akbardur.

* * *

Ey jamoling surat-u ma'nida xurram navbahor,
Anbarogin sunbulungdin munfail mushki totor.

Ul halovatliq zulol irning ramuzin fahm etib,
Bosh olib zulmatg'a kirdi ibi hayvon sharmisor.

Mayl qilg'ay deb xayoli qomating, o'zi sarvinoz,
Yuz sari joriy qilibmen ko'zlarimdin jo'ybor.

Oh-u vovaylo, dag'i yuz ming tuman dard-u darig'
Kim, jamoling hasratindin o'ldum, ey jon, ixtiyor.

Tushmasun, yo rab, nechakim bo'lsa Xaybar kofiri,
Dushmaning, ey do'st, mendek hajr eliga xor-u zor.

Alvido etti-yu ketti mendin orom-u shikib,
Sensizin amri mahol ermish, begim, sabr-u qaror.

Bir yo'li miskin Gado ahvolin abtar qildilar,
Dardi hijron-u jafoyi charx-u javri ro'zgor.

* * *

Bo‘lg‘ali sendin judo nokomdin, jon ixtiyor
Xoksor etti meni bir yo‘li javri ro‘zgor.

Ey latofat bo‘stonining guli, bording dogi,
Yodgoring qoldi bag‘rim ichra (yuz ming) xor-xor.

Furqatingning davlatindin menda asbobi tarab:
G‘ussa-yu, dard-u balo-yu, ranj-u mehnat bori bor.

G‘olibo, ul zulfi anbarbordin qildi guzar,
Kim, abiromiz o‘tarsen, ey nasimi mushk bor.

Men bori munda g‘amingdin asr-u xor-u xastamen,
So‘ylagilkim, sen nechuksen anda, ey zebo nigor.

Oh-u vovaylokim, arsu poymol etti meni,
Mehnat-u g‘urbat dog‘i javri firoq-u dardi yor.

Vasl chog‘i maqdamingda o‘lmagan jurmi uchun
Qul Gado erur xayoling ollida bas sharmsor.

* * *

Ey xayoling g‘am kuninda ko‘ngluma faryodras,
Bording-u jon ichra qoldi yodgoring oh-u bas.

Baytul-ahzoni firoqingda topilmaydur manga,
Nola-yu afg‘ondin o‘zga hamnishin-u hamnafas.

Sunbulung yaldosida har nechakim kirdi ko‘ngul ,
Ko‘rmadi jodu qaroqingdek ham o‘g‘ri, ham asas.

Ka’bayi maqsad jamolingdur, qoshing jon qiblasi,
Yenglaring xoni Xalilulloh, dag‘i xoling adas.

Barqi g‘ayrattin kuyar jonim, xudoy ogoh erur,
Gar shakar irning sori parvoz etar bo‘lsa magas.

O‘lganimdin so‘ng mazorimdin guzore qilg‘asen,
Kim, hamin-o‘qtur manga dunyoda sendin multamas.

Tarki lazzoti jahon qilg‘in, Gadokim, orifa
Behrak erur yuz tuman toji murassa’din maras.

* * *

Oy yuzung burji latofattin tul’u etgan quyosh ,
Zarratek mehringga bo‘ldi ko‘kda sargardon quyosh.

Tushda ko‘rmish orazingni zohiran, bir kun yana,
Oni istab kecha-yu kunduz yurur hayron quyosh.

Husn soridin ha lof u (r) sun yuzung onlidakim,
Bir arus quldur sanga sargashta-yu uryon quyosh.

Oy yuzung nazzorasindin qolur ermish benasib,
Oning uchun kechqurun har kunda yig‘lar qon quyosh.

Ko‘rgali pari jamolingni iliktin boribon,
Bo‘ldi majnunu yurur bepoy-u sar har yon, quyosh.

Boqiy bo‘lsun davlatingkim davri husnungda, begim,
Bir tilanchidu (r) kim, urur darbadar davron quyosh.

Kim yovutur bori sentek benavoni, ey Gado,
Ul eshikkakim, bo‘lolmas anga darbon quyosh.

* * *

Bu ne purfan zulf-u xol erur, na fatton ko‘z-u qosh-
Kim, ko‘ngul ko‘rgach bayak nogah qildi tarki bosh.

To tulu’ etti yuzung husn-u latofat burjidin,
Zarratek mehringga bo‘ldi ko‘kda sargardon quyosh.

Lablaringning mashrabindin bir og‘iz so‘rmoq uchun,
Yurokimni to‘la qon etti ko‘zung, ey bag‘ri tosh.

Kirgin, ey dilbar xayoli, orada bo‘lgil hakam-
Kim, qilurlar jon-u ko‘nglum darding uchun bas talosh.

Eshikingda kecha-yu kunduz tana’umlar bila
Itlaring birla musohibman , zihi husni maosh.

Qo(n) yutub parvarda qildi muddate ko‘z yoshini,
Oqibat qildi bu ko‘nglum sirrini olamda fosh.

Ey raqib, oxir ne bo‘ldi, odamiyning naslisen,
It kabi miskin Gado birla urushg‘uncha yarosh.

* * *

Ey begim, sensiz tirilmak bir baloyi jon emish-
Kim, aning dardi qoshinda yuz o‘lum hayron emish.

Koshki hargiz muyassar bo‘lmag‘ay erdi visol,
Oqibat yuz dard-u hasrat birla chun hijron emish.

Bilmas erdi(m) davlati diydoringiz qadrin burun,
Emdi bildimkim, zamoni vasl xush davron emish.

Oshiqekim, yor adoqi oldida bosh o‘ynamas,
Lofi ishq urmoq anga, tahqiq, bas tovon emish.

Mehnat-u, ranj-u balo-yu, g‘ussa-yu dardi firoq,
Har ne kelsa xush turu, chun tengridin farmon emish.

Andakim sendin vafo tutti tama miskin ko‘ngul,
Shaksizin bildimkim, asr-u go‘lu ham nodon emish.

Bu Gado yolg‘uz giriftor o‘lmadi hijrong‘akim,
Gunbadi aflok bag‘ri dog‘i andin qon emish.

* * *

Ey, niholi qomating sarvi xiromondin latif,
Durji la’lingdur dag‘i bu javhari jondin latif.

Har nechakim durri Ummondin chiqar durri yatim,
Ko‘zlarimning yoshidur ko‘p durri g‘altondin latif.

Ayni kavsardur halovatliq zulol irning manga,
Tal’atingdur dog‘i yuz ming bog‘i rizvondin latif.

Qof to Qofi jahon kezganda sayyori xirad
Ko‘rmadi shahri Hirot-u Bog‘i Zog‘ondan latif.

Lablaring vasfinda bu (miskin) Gadoning so‘zlari
Toza-yu serob-u rangin obi hayvondin latif.

* * *

Ikki qoshing kibi bir turfa yo yo‘q,
Qilursen rahm bu ko‘nglumga yo yo‘q?

Jahonda garchi yuz ming fitnalar bor
Firoqingdek, vale ayni balo yo‘q.

Nigoro, xasta ko‘nglumnung haqinda
Jafo kam qilma bori, gar vafo yo‘q.

Visolingni manga gar hayf ko‘rsang,
Ko‘z uchindan dog‘i bir marhabo yo‘q.

Ko‘ngulnung dardina, ey joni shirin,
Zulol irningdin o‘zga hech davo yo‘q.

Ko‘ngulni kimga bog‘lay, chun jahonda
Seningdek ko‘rk ichinda dilrabo yo‘q.

Agar sen husn elining xonidursen,
Jahonda dog‘i mendek bir Gado yo‘q.

* * *

Har kishiningkim seningtek bir sevar jononi yo‘q,
Filmasal, bir suratedurkim, taninda joni yo‘q.

Kimki tushti vodiyi ishqingda mendek oqibat,
Shaksizin o‘lmaktin o‘zga chora-yu darmoni yo‘q.

Kimki ko‘rmish bo‘lsa bir kun oy yuzungni dunyoda,
O‘lsa dog‘i, bil yaqinkim, zarraye armoni yo‘q.

Ko‘zlaringning fannidan bildim, chin ermish bu masal:
“Har kishiningkim kishiga rahmi yo‘q, imoni yo‘q”.

Men gadodin ayading la’ling mayindin juraye,
Hargiz usruk ko‘rmadim ko‘zung kibi, ehsoni yo‘q.

* * *

Vardi ahmarkim der el ul ol yangoqingdur sening,
Nargisi shahlo dag‘i jodu qaroqingdur sening.

Tegmasin ko‘zkim, bukun husn-u latofat bog‘ida
Toza-yu, serob-u tar nozuk saqoqingdur sening.

Furqatingning og‘usindin hech bushmas jong‘akim,
No‘sh dorusi aning shirin dudoqingdur sening.

Necha yoshungdung paritek, chiqqil, ey jonkim, meni
Xor-u zor etgan munungtek ishtiyoqingdur sening.

Gar sening roying budurkim, bizni chopsang tig‘ ila,
Bo‘ynumiz qilcha, nekim hukm-u yaroqingdur sening.

It kibi mundoq yurutgan yozi yobonda meni
Tinmayin ul ikki sho‘x oh-u qaroqingdur sening.

Sunbulungning iqdini kimning ilikindin kelur,
Bu saodat topquchi muqbil taroqingdur sening.

* * *

Ey qomuq savdoyilarga moyi savdo soching,
Har xami jon-u ko‘ngulga ertagi ma’vo soching.

Tegmasun ko‘zkim, bukun husn-u latofat bog‘ida
Vardi ahmar orazingdur, sunbuli ra’no soching.

Qullanibtur bo‘ynini bog‘lab, begim, isbot ila
Nofayi Chin-u Xo‘tanni anbari soro soching.

Vah ne jodudurki, Hindistonda sehr angiz etar,
Har zamon Rum-u Xito elin qilur yag‘mo soching.

Sunbulungni torading, ey umr, bo‘ldi rustaxez,
Halqa-halqa ruh ichinda soldi yuz g‘avg‘o soching.

Ul salosildin nechuk uzsun ko‘ngul miskin Gado,
Joni shirin rishtasidur chun anga, haqqo, soching.

* * *

Ey, soching zanjirining majnuni bu shaydo ko‘ngul,
Necha yonsun furqatingning o‘tina emdo ko‘ngul!

Ya’lamulloh, gar jafodin etsa bu jon irnima,
Ul tor og‘zingdin tamani uzmagay qat’o ko‘ngul.

Sunbulungdek o‘zga hargiz ko‘rmadi jam’iyatin,
Nargising sehrina, ey jon, bo‘lg‘ali yag‘mo ko‘ngul.

Ey ko‘zi cho‘lpon, sening oytek yuzungni ko‘rgali,
O‘zgalarning mehridin yod aylamas aslo ko‘ngul.

Dard-u hasrat o‘tida ko‘z yoshi birla shamtek,
Har necha o‘rtandi, ammo erdi pobarjo ko‘ngul.

Bog‘ aro chun azmi gulgasht aylading, ey sarvinoz,
Ne balolar ko‘rmadi, to ko‘rdi ul bolo ko‘ngul.

Dardi hijron birla bu miskin Gadoni xor-u zor
Nechaga tegru qilursen el aro rasvo, ko‘ngul!

* * *

Diydor uchun chun charxtek olamda sayyor, o‘lmisham,
Oy yuzlugum, kelkim, baso mushtoqi diydor o‘lmisham.

Jodu qaroqing zulmidin tushtum sochingning qaydina,
Ul kofir ilgindin, netay, dar bandi zunnor o‘lmisham.

Dard-u g‘amingni chekkali haqdin tilaydurmen hayot,
Yo‘qsa munungtek umrdin, vallohki, bezor o‘lmisham.

Oytek yuzungda mehr ila ko‘z solg‘ali pari begim,
Ul zarra yanglig‘ orzunga jondin havodor o‘lmisham.

Bir kun, azizim, vasl ila tutqil ilikkim, bir yo‘li
Hijron ayoqi ostida tuproqtek xor o‘lmisham.

Hosid-la paymon qilg‘onim taqlid erur, tahqiq emas,
Sen yor uchun ko‘rkim ne yuz ag‘yor ila yor o‘lmisham.

Har subh-u shom avrod erur miskin Gadog‘a ushbukim,
Hajr ilkiga, vohasratokim, bas, giriftor o‘lmisham.

* * *

Ishtiyoqing hadtin oshti, oh jonim, qaydasan?
O‘lg‘ali yettim g‘amingdan, mehribonim, qaydasen?

Istamas, valloh, bu jon tan suhbatini sensizin,
Ey tiriklik hosili, ruh-u ravonim, qaydasen?

Sunbul-u guldun ochilmas qayg‘uluq ko‘nglum menum,
Ey jamoling rashki bog‘-u bo‘stonim, qaydasen?

Totlu dashnoming‘a mungluqturmen, ey koni nabot,
So‘ylagil, bahri xudo, shirin dahonim, qaydasen?

G‘am cheriki ko‘nglum iqlimini toroj ayladi,
Ey latofat mulkida sohibqironim, qaydasen?

* * *

Firoq o‘tina tutashti ko‘ngul yano netayin?
Qaro balog‘a yo‘luqti bu mubtalo, netayin?

Visoli davlatina yetgamen magar bir kun,
Umid uchun cheka(ram) muncha ibtilo, netayin?

Zamona fitnasidin iymanib himoyat uchun,
O‘romung iti bila bo‘ldum oshno, netayin?

Jahonda chunki aziz jondin ixtiyorimsen,
Agar jafo qilur ersang, va gar vafo, netayin?...

Ne haddi shukr-u shikoyat manga firoqingdin,
Vale, chu jonima yetti, dedim sango, netayin?

Nasime sunbuli zulfungni eltadur har yon,
Gado joniga, base, zulm etar sabo, netayin?

* * *

Ey sabo, yetkur salomimni guli xandonima,
Sochi yaldo, orazi oy, ko'zlari cho'lponima!

Tor og'izliq ahdi yolg'on, sustpaymon dilbarim,
Tosh bag'irliq, rahmi yo'q, nomehribon sultonima!

Qullug'umni arza qilg'in dog'i andin so'ngra ayt
Kim, ayo koni jafo, qasd etting oxir jonima.

Halqayi zulfung tamannosig'a menkim men, begim,
Tinmag'ur ko'nglum, netay kirmas mening farmonima.

Tig'ingizdin yuz evurmaklik ne nisbattur, vale
Fikrim andindurki, bas nohaq kirarsiz qonima.

Bo'ldi bir yon yurakim oldinda-yu usruk ko'zung,
Ayni istig'nosidin mayl etmadi bir yonima.

Garchi yuz ming dard-u hasrat birla o'ldi bu Gado,
Umr-u davlat mustadom o'lsun mening sultonima.

* * *

Sharbati vasling dur-u nofe ko'ngul darmonina,
Chun ilik bermas, ne tadbir aylayin darmonina?

Shakkarin irningdin ulkim tome o‘lsa men kibi,
G‘oyati bilmasligindin qasd etar o‘z jonina.

Shevalik qaddingnikim, bolo o‘qurlar dunyoda,
Bir balodur, hosilan, ushshoqi miskin jonina.

Har ne bo‘lsa ishq daryosinda tushtum oqibat,
Garchi yetmaydur kishi bu bahrning poyonina.

Yuzumi surtgach mahum tobonina, dedi raqib:
“Ko‘z tekurgungdur, Gado, sen oqibat tobonina”

* * *

Ey latofat ma’danining gavhari yakdonasi,
Tal’atingdur joni charog‘i, mehr-u mah parvonasi.

Ne salosildur soching zanjiri, ey rashki pari
Kim, kishi ko‘rgach bo‘lur oshufta-vu devonasi.

Barcha ashkoling zarofat bog‘ida marg‘ub erur,
Ey xush ul jonkim, sen o‘lg‘aysen aning jononasi.

Bodaning usrukligidin hech kishi topmas nishon,
Lablaring davrinda to‘ldi go‘yo paymonasi.

Bartaraf qil, nosiho, taqvini, ko‘p lof etmakim,
Bemuhobo ozg‘urur shul g‘amzayi mastonasi.

Tirguzur, hosil, o‘lukni ul qadi ra’no bila
Yo‘l yururda, olloh-olloh, shevayi rindonasi.

To ul afsungar sifotindin bitidi shammaye,
Jumlayi olamni tutti bu Gado afsonasi.

MUSTAHZOD

Ey g‘amzasi fitna, ko‘zi fatton, o‘zi ofat,
rahm ayla bu jona.
Hatm o‘ldi sanga saltanati mulki latofat,
ey shohi yagona.

Shaksiz, bu yurak qonina parvarda bo‘lubtur
ul la’li ravonbaxsh.
Paydoyu muayyandur, ayo koni zarofat,
ko‘p qilma bahona.

Chun qolmas emish nom-u nishoni sitam-u javr,
bedod nedindur?
Dod ayla, begim, kim o‘tadur davri xilofat,
ush kechti zamona.

Otqonda ko‘zung novaki dildo‘zni har yon,
ey sho‘xi jafokash.
Har necha bor erdi orada bu’di masofat,
jon erdi nishona.

Jondin ramaqe qoldi Gadoning badaninda,
ey ruhi mujassam,
Shirin dudoqingdin qadari qilg‘in izofat,
turguz ani yona!

TO‘RTLIKLAR

Topmagay g‘avvosi fikrat sen bekin,
Bahri husn ichra, begim, bir javhar-ye.
Zulfungga vobastamen bu shahrda
Sensizni yo‘qsa manga bir jav Hari.

* * *

Hisravo, usruk ko‘zungning shavqidin,
Xush sujud aylar damo-dam qo‘shquloq,
Joyi uldurkim, sanga xurshidu moh,
Qulluq etgaylar tutubon qo‘sh quloq.

* * *

Garchi, shoho, durri serob o‘zini
Qildi nisbat so‘zunga bilmay yaroq.
O‘z kamoling birla jurmini kechur,
Tobug‘ung-da chunki tutti qo‘shquloq.

* * *

Zumray ag‘yordin hech g‘am degul.
Gar kishiga o‘z habibi yor esa.
Gar qabuliyatqa qobil ko‘rsangiz,
Ush turubtur, jon sizingdur bor esa.

* * *

(Agar) qilsam shakkar irnindin savol
Men Gadog‘a lutfi birla kelma der.
Chun borur bo‘lsam yovuqroq qoshig‘a,
Shum raqibi behaqiqat kelma der.

SAKKOKIY

(XV asr)

Sakkokiy Amir Temur va temuriylar davrida yashab ijod qilgan shoirlardan biridir. "Devon"i va qasidalari uning qachon yashagani haqida ma'lumot beradi. Qasidalari Xalil Sulton, Arslon Xo'ja Tarxon, Xo'ja Muhammad Porso va Mirzo Ulug'bekka bag'ishlangani uchun shoir XIV asrning 70–80-yillarida tug'ilgan va XV asrning o'rtalarida vafot etgan, degan xulosa qilish mumkin. Alisher Navoiyning "Majolis un-nafois" tazkirasida Mavlono Sakkokiy ijodiga yuksak baho berilgan. Sakkokiy o'zbek va fors-tojik tilidagi manbalarni puxta o'rganib chiqqani tufayli uning asarlari badiiy jihatdan mukammal.

Sakkokiy g'azallarida ishq, oshiqlik, hijron iztiroblari, visol lazzati, oshiq qalb kechinmalari juda ustalik bilan tasvirlanadi. Adibning Ulug'bek haqidagi qasidasida Ulug'bekning odil shoh, zakovatli inson sifatidagi qiyofasi mahorat bilan chizib berilgan.

G'AZALLAR

Kim ermas ul oy mubtalosi,
Yolg'uz menga yo'q aning balosi.

Tushti bu zaif jonimg'a dardi,
O'lmaktin izin yo'q ul davosi.

Bergusi g'arib boshimni yelga,
Ruxsora-u zulfining havosi.

Kim ko'rsa aning ko'zini aytur:
Ne turfa erur bu turk balosi?

Turkona ir irlag‘uncha oning,
Kuydurdi meni yalay-bulosi.

Oyina sening yuzing ko‘rubon,
Lof ursa, yuzunda yo‘q safosi.

Dard-u, g‘am-u, ranj-u men-u o‘lmoq
Sakkokiyga bo‘ldi jon g‘izosi.

* * *

Ey gul, yuzingga hur-u pari bandayi joni,
Toltek bo‘yung ozodi erur sarvi ravoni.

Xo‘blar soni yo‘q Chin-u, Xitoy, Xo‘tan ichra,
Yetmas sanga lekin tilagan dunyoda soniy.

Ul tishing-u erningni ko‘rib bir kularingda,
Bu ikki ko‘zum la’l-u guhar bahri-yu koni.

Yuzingni qilur toza ko‘zum yoshi-yu ohim,
Gul toza bo‘lur topsa vale ob-u havoni.

Ushshoq qonin to‘kkali elga qilich olsang,
Kim ilgaru tutmas bo‘yun — o‘z bo‘ynina qoni.

Oydur sening olingda bu kun bir habashiy qul,
Tonsa yuzida zohir o‘lur dog‘ nishoni.

On derlar emish ko‘rklu kishilar namakingga,
Sakkokiy sening yuzungga boqsa ko‘rar oni.

* * *

Bo‘yungtek butmadi bo‘ston aro sarvi ravon, ey jon,
Yuzungtek ham ochilmadi chamanda guliston, ey jon.

O‘qunguznung boshoqing‘a ko‘ngul mushtoq, ko‘z oshiq,
Bular tolashmoqin bo‘ldi ul ikki ora qon, ey jon.

Agar Rum ahlina zulfung habashning lashkarin solsa,
Ko‘ngul ilginda ul soat topilmas hech amon, ey jon.

Sening la’lingdin uftonib qizorur la’l qon ichra,
Hasad eltur mening yuzum ko‘ribon za’faron, ey jon.

Yuzung davrinda ko‘zlarim gahi la’l-u, gahi lo‘lu,
Chiqorur ko‘rsa bu san’at, uyolur bahri kon, ey jon.

Falak Sakkokiyga bukun qulunmen der, jihat zohir,
Tun axshom itlaring birla o‘turmush bir zamon, ey jon.

* * *

Qaro ko‘z birla bir g‘amza qilib yuz ming jafo qilma,
Karashma birla olamni meningtek mubtalo qilma.

Mening bu xasta jonimg‘a sening darding erur marham,
Qiyomatga tikin hargiz bu dardimg‘a davo qilma.

Meni, ey oy, qo‘rqarmen qilib dunyoda sargashta,
Eshiking tuproqin ko‘zga topilmas to‘tiyo qilma.

Firoqing bo‘tasi ishra qonimni sizg‘irur har dam,
Yuzumni oltun etkoli g‘amingni kimiyo qilma.

Axir, begona deb giryon eshigindin quvar bo‘lsang,
Kular yuz ko‘rguzub avval kishini oshino qilma.

Bag‘ir qon aylading javr-u jafolar birla, sultonim,
Ko‘zum yoshi bila har dam yuzumdin mojaro qilma.

Ey Sakkokiy, bu shah qobqin g‘animat tut, chu zulfig‘a
Ayoqin bog‘lag‘on qushsen, ucharg‘a hech havo qilma.

* * *

Ko‘rub gultek yuzung jon pora-pora,
Jigar ham qildi ul qon pora-pora.

Jonim ko‘rgan jafoning mingda birin,
Bo‘lur gar ko‘rsa sandon pora-pora.

Kularda ko‘rsa og‘zi birla tishin,
Bo‘lur gulnori xandon pora-pora.

Netong munda o‘zin chok etsa g‘uncha,
Aningtek bo‘ldi chandon pora-pora.

Bag‘ir qon qildi amrindinu bo‘ldi
Ko‘zumda la’l-u marjon pora-pora.

Saqoqin kish yaqosi o‘pkanidin
Jonim chok-u giribon pora-pora.

Ko‘ngul Sakkokiytek jon birla rozi,
Jigarni qilsa ul jon pora-pora.

* * *

Furqatingda, ey pari, tan kuydi-yu jon yig‘ladi,
Dam-badam xud qayg‘udin ikki ko‘zum qon yig‘ladi.

Hech davo yo‘q dardkim jonimda bor, oni ko‘rub
To‘nin chok etti tabib-u, dor-u darmon yig‘ladi.

Dur tishing-u gul yuzung vasfidin kechti hadis,
Sham hayrat o'tina yondi-yu so'zon yig'ladi.

Eshikingda it bikin bostim necha yil qovrulub,
Ushbu holimni ko'rub kofir, musulmon yig'ladi.

Yig'ladi hatto raqibning kelg'ondan rahmi manga,
Bori ul qattiq ko'ngulluk chinmu yolg'on yig'ladi.

Bildilar yuzdin ko'rub Sakkokiy holin so'rmayin,
Xosu omu shahru deh, donovu nodon yig'ladi.

* * *

Agar qoshimda o'shal gul uzor bo'lsa edi,
G'ame yo'q erdi, g'amim gar hazor bo'lsa edi.

Jonim fidosi aning, koshki mening bu tanim
Oti tuyoqidin uchqon g'ubor bo'lsa edi.

Ko'zum bag'ir qonidin yuz nigor qilmas edi,
Agar ko'ngulga muvofiq nigor bo'lsa edi.

Biror ko'ngul g'amidin bo'lsa erdi voqif do'st,
Ne qayg'u, dushman agar sad hazor bo'lsa edi.

O'larda qolmag'ay erdi ko'ngulda bu hasrat,
Raqib it bikin eshikda zor bo'lsa edi.

Jonimg'a sahl erur erdi jafosi ag'yorning,
Agar ko'ngul bila ul yor yor bo'lsa edi.

Raqib tishlamas erdi seni, ey Sakkokiy,
Aning iticha sanga e'tibor bo'lsa edi.

* * *

Sentek jahonda ko‘zlari ayni balo qani?
Mentek aning balosi bila mubtalo qani?

Irning aqiqi garchi jahonda yagonadur,
Chehrayi mengizli ham yana bir kahrabo qani?

Ko‘zni g‘ubor tutti firoqingda yig‘la-yu,
Izing to‘zindan o‘zga anga to‘tiyo qani?

La’ling sharobi bo‘ldi ko‘ngul dardina davo,
Bu dard jong‘a yetti, vale ul davo qani?

Yuzumni oltun etti sening ishqing, ey sanam,
Mundoq baqirni oltun etar kimiyo qani?

Qaddu hadingg‘a sarv-u gul o‘zin tutar shabih,
O‘nla bo‘y-u yuzinda bu obihavo qani?

Husnung zakotin bergali bir qibla izlasang,
Sakkokiytek bu dunyoda bir benavo qani?

* * *

Jon hajr o‘tina tushti, yana bizni unutma,
Zulfung beki qad bo‘ldi duto, bizni unutma.

Qurbon bo‘lubon vasling uchun shukur o‘tagaybiz,
(To) bu mahaldin, sanamo, bizni unutma.

Yo‘q erdi rizo ketgali bir lahza qoshingdin,
Sendin chu yiroq soldi qazo, bizni unutma.

Nortek yangoqing furqati ichra ko‘ngul-u jon,
Ul kuydi judovu bu judo, bizni unutma.

Iso damining bor asari har nafasingda,
Jon dardina, ey xulqi davo, bizni unutma.

Hijron evining kunjin olib kecha-vu kunduz,
Zulf-u yuzingga tilda sano, bizni unutma.

Sakkokiy ul oy manzilina xud eta bilmas,
Sen etsang agar anda, sabo, bizni unutma.

* * *

Ey husn ganji, bu zaif ko'nglumni vayron aylama,
Yuz uza zulfung tog'itib, umrum parishon aylama.

Har nokas-u kas yuzuna xush toza gul yanglig' kulub,
Bag'rimni har dam g'unchatek hasrat bila qon aylama.

Nortek yangoqing shu'lasin sen ko'rguzub ag'yorg'a,
G'ayrat o'ti ichra yona bag'rimni baryon aylama.

Barcha xaloyiq to'p bikin tashlar ayoqing uza bosh,
Bu ishga zulfung dol erur, sen oni chavgon aylama.

Bo'lsa qiyomat barchadin qilg'on ishini so'rg'usi,
Oz qil jafo-u javrni, muncha farovon aylama.

Zulm-u sitamni zulfung-u kofir ko'zungga o'gartib,
Bu keng jahonni sen manga bir tor zindon aylama.

Ey yinju tishlik dilbarim, la'li guharboring haqi,
Sakkokiyning ikki ko'zin har lahza ummon aylama.

YUSUF AMIRIY

(XV asr)

Yusuf Amiriy temuriy hukmdor Boysunqur Mirzo himoyasida yashagan. Turkiy va forsiyda ijod qilgan. Alisher Navoiy "Majolis un-nafois"da ta'riflab, Shohrux Mirzo davrida katta shuhrat qozonganini yozgan. Amiriyning turk tilidagi bir devoni hamda "Dahnoma", "Chog'ir va Bang" munozarasi bizgacha yetib kelgan.

Devoniga kirgan she'rlarida shoir hayot haqida chuqur falsafiy fikr yuritadi, ishq-muhabbatni ulug'laydi. "Dahnoma" (1429) asari bilan noma janrini rivojlantirdi. "Devon"ining nusxasi Turkiyada, Buyuk Britaniyada va fotonusxalari O'zbekiston RFA Sharqshunoslik institutida saqlanadi.

G'AZALLAR

Vafo to bo'ldi jononimg'a maxsus,
Jafovu javr erur jonimg'a maxsus.

Xirom-u jilvavu noz-u malohat,
Erur sarvi xiromonimg'a maxsus.

Guliston bo'ldi ko'nglum lola yanglig',
Vafo dog'i gulistonimg'a maxsus.

Kecha tong otqucha ko'nglum chekar oh,
Erur bu sham' vayronimg'a maxsus.

Ko'ngul konidadur la'ling xayoli,
Bu gavhardur Badaxshonimg'a maxsus.

G‘amingda ishq ranji rohatimdur,
Bu darding o‘ldi darmonimg‘a maxsus.

G‘ubori to‘tiyoyi xoki poying,
Bo‘lurmu chashmi giryonimg‘a maxsus.

Kerak shahdin gado holini so‘rmoq,
Bu davlat keldi sultonimg‘a maxsus.

Ko‘ngul xushtur visol ummidi birla,
Bu marham dog‘i hijronimg‘a maxsus.

Shahidi nozi mujgoning erurman,
Bu xanjardur mening qonimg‘a maxsus.

Erurman ishq mulkining Amiri,
Junun avboshi darbonimg‘a maxsus.

* * *

Sharobi noz to bazm ichra ruxsoringni ol etmish,
Xijolat bargi gulni poymoli infiol etmish.

Ko‘tarmas boshini sarvi sihi bori xijolatdin,
Xiromi noz to gulshanda ul zebo nihol etmish.

Bo‘lub Majnun, kiyiklar suhbatini ixtiyor etmish,
Meni devonani to vola bir vahshi g‘azol etmish.

Hazin ko‘nglum qushi parvoz etar ko‘yung havosida,
Uqungdin par chiqorib, har taraf jismina bol etmish.

Netay gar jomi Jam birla Skandar ko‘zgusi bo‘lsa,
Bukun dayr ichra soqiy qismatim singan safol etmish.

Falak har oy boshinda bir hilolin oshkor aylar,
Magar ko‘nglum kibi yuz uzra qoshingni xayol etmish.

Dema holim ko‘rub: “Ne vajhdin betob erur ko‘nglung?”
Muhabbat dardi oning notavon-u bemajol etmish.

Tamannoyi sari zulfing tushub boshimg‘a hayronman,
Junun ko‘yida bu savdo meni oshuftahol etmish.

Hazar aylangiz, ey ushshoq, ul berahm qotildin,
Bukun qish bo‘rkini egri qo‘yub zebi jamol etmish.

Meni jonim olurg‘a, ey ajal, ko‘p chekmagin zahmat
Ki, bir so‘z birla la’li manga o‘lmoki mahol etmish...

Amir olamg‘a bersa ishq irshodin tong ermaskim,
Muhabbat pirig‘a xizmat qilib, kasbi kamol etmish.

* * *

Xayoling xayli, ey jonim charog‘i,
Turur ko‘zumdavu ko‘nglumda dog‘i.

Yuzung ko‘rar ko‘zumdur, gar raqibing,
Ko‘ra olmas oni chiqsin qarog‘i.

Qachon zulfung ko‘ngul birlan tuzolgay –
Kim, egridur aning boshtin-ayog‘i.

Fig‘onimni rubob olig‘a, ey do‘st,
Ne aytoyin chu eshitmas qulog‘i.

Ko‘zung ko‘ngulda ekmas mehr tuxmin,
Ajab yo‘q, tushmadi ekin yirog‘i.

Yuzung ko‘rar ko‘zumdur, gar raqibing
Ochilg‘il gah-gahe, ey husn bog‘i.

Amiriy olidin to o‘tti ul zulf,
Nasimidin mushavvashdur dimog‘i.

Telbaman shahlo ko‘zung olusidin,
Uzmadim bog‘ingda vasl olusidin.
Hajr dashtida yugurmog‘lig‘ bila,
Yetmadim vaslingga yo‘l olusidin.

* * *

Gar desam, bog‘i visoling nori bor,
Olma deb achchig‘lab aytur: Nori bor!
Ishq naxli ko‘z yoshimdin suv ichib,
Bargu borini shararlig‘ nori bor.

* * *

Ey ko‘ngul, bu kecha ul oy sori bor,
Oh o‘tin yorutmakim, ag‘yori bor.
Tuxmi mehr etkim muhabbat bog‘ida,
Dard barg ochti-yu, g‘am kelturdi bor.

* * *

Sham yanglig‘ yonadur boshimda o‘t,
Ko‘z yoshimdin yer yuzinda undi o‘t.
Qon yoshim qildi yo‘lungni lolazor,
Muncha taqsir ayladim, qonimdan o‘t.

* * *

Bodasiz betobmen bu kecha men,
La’ling istab emdi jondin kechamen.
Sohili maqsadg‘a yetgaymanmu deb,
Ko‘z yoshim daryosida suv kechamen.

* * *

Jilva aylab sakraturda sarkash ot,
Noz o‘qin javlon etib jonimg‘a ot.
Itlaring xaylig‘a xizmat ayladim,
Qo‘ydilar ahli vafo deb manga ot.

* * *

Dilrabo, hajring o‘tida yonamen,
O‘rtanib vasling tilarman yona men.
Ka’ba azmidin manga san muddao,
Bo‘lmasang, albatta, andin yonamen.

* * *

Hamnishin ag‘yor to ul yoradur,
Ko‘kragim hasrat o‘qidin yoradur.
May bila soqiy himoyat bo‘lmasa,
Shahnayi hijron yurakni yoradur.

HUSAYNIY

(1438–1506)

Ulug'shoh va shoir, Alisher Navoiyning nadimi Husayn Boyqaro — Husayniy Hirotning sharqi-shimolidagi Davlatxona saroyida dunyoga kelgan. Uning otasi G'iyosiddin Mansur Boyqaro Mirzoning uchinchi o'g'li edi. U Zahiriddin Muhammad Bobur ta'riflaganidek, "karim ut-tarafayn", ya'ni har ikki tomondan ham nasabi Amir Temur Ko'ragonga borib tutashadi.

Husaynning otasi G'iyosiddin Mansur 1445-yilda vafot etgach, Husayn 14 yoshigacha maktabda ta'lim oladi va shu maktabda yosh Alisher bilan do'stlashadi. 1452-yilda yosh Husayn Hirot hukmdori Abulqosim Bobur saroyiga xizmatga kiradi. 1469-yili Husayn Mirzo Hirot taxtini egallaydi. Sulton Husayn hukmronlik qilgan davrda Xuroson fuqarolari birmuncha osoyishta va farovon hayot kechirgan. Ayniqsa, uning vaziri Alisher Navoiyning sa'y-harakatlari natijasida ma'muriy va madaniy inshootlar qurilgan.

Sulton Husayn Boyqaroning hukmronlik davrida Hirot fan va madaniyat markaziga aylangan edi. Ana shunday sharoitda Husayn Boyqaro yozuvda turk tilini iste'molga kiritish borasida maxsus farmon bergan.

Husayn Boyqaro fors va turkiy tillarida g'azal bitish iqtidoriga ega bo'lsa-da, asosan, turk tilida "Husayniy" taxallusi bilan ijod etgan. U haqda Alisher Navoiy o'z asarlarida ko'p yozgan. "Majolis un-nafois"ning 8-majlisi Husayniyga bag'ishlangan.

1506-yil bahorida Sulton Husayn Boyqaro Muhammad Shayboniyxonga qarshi kurashga otlanadi, biroq ahvoli og'irlashib, qo'shinni to'xtatishga qaror qiladi. 1506-yil 5-mayda 69 yoshida olamdan o'tadi.

G‘AZALLAR

Bo‘ldi gul vaqtiyu men dard-u g‘amida mubtalo,
Ishq o‘tidin loladek bag‘rimda yuz dog‘i balo.

Holi zorin, men kibi sultondin ayru tushgali,
Yaproq ermas, guldakim yuz til bila aylar ado.

Men bilur erdimki, yo‘qtur intiho ishqimda hech,
To guli vasling bila qildim muhabbat ibtido.

Loladek may jomini tutgil g‘animat, gul chog‘i.
Xosaikim, ishrat urdi bulbuli bedil sado.

Gar Husayniy, topmadi barge jamoling bog‘idin,
Bu chamanda, ey guli navras, sanga bo‘lsun baqo.

* * *

Firoqingda xasta ko‘nglum qatra-qatra qon erur,
Olloh-olloh, bu ne hajri behad-u poyon erur?

Har sari yuz zahm erur jismimda, vah, nozij bila
Hajr o‘qidin har jarohat ichra bir paykon erur.

Ko‘z qilur bu vajhdin tunlar duri ashkin nisor —
Kim, xayoling jon uyida bir kecha mehmon erur.

Xanjari javring durur o‘tlug‘ ko‘ngul osoyishi,
Suv nechukkim, tashna lablar dardig‘a darmon erur.

Ey Husayniy, hajr aro bexudlug‘um ayb etmagay,
Har kishikim bir pari ishqida sargardon erur.

* * *

Ey ko‘ngul, ul dilraboning o‘zga yori bor emish,
Vah, sanga dushman bo‘lub, ul o‘zgalarga yor emish.

Har zamon yuz bor dil ozoridin ko‘nglumdadur,
Vahkim, ozori buzuq ko‘nglumda muncha bor emish.

Dardi ishqing sharhini ko‘zumga degach to‘kti yosh,
Vahki, oni yor sog‘indim, ul vale ag‘yor emish.

Zor o‘lub ishqida ozori kelurni bilmadim,
Zorlarg‘a ishqdin kelgan nasib ozor emish.

Yuz ochib o‘rtar meni, vah, ishq o‘tidin ne gila -
Kim, manga o‘t solg‘uchi ul otashin ruxsor emish.

Hajrida bechoralig‘din oh-vovaylo ne sud -
Kim, balolig‘ ishq ila bechoralig‘ nochor emish.

Ey Husayniy, der eding ul dilraboni bevafo,
Men ham ani mubham etibmenkim, oncha bor emish.

* * *

G‘unchani og‘zing desam, naylay aning guftori yo‘q,
Sarvni qadding desam, netay aning raftori yo‘q.

Oyni ne yanglig‘ sanga nisbat qilurkim, husn aro
Sarvdek ham qaddi yo‘q, ham gul kibi ruxsori yo‘q.

Zulfungga sunbulni ne nav’ aylagay tashbihkim,
Ham diloso atri yo‘q, ham jon rishtasidek tori yo‘q.

Ayta olmon la’lingga yoqut o‘xsharkim, oning
Ham chuchuk ta’mi-yu, ham jonbaxshliq osori yo‘q.

Gar raqibingdin meni o‘ksuk ko‘rarsen tong emas,
Kimki oshiq bo‘ldi itdin kam ham oning ori yo‘q.

Istasang ko‘nglumga osoyish qadah tut, soqiyo,
Kim dame yo‘qkim ulusdin yuz tuman ozori yo‘q.

Ko‘yida itti Husayniy ko‘ngli, tong yo‘q, istasa -
Kim, bo‘lubtur onda bir devonayi afgori yo‘q.

* * *

Chun junun zanjiriga bo‘ldum giriftor, ey ko‘ngul,
Bo‘lg‘asen men telba holidin xabardor, ey ko‘ngul.

Qochsam ul zanjir ila ovoralig‘ sahrosiga,
Qilma holimni xirad ahlig‘a izhor, ey ko‘ngul.

Qo‘yki davronning jafo oyin eli bedodidin,
Bo‘lmasin hargiz alar ichra padidor, ey ko‘ngul.

Anda ham qo‘ymay topib, “devonadur”, deb bog‘labon,
Sudrab eltur bo‘lsalar xalqi sitamkor, ey ko‘ngul.

Keldi ul mahvash mening jonimg‘a bedod etgali,
Emdi mendin lahzaye ayrilma zinhor, ey ko‘ngul.

Shoyad ul yanglig‘ tomosho sori mahvshlar bila
Kelgay ul shamshod qaddu mohruxsor, ey ko‘ngul.

Ko‘rgach oni gar Husayniy yanglig‘ etsang tarki hush,
Hasratida qilg‘asen jonimni iysor, ey ko‘ngul.

* * *

Necha kuygay hajr ila farsuda jonim dam-badam,
Hajridin ko‘nglumga yuz g‘am, g‘am uza dard-u alam.

Yor bordi ko‘zdinu ko‘nglimda furqat shiddati,
Hajri bedod ayladi, jonimg‘a davron javr ham.

Kecha-kunduz jonima, vahki, balolar yuz qo‘yub,
Shom to subh uyqu yo‘qdin ko‘ngluma yuz ming sitam.

Hajr aro sabrim yo‘qi anduh aro ko‘p muztarib,
Ashkdin seli balo, oh o‘tidin har dam alam.

Barcha bir sori-yu yo‘qtur yor vaslidin umed,
Topkasen vasl, ey ko‘ngul, ul damki bo‘lg‘aysen adam.

Ey Husayniy, motamim sharhini dedimkim yozay,
So‘zidin ham safhag‘a o‘t tushti, ham kuydi qalam.

* * *

Ey sabo bergil xabar, sarvi ravonim keldimu,
Jon isi sendin kelur, ruhi ravonim keldimu?

Hajr dashtida mungrab qolmish erdi xasta jon,
Vah dengizkim, ul g‘aribi notavonim keldimu?

Kelgan ermish xo‘blar ishq ahli qonin to‘kkali,
Ey ko‘ngul, ko‘rkim mening qatlimga jonim keldimu?

Zulfida sen band-u, men ko‘yida bemor, ey ko‘ngul,
Za’fdin dekim, sanga munglug‘ zabonim keldimu?

Yor mehmon bo‘lsa jism uyiga, jon aylay nisor,
Aytingiz, ey do‘stlarkim, mehmonim keldimu?

Rahm etib bir kun Husayniyni itingdin so‘rg‘asen,
Ul malomat ko‘yida itgan yamonim keldimu?

* * *

Bir quyosh hajrida chektim o‘tlug‘ afg‘on bu kecha,
Kuymakim dudidin o‘ldi charx giryon bu kecha.

Ul quyosh hijronida har bir qarosi shaklidin
Qo‘ydilar har bir ko‘zum bir dog‘i xirmon bu kecha.

Shomi hijronimni bilmonki, bu yanglig‘ tuyradur,
Yo qilibtur dudi ohim oyni pinhon bu kecha.

To‘kti kavkab furqating shomida ko‘zum onchakim,
Qoldi gardun yuz tuman ko‘z birla hayron bu kecha.

Ey ajal, dodimg‘a yetgil bu qatig‘ holatdakim,
Yo‘qturur paydo mening shomimg‘a poyon bu kecha.

Parchaming tong elidin oshufta bo‘lmush bu kecha —
Kim, qilibdur ro‘zg‘orimni parishon bu kecha.

Ey Husayniy, yorning ko‘ksimga yetgan novakin,
Jon berib qildim buzug‘ ko‘nglumg‘a mehmon bu kecha.

* * *

Voy, yuz ming voykim, sarvi ravonim bordilo,
Sabr-u hushim mulkidin oromi jonim bordilo.

Rishtayi jonim bila vasli aning payvand edi,
Jovidon furqat kelib payvandi jonim bordilo.

Kim bila angizi mehr etkaymen emdi, ey ko‘ngul,
Chunki Mehrangiz otlig‘ mehribonim bordilo.

So‘rma jonim holidin, dog‘i jahon iqbolidin,
Ey rafiqi mehribon, jon-u jahonim bordilo.

Notavon bo‘lsam g‘arib ermas aning hijronidin,
Ne uchunkim ul g‘aribi notavonim bordilo.

Garchi istab topmadim, lekin ko‘zumdin borg‘ali,
Oni istab yuz sori ashki ravonim bordilo.

Ey Husayniy, hajrida topsam haloki jovidon,
Qilmag‘il hayrat, hayoti jovidonim bordilo.

* * *

Vahki, g‘am dashtida itgan notavon ko‘nglum qani,
Tarki jonim aylagan bexonumon ko‘nglum qani?

Ne nishonidin xabar toptim, ne otidin asar,
Hajr vodisinda benom-u nishon ko‘nglum qani?

Demakim, joningg‘a orom istasang topshur ko‘ngul,
Sen burun ko‘rgandek, ey oromijon, ko‘nglum qani?

Lutflar qilmish jahon rasvosi ushshoqig‘a yor,
Vah, muningdek chog‘da rasvoyi jahon ko‘nglum qani?

Sel sochar gulbargi bo‘ston ichra ul oy boshig‘a,
Bu mahalda tomg‘udek har qatra qon ko‘nglum qani?

Sen xud aytursenki, ishq ichra kerak ko‘nglumg‘a sabr,
Sabr etarg‘a, ey rafiqi mehribon, ko‘nglum qani?

Eyki, dersenkim Husayniy o‘zgaga bermish ko‘ngul,
O‘zgaga bermak uchun, ey badgumon, ko‘nglum qani?

* * *

Hech musulmong‘a, nigoro, dog‘i hijron bo‘lmasun -
Kim, visolingdin judo bo‘lsa, anga jon bo‘lmasun.

Ko‘z uchidin novaki javrung bila o‘ltur mani,
Domani poking, begim, nogah yana qon bo‘lmasun.

Xasta ko‘nglum bandi zulfungdin parishondur base,
Jam qilg‘il sunbulingnikim, parishon bo‘lmasun.

Jong‘a yettim dilbari nodon elindin, oh, oh!
Hech kishining dunyoda mahbubi nodon bo‘lmasun.

Jon berurda kelib o‘ltur, bir dame ko‘ray seni -
Kim, Husayniy ko‘nglida, ey do‘st, armon bo‘lmasun.

ALISHER NAVOIY G‘AZALIGA MUXAMMAS

La’li jonbaxshindin ayru obi hayvonni netay?
Hardam ar yuz jon berur, jononasiz jonni netay?
Gar emas manzur yuzing, hur-u g‘ilmonni netay?
Gulshani ko‘yungdin ayru bog‘i rizvonni netay?
Boshima gar gul sochar, sensiz gul afshonni netay?

Hajri anduhida to gulshan aro qildim guzar,
Sarv bo‘yi qomatingning naxlidin berdi xabar,
Lekin oning vaslidin ne bahra topdim, ne samar,
Naxli qadding chun emas giryon ko‘zumda jilvagar,
Juibor atrofida sarvi xiromonni netay?

Jism-u jonni istamon, billahki, jonondan judo,
Ko‘rsang ul mahvashni, holim arz etib ayt, ey sabo,
Lek zinhor ollida bu nav qilg‘aysen ado,
Ul itingga bo‘lmasa to‘ma navolingda fido,
Za’flik paykarni naylay, notavon jonni netay?

Birdam, ey ahbob, har sori qoshimdan ketmangiz,
Harnakim derman muvajjah bo‘lmasa, eshitmangiz,
Buki derman chehradin qonlig‘ yoshim oritmangiz,
La’lgun ashkim labi hijronida ayb etmangiz,
Ko‘z yo‘lidin to‘kmayin bag‘rimdagi qonni netay?

Bu ajabdurkim, sanga ma’lum bo‘lmaydur bu sir -
Kim, erurmen la’li shavqidin o‘lumga muntazir,
Gar suyungdin har nafas yuz jom bersang, bor muzir,
Zulmati hajrida chashmang vasfin etma, ey Xizr,
Menki umrumdan to‘yibmen, obi hayvonni netay?

So‘z ilojimdan dema, ey bahri ishq ichra g‘ariq,
Kim bo‘lubtur deb g‘amingdin dog‘ ila jisming hariq,
Gar manga borsen muhibbu mushfiq-u yor-u shafiq,

Dog‘ima marhamni ko‘p taklif qilma, ey rafiq,
Tuttum ul dog‘im o‘ngaldi, dog‘i hijronni netay?

To ayirdi mendin ul mahvashni charxi kajnihod,
Ey Husayniy, telba ko‘nglum bo‘lmadi bir lahza shod,
Oqibat chun topmadim ul sho‘x vaslidin murod,
Yordin ayru buzug‘ ko‘nglumga qildim xayrbod,
Ey Navoiy, o‘yla ganj o‘lmay chu vayronni netay?

TO‘RTLIKLAR

Ko‘rsatma chamanda sarvi yo‘ldosh manga —
Kim, ko‘rganidan ko‘zdin oqar yosh manga.
Indursa ne bo‘ldi har nafas bosh manga,
Ul sarvi ravonki, bo‘ldi bo‘ydosh manga.

* * *

Ul sho‘xki birdam manga hamdam bo‘lmas,
Zaxm ursa firoqi, vasli marham bo‘lmas.
Ishqida ko‘ngul nasibi juz g‘am bo‘lmas,
Ko‘ngul ko‘taray desam, ko‘ngul ham bo‘lmas.

MUHAMMAD SOLIH

(1455–1535)

Epik va lirik shoir Muhammad Solih Xorazm hokimi amir Nursaidbek oilasida tug'ilgan. Avval Xorazmda savod chiqargach, Hirotga borib, Abdurahmon Jomiydan ilm o'rgangan. Husayn Boyqaro va boshqa temuriylar saroyida ma'lum muddat xizmat qilgan. 1499-yil Shayboniyxon xizmatiga kirgan. Buxoro, Chorjo'y, Niso viloyatlariga hokimlik qilgan. "Amir ul-ulamo", "Malik ush-shuaro" unvonlariga sazovor bo'lgan. 1507–10- yillarda Hirotda yashagan. Shayboniyxon vafotidan so'ng Buxoroga qaytgan.

Muhammad Solih turk va fors tillarida ijod qilgan. She'rlari ishqiy, biografik, siyosiy mavzuda yozilgan. Tarixiy doston — "Shayboniynoma"ning muallifi. Doston 8880 misra, 76 bobdan iborat. Asarda XV asr oxiri — XVI asr boshlaridagi voqealar aks etgan. Dostonning shoir hayotligida Qosim kotib tomonidan 1510-yilda ko'chirilgan qo'lyozma nusxasi Venada saqlanadi. Shuningdek, Muhammad Solihning "Laylovu Majnun" nomli turkcha go'zal dostoni borligi haqida (Vamberi) xabar bor. "Qomus ul-a'lom" va "Noz va Niyoz" manzumalarida ham Muhammad Solihga nisbat berilgan, biroq Nisoriy "Muzakkiri ahbob" tazkirasida uning muallifini Baqoiy deb ko'rsatadi.

"SHAYBONIYNOMA"DAN

Hamd angokim, tilim etti go'yo,
Hamd angokim, ko'zum etti bino.

Hamd angokim, tanima jon berdi,
Hamd angokim, manga imon berdi.

Hamd angokim, manga ishq etti nasib,
Qilmadi aql diyorida g‘arib.

Ayladi ishqi ila jonimni yor,
Qilmadi aqli qo‘lida meni zor.

Ishqdin ayladi jonimni shod,
Ishqdin qildi ravonimni shod.

Ishqdin qildi tilimni go‘yo,
Ishqdin qildi ko‘zumni bino.

Shukurkim, ishq ila lutf ayladi jon,
Shukurkim, ishq ila berdi imon.

Ishq agar qilmasa erdi in’om,
Bor edi borcha ishim nofarjom.

Maza topmas erdim bu jondin,
Lazzate qilmas edim imondin.

Ishqsiz ne keraki bordur jon,
Ishqsizga ne keraktur imon?

Zohiran jon deganim ishq o‘zidur,
Balki imon deganim ishq o‘zidur.

Ishq andindur-u ham jon andin,
Jon aro lazzati imon andin.

Ishqning mayllari andin pursho‘r,
Ishq mayxonasi andin ma’mur.

Mastlar anda aning zikri bila,
Rindlar barcha aning fikri bila.

Xum aning shavqi bilandur purjo‘sh,
Yo‘qsa qaydindur ango muncha xuro‘sh.

Xum aning shavqi bila chun to‘ldi,
Barcha mayxona ulug‘i bo‘ldi.

Poytaxti bo‘lubon mayxona,
Ko‘roga birla tuzub paymona.

Podshohona asose qurdi,
Borchag‘a fayz yetkura turdi.

Kimki yetkurdi o‘zin xidmatig‘a,
Xidmat aylab yurudi hazratig‘a.

Ul ani qo‘ymadi hargiz mahrum,
Bu ishi borchag‘a bo‘ldi ma’lum.

Har kim o‘z hafsalasig‘a yarasha,
Har kim o‘z silsilasig‘a yarasha.

Topti aning karamidin in’om,
Chi yamon-yaxshi, chi xos-u, chi avom.

Kimki kelturdi qoshig‘a ko‘za,
Qildi ango yarasha daryuza.

Ul aning ko‘zasini to‘ldurdi,
Zarfi daryuzasini to‘ldurdi.

Kim surohi bila ko‘rguzdi niyoz,
Ango loyiq tarabin ayladi soz.

Kim piyola ila qone’ bo‘ldi,
Zarfi holig‘a yarosha to‘ldi.

Chun aning fayzini ko‘rdilar om,
Qolmadi hech kishiga orom.

Keldilar borcha aning xidmatig‘a,
Ofarinlar deb aning himmatig‘a.

Har kishi topqonini kelturdi,
O‘zini xidmatig‘a yetkurdi.

Qoysi chini qadah olib keldi,
Ko‘nglini aning ila xush qildi.

Qoysi kelturdi Halab shishasini,
Ne Halab, aysh-u tarab shishasini.

Qoysi oltun ayog‘ oldi qo‘lig‘a,
Qo‘ydi mastona boshini yo‘lig‘a.

Qoysi paydo qilibon nuqrayi xom,
Xomlikdin yosadi andin jom.

Qoysi ishkasta safole topti,
Borib aning bila xole topti.

Ul ko‘rub borchalarining zarfin,
Demadi hech malolat harfin.

Borchaning zarfig‘a quydi boda,
Qildi ishratlarini ǒmoda.

Moyayi aysh-u tana’umdur bu,
Ollo, ollo, ne ajab xumdur bu?

Ajab ushbuki, agar daryo-ye,
Aylasa jilvagahin sahro-ye.

Birov aning yaqosig‘a kelsa,
Bir ariq fikrini ando qilsa.

Arig‘ini qozibon olsa suv,
Arig‘ig‘a yarasha solsa suv.

Ne qadar suvki ariqqa solur ul,
Ne qilibon, ne qadarkim olur ul.

Ul qadar suv kam o‘lur daryodin,
Ango suv hamdam o‘lur daryodin.

Ushbu xumdin necha olsa kishi,
Qadah-u jom ichiga solsa kishi.

Hech kam bo‘lmas o‘shul xumdin, hech,
O‘ksumas hech tana’umdin, hech.

Bu na xumdur, bu na maydur, bu na jom?
Bu na lutf-u, bu na judu in’om?

Bu xum-u, bu may-u jom andindur,
Borchaning ayshi tamom andindur.

Birining botinidin xum yosadi,
Sababi aysh-u tana’um yosadi.

O‘z sharobi bila to‘ldurdi ani,
Ani ul naqd bila qildi g‘ani.

Ani qilg‘och g‘ani-yu sohibi toj
Ayladi ahli talabni muhtoj.

Ul ko‘rub ahli tarabni ul tavr,
Jonlari ichra shag‘abni ul tavr.

Har kishining talabig‘a yarasha,
Talab ichra hasabig‘a yarasha.

Ul musaffo mayidin yetkurdi,
Ani ham hukm bila jub ko‘rdi.

Hukm aning, tolib aning, pir aning,
Ro‘y aning, sog‘aysh-u tadbir aning.

Hokimi jumlayi hukkom uldur,
Manshayi jumlayi ahkom uldur.

Ul agar aylamasa lutf izhor,
Lutf topmoq bo‘lur asr-u dushvor.

Judidin borcha jahondur ma’mur,
Judidin borcha ulusdur masrur.

Jud aning, lutf ila in’om aning,
Xum aning, boda aning, jom aning.

Xumidin tashnajigarlar serob,
Bodasidin tarab arbobi xarob.

Xumidin so‘xta dillar xushhol,
Mayidin boshlari yo‘lda pomol.

Xumidin xasta yuraklar qonlig‘,
Mayidin dilshodalar armonlig‘.

Xumidin hirs-u havo zarfi tahi,
Mayidin oz-u havas harfi tahi.

Xumidin faqr-u fano jomi to‘la,
Mayidin dard-u balo jomi to‘la.

Xumig‘a hojat emas paymona,
Mayig‘a hojat emas mayxona.

Xum-u paymona so‘zi ko‘p bo‘ldi,
May-u mayxona so‘zi ko‘p bo‘ldi.

Qaydakim boda bo‘lur, so‘z ko‘b o‘lur,
Bo‘lsa ham boda bila so‘z xo‘b o‘lur.

Xosa bu bodaki bor ul xumdin,
Borchag‘a nuqta guzor ul xumdin.

Man ham ul xumdin o‘lubman purjo‘sh,
Ul sababdin tura olman xomush.

Man ham ul maydin o‘lubman go‘yo,
Na dedim, mast bo‘lubman go‘yo.

Mast bo‘ldum, mango ta’zir kelur,
Sohibi shar’i mungo hukm qilur.

Sohibi shar’idur ul xum deganim,
Sababi aysh-u tana’um deganim.

Haq bila banda aro vosita ul,
Nozim-u qoidavu zobita ul.

May degan fayzi ilohi, angla,
Ishrati nomutanohi, angla.

Fayzlar borcha ango foiz o‘lur,
Fayzlar borcha ango o‘q o‘kulur.

Ondin o‘zga yoyilur olamg‘a,
Yetishur borcha bani odamg‘a.

Borcha olamdin ani saylabdur,
O‘ziga ani habib aylabdur.

MUHAMMAD SHAYBONIY

(1451–1510)

Shayboniylar sulolasining asoschisi Muhammad Shayboniyxon hukmdor Abdulxayrxonning nabirasi Shoh Budoqxonning o'g'li 1451-yil tug'ilgan. Asl ismi Muhammad Shoh Baxt ("Shoh baxti"), Shayboniy, Sha'boniy uning taxallusi. Bobosi Abdulxayrxon vafotidan so'ng (1469) Shayboniyxon hokimiyat uchun kurash olib borib, o'zbek qavmlarini birlashtirishga harakat qilgan. Shayboniyxon Dashti Qipchoqda o'z davlatini tiklashga muvaffaq bo'ldi.

Buxoroda hofizi Kur'on Muhammad Xitoyi unga dars bergan. Shayboniyxon o'z davrining ma'rifatli kishisi. Shayboniyxon 1510-yil Marv yaqinida Eron shohi Ismoil Safaviy bilan bo'lgan jangda halok bo'lgan. Shayboniyxon tarixiy asarlar yaratilishida ishtirok etgan. "Tavorixi guzidayi nusratnoma" asarining yozilishida ishtirok etgani manbalardan ma'lum. Shayboniyxon o'zini "imom az-zamon va xalif al-rahmon" deb atagan. Shayboniyxon hukmronligi davrida tarixiy va badiiy adabiyotda o'zbek tilining mavqeyi kuchaydi. Xonning buyrug'i bilan fors tilidagi va mo'g'ul yozuvi bilan bitilgan asarlar turk tiliga tarjima qilingan.

Muhammad Solihning "Shayboniynoma", Kamoliddin Binoiyning "Shayboniynoma", Mulla Shodining "Fathnoma" asarlarida Muhammad Shayboniyga nisbat berilgan she'rlar tilga olinadi. Muhammad Solih Shayboniyxonning she'riy asarlarini yuqori baholab, uni yuksak ma'lumotli kishi deb ta'riflaydi. Shoirning "Devon"i Turkiyada saqlanadi, "Bahri-l-hido" nomli qasidasi AQSH kutubxonalaridan birida topilib, ilmiy muomalaga kiritilgan. "Devon"i tarkibida 320 ta g'azal, 25 ta ruboiy, 13 ta tuyuq, 5 ta ta'rix, 46 ta muammo, 2 ta chiston, 1 ta masnaviy hamda 1 ta murassa'noma va 10 nasriy matn mavjud.

Eyki sen, har mazharing sirrini bilgan bir-u bor,
Qilding o‘sh fazling bila oshiqlaring‘a iftixor.

Qatra suni lutfung irla ul sadaf qursoqina
Lu’lu’i lolo qilursen, balki durri shohvor.

Ey, sening zoting bizing ta’rifimizdin beniyoz,
Ey, sening lutfung-u judung behisob-u beshumor.

Avval-u oxir sen-o‘qsen barcha olamda ayon,
Barcha olamda qilibsen qudratingni oshkor.

Yo Iloh ul-olamin, biz bandalarg‘a rahm qil,
Sen karamdin uzrxohu biz xatodin sharmisor.

Kirdigoro, sensen ul qodirki o‘z hukmung bila
Osmonlarg‘a uruju yerga beribsen qaror.

Yuz qo‘yarlar hazrati judingga donishmand-u shayx,
Bosh qo‘yarlar xoki dargohingg‘a shoh-u shahriyor.

Kofir-u mo‘minga qilding izzatingni behisob,
Kimsakim lutfungdin ayrilsa, bo‘lar bee’tibor.

Emdi senkim Shohbaxt holig‘a lutfung birla boq,
Ey karimi zul-jalol, ey qodiri Parvardigor.

* * *

Haq taoloning habibi kim turur,
Ahmad-u Mahmud-u Mahbub ul turur.

Barchadin burun kelib so‘ngra qolib,
Avval-u oxir Muhammad ul turur.

Bir-u boring ibtidosin kim sanar?
Oxirinda intihosin kim bilur?

Vasfin aning Haq qilur Qur'on bila,
Turlu-turlu mo'jizotin ul qilur.

Anbiyolar avvalinda shoh edi,
Oxirinda dag'i sulton ul turur.

Seni sevdim, senga kelturdum imon,
Kufr-u zulmat tug'larin ul kuydurur.

Ey Muhammad, bizni ko'r ming yil yiroq,
Yugrubon yo'lungda o'sh boshim borur.

Men seningmen, senga-o'q qildim umid,
Sendin o'zga meni kim o'tdin olur.

Bu Sha'boniyning sevari shar'idur,
Ning uchun ko'zidan yosh oqdurur.

* * *

Ey ko'ngulnung bulbuli, sen bo'zla bo'ston borida,
Bo'lmag'il xomush sen emdi ushbu daston borida.

Ne so'rarsen bilki mendin, aytayin, ey dardmand,
G'uncha sari boqmag'aymen la'li xandon borida.

Bog' ichinda sunbul-u gul asr-u ko'p xushbo' erur,
Mushk-u anbar islaman ul zulfi rayhon borida.

Sarv-u gul, bilman, nechun ul bog'bondin su tilar,
Ey ko'zum, qil parvarish bu kavkabafshon borida.

Ey Sha'boniy, kechalar yorning xayoli xush turur,
Ne keraktur emdi senga ushbu mehmon borida.

* * *

Chunki Haq qildi inoyat bizga izzu taxt-u toj,
Biz taqi shukronag‘a berduk shariatga rivoj.

Shar’ yo‘lun tuzduk andoqkim, jahon atrofidin
Barcha sultonlar kelib, kelturdilar behad xiroj.

Ehtiyojim buki, ko‘rgaymen yuzungni bir nazar,
Oy yuzung nazzorasi ahli nazarga ehtiyoj.

Har jafo-yu javr agar qilsang turubmen jon bila,
Men emasmen o‘zga oshiqlar kibi nozuk mizoj.

Bu Sha’boniy garchi xon o‘ldi, gadoyingdur sening
Kim, fido aylar senga yuz ming muningdek taxt-u toj.

* * *

Ko‘nglum o‘ldi g‘unchaning ochilg‘anidin chokrok,
Ashki to‘lgan sabzalardin ko‘zlarim namnokrok.

Naylasun bechora bulbul nola-yu afg‘on ila,
Oy yuzining partavi gul xirmanidin pokrok.

To sanavbar soyatek solg‘ay ayoqing oldida,
Jilva qilg‘il bog‘ ichinda sarvdin cholokrok.

G‘amzasining o‘qlaridin xasta jonim naylasun,
Kirpuki paykonlaridin bo‘ldi ko‘nglum chokrok.

Har gadolardek eshikda qilmag‘il sen darbadar,
Bo‘lsam erdi koshki men eshigingda xokrok.

Bok emastur ishqida ichsa mayi mayxonadin,
Yo‘qturur olamda mendek oshiq-u bebokrok.

Bu Sha’bonni ul parivash ko‘zga ilmas har zamon,
Bil, parishon zulfidin ko‘nglum erur g‘amnokrok.

* * *

Barcha ulus manda sig‘ar, man bu ulusa sig‘masam,
Yaxshi-yomon manda sig‘ar, man bu mo‘g‘ula sig‘masam.

Yaxshi man-u, yomon man-u, man bu jonim bila man-u,
Jonim bila man bu jahon ichinda yana sig‘masam.

Mast man-u, Majnun man-u, bug‘ro man-u, qator man-u,
Muncha qator manda sig‘ar, man bu qatora sig‘masam.

So‘fimidur, zohidmidur, necha suruk boshlab turur,
Man bu suruk qo‘chqorimen, man bu qiboba sig‘masam.

Sha’boniydur, Shayboniydur, piri Hofiz Buxoriydur,
Qozi bila mufti nedur, man bu kitoba sig‘masam.

* * *

Daryoyi ishqingni kezib hargizki poyon topmadim,
Men mubtalo girdobida qoldimki, darmon topmadim.

Ne der menga emdi ko‘ngul, bo‘lsam bu daryo g‘arqasi,
Javhar tilab daryosidin bir zarra farmon topmadim.

Shul daryoningki durlari sadafda bo‘ldi bilmasam,
G‘uncha dahanin doimo, bilgilki, xandon topmadim.

Nedin bo‘lub shul dilbari, ne javhari zoti aning,
Ne juyim emdi, ey yoron, erniki sulton topmadim.

Aning ko‘yinda oy yuzin ko‘rmakka kechib boshtin,
O‘ynarg‘a shul maydonida tanimda chavgon topmadim.

Bezor erurmen jondin sevar nigori bo‘lmasa,
Kishiki bo‘ldi oshiqki, anda g‘ami jon topmadim.

Yurur Sha’boniy tinmayin davlatqa yo‘luqqaymu deb,
Aning yo‘linda, do‘stlar, zarra pushaymon topmadim.

Ul parining ishqini ko‘nglumda payvand aylayin,
Bu ko‘ngul qushin aning zulfi bilan band aylayin.

Telba bo‘ldum ul mo‘g‘ulchin hajrini men chekkali,
Telbalar ko‘yinda men nechuk xiradmand aylayin.

Hajr bahrinda visolin izdasang, ey ahli dil,
Men aning yodi-xayoli birla xursand aylayin.

Hech bir ko‘nglum tinar yer yo‘qki, yorni saqlasam,
Aning uchun qaysi bir yerni Samarqand aylayin.

Zulfining savdosida chiqmas malomat ko‘yidin,
Necha ul telba ko‘ngulni, zohido, band aylayin.

Garchi doim man etar bo‘lsa meni yor ishqida,
Yolboribon men aning ishqinda savgand aylayin.

Bu Sha’boniykim, aningdek ko‘rmadi bir yaxshi ko‘y,
Qaysi bir yerni aning ko‘yiga monand aylayin.

* * *

Kezdim bu ishq shahrin aysh-u tarab barobar,
Ko‘rdum aning bozorin har ro‘z-u shab barobar.

Xalqini ko‘rdum aning biri-biriga do‘sttur,
Nomus-u nang birla anda nasab barobar.

Sen emdi tolib ersang, piri mug‘ona borg‘il,
Mayxonadin may ichkil, nom-u laqab barobar.

Har kim bu shahrdin jomi shariat ichsa,
Bilgilki, ahdig‘a ul qilg‘ay arab barobar.

Bo‘ldi bu ishqbozi semurg‘i Qoba kavsayn,
Manzilgohidur Adno, anda ajab barobar.

Ul ko‘ydagi kishilar g‘am-g‘ussadin qutulg‘ay,
Ul vodiyning ichinda shod-u taab barobar.

Sha’boniy, ul shahrning sirrini kishi bilmas,
Seni ul ahli dilg‘a qilg‘ay Chalab barobar.

* * *

Ey, menga bilman nedin mundog‘ alam keldi yana,
Seni ko‘rub ishq o‘ti boshdin yana keldi yana.

G‘unchadek ko‘nglum g‘ami hijronidin qon bog‘ladi,
Mujdayi vaslin eshitib ko‘nglum ochildi yana.

Hajr o‘tinda notavon ko‘nglum firoqing kechasi,
Shamtek boshtin-ayoq furqatda yoqildi yana.

Ko‘zlar erdim ishqni eldin va lekin, naylayin,
Holatim Majnun kebi olamg‘a yoyildi yana.

Furqat otindin yiqildim, yor keldi so‘rgali,
Ey Sha’boniy, yor dardinga davo qildi yana.

* * *

Qoshining yoyi yozilmish mohitobonig‘acha,
Zulfini o‘yla soliptur qaddi poyonig‘acha.

Ko‘rdunguz ko‘kda bulutni qildi yuzini qora,
Yetti ohimning tutuni yetti ayvonig‘acha.

Kirpukingning o‘qlari achti susab g‘uncha ag‘iz,
Rang olur ko‘nglum qonindin o‘qi paykonig‘acha.

Ancha kizlar erdim ushbu ishq sirrin el aro,
Oshikora qildi ko‘zum yoshi pinhonig‘acha.

Kelmasun hargiz iting‘a furqatining mehnati,
Furqating iti tugatti eyu et qonig‘acha.

Naylasun bechora bulbul hech muyassar bo‘lmasa
Kim, fig‘ondin o‘yla yong‘ay, bilki, domonig‘acha.

Bo‘lmag‘onidin ne g‘amdur mehmoni yor ham,
Bu Sha’boniy o‘yla tuhfa qildi o‘sh jonig‘acha.

* * *

Visoling fikrida, ey gul, xayolim sad hazor o‘ldi,
Ajab gar Laylig‘a Majnun meningdek intizor o‘ldi.

Yuzungnung shami ruxsorin, angib parvonadur ko‘nglum
Ki, yuzung shu’lasi ko‘rub base beixtiyor o‘ldi.

Qadding ohista ellardin netak tebranadur doim -
Ki, eltek oshiqing ani ko‘rubon beqaror o‘ldi.

Qadam yer yuziga qo‘yma, mening ko‘zumga qo‘y, jono -
Ki, izzatin tanim tufrog‘-u tufrog‘im g‘ubor o‘ldi.

Sikandar kibi sargardonmen-u obi hayotim sen -
Ki, hajringda yoshimning durlari barcha nisor o‘ldi.

Bo‘stonda sen ul sarviravonsen, ey guli ra’no
Ki, sensiz yer yuzi qonliq yoshimdin lolazor o‘ldi.

Munosib yo‘qturur tavbang, Sha’boniy, yoz faslinda,
Qadah ich, tavbani sindurki, ayyomi bahor o‘ldi.

* * *

Muanbar sochlaring, jono, meni olamg‘a fosh etti,
Solib boshimg‘a yuz savdo, junun ahlig‘a bosh etti.

Muattar zulf ila xoling menga yetmasmu, ey dilbar,
Munavvar qildi ko‘zumni, mudavvar yuzda qosh etti.

Nihoni ko‘yinga bordimki, ruxsoringni ko‘rgaymen,
Iting meni ko‘rub afg‘on qilib, mardumshunos etti.

Yuzi o‘tluq, ko‘zi suluq, bu surat bas ajoyiptur,
Yuzi ko‘nglumg‘a o‘t soldi, ko‘zumni ham adosh etti.

Sha’boniy notavon bo‘ldi pari yuzluk mo‘g‘ulchindin,
Firoqi bag‘rini yoqti, ko‘zini to‘la yosh etti.

* * *

Ne bilg‘aysen, bu daryoning bepoyoni hamin bo‘lg‘ay
Buxori osmon bo‘lg‘ay, kafi daryo zamin bo‘lg‘ay.

Agar ul gavhari daryo talab qil ilking‘a kirgay,
Yana ul bo‘lg‘ay-u in ham, vale na on, na in bo‘lg‘ay.

Yaqin maydondur ikkilik ikkilikdan hosil bo‘lmas,
Yaqin bo‘lmas gumon bo‘lsa, gumon bo‘lmas yaqin bo‘lg‘ay.

Bu daryoda men-o‘q bo‘ldum, vafosiz bo‘lduqin bilmay,
Aning sirridin ul bilg‘ay, o‘shulki dona chin bo‘lg‘ay.

Agar gavhar sevar kishi bu daryodin nishon topqay,
Nishonin topmag‘ay hargiz, anga nafs hamnishin bo‘lg‘ay.

Biling, nafsingda sohibdil o‘shul iblis turur bilgil,
Agar nafsin sevar kishi ul iblisi la’in bo‘lg‘ay.

Bu nafsning sirrini bilmas, na bo‘lg‘ay bil kamolinda,
Kamoli nafs kishi bilg‘ayki, mardi rohbin bo‘lg‘ay.

Sen ey Shaybon, mahkam bul, sevarsen nuktayi taqvo,
Anga kulmasun so‘filar, imomi ahli din bo‘lg‘ay.

* * *

Ey ko‘ngulnung bulbuli, sen borgil ul bo‘ston sari,
Yoz bo‘ldi, ne tururseп, kelgil ul daston sari.

Har kishiga lozim uldur, so‘zlasa hubb-ul vatan,
Bil, menga so‘z vojib o‘ldi, ushbu Turkiston sari.

Avliyolar sarvari bo‘ldi Xoja Ahmad Yassaviy,
Yassaviyni guzarlab o‘tsam ul Sabron sari.

Avliyolarning tavofin ushbu qozi man etar,
Solibon ushbu huzurni, bormagil vayron sari.

Men dedim taqi angakim: “Sen bu yo‘ldin bexabar,
Eltayin, bizga borursen ganjlar vayron sari”.

Qaysi ganj bo‘lg‘ay aningtek, avliyolar andadur,
Biri Sig‘noq, biri Qilich, biri Turkiston sari.

Taqi bilgil, ushbu O‘tror bo‘ldi koni avliyo,
Avliyolar, bil, ulushin izdadi Sulton sari.

Bil, havosi jonfizo-yu suyidur obihayot
Kim, alarning yigititek bo‘lmag‘ay Doston sari.

Ne so‘rarsen emdi mendin, aytayin sirrimni men,
Bu Sha’boniy orzusi tug‘mish yeri Sabron sari.

RUBOIYLAR

Oshiq kibi hech kishi jafo chekmas emish,
Hech kimsa aning kibi balo chekmas emish.
Oncha tikan urmag‘uncha gul bulbulg‘a,
Oshiq nay navosidek navo chekmas emish.

* * *

Islom boshinga toji torak bo‘lsun,
Yoring tun-u kun Tangri taborak bo‘lsun.
Eshittim, o‘rus kofirini qirmishsen,
O‘g‘lum, senga g‘oziliq muborak bo‘lsun.

TUYUQLAR

Necha dilbar jonima o‘t yoqadur,
Jonimung dardina darmon yoqadur.
Os to‘nung ko‘rganda yonmoq xushturur,
Hashyasinda bilmadim ne yoqadur.

KOMRON MIRZO

(1509–1557)

Shoh va shoir Zahiriddin Muhammad Boburning farzandi Komron Mirzo — shoir va davlat arbobi. Adabiyot, harb va siyosat ilmlarini otasidan o'rgangan.

Otasi hayotligida Qandahor va Kobul hukmroni edi. Bobur vafotidan so'ng Humoyunning farmoni bilan Panjob va Hind daryosi vohasi ham unga topshirildi. Komron Mirzo Afg'onistonda ota mulkini asrab, mamlakatni obodonlashtirishga katta e'tibor beradi. Komron Mirzo Ka'bani ziyorat qilib, uch yil Makkada yashaydi va shu yerda vafot etadi.

Komron Mirzo "Devon"ida 40 g'azal, 21 fard, 26 ruboiy, 3 qit'a, 9 masnaviy va tarkibband (umumiy hajmi 1114 misra) mavjud. Fors tilidagi she'rlari 26 g'azal, 22 fard, 4 ruboiy, 3 qit'a, 4 masnaviy (umumiy hajmi 346 misra)dan iborat. "Devon"ining qo'lyozma nusxalariga kirmagan forsiy g'azal, ruboiy va fardlar turli tazkira va bayozlardan topilgan. Komron Mirzo asosan, g'azal janrida ijod qilgan. G'azallarida ko'proq so'fiyona qarashlar aks etgan.

Shoirning masnaviylari, asosan, irfon va tasavvuf, hikmat va pand-nasihat, axloqiy va ma'naviy mavzularga bag'ishlangan. "Devon" 1556-yili Mahmud bin Is'hoq ash-Shahobiy al-Hiraviy tomonidan ko'chirilgan, Xudobaxsh kutubxonasida saqlanadi.

G'AZALLAR

Sendin ayru har zamon ko'nglum mening g'amnokroq,
Ko'kragim hajr ilgidin pirohanimdin chokroq.

Tig'i mujgon tez etib mastona boqsang, ey quyosh,
Xanjaring bepok-u, andin ko'zlaring bepokroq.

Bir nazar birla bilib dardimmu davo aylading,
Yo‘qturur husn ahlida sendin kishi darrokroq.

Poklar ko‘ngli maqomingdur magar naqqoshi sun’,
Chekmadi surat bu safha Uzrosindin pokroq.

Komron quldur qad-u raftoringakim, yo‘qturur
Qomatingdin bog‘ aro sarvi sixiy cholokroq.

* * *

Sensizin sabr-u qarorim yo‘qtur,
Sendin o‘zga yana yorim yo‘qtur.

Zulf-u yuzini ko‘ray deb tun-u kun,
Vahki, bir lahza qarorim yo‘qtur.

Sarv ila lolani naylay, menkim,
Sarvqad lolauzorim yo‘qtur.

Tiyradur ko‘zuma olam go‘y,
Yo‘lidin ko‘zda g‘uborim yo‘qtur.

Komron borg‘ali ul lolazor,
Umrim bog‘inda bahorim yo‘qtur.

* * *

Nazarda senmu mening, xob yo xayoldurur,
Visol desam agar andishayi maholdurur.

Ne ayshlarki, taxayyul aro ko‘ngul qilmas,
Magarki podshahi olam xayoldurur.

Ul asr-u sarkash-u men ham sanavbar qaddidin,
Ko‘ngulni hech uzolmon g‘aribi holdurur.

Chiqib ulus arosidin kanora tutayin,
Ki, ko‘nglum ichra ulusdin base maloldurur.

Magarki, beling-u og‘zing hadisin ayturlar,
Ki, xurdadonlar aro asr-u qiylu qoldurur.

Sarig‘ yuzuma qizil ashkdinki xat yozdim,
Bahori umr xazon bo‘lg‘anig‘a doldurur.

Yuzungda shohidi ma’noni jilagar ko‘rdum,
Ajab emas desam ul mehr bezavoldurur.

Kamol she’r-u suxanvarlig‘img‘a tutti quloq,
Xo‘jand mulkidakim sohibi kamoldurur,

Gaheki xol-u xatin, Komron, aning ko‘rsa,
Ko‘ngulni boy berur, ko‘zlarini oldurur.

* * *

Zihi har zarradin husnung huvaydo,
Jamoling oftobi olamaro.

Agar zohir, agar botinda sensen,
Ko‘z-u ko‘nglum aro pinhon-u paydo.

Agar yumsam ko‘z, ar har sori ochsam,
Sening husnungni aylarmen tamosho.

Gahi oshiq, gahi ma’shuq etarsen,
Bo‘lub har suvrat ichra oshkoro.

Erur Laylo bila Shirin bahona,
Jahonda sen solibsen sho‘r-u g‘avg‘o.

Qilurmen navhalar Majnun g‘amidin,
Qachonkim xotirimg‘a kelsa Laylo,

Yetishti Komron ul turki sarmast,
Xirad mulkin qilur yag‘mo hamono.

* * *

Yordin keldi xat-u ta’vizi jon bo‘ldi manga,
Qotili hajr ilgidin xatti amon bo‘ldi manga.

Vah, bu ne maktubdurkim, nomayi a’moldek
Yetgach ilgimga saodatqa nishon bo‘ldi manga.

Mehribon sog‘ing‘anim javr-u jafo rasmin tutub,
Mehr tarkin qildi-yu nomehribon bo‘ldi manga.

Doimo yodimdasen bordur bu ma’nog‘a guvoh
Ulki doim voqifi sirri nihon bo‘ldi manga.

Gul’uzoro, zikr-u fikringdin dame xoli eman,
To vatan bulbul kibi bu guliston bo‘ldi manga.

Eshiginda yuz ketursam Komrondek ayb emas,
Ka’bayi maqsud chun ul oston bo‘ldi manga.

* * *

Ul quyosh orazidin parda olib,
Shu’layi xoshok vujudumg‘a solib.

Barcha suvratda qilib jilvayi husn,
Husni yuz vajh ila ko‘nglumni olib.

Har libos ichra urar ishq yo‘lin,
Goh Shirin, gahe Laylo atalib.

Qilichi chok qilib ko‘nglumni,
Kirpigidin yana o‘qlar qadalib.

Hodisa toshlaridin shisha kibi,
Bu qo‘han dayrda ko‘nglum ushalib.

Emdi men azmi xarobot etsam,
Boruram ko‘yida ko‘nglumni solib,

Komron eshigidin borgumdur,
Darbadar ko‘nglum eshigida qolib.

* * *

Ushbu tun ko‘nglumda yor-u ko‘zum erdi masti xob,
Kim yetishti qoyilim yuz noz ila aylab itob.

Xasta ko‘nglum muztaribdur zulfi tobig‘a tushub,
Shast aro tushkan balig‘ yanglig‘ki aylar iztirob.

Xoki rah bo‘ldum, guzar gar qilmasa, ermas ajab,
Men gadoyi benavo, ul xusravi oliyjanob.

Kimki jonon chehrasida ishq sirrin bilmagay,
Ne ajab, andin desa “yo laytani kuntu turob”,

Komron, jonon tamannosi meni pir ayladi,
Ey darig‘o, onsiz o‘tti ahdi ayyomi shabob.

* * *

Ishq aro devona bo‘lsam, ne ajab,
Aqldin begona bo‘lsam, ne ajab.

Xoli o‘lmish xilvatim ag‘yordin,
Yor ila hamxona bo‘lsam, ne ajab.

Yorutur kulbamni ul shami jamol,
Boshig‘a parvona bo‘lsam, ne ajab.

Zohir o'ldi ko'yida rasvolig'im,
Shahr aro afsona bo'lsam, ne ajab.

Ul parivashqa bo'lubmen, oshno,
Komron, devona bo'lsam, ne ajab.

* * *

Barqdek anvori husnung ko'zlarimga chaqilib,
Ko'zdin oqizding ko'ngulni qatra-qatra qon qilib.

Shami husnungni ko'rub bildimki, olamso'zdur,
Soldim o'zni shu'lag'a parvonadek ko'rub bilib.

Jon bila ko'nglumdin ayrildim sanga yetkan zamon,
Emdi, ey jon-u jahon, sendin bo'lurmu ayrilib.

Jon yetibtur og'zima, bo'lg'aymu, ey isonafas,
Bir nafas ollimda o'ltursang iyodatqa kelib.

RUBOIYLAR

To ko'rdum o'shal chehrani hayrondurmen,
Ul zulf havosida parishondurmen,
Ham og'zining asrorida nodondurmen,
Ham husnining avsofida Hassondurmen.

* * *

Hajring meni asir-u notavon aylabtur,
La'ling havasi ichimni qon aylabtur.
Bebarg-u navo aylagoning bulbuldek,
Yafrog' kibi chehramni xazon aylabtur.

* * *

Yo bo‘lsa muyassar kishiga ilm ila hol,
Yo topsa kishi saltanat avjida kamol,
Yo oshiftaye bo‘lsa ko‘rub husn-u jamol,
Yo bo‘lsa tamom o‘zlugidin forig‘bol.

* * *

Qaddimni xam etgan ul qaddi mavzundur,
Sabrimni kam etgan ul ruhi gulgundur.
Ko‘nglum dag‘i vaslingni tilab mahzundur,
Laylosen, Komron sanga Majnundur.

* * *

Naylab sanga dardimni ayon qilg‘umdur,
Ne til bila holimni bayon qilg‘umdur.
Na toqati izhor-u, na ixfo, o‘zni
Bu tavr ila rasvoyi jahon qilg‘umdur.

* * *

Gar uyqudamen, ko‘ngul xayoling bila xush,
Gar uyg‘oq esam, ko‘zum jamoling bila xush,
Xatting bila shodmon-u, xoling bila xush,
Hajring bila g‘amnok-u, visoling bila xush.

* * *

Dedimki, menga berdi xudo farzand-e,
Bo‘ldi yuragim porasig‘a payvand-e,
Hech anglamadimki, chok etib ko‘ksumni,
Purxun jigarimdin erur parkand-e.

* * *

Ahbobqa xushturur rafiq o‘lsa kishi,
Imdod ila homiyi tariq o‘lsa kishi,
Islom eliga jon bila tarvij qilib,
Bir-biriga bu besh kun shafiq o‘lsa kishi.

Og‘risa men telbadin jononim, ermastur ajab,
Ul base nozuk mizoj-u, men nihoyat beadab.

* * *

Lolayi hamro degan yuzi emish, yor-yor,
Nargisi shahlo degan ko‘zi emish, yor-yor.

* * *

Ko‘ngul vaslin istab havoe qilur,
Chu gulshanda bulbul navoe qilur.

ZEBUNNISO

(1639–1702)

Zahiriddin Muhammad Boburning avlodidan bo'lgan shoira, Muhammad Avrangzeb Olamgir (1618–1707)ning qizidir.

Zebunniso begim (1048-hijriy yil shavvol oyi) 1639 milodiy yil, fevral oyida Dehlida tug'ilgan. "Tazkirat ul-xavotun" ("Ayollar tazkirasi")da Zebunniso begim o'z zamonasining fozila ayollaridan bo'lganligi aytilgan.

Zebunniso begim zabardast shoira, yetuk olima, usta tanbur chertuvchi sozanda va mohir xattot bo'lib yetishadi. Qur'onni bir necha marotaba husnixatda ko'chirgan va yoddan qiroat bilan o'qigan. Zebunniso begim arab va fors tillarida ham ijod qilgan.

Zebunniso begim olimlarga, shoirlarga va san'at ahllariga homiylik ko'rsatib, ularga maosh to'lab turgan. Zebunniso begim bir qator shogirdpeshalarni ilm-ma'rifat, odob va g'azaliyot bobida tarbiyalab, kamolotga yetkazgan. Sharqning mashhur shoiri Mirzo Abduqodir Bedil o'z qizini Zebunniso begim tarbiyasiga topshirgan.

Zebunniso begimning asosiy mashg'uloti she'riyat, musiqa, ilm bo'lgan. U butun huzur-halovatni, taqdir va baxtni, kishilar orzu qilgan jannatni ham kitobda — ilmda, deb bilgan.

Lirik she'rlar bilan birga odob va axloqqa oid "Zeb ut-tafosir" ("Go'zal tafsirlar"), "Zeb un-nashot" ("Nash'alar ziynati") va tasavvuf falsafasiga doir "Munis ul-arvoh" ("Ruhlarning sodiq do'sti") kabi risolalar yozgan.

Shoiraning 8000 misrali bir devoni (g'azallari), 7 qasidasi, 5 tarje'band va bir muxammasigina saqlanib qolgan.

G‘AZALLAR

Dur bod az tan sare k-oroyishi dore nashud,
Bishkanad daste, ki xam bar gardane yore nashud.

Dar qiyomat sar chi son berun kunad az jaybi xok,
Sinayi on kas, ki dog‘i lola ruxsore nashud.

Dar nazar shohid nadori diyda az olam bipo‘sh,
Ko‘r beh chashme, ki lazzatgiri didore nashud.

Sad bahor oxir shudu har gul ba farqe jo girift,
G‘unchayi dog‘i dili mo zebi dastore nashud.

Hayf bar ammomayi zohid ba chandin pechutob,
Rishtayi tasbeh gashtu tori zunnor nashud.

Har matoero xaridorest dar bozorho,
Pir shud Zebunniso, o‘ro xaridore nashud.

Tarjimasi

Tandin ajralsin u bosh, gar loyiqi dor o‘lmasa,
Sinsin ul qo‘l, yor bo‘ynida agar u bor o‘lmasa.

Ul kishi qanday ko‘targay tong-la muhshar boshini,
Gar uning ko‘ksida dog‘i lolaruxsor o‘lmasa.

Bu jahondin ko‘zni yum, ko‘z oldida yor o‘lmagach,
Ko‘r bo‘lmoq yaxshidir, ul ko‘zi xummor o‘lmasa.

Yuz bahor oxir bo‘lib, har chekkadan joy oldi gul,
Hayfdir bizning gulimiz zebi dastor o‘lmasa.

Hayf zohid sallasig‘a-kim, bu pechutob ila,
Tasbehiga ip bo‘lib, zunnor uchun tor o‘lmasa.

Har matoga bor xaridor husnning bozorida,
Ne uchun Zebunniso qarrib, xaridor o'lmasa?

(D. Muhammadqulov tarjimasi)

* * *

Biyoki zulfi kaju chashmi surmaso injost,
Nigohi garmu adohoyi dilrabo injost.

Karashma — teg'u, mija — xanjaru nigah — almos,
Shahodat ar talabi Dashti Karbalo injost.

Agar bihisht dihandat firebi kas na xuri,
Qadam zi maykada berun maneh, ki jo injost.

Ba tabfi Ka'ba kujo meravi, dile daryob,
Ki xalq behuda jon mekanand, jo injost.

Zi poy to sari u har kujo ki menigaram,
Karashma domain dil mekashad ki: jo injost.

Kitobxonayi olam varaq-varaq justam,
Xati tu didamu guftam, ki: "Muddao injost!"

Zakoti husn agar medihi baroyi Xudo,
Biyoki Zebunniso hamchu man gado injost.

Tarjimasi

Zulfi halqa-halqa-u ko'zi, qaro bu yerdadir,
Boqishi shafqatli-yu, nozikado bu yerdadir.

Kiprigi — xanjar, karashma — tig'-u, ko'z tashlash yashin,
Gar shahid bo'lmoqchi ersang, Karbalo bu yerdadir.

Bersa ham jannatni, aldanma kishilar so'ziga,
Bir qadam mayxonadan jilmaki, jo bu yerdadir.

Ka'baga bormoq na hojatdur, agar dil ovlasang,
Behuda yo'llar kezar bu xalq-u, jo bu yerdadir.

Husniga boshdin oyoq boqqanda har bir nuqtadin,
Dilni tortib har karashma, derki: jo bu yerdadir.

Izladim bir-bir jahonda har necha bo'lsa kitob,
Ko'rdimu xattingni dedim: "Muddao bu yerdadir!"

Istasang husning zakotini berarga mustahiq,
Kelki, bu Zebunniso yanglig' gado bu yerdadir.

(M. Muinzoda tarjimasi)

* * *

Garchi man Layli asosam dil chu Majnun dar havost,
Sar ba sahro mezanam, lekin hayo zanjiri post.

Bulbul az shogirdiyam shud hamnishini gul ba bog',
Dar muhabbat komilam, parvona ham shogirdi most.

Dar nihon xunam, ba zohir garchi rangi g'ozaam,
Rangi man dar man nihon chun rangi surx andar hinost.

Baski bori g'am berun andoxtam bar ro'zg'or,
Joma niliy kard inak bin, ki pushti dutost.

Duxtari shoham valekin ro' ba faqr ovardaam,
Zeb-u ziynat bas haminam: nomi man Zebunnisost.

Tarjimasi

Layli zotidan esam-da, dilda majnuncha havo,
Tog'-u tosh kezgum kelur, lekin yo'lim to'sgay hayo.

Mendan o‘rgandi-yu, bo‘ldi gulga bulbul hamnishin,
Mengadur parvona ham shogird-u, ishqimdur raso.

Zohirimdur g‘ozarang, ammo nihonim qon erur,
O‘z ichiga saqlagandek qip-qizil rangni xino.

Baski qo‘ydim men falakning yelkasiga g‘am yukin,
Kiydi motam to‘nini-yu, bo‘ldi qaddi ham duto.

Shoh qizi bo‘lsam-da, qildim faqr yo‘lin ixtiyor,
Bas menga bu zeb-u ziynatkim, ismim Zebunniso.

(M. Muinzoda tarjimasi)

TURDI FAROG'IY

(XVII asr — 1699/1700)

Turdi shoirning asl ismi, ayrim g'azallarida taxalluslari Turdiy, Farog'iy. Buxoro madrasalarida ta'lim olgan. Abdulazizxon davrida saroyning amaldorlaridan, yuz urug'ining ko'zga ko'ringan siyosiy arboblaridan bo'lgan. Subhonqulixon taxtga chiqqach, saroydan uzoqlashtirilgan. Ashtarxoniylarga qarshi 1685–86-yillarda ko'tarilgan xalq isyonida ishtirok etgan. Turdi "Dar mazammati sipohigari" she'rida o'zining asosiy kasb-kori sipohiylik ("harbiylik") bo'lganini yozadi. O'zbek adabiyoti tarixiga deyarli notanish bo'lgan ushbu shoirni prof. Fitrat uning she'rlari asosida tarjimayi holini tiklagan va ilmiy muomalaga kiritgan.

Turdining adabiy merosi 18 she'rdan iborat bo'lib, ulardan 12 tasi g'azal, 5 tasi muxammas va biri fard janriga oid. Saqlanib qolgan merosining umumiy hajmi 434 misradan iborat. Turdi she'rlari, bir jihatdan, real hayot voqealarini tasvirlasa, ikkinchi jihatdan, tasavvufiy talqinlar orqali shoir o'zining ezgu niyatlarini mumtoz janrlar orqali ifoda qiladi. Subhonqulixon to'g'risidagi hajviy muxammasi (1691) Turdini shoir sifatida mashhur qilgan asardir. Ushbu hajviy asari bilan Turdi o'zbek hajviyotini Alisher Navoiydan keyin yangi bir bosqichga ko'targan.

Turdi ijodi hayotiy voqealarga, teran mulohazalarga boyligi va uslubining ravonligi bilan o'zbek adabiyoti rivojiga samarali ta'sir qilgan.

G'AZALLAR

Tor ko'ngullik beklar, manman demang, kenglik qiling,
To'qson ikki bori o'zbak yurtidur, tenglik qiling.

Birni qipchoq-u, xitoy-u, birni yuz, nayman demang,
Qirq-u Yuz, Ming son bo'lub bir xon oyinlik qiling.

Bir yaqodin bosh chiqorib, barcha bir to‘ng‘a kirib,
Bir o‘ngurluk, bir tirizlik, bir yaqo, yenglik qiling.

Kim qo‘yubdur, uhdayi o‘z mulkungizdin chiqmayin,
Ikki, uch, to‘rt da’vosin etmakni ko‘tahlik qiling.

Mardlar maydon chekib, rangin ko‘torib zaxmlar,
Sizga yo‘q, ul javhar-u yuzga upo-englik qiling.

* * *

Bir sari azm ayla, joyi nomusulmondur bu mulk,
Fitnayi avbosh, zulm-u, kufr-u tug‘yondur bu mulk.

Bir kalima hurmatidin lek islom oti bor,
Mutlaqo kirdori xayli kofiristondur bu mulk.

Dur ahd-u tang chashm-u, besar-u ya’juj vaz’,
Muxtalif mazhab guruhi o‘zbakistondur bu mulk.

Naqdi jon bersang topilmas istasang bir zarra aysh,
Mehnat-u anduhni so‘rsang, farovondur bu mulk.

Joyi islom-u musulmonlig‘, Farog‘iy, istama,
Poytaxti kishvari Subhonqulixondur bu mulk.

* * *

Kuyar til shammayi gar holatimdin aylasam taqrir,
Giribon chok o‘lur etsa qalam dardi dilim tahrir.

Shabi hijroniming poyoni tay o‘lmaz, toyiri gardum
Mahu xurshed o‘lub ikki qanoti aylasa shabgir.

Tuluyi subhdin navmed, ming tunlar yaqo yirtib,
Savodi shomi g‘amdin sori baxtim xomayi taqdir.

* * *

Tana'umning nadomatsiz, tamoshoning talahhufsuz,
Jahon istab yururda ko'rmadim bir tan taassufsiz.

Haqiqat bingadur juzv-u kul-u har zarra bir xurshed,
Guharni bilma xoli qatradin, har chahni Yusufsiz.

Tafakkur vartasinda mahv o'lub kirdim jahon sori,
Harifi topmadim olamda yo'qluqdin takallufsiz.

Boshima bir ko'hi g'am bir ot kohu emndin,
Bir ko'ngul yuz pora yo'qlo'q za'fi vahmu biymidin.

Qad bukub, bo'ynum egib, tegdi oyoqlarga boshim,
Ahli dunyo poybo'si xizmat-u ta'zimidin.

Dil—kabobim, qon—sharobim, ashki hasrat — nuqli bazm,
Yetti qassomi azalning xizmati tan'imidin.

* * *

Qatrayam nochiz, ammo zoti qulzum Turdiman,
Kelturan amvojg'a bahri talotum Turdiman.

Qirq, Yuz, Ming aqrabolar etdilar mandin nufur,
Ne balo, baxti qaro-yu, toleyi shum Turdiman.

Rishtadek ming pech-u tob chashmi so'zondin utar,
Bovujudi e'tibori chashmi mardum Turdiman.

* * *

Turkona xirom ayladi ul sho'xi diloro,
Dil mulkini bir go'shayi chashm ayladi yag'mo.

Tufrog‘da jon bitsa ravodur, ne ajab gul,
Cho‘x sarvi sihi etdi nihon ko‘zlari shahlo.

Har qanda g‘ami do‘st dilporani istar,
To subh, yaqo yirtmadi mehr o‘lmadi paydo.

* * *

O‘zbak o‘g‘li o‘qusa tafsir ila mishkotni,
Ro‘z savmu shab qiyom afzun etib tootni.

Etsa toroji havodis, jam’ o‘lub avbosha der:
“Sahmgin solib suron ur, molin olg‘il sortni”.

Bir piyoda ko‘rsa shatranji bisoti dahrda
Zulm-u javr aylar muhayyo, soz etib luchmotni.

Der: “Qachon o‘z shavqim ila mu’takif masjiddaman,
Iltizom ettim bu ish nochor yo‘qdin otni”.

* * *

Musulmon bilma aslo hech mazhab yo‘lida o‘zbak,
Bularning kufrig‘a bil-ittifoqi jumla yo‘qdur shak.

Ne mazhab, qayei din o‘z mulkin o‘zi xarob etgay?
Erurlar mufsidul-arz az azal bu firqayi badrak.

Atolur hoji kofir Makka borib haj qilib kelsa,
K-i hargiz o‘zga bo‘lmas haq yo‘lin yurgan bilayi eshak.

Ko‘rub zohirda oni shayx-u so‘fi e’tiqod etma,
Kirib masjidga chiqmak birla quymas go‘ng yemakni sak.

* * *

Ayo miri valiniamiyi kiromi ot in'omi,
Yuzini ko'rmaga hasratda bo'ldum eshitib nomi.

Ne yolg'uz ot edi ummid yuz in'om, ihsondin,
Ki nobuda xayoli shahdg'a shirin edib komi.

Ne gardiga yetishdim, ne boqib ko'rdim qarosini,
Samandi umrdin, bodi nafasdin tez ekan gomi.

Bila olmon bu duldul raxshi Rustam yo parizodi,
Ki odam o'g'liga rom o'lmagan, ne yerda oromi?

Sharofat adl-u ihson, bovujudi kasrati kufri,
Qolib No'shirvon Hotamning olamda neku nomi.

Hazora qal'asinda jami xos-u om arosida,
Zaboni purdurar boringdin eshitdim bu payg'omi.

O'shal tarixdin o'n oy o'tub yilga qadam qo'ydi.
Ki ne og'ozini bildim yaqin, ma'lum anjomi.

Meni(ng) ozoda boshimni giriftori tama qilding,
Mudomat bermas o'lsang nega berding va'dayi xomi?

Necha yeldim, yugurdum bo'lmadi xosiyati ma'lum,
Quruq ovozayi in'omi mahzu ot badnomi.

Boshima bir ko'hi g'am bir ot kohu emidin,
Bir ko'ngul yuz pora yo'qluq za'fi vahmu biymidin.

Qad bukub, bo'ynum egib, tegdi oyoqlariga boshim,
Ahli dunyo poybo'si xizmat-u ta'zimidin.

Dil-kabobim, qon-sharobim, ashki hasrat — nuqlu bazm,
Yetti qassomi azalning xizmati tan'imidin.

DAR MAZAMMATI SIPOHIGARI

Umr shud talaf bag'aflat dar vartayi sipohi,
Mo'yi safid qardam ummedi lutfi shohi.

Chizi bakaf nayomad, hosil zi naqdi dunyo,
Az sim ashki hasrat, az zar chu rangi kohi.

Az xor-xori matlab tuli amal zi mansab,
Fikri maholu botil dar shom-u subhgohi.

Sharmanda zin du kirdor shud din-u dil dar ozor,
Inkor dar avomir, ma'ruf dar manohi.

Guftam shavam zi xoson, gardam bari zi omon,
Aftodamu nadonam az joh to bachohi.

Shud umrho saropo gashtam bari zi omon,
Ammo chi sud didam az in hama sipohi.

MUXAMMASLAR

Yod mandin kim berur: yaxshi zamonlar ko'rdiman,
Rind sarxayli-yu xush ayshi damodam surdiman,
Halqayi ushshoqda bazm-u majolis qurdiman,
Mushti xokam davr-u davronlar(ni lekin) ko'rdiman,
Xush dimog' etgan mayi sofi hariflar durdiman.

Qilmadim shukronayi, soldurdi tufroq oshima,
Qolmadi juz dard-u g'am hamdam, musohib qoshima,
Haq o'zi rahm aylag'ay ohi sahar ko'z yoshima,
Tafriqa toshini yog'durdi zamona boshima,
Xonumon ovora selobi havodis surdiman.

Nozili hukmi qazo hech kim radu man etmadi,
Barcha bo‘yniga solan bu rishtayi qat etmadi,
Adli hole topmadim boshdin balo daf etmadi,
Kulfati g‘urbatni turluk sunnati raf etmadi,
Xor-u beqadramki mundin otinib, jabrandiman.

Voqife yo‘q, bu musofirlig‘da mandin ne o‘tar.
Baski yuz ko‘yi bila ro‘zi kelib, ro‘zi ketar,
Uzmag‘ay mundin balo-yu bo‘lmagay mundin batar,
Aqrabolar suhbatimdin or etar, qoshin chatar,
Salb dillarda, nazarlarda karih siprindiman.

Yaxshi vaqtlar yod etib (undin ketib, mundin qolib),
Harza tifli ashkdek ayni nazarlardin solib,
Nosara dirham sifatliq rad qilib, qo‘lga olib,
Dasta farsuda, yuzi qaytib, oyoqlarda qolib,
Ko‘hna tig‘i tah-batah g‘am zangi tutg‘on kundiman.

Oh bu umri kiromi sarfi g‘aflat ayladim,
G‘ussayi behuda asbobi nadomat ayladim,
Bilmadim o‘z aybimi xalqqa mazammat ayladim,
Shukur shahdin bilmadim, kufroni ne’mat ayladim,
Zahmi nishi ro‘zgor ahlini talxu tundiman.

Hukm jori, so‘z qabuli, bir duri dargo‘sh edim,
Ahli davlatlar bilan yor-u harif, hamdo‘sh edim,
Hoy-hoyi bazmlarda shahd no‘sho-nush edim,
Xush zamonlar Yuz qazoni boshida sarjush edim,
Bu zamon yavg‘on qozon ostida qolg‘on yundiman.

Charxi dun qildi manga javr-u jafolar behisob,
Gardishi davron berur har lahza yuz ming pechutob,
Har sori yeldim-yugurdim suv sonib mavji sarob.
Tashna lab, gardi kudurat zeri poyinda xarob,
Bahri davlatdin yiroq gardan shikasta mo‘ndiman.

Kasrati yo‘qluq, tama kettirdi qadr-u qiymatim,
Yuz sarig‘liq yerga urdi obro‘-yu izzatim,
G‘ayrdin izhori matlab ayladi dun fitratim,
Aql zoyil, umr kam, besh o‘ldi, dard-u mehnatim,
Davlat urgan pushti poy-u, baxti (qaro suprindiman).

Man kimam, gumnom-u, nokom-u jahon ovorayi,
Diyda namnoku giribon chok-u bag‘ri porayi,
Noqabuli marhami, nosur bitmas yorayi,
Bekasi, mushti xasi, bir bandayi bechorayi,
Sobiram, rozi qazo, tiyri balog‘a ko‘ndiman.

Xeshman, darvish miskin, mustahiq devonadin,
Bahramand et iltifot-u himmati mardonadin,
San turub loyiqmidur, qilmoq, tama begonadin,
Qiblagoho, mandin ikroh etma yer mayxonadin,
Jush pur xum sof maysan, man g‘ubor-u durdiman.

Yuz farozidin ozib, tushdum nishibi qirqqa,
Xavf-u biymu vahm arosinda qaribi qirqqa,
Dona deb pobast o‘lub, domi firibi qirqqa,
Voy, yuz ming voy, yuz bo‘ldim firibi qirqqa,
Hokimi Dizzax mutiu payravi jurqundiman.

* * *

Davri umrimda balo bog‘lab, qazo payvasta saf,
Sobiram, rozi rusumi payravi ahli salaf,
Shokiram, koni’ dami yo‘qluq takalluf bartaraf,
Keldi iyd, obilayi g‘am jinsi hozir naqd kaf,
Kulbayi ehzonima so‘zi jigardin bo‘yi taf.

Ro‘zi avval dard-u g‘amdin xilqati ob-u gilim,
Pora-pora bag‘rim-u, qondin yarotilg‘on dilim,
Rohi selobi havodisga maqomim, manzilim,
Hech yo‘q g‘ayri pushaymonliqdin o‘zga hosilim,
Umrni g‘aflatda etgan, moli g‘oratg‘a talaf.

Rahnayi devori tandin umr raxshin sakratib,
Tezravi bodi nafasdin gohi ko‘z yumdum o‘tub,
G‘arq o‘ldum domani behosili sohil bo‘lub,
Qatrayi naysoni selobi sirishkimdin yutub,
Ayladim quti ko‘ngul bahrinda monandi sadaf.

Ne oyoq, ne boshig‘a yetdim, saropo istadim,
Qoldim ikki yo‘lning o‘rtasida hamro istadim,
Bazm bir sargarm hoy-hoyi urdo istadim,
Halqayi doirayi ushshoqda jo istadim,
Aydilar: qaddingni chang et, po‘sti jismingni daf.

Resha-resha poy istidloldindur domanim,
Oh beta’sir faryod-u fig‘onim, shevanim,
Kasrati za’f etdi jismi notavon parvizanim,
Un-un o‘ldi ustixon, hech yerda yetishmas unim,
Tig‘i ohimdin labi xohishgarim o‘ldi asaf.

Oh bu hasrat asosi ko‘hna koxi besukun,
Vodiyi dorul-g‘ururu, maskani makr-u fusun,
Hech bildingmu na eltdilar kelib sandin burun,
Qo‘ymag‘il omodayi tonglog‘a, sarf etgil bukun,
Mol-u dunyodur nasibi voris-u yokim talaf.

* * *

Joyi osoyish emas hech kima bu ko‘hna ravoq,
Yog‘dirur boshimiza sangi jafo, gardi firoq.
Yo‘qolib rasmi vafo bo‘ldi hama bosh-u oyoq,
Mulkdin adl-u karam ketdi kelib kiynu nifoq,
Yaxshiliq qilma tama zulm ila to‘ldi ofoq.

Fitnayi sho‘r hama ruo’ila maskun tutdi
Xo‘blar masnadini sifla bilan dun tutdi.
Tahbatah ko‘nglumi bu fikr bila xun tutti,
Joyi shohbozlari qarg‘au quzg‘un tutti,
Hamnishin o‘lg‘ali shunqor ila doim yapaloq.

Shoh hambazm o‘lub hojasarolar bila yor
Hukmi bir aks surub bo‘ldi yomonlar sardor.
Xor o‘lub olim-u rindu, fuzalo birla kibor
Ko‘ringiz yurtni ishi topti na yerlarga qaror,
Xon jilavini iki um valadga berib bo‘ldi inoq.

Ixtiyorin barining qavlig‘a baydat olg‘ay
Har biri aysh ila qonun tana’um cholg‘ay,
Mulkni niyku badi maslahatining qilg‘ay
Odami zodalari qadrini qaydan bilg‘ay
Bari nokas, barisi xodimi idris to‘qmoq.

Fuqaro boshig‘a yetdi bu aqlsiz shumlar
Hamdami shoh bo‘lub ahli tahakkum bumlar.
Qani bir er chiqib aylasa ma’dum humlar
Yurtni boshini chaynab edi bu bedumlar
Solsa bu ahmaq guhxo‘rlari bo‘yniga tuzoq.

Shoxliq uldur oni hukm-u so‘zi bir kerak,
Adl bobimi qurub rost nishon tiyr kerak,
Rostrav, dini durust peshasi tadbir kerak,
Ne muhannas sifat-u, suvrati tag‘yir kerak,
Suvrati mard-u xotundek yasatib qosh-u qaboq.

Na adolat bor ul shohda o‘lg‘ay lo‘li zoy
Hamdami boyloqu kengash begisi hojasaroy
Mardlig‘ yo‘qtur angakim qarasang sar topoy
Shohning xizmatin etib tuzadur sikkizi oy
Toshkand mulkida olg‘or yotar och-u qashoq.

Qani bir xisravi odilki, anga dod etsam
So‘rsa ahvolni g‘am xirmanining bod etsam
Domi mehnatkadadin ko‘nglimi ozod etsam
Bu buzulg‘an dili vayronami obod etsam
Aylasam bo‘si adab shoha kuyub qaydi oyoq.

Ey yuzi qora, ko‘zi ko‘r, qulog‘i kar beglar
Bilingiz bu so‘zimi pandi sarosar, beglar.
Aylangiz payravi shar’i payambar, beglar
Sizga darkor bu yurt, ey gala zanglar, beglar
Bu qadim naql erur: el rabot-u to‘ra qo‘noq.

Yedingiz barchangiz itdek fuqaroning etini
G‘asb ila molin olib qo‘ymadingizlar bitini.
Qamchilar dog‘i solib bo‘yniga, tilib betini
Yordingiz zahrasini ichidin olib o‘tini
Bo‘lmadi bu kam ra’iyyat boshidin hech tayoq.

Yetmadim hech bira bu qofiya paymolig‘din
Dod, yuz dod g‘ariblig‘, g‘ami tanholig‘din.
Ko‘rmadim manfaate behuda savdolig‘din
Yo‘q so‘qqa boshimdin o‘zga manga dunyolig‘din
Kosh, ul g‘ari zanlar solsa quruq so‘zga quloq.

PAHLAVONQULI RAVNAQ

(1725–1805)

Pahlavonquli Xivadagi Sherg'ozixon madrasasida o'qigan. O'zbek, fors va arab tillarida, asosan, lirik janrlarda ijod qilgan. "Devoni Ravnaq" nomli yagona devoni bizgacha yetib kelgan.

Devonning tarkibi 286 she'rdan iborat bo'lib, uning umumiy hajmi 5251 misrani tashkil qiladi. Bular 258 ta g'azal, 22 ta muxammas, 5 qasida va 1 mustahzoddan iborat. Ravnaq g'azal janrini mavzu jihatdan boyitgan.

G'azallarida ishq-muhabbatni, tabiat va hayot go'zalliklarini madh etish she'rlarining asosiy mavzusi. Insonga va ijtimoiy hayotga munosabat masalalari bilan birga davr va taqdirdan, zamona nosozliklaridan shikoyat qilgan.

Navoiy g'azallariga 14 ta, Fuzuliy g'azallariga 3 ta va bulardan tashqari, Mashrab, Xurramiy va boshqa shoirlarning g'azallariga muxammaslar bog'lagan.

Ravnaq qasidalari an'anaviy uslubdan farq qilib, muayyan shaxs yoki voqeaga emas, shoir yashab turgan ijtimoiy hayot voqealariga bag'ishlangan. Ravnaq she'rlari g'oyaviy va badiiy jihatdan ham e'tiborni tortadi.

G'AZALLAR

Surtub yuzumi tun kecha dildor eshigida,
To subh umidim edi diydor eshigida.

Ko'rmak tilabon orazi xurshid misolin,
Bor erdi ko'zum tonggacha bedor eshigida.

Nogah yuzi sha'shaasi jong'a solib o't,
Kul qildi vujudimni bayakbor eshigida.

Gar ko‘rsa jamolin bo‘lur erdi mahi Kan’on
Jon naqdin etib sarf xaridor eshigida.

Har subh nedin yerg‘a qo‘yar chehrayi zarrin,
Xurshid agar bo‘lmasa bemor eshigida.

G‘am shomi ul oy ko‘yida gardung‘a chekib oh,
Ko‘z yoshim erur kavkabi sayyor eshigida...

Savdozadalar nolasidin kunda bo‘lur garm,
Yuz-yuz qiyomat kabi bozor eshigida.

Ne xizmatingga kim yuz yil agar tursa urub bosh,
Shahlarg‘a qachon bo‘lg‘usidur bor eshigida.

Dardoki qilur ul buti Chin noz uza yuz noz,
Harchand niyoz aylasam izhor eshigida.

Ravnaq harami ko‘yig‘a yetkanga erur farz,
Gar Ka’ba tavofi ko‘rinur or eshigida.

* * *

Na bir qosidki yetkursa salomim jona jonimg‘a,
Na bir mahramki, arz etsa salomim dilsitonimg‘a.

Xiromi qomati har dam qiyomat oshkor aylar,
Nechuk tashbih etay shamshodni sarvi ravonimg‘a.

Desangkim hajr aro jon-u dilim bor-u yo‘qin aylay,
Yuzung oinasini ro‘baro‘ tut imtihonimg‘a.

Jamoling bir ko‘rub, jon bermagimga bermayin fursat,
Chekib tiyg‘i tag‘ofil qolma, ey jallod, qonimg‘a.

Fig‘onkim, la’li xandoning ko‘zumdin bo‘lg‘ali pinhon,
Jahon g‘arq o‘ldi seli ashki chashmi xunfishonimg‘a.

Bir o‘tdur manda, vahkim, uchqunidin kul bo‘lur olam,
Keturmay tog‘ toqat so‘zishi dog‘i nihonimg‘a.

Emas rangi hino ul sho‘xi qotil ilgida, Ravnaq,
Qo‘li qon bo‘ldi, shamshiri jafo chekkanda jonimg‘a,

* * *

Bu kun bir dilrabo ko‘rdumki sochi ol yangog‘ uzra,
Anga mengzarki sunbul chirmashibdur gulg‘a bog‘ uzra.

Chiqib yuz noz ila serpib niqobin lolagun yuzdin,
Ul oy siynamda haryon dog‘larni qo‘ydi dog‘ uzra.

Labikim ko‘nglumu ko‘z mardumin ham bahramand etti,
Muanbar xolkim jon nuqtasi yanglig‘ dudog‘ uzra.

Kavokiblar durur husn osmoni burjida yoxud
Tuzilmish dona-dona injular siymin saqog‘ uzra.

Soching vasli muyassar bo‘lmag‘ondin, ey pari, go‘yo,
Emas tishlarg‘a yuz g‘am nish sonchilmish tarog‘ uzra.

Yuzing shami latofatdur furo‘zon kun charog‘idin,
Erur oltun utog‘ang sho‘lalig‘dur ul charog‘ uzra.

Junun sahrosida sargashta jonlar bo‘ynug‘a, Ravnaq,
Erur zanjiri zarrin silsila bodomqabog‘ uzra.

* * *

Yondim sevarim, xoh inon, xoh inonma.
Kuydi jigarim, xoh inon, xoh inonma.

Daryoyi g‘ami ishqinga mustag‘raq o‘lubman,
Oliy guharim, xoh inon, xoh inonma.

Xoki sari ko‘ying aro bo‘ldum sanga pomol,
Ey toji sarim, xoh inon, xoh inonma.

Ishqingda jununim erur ul nav’ki, o‘zdin
Yo‘qtur xabarim, xoh inon, xoh inonma.

Jon rishtasig‘a soldi gireh fikri miyoning,
Nozik kamarim, xoh inon, xoh inonma.

La’ling g‘amidin g‘uncha kabi ko‘nglum erur qon,
Gulbargi tarim, xoh inon, xoh inonma.

Jondin guzarim bor, vale la’li labingdin
Yo‘qtur guzarim, xoh inon, xoh inonma.

Haryon chamani siynada yuz lola ochibdur,
Dog‘i jigarim, xoh inon, xoh inonma.

Zahri g‘ami hajring meni o‘lturgani yetti,
Ey lab shakarim, xoh inon, xoh inonma.

Bar bod berur har kecha avroqi saharni
Ohi saharim, xoh inon, xoh inonma.

Ravnaq kabi ishqingda kuyub barqi balodin,
Yo‘qtur asarim, xoh inon, xoh inonma.

* * *

Ey malak siymoki, olam xalqidur hayron sango,
Ahli insondur demak olamda ne imkon sango.

Xo‘bro‘lar husn mulkida gadoyingdur sening,
Desalar bo‘lg‘ay ravo, xo‘blar aro sulton sango.

Partavi nuri yuzing etmish munavvar olami,
Chun malohat avjida derlar mahitobon sango.

Qil nigah, tangri uchun, bir lahza holi zorima,
Muddatedur bo'lmisham men zor-u sargardon sango.

Istabon vasling saharlar nola-yu faryod etib,
Bulbuli zoram men, ey sho'x gul, hayron sango.

Ko'rmadim hargiz bu gulshanda seningdek nozanin,
Qilsa bo'lg'ay, ey pari, hardam fido yuz jon sango.

Ishq aro Ravnaq Masih anfosi topmas dardingni,
La'li ruh afzosining anfosidur darmon sango.

* * *

Jilva qilib noz ila ul sanami komyob,
Jon-u ko'ngul xaylig'a soldi yana iztirob.

Chiqti haramdin ul oy, sho'ri qiyomat solib,
Emdi nechuk bo'lmag'ay, kishvari olam xarob.

Ko'rgach oni, vo, bu ne, sho'rishi g'avg'o edi,
Nolayi ushshoqdin topti jahon inqilob.

Chehra ochib ul pari pardayi gulfomdin,
Zeri shafaqdin magar bo'ldi ayon oftob.

Jon-u ko'ngul zoridur, oshiqi diydoridur,
Zulf ila ruxsoridur — tiyra shab-u mohtob.

Lola ruxi siymbar, ko'zlari bodomi tar,
Qatlima hardam chekar xanjari noz-u itob.

Zulfida xamdin gajak, beliga sonchib etak.
Qatlima chizg'ab bilak, qonima aylab shitob.

G'orati iymon etib, dahrni vayron etib,
Noz ila javlon etib, gul yuzi g'arqi gulob.

Jonni men onsiz netay yo boshim olib ketay,
Yo o‘lay-u, yo yitay, muncha nedur so‘z-u tob.

Ko‘z yo‘lidin har sahar, qon bo‘lub oqib jigar,
Mavj urubon chashmalar, yer yuzida g‘arqi ob.

Zulfi kamandi bila Ravnaq anga mubtalo,
Ko‘nglida yuz ibtilo, jonida ming pech-u tob.

* * *

Haramdin chiqti ul sarvi gulandomim xirom aylab,
Jahonni shu’layi ruxsoridin o‘rtab, tamom aylab.

Ochib oy orazin gul-gul tamoshoyi jamolidin,
Guliston ayladi g‘amgin ko‘ngulni shodkom aylab.

Namoyon etti ruxsor uzra mushkin donayi xolin,
Musalsal sochlari jon qushlari tubig‘a dom aylab.

Na kofirdur ko‘zungkim, ahli din qonin ichar hardam,
Chekib tiyg‘i g‘azab bedod etardin qatli om aylab.

Emas ko‘k domani uzra shafaqkim chashmi jalloding,
Ulus qonin to‘kardin oni go‘yo la’lfom aylab.

Sharobi la’lidin ul oy azal subhida ko‘nglumni,
Xiromi mast qildi, gardishi chashmini jom aylab.

Erur mansux ul kundin beri afsonayi Majnun,
Chu tushtum vodiyi ishq ichra tarki nang-u nom aylab.

Falak soqiysidin jomi tarab ko‘z tutmakim, har kun
Qo‘yar qatling yuzi zahri ajaldin talxkom aylab.

Rabotedur jahon, Ravnaq, o‘tar el korvon yanglig‘,
Muningdek rahguzarda bo‘lmag‘ay turmoq maqom aylab.

* * *

Ne niholi umr erur sarvi xiromoningcha xo‘b,
Ne guli bog‘i Eram gulbargi xandoningcha xo‘b.

Ne jamolingdek erur zebo ruxi huri bihisht,
Ne erur kavsar zuloli obi hayvoningcha xo‘b.

Ne dami Iso erur jonbaxsh anfosing kabi,
Ne quyoshning partavi ruxsori toboningcha xo‘b.

Ne nabot-u qand erur shirin labing alfozicha,
Ne aqiqi nobdur la’li durafshoningcha xo‘b.

Qayda bo‘lg‘ay jilvayi tovusi gulzori Eram
Tarzi raftori qadi mastona javloningcha xo‘b.

G‘amzang andoqkim to‘kar eldinki, jallodi ajal
Mohir ermastur nigohi chashmi fattoningcha xo‘b.

Ravnaq, ul gul ko‘yida vaqti saharlar bog‘ aro,
Nolayi bulbul emastur ohi afg‘oningcha xo‘b.

* * *

Va’dayi vasl berib aylamak ehmol nedur,
So‘ng yana yuz hiyla-u makr bila ol nedur.

Muddaiy harne sanga desa qabul aylab oni,
Rad qilib so‘zlarim, etmak meni badhol nedur.

Umr o‘tub, g‘am bila zoye meni bebaxtg‘a hayf,
Bilmadim men onikim tole-u iqbol nedur.

Bilmanamkim, bu qadar aksi murodimg‘a mudom,
Gardishi davri muxolif falaki zor nedur.

Subhi ayshimni qilib zulmati nagbat qaro shom
Anglamam hafta nedur, balki mahu sol nedur.

Ichurur davri falak balki manga g‘am zaharin,
Anglamon ta’mi nabot-u, shakar-u bol nedur.

Kimgakim jonni fido ayladim ixlos bila,
Demadi lutf ila bir kun sanga bu hol nedur.

O‘zgalar boshi yetib ko‘kka bu davron aro, lek,
Baxtim etmak meni g‘am xaylig‘a pomol nedur.

Ravnaqo, kunji qanoatdin etib o‘zni farog‘,
Yugurib it kabi qilmoq talabi mol nedur.

* * *

Dunyoyi dunki kimga dey oning vafosi bor,
Har dam vafo elig‘a tuman ming jafosi bor.

Har sohibi kamolki, bordur jahon aro,
Izzat toparg‘a qayda falakning rizosi bor.

Nodon aziz-u muhtaram-u, lek xordur
Har odameki donishi tabi rasosi bor.

Ne deb shikoyat aylayin zoli charxdin,
Ne javrining shumorau ne intihosi bor.

Juz zoti lamyazal samadi hayyi loyamut,
Har zi vujudkim oning oxir fanosi bor.

Xurshid sajdagohi kelib ostoni do‘st,
Tufrog‘idin falak ko‘zining to‘tiyosi bor.

Ravnaq, qilurg‘a ahli vafoni jigar kabob,
Xurshid demagilki, falak o‘tlu tosi bor.

MUSTAHZOD

Mastona chiqib qatlima bodom qabog‘i,
beboki sitamgar,
Bir ilgida jomi mayi gulrang oyog‘i,
bir ilgida xanjar.

Chashmi siyahidin meni mast etsa ajab yo‘q
to ro‘zi qiyomat,
Bir g‘amzasi mastona shakarrez dudog‘i,
chun bodayi kavsar.

Olam elini ko‘z yumub-ochg‘uncha qilur qatl,
gar to‘kmak uchun qon,
Jallod ko‘zi g‘amzasidin cheksa pichog‘i,
chun kofiri Xaybar.

Ne nurdurur shu’layi husningdaki ko‘rmay
to bo‘lg‘ali bunyod,
Xurshidi jamoling kabi raxshanda charog‘i,
bu gunbazi axzar.

Savdosi sari zulfida boshimga chiqib dud,
yondim tutay erkan,
Hijron o‘ti siynamda qo‘yib dog‘ uza dog‘i,
chun lolayi ahmar.

Savdozada g‘am dashtida Majnun kabidurmen,
ovorayi shab-ro‘z,
Haryon qilib ul sho‘xi parivashni so‘rog‘i,
po‘yanda chu sarsar.

G‘am shomi ul oy ko‘yida Ravnaq kabi to subh,
tosh uzra urub bosh,
Ne aysh, ne rohat manga, ne xobi farog‘i,
ne farsh, ne bistar.

MUXAMMASLAR

Navoiy g‘azaliga muxammas

Garchi a’jozi Masiho la’li durposhindadur,
Yuz jahon bedodgarlik g‘amzayi qoshindadur,
Sho‘rishi ro‘zi qiyomat ko‘i avboshindadur,
O‘n sekiz ming olam oshubi agar boshindadur,
Ne ajab chun sarvi nozim o‘n sekiz yoshindadur.

Chiqsa gulgun to‘n kiyib, mastona ul chobuksuvor,
Oshiq o‘lturmak uchun ilgida tiyg‘i obdor,
Jilvasidin tong emas bo‘lmoq qiyomat oshkor,
Desa bo‘lg‘aykim yana ham o‘n sekkiz yil husni bor,
O‘n sekkiz yoshinda muncha fitnakim boshindadur.

Yuz yamog‘lig‘ to‘n kiyib ulkim gadoni kuldurur,
Mohi Qan’on bebaho husnig‘a oning quldurur,
O‘ylakim bozori mahshar ko‘yida g‘ulg‘uldurur,
O‘n sekiz yil dema, yuz sekson yil o‘lsa o‘ldurur,
Husn shohi ul balolarkim ko‘z-u qoshindadur.

Ul quyoshkim ko‘yida o‘zni gado qilmish Masih,
Mu’jizoti la’lig‘a jonin fido qilmish Masih,
Ahli dunyodin qochib azmi samo qilmish Masih,
May ketur, ey mug‘ki, yuz hayrat aro qolmish Masih,
Bul’ajablarkim bu eski dayr xuffoshindadur.

Chora aylab yuzg‘a davron ofatidin bahri ashk,
Oqizur Ravnaq havodis kulfatidin bahri ashk,
Mavj urub gardung‘a hijron shiddatidin bahri ashk,
To Navoiy to‘kdi ul oy furqatidin bahri ashk,
Har qachon boqsang quyosh aksi oning boshindadur.

Hodisoti dahri dundin ko'nglinga g'am bo'lmasun,
Gar xilofi ra'ying etsa charxi toram bo'lmasun,
Gul'uzoringdin tihi gulzori olam bo'lmasun,
Bori mehnatdin niholi qomating xam bo'lmasun,
Boshimizdan soyayi sarvi qading kam bo'lmasun.

To jahon ayvoni bunyod o'ldi, ey qoshi qalam,
Bo'lmamish mavjud hargiz sen kabi zebo sanam,
Ko'zga baskim nozanindur surating sar to qadam,
Ko'rmasam ruxsori la'li chashmi g'amzang dam-badam,
Umr bir on, bir zamon, bir lahza, bir dam bo'lmasun.

Subhidam chiqsa guliston sayrig'a sonchib etak,
Ishtiyoqi tiyg'i nozing gulga qon aylar yurak,
Ko'rmadi bir sen kabi qotilni davroni falak,
Sendin ofat keldukin bilsa edi haqdin malak,
Iltimos aylardikim dunyo-u olam bo'lmasun.

Ohkim, munglig' boshimg'a tushgali savdoyi ishq,
Soldi yuz sho'ri qiyomat boshima g'avg'oyi ishq,
Olam-u odam erur masti mayi minoyi ishq,
Der emish zohidki bo'lmoq aybdur savdoyi ishq,
Bu so'zi fosh etmasun, rasvoyi olam bo'lmasun.

Ravnaqo, zohidlara diydori jonon hayfdur,
Oshiqi komillara ishq ichra bo'hton hayfdur,
Kimki bemori muhabbat bo'lsa darmon hayfdur,
Ey Fuzuliy, zavqi dardi ishqa nuqson hayfdur,
Ehtiyot et punbayi dog'ingda marham bo'lmasun.

QASIDA

Muncha javring degil, ey charxi sitamkor, nedur,
Har ne yetmak bu qadar zulm padidor, nedur.

Yuz tuman zaxm etib xanjari bedodingdin,
Ahli donish jigarin qilmoqing afgor, nedur.

Lahza-lahza oqizib xuni jigar ko‘zlaridin,
Qilmoqing oni iki Qulzumi zaxxor, nedur.

Toqi a’loda yomonlarg‘a berib joyi qaror,
Yaxshilarni urasen yerga, bu kirdor nedur.

Kimki nodondur etib oni jahon ichra aziz,
Kimki donodur, oni aylamaking xor, nedur.

Kimki johildur, oni loyiqi iqbol ko‘rub,
Kimki olimdur, oni qismati idbor, nedur.

Kimki dun o‘lsa surayyo uza oni chiqarib,
Sarafroz aylamaking oni bu miqdor, nedur.

Kimki ganjinayi donishda duri nobdurur,
Taxtaband etmak anga garmi bozor, nedur.

Kimgakim ko‘rsang agar fazli kamoloti shuur,
Foqayi faqrg‘a qilmoq oni duchor, nedur.

Kimki nokasdur o‘zin davlata yetgach unutib,
Qayda bidgay onikim do‘st nedur, er nedur.

Kim bu gulshanda esa sarv kabi ozoda,
Qaro tufroq uza qilmoq oni hamvor, nedur.

Kimki xurshid kabi bo‘lsa sarafrozi jahon,
Qilmoqing oni qaro yerga nigunsor, nedur.

Kimki mir'oti zamirida oning bo'lsa jilo,
To'kmaking oyinayi tabig'a zangor, nedur.

Kimki egridur o'lub shahlar o'ngunda majro,
Sohibi manzalati mahrami darbor, nedur.

Kimki sultondur etib toji saririn barbod,
Kimki darvesh esa bejubbaye dastor, nedur.

Kimki dun o'lsa etib mo'tabari olam oni,
Qilmoq ul siflani sohib zar-u diynor, nedur.

Mard elin yerga urub yor o'lasen nomarda,
Degil oni mangakim, senda bu atvor, nedur.

Olami dun aro mumtoz etib ul siflanikim,
Bilmayinkim hadafi gavhari shahvor, nedur.

Kim xiyonatgar erur so'zda uzun unga zamon,
Xozani gavhari ganjinayi sarkor, nedur.

Muncha, ey gardishi davri falaki sho'badaboz,
Bo'lmoqing dushmani dorandayi novor, nedur...

Kimki ablahdur, oni dahr etibon zarrinpo'sh,
Komig'a do'nmak oning gunbazi davvor, nedur.

Kimki mehr o'lsa ishi lek oning podoshi,
Tuzmak ul g'amzadag'a kiynayi paykor, nedur...

Kim suxandondur o'lub tut anga xunobi jigar,
Bilmay el oniki oshomig'a me'yor, nedur.

Kimki tug'di onadin o'ylaki girdobi balo,
G'arq etarga oni bu Qulzumi zaxxor, nedur.

Kimki nomard erur boshig'a davroni sipehr
Abri nayson kabi har lahza dur-u bor, nedur.

Osmon birla zamin farqini dark etmagan el,
Tutub odam o‘zini boshida pindor, nedur.

Vah, ne badmehr sen ey dahri dag‘al, davringda
Bilmaduk oniki, sayri guli gulzor nedur.

Noqis el aysh surub, ahli maishat g‘amdin -
Kim, kamol ahlidur olam ko‘ziga tor, nedur.

Norasolarg‘a berib siymni xirman-xirman,
Kim rasodur g‘ami xarvor uza xarvor, nedur.

Kimki dun himmat esa ko‘kka chekib oni jahon,
Jomi xurshid oning bazmida sarshor, nedur.

Kimki tuz bo‘lsa zamondin to‘la sog‘ar-sog‘ar
Qon yutub, kulbayi ahzonda jigarxor, nedur.

Kim laim o‘lsa bo‘lub rutbada angushtnamo,
Moldor ahlig‘a ul qofila solor, nedur.

Xor etib ishga yarar elni falak turfa bukim,
Moyili tarbiyati mardumi nokor, nedur.

Dahr elin arbadadin aylaguvchi zer-u zabar,
Gardishi sho‘badayi axtari sayyor, nedur.

Kim ko‘kartursa fasohat chamani ichra nihol,
Vahki, qo‘ymoq oni bebarg-u bebor, nedur.

Ko‘rmayin sof zamir elga ravo no‘shi murod,
Bag‘rig‘a urmoq oning nishtari xunxor, nedur.

Soqiyo, tut manga bir jomki, aylab ani no‘sh,
Bilmayinkim ravishi charxi jafokor, nedur.

Kim sharir o‘lsa salotin qoshida qurb topib,
Loyiqi borgahi xaymayi xirgoh (?) nedur...

Kimki nokasdur o‘zin turfaki odam sog‘inib,
Nuktagiri suxani mardumi hushyor, nedur.

Bilmanam ne edi jurmim manga sendin, ey charx,
Ranj-ranj uzraki, ozor uza ozor, nedur.

Kimki ozodadurur, aylab oni zor-u zalil,
Ko‘rmaking muncha malomatg‘a sazovor, nedur.

Neki taqdirdurur o‘zga yozilmas, Ravnaq,
Tavba qil, yova demakdinki bu guftor, nedur.

ROQIM

(1742–1814)

Shoir va xattot Roqim mumtoz badiiyatning deyarli hamma janrlarida o'zbek va fors tillarida ijod qilgan. Roqim ijodidan bizgacha 6470 misradan iborat devon va devonga kirmagan 30 muxammas, 6 g'azali yetib kelgan.

Navoiy, Fuzuliy, Munis, Bedil, Ravnaq va boshqa ko'plab shoirlarning g'azallariga muxammaslar bog'lagan. Roqim Xorazm adabiy muhitida marsiyachilikka asos solgan. Marsiyalaridagi hasrat real insoniy kechinmalarga asoslangan, an'anaviy obraz va ifodadan ko'ra yangi, hayotiy obrazlar bilan ish ko'rishni ma'qul bilgan.

Roqim nomalar ham yozgan. Munis devoni va boshqa qo'lyozmalarni husnixatda ko'chirgan.

G'AZALLAR

Falak zulm aylab elga oshkor ohista-ohista,
Olur jonin qilib beixtiyor ohista-ohista.

Yemay-ichmay bukun ko'b jam' qilding siym-u zar naqdin,
Bo'lur go'ringda tong-la mo'r-u mor, ohista-ohista.

Qilib zulm elga, yig'nab mol mag'rur o'lma, ey zolim,
Falak tortar nihodingdin damor, ohista-ohista.

Aning bedod-u zulmidin zalilu zor bo'lg'aysen,
Ketib ilgingdin izzu e'tibor ohista-ohista.

Tamani tark qilmay, izzat istar xalqdin harkim
Bo'lur bu fe'lidin, albatta, xor, ohista-ohista.

Topib ogohlik, tengrig‘a loyiq, qilmadim bir ish,
O‘tub g‘aflat bila laylu nahor ohista-ohista.

Zamon ahli nifoqidin xalos o‘lg‘oysen, ey Roqim,
Alardin tortsang o‘zni kanor, ohista-ohista.

* * *

Ey falak, bir sarvqad ishqida zor etding meni,
Kecha-u kunduz o‘zungdek beqaror etding meni.

Aql-u hushimni berib barbod bir gul hajrida,
Yuz tuman g‘am yetkurub ko‘nglumga, xor etding meni.

Qor-u borimni sarosar oh-u faryod aylabon,
Vola-u sargashtayi bir guluzor etding meni.

Dilbarimni sarkash-u mustag‘ni-yu berahm etib,
Ohkim, zor-u, zaif-u xoksor etding meni.

Garchi teng qilding boshimni yer bila, yuz shukurkim,
Poymoli tavsani chobuksuvor etding meni.

Ul pari hijronida jismimdin, ey jon, chiqmayin,
Vaslig‘a yetgach fig‘onkim sharmsor etding meni.

Holi zorimg‘a tarahhum qilmayin Roqim kabi,
Ey falak, bir sarvqad ishqida zor etding meni.

* * *

Bo‘lub Munis senga hamroz Roqim,
Bori eldin qilib mumtoz Roqim.

Senga zohir qilib mehr-u muhabbat,
Demish aylab vafo-u noz Roqim.

Takallum tig‘idan bezaxm qolding,
Ulug‘liq ko‘rguzub e’joz Roqim.

Eshitgach bu so‘zin aylab duosin,
Bo‘lub xalq ichra sarafroz Roqim.

Tafoxur aylabon der o‘z-o‘zig‘a,
Chekam ohistaroq ovoz Roqim.

Agar har kunda yuz ming pora qilsa,
Sanga bordur hanuz ul oz Roqim.

Munosibdur sen o‘z haddingni bilmak,
Gado-yu, shah emas damsoz Roqim.

Jahon bog‘ida aylab or bo‘lmas
Barobar qarg‘a birla g‘oz, Roqim.

Kabutarlar bila aylar kabutar,
Zag‘an birla zag‘an parvoz Roqim.

Kalomingni uzotma, emdi bas qil,
Laziz o‘lg‘ay so‘z o‘lsa oz, Roqim.

Bo‘lub ma’mur amri, bir g‘azalni,
Muxammas aylading shahboz Roqim.

Pisand etgay edi bo‘lsa jahonda
So‘zingni Hofizi Sheroz, Roqim.

Bila olmon qabul etgaymu yo rad
Hadising munisi tannoz Roqim.

Namozi shom bo‘lg‘ach topti itmom,
Namozi asr etib og‘oz Roqim.

G‘alat ermas bu so‘zlarga tonuqdur,
Xudoyi fardi beanboz Roqim.

* * *

Tilarmenkim manga yor o‘lsa Munis,
Olib ko‘nglumni dildor o‘lsa Munis.

Jahon bog‘ida bulbulning murodi,
Budurkim ango gulzor o‘lsa Munis.

G‘ururi husnidin qilmas qabulin,
Kelib Yusuf jilavdor o‘lsa Munis.

Bilur ishqida qadrimni, birovga
O‘zi mendek giriftor o‘lsa Munis.

Eshitgay erdi “yo rab”-“yo rab”imni,
Agar bir kecha bedor o‘lsa Munis.

Xayoli zor ko‘nglum ichra basdur,
Meni bekasga darkor o‘lsa Munis.

O‘larmen yuz g‘am-u hasrat bila, voy,
Anga bir lahza ag‘yor o‘lsa Munis.

Topar birdamda sihhat xasta ko‘nglum,
Menga ul chashmi bemor o‘lsa Munis.

Kechar ikki jahon sultonlig‘idin
Hazin Roqim bila yor o‘lsa Munis.

* * *

Tilab Roqim hazin ko‘nglum kushodin,
Sochay mushk o‘rnig‘a kilkim midodin.

Dimog‘im bo‘lg‘ach-o‘q andin muattar,
Qilay farzandi jonpayvand yodin.

Agar bor ersa hushing mustame’ bo‘l,
Ko‘ngulni jam’ etib har mojarodin.

Birodarlar, meni bechoraning ham
Bu erdi hojatim tun-kun xudodin.

Ato qilsa menga farzandi solih,
Muyassar aylabon ko'nglum murodin.

MUXAMMASLAR

Navoiy g'azaliga muxammas

Solg'ali jonimg'a o't bir mahliqoning furqati,
Ko'kda ohim shu'lasidindur shafaqning humrati,
Zor jismimdin kesilg'ach xasta jonning ulfati,
Jong'a chun derman ne erdi o'lmakim kayfiyati,
Derki, bois bo'ldi jism ichra marazning shiddati.

Kelgali dunyoyi dung'a ko'rmadim aysh-u tarab,
Za'fi tole ko'rki, tinmay qon yutarmen ro'z-u shab,
Jon nahifu tan zaif o'lmoq ajab uzra ajab,
Jismdin so'rsamki, bu za'fingg'a ne bo'ldi sabab,
Der, anga bo'ldi sabab — o'tlig' bag'rning hirqati.

Topmayin dardimga darmon ko'p yugurdim har yonga,
Bilmon, ey joni balokash, ne iloj aylay sanga,
Kuyganimni sar-basar aytay quloq solsang anga,
Chun bag'rdin so'rsam aytur, anda o't tushdi manga-
Kim, ko'ngulga shula soldi ishq barqi ofati.

Bo'lmasun hech kimsa, yo rab, men kabi holi tabah,
Qildi charxi bemuruvvat ro'zgorimni siyah,
O'rtanib hasrat o'ti birla vujudum tah-batah,
Ko'ngluma qilsam g'azab, ayturki, ko'zdindur gunah,
Ko'rmayin ul tushmadi bizga bu ishning tuhmati.

Qilg'ali mehnat o'qi jismimni sartosar yaro,
Topmadim zaxmimg'a marham istabon olam aro,

O‘z-o‘zum birla qilib devonalardek mojaro,
Ko‘zga chun dermenki, ey tar domani yuzi qaro,
Sendin o‘lmish xasta ko‘nglumning balo-u mehnati.

Ohkim, yo‘qtur g‘amimni so‘rg‘ali bir g‘amgusor,
Yoshurun dardimni bilmon kimga aylay oshkor,
Qon yoshidin jayb-u domonimni aylab lolazor,
Yig‘lab aytur ko‘zki, yo‘q, erdi manga ham ixtiyor
Kim, ko‘rundi nogahon ul sho‘xi mahvash tal’ati.

Necha, Roqim, aylabon chun-u charoni justujo‘y,
Aylagaysen jahldin har uzv birla guftugo‘y,
Oqil ersang emdi kel behuda afsonangni qo‘y,
Ey Navoiy, barcha o‘z uzrin dedi, o‘lguncha kuy,
Chun sanga ishq o‘ti — o‘q ermish azalning qismati.

Navoiy g‘azaliga muxammas

Bahor vaqtida qil sayri lolayi xudro‘,
Nedinkim bog‘ aro ochildi g‘unchayi xo‘shbo‘
Bu nav chog‘da o‘lturmoq uyda bo‘lg‘aymo‘,
Ne yaxshi vaqt erur er birla bir bo‘lg‘u,
Ko‘ngulda har necha pinhon so‘z o‘lsa aytilg‘u.

Topib hayot, taxayyul visolin aylarda,
Tavofi ko‘chayi jannat misolin aylarda,
Tazakkuri mujau zulf-u xolin aylarda,
Qad-u, yuz-u labi la’li xayolin aylarda
Ko‘zumga kecha tong otg‘uncha kelmadi uyqu.

Kel, ey shikasta ko‘ngul, tarki bu rabot etkil,
Oning aloyiqidin tarki ixtilot etkil,
Xazoni marg etar, ishda ixtiyot etkil,
Bahor vaqtida may ichgil-u, nashot etkil,
Na shoh qolg‘usi olamda, ne gado qolg‘u.

To‘lub fasonayi husnig‘a Qofdin to Qof,
Asiri zulfi girihgiri necha mo‘yshikof,
Ul oyni har kishi ko‘rgach dedi qilib insof,
Zamiri sof, yuzi sof, tiynatidur sof,
Najodi odam emastur, farishta bo‘lg‘ay bu.

Qabul ayla so‘zumni, eshit nasihat sen,
Xush et ko‘ngulni tutub yor birla ulfat sen,
Jahon uyi aro mehmon necha fursat sen,
Visoli do‘st g‘animat, o‘zung g‘animat sen -
Ki, har nechuk qilibon bo‘lma yordin ayru.

Jahong‘a toki adam tang noyidin keldim,
Yurakni tiyg‘i nadam birla har sari tildim,
Baqoyi umri emas selcha, ozmun qildim,
Hayot-u aynsh jahonni bu qadarkim bildim,
Biaynihi ekan ul soyayi rami ohu.

Ne boq, ishqida Roqim g‘am-u balo ko‘rsa,
O‘zini dard ila mehnatga mubtalo ko‘rsa,
Tafoxur anlar, agar yordin jafo ko‘rsa,
Navoiy yori jafokoridin vafo ko‘rsa,
Onga bu rutba bori oshiq ichra oyruqsu.

Fuzuliy g‘azaliga muxammas

Ko‘ngluming dardini dildor bilibdur, biluram,
Meni vaslina talabgor bilibdur, biluram,
O‘zina oshiqi diydor bilibdur, biluram,
Yor holi dilimi zor bilibdur, biluram,
Dili zorimda nakim vor bilibdur, biluram.

Yor agar oshiqi shaydosina g‘amxor o‘lmaz,
Ishq bozorida husniga xaridor o‘lmaz,
Dardidin o‘lsam ul oy, oh, xabardor o‘lmaz,

Yori agyor bilibdurki manga yor o‘lmaz,
Men daxi oniki ag‘yor bilibdur, biluram.

O‘zni ul mugbacha masti mayi jom aylagali,
Otlanib chiqti, qirib elni tamom aylagali,
Jon qushin donayi holi bila rom aylagali,
Zulfini ahli vafo qaydina dom aylagali,
Meni u doma giriftor bilibdur, biluram.

Labi hijronida bo‘ldi jigarim dard ila qon,
Chok siynamda g‘ami qolmadi hargiz pinhon,
Dema, ko‘nglungdagi dardingni anga ayla bayon,
Men na hojatki qilam, dardi dilim yora ayon,
Qam-u dardi dilimi yor bilibdur, biluram.

Roqimo, komimi talx etgali ul shirin lab,
Mehr fosh aylamayin qildi g‘azab uzra g‘azab,
Gar oning mayli sanga bo‘lmasa, ne sud talab,
Yor hamsuhbatim o‘lmazsa, Fuzuliy, na ajab,
O‘zina suhbatimi or bilibdur, biluram.

MASNAVIY

Salom, ey ikki xo‘b-u zebo o‘g‘ul,
Salom, ey manga ikki mirzo o‘g‘ul.

Salom, ey ikki nuri diydam mening,
Jahon ahlidin barguzidam mening

Salom, ey ikki bog‘i umrim guli,
Hayotim gulistonining bulbuli.

Salom, ey manga ikki jondin aziz,
Nekim yo‘q aziz ondin, ondin aziz.

Salom, ey ikki munisi jonimiz,
Ko‘ngul quvvati, jong‘a darmonimiz.

Atog‘a o‘g‘ul jon esa begumon,
Vale ikkingiz tanda jonimg‘a jon.

Bilinglar, sarosar erur chin so‘zum,
G‘alat der esam, chiqsun ikki ko‘zum.

Buxorog‘a ul kunki azm etdingiz,
Uqumoq uchun ul taraf ketdingiz.

Ko‘zumga bo‘lub tiyra yaxshi jahon,
G‘am ostida qoldim meni notavon.

Zamone g‘amim so‘rg‘ali yo‘q kishim,
Qilib yodingiz yig‘lamoqdur ishim.

Agar tiymasam ko‘z yoshim bir zamon,
Suv ostida qolg‘ay to‘quz osmon.

Aningdek tanimdin borib quvvatim,
Ki tebrangali qolmamish qudratim.

Meni zor tortib fig‘on, yig‘laram,
Dam-odam firoq ichra qon yig‘laram.

Ne bor kechalar xobi rohat manga,
Ne kunduzda bor istirohat manga.

Asal solsam og‘zimga og‘u bo‘lur,
Yoruq kun ko‘zumga qorong‘u bo‘lur.

Ular har kim ayrilsa bir jonidin,
Kechib dahr paydovu pinhonidin.

Mangakim erur ikki jondin firoq,
Tirik bo‘lmoqimdur o‘lumdin yiroq.

Tirilgay edim kelsangiz nogahon,
Ko‘zum yuzlaringizni ko‘rgan zamon.

Bo‘lub emdi sizlarga tangri shafiq,
Ikkingizg‘a tavfiqin aylab rafiq.

Ne bo‘lg‘ay karam aylabon lamyazal,
Ato qilsa sizlarga ilm-u amal.

Berib fahm ila donish-u imtiyoz,
Xaloyiq aro aylasa sarafroz.

Sizi bahramand aylab avroqdin,
Ko‘tarsa meni dog‘i tufroqdin.

Dil-u jon bila qilsangizlar talab,
Murod o‘lsa hosil, emasdur ajab.

Dengu do‘shingiz birla aylab talosh,
Ko‘tarmang o‘qumoqdin albatta, bosh.

Bo‘lub yaxshi ozodalar hamdami,
Talab ichra tinmang, tayonmang dame.

Qilib g‘ayrat-u nangu nomus-u or,
Eting ilm tahsilini ixtiyor…

Qilib sayr, kezmak havas aylamang,
Zamone o‘qumoqni bas aylamang.

O‘zingizga rohatni aylab harom,
Bo‘lung‘lar riyozat bila subh-u shom…

Ko‘rub mevaning xom ila pishmishin,
Havas aylamang pista-u kishmishin.

Demang yeyirga halvoytar yaxshiroq,
Qanoat qiling, topsangiz noni qoq.

Bilib darsingiz aylab azbar o‘qung,
O‘qunglar, o‘qunglar, o‘qunglar, o‘qung.

Havo-u havaslari aylab raho,
Saboqlarni takror eting borho.

Masaldur, sabaq bir agar bo‘lsa harf,
O‘qumoq kerak oni har kunda alif.

Qiling borho sa’y birla jadal,
G‘animat mahaldur, g‘animat mahal.

Hayal aylamanglar, o‘qung muttasil,
O‘tar ko‘z yumub-ochg‘ucha oy-u yil.

Ikkingizni qo‘llab shahi Naqshband,
Bori ilmdin aylasun bahramand...

Gahi orzu aylabon sharhi hol,
Ikkingizga bir noma qilsam xayol.

Yozay deb oni qo‘lg‘a olg‘och qalam,
Qilur ko‘z yoshim ila qog‘ozni nam.

Ki yozmoq anga noma oson emas,
Suv ustiga xat hargiz imkon emas.

Budur uzrimiz, ey manga ikki jon,
Agar kunda bir noma qilmon ravon.

Yo‘q ersa necha so‘zni taqdir etib,
Bari muddaolarni tahrir etib.

Yozarda durbor etib xomani,
Yuborgay edim kunda bir nomani.

Topib hajr taskinig‘a ehtimol,
Qilib jonfizo vaslingizni xayol.

Basi shod etib tabi xudkomani,
Yozib bu bahona bila nomani.

Birovga berib qildim oni ravon,
O‘qug‘ach bo‘lur sizga holim ayon.

Bu yanglig‘ agar qilmasam makruol,
Erur nomani yozmoq amri mahol.

Meni emdi sizlar dag‘i yod eting,
Biror noma birla gahi shod eting.

O‘luk jismima men dag‘i jon topay,
Firoq ichra dardimg‘a darmon topay.

Deyin oshkora, emas yoshurun,
Bo‘lub mehribon bizga mundin burun.

Qilib mo‘-bamo‘ holingizni bayon,
Yozib nomakim qildingizlar ravon.

Manga nomangizni qilib yo‘lni tan,
Yeturgan zamon qosidi nekpay.

Olib ko‘zga surtib, o‘qub yig‘ladim,
Sog‘inib ikkingizni ko‘b yig‘ladim.

Kitobatki nisful-muloqot emish,
Ulug‘lar bu so‘zni na yaxshi demish.

Bas avlodururkim yozib har zamon,
Atog‘a o‘g‘ul noma qilmoq ravon.

Ato ham o‘g‘ulg‘a yozib inchunin,
Muhabbat yuzidin, na az ro‘yi kin.

Bu yanglig‘ esa, ey charog‘i ko‘zum,
Budur emdi sizlarga aytur so‘zum.

Mening hajr qatlig‘a chekkanda tiyg‘,
Gahi noma irsolin etmang darig‘.

Ochib nomangizni o‘qug‘an zamon,
Yetar manga har harfidin toza jon.

Aning lutf-u ehsonidin yo‘q ajib,
Yana tangri diydor qilsa nasib.

Qasir ayladim bermayin so‘zga tul,
O‘qug‘an kishi bo‘lmasun deb malul.

Yo‘q ersa so‘zum haddu poyoni yo‘q,
Yozardin tuganmaklik imkoni yo‘q,

Debon maqsadin Roqimi xush kalom,
Bas etti so‘zin adduo vassalom.

MARSIYA

Bording olamdin, yetishgach tangridin farmon, bolam,
Ne iloj aylay meni bechora bilmon, jon bolam.

Sendin, ey nuri ko‘zum, yuz voykim, ayrilg‘ali,
Ashk o‘rnig‘a oqar ikki ko‘zimdin qon, bolam.

Mehnat-u dard-u, balo-u xayli g‘am aylab hujum,
Qildilar boshimni oxir yer bila yakson, bolam.

Toqat etmay furqating o‘tig‘a yig‘lab zor-zor,
Kecha-u kunduz qilurmen tinmayin afg‘on, bolam.

Motamingda qattig‘ un birla o‘kursam, bo‘lg‘usi
Oh-u nolamdin zamin-u osmon larzon, bolam.

Sovurub boshimg‘a tufrəqlar, qilib siynamni chok,
Sensizin bo‘ldim xarob-u, besar-u somon, bolam.

Oh, bilmasmen bu dardimg‘a ne chora aylayin,
Xonumonimni firoqing ayladi vayron, bolam.

Sanchilur bag‘rimg‘a har soatda yuz ming xori g‘am,
Bo‘lg‘ali guldek taning yer ostida pinhon, bolam.

Ne yemak bor menda, ne ichmak, ne rohat bir zamon,
Bu yomon holimg‘a tom-u tosh bo‘lur giryon, bolam.

Ne tirik sonidadurmen, ne o‘liklar sonida,
Ko‘rsa el holimni, albatta, bo‘lur hayron, bolam.

Har kishi tug‘di anodin o‘lgusidur oqibat,
No‘sh etib bir-bir ajalning sharbatin inson, bolam.

Bahr-u kon naqdini xarj aylab qutulmoq istabon,
Topmamish hech kim ajalning dardiga darmon, bolam.

Mumkin ermas jonni qutqarmoq ajal jallodidin,
Ne gado qolg‘ay jahon mulkinda, ne sulton, bolam.

Yaxshi odingni xalopiq der edi Sayyid Murod,
Oh, naylay bemurod etdi meni davron, bolam.

So‘rg‘ali dardi dilimni nogahon kelgaymu deb,
Gul yuzing istab boqarmen telmib haryon, bolam.

Olsa jonimni ajal jallodi minnatdormen,
Sensiz olamda tirik bo‘lmoq emas imkon, bolam.

Mushkul erdi sensizin birdam tirik bo‘lmoq manga,
Shukurkim, o‘lmakni hajring ayladi oson, bolam.

Bo‘lsa yuz jonim oyog‘ingg‘a nisor etgay edim,
Kelsang erdi so‘rg‘ali holimni nogahon, bolam.

Har saharlarda turib yig‘lab manga budur tilak,
Haq sening qilg‘ay makoning ravzayi rizvon, bolam.

Tong-la mahsharda karam aylab xudovandim sanga,
Hamdam etkay jannat ichra hur ila g‘ilmon, bolam...

Baski yig‘larmen ukush g‘am birla ashkim selidin,
Boshima yemrulgudekdur kulbayi ehzon, bolam.

Ko‘rsa Roqim nogahon tushda agar diydoringi,
Qolmag‘ay mahsharg‘a tekru ko‘nglida armon, bolam.

XO'JANAZAR HUVAYDO

(1704–1780/81)

Tasavvuf she'riyatining yirik vakili Huvaydoning asl nomi Xo'janazar G'oyibnazar o'g'li bo'lib, O'sh shahrida tug'ilgan. Qo'qon madrasalarida o'qigan. Chimyonda maktab ochib, uzoq vaqt maktabdorlik qilgan, kosiblik bilan ham shug'ullangan.

Huvaydo mumtoz she'riyatning deyarli barcha janrlarida ijod qilgan. She'rlari xalq orasida juda mashhur bo'lgan. Huvaydo axloqiy-didaktik yo'nalishdagi mazmunan teran, uslubiy go'zal asarlari bilan adabiy maktab yarata olgan shoirdir. Huvaydo majoziy va haqiqiy ishq haqidagi orifona, dunyoviy she'rlaridan tashqari zolimlik va mazlumlik, kamolot va axloqiy tubanlik haqidagi she'rlarida ham mazkur shoirlar an'analarini davom ettirgan va yangi fikrlar bilan boyitgan.

Huvaydo she'rlari vafotidan so'ng nabiralari tomonidan devon holiga keltirilgan. Unga shoirning 351 g'azal, 28 ruboiy, 41 to'rtlik, 3 muxammas, 1 musaddas, 1 musamman, 1 mustahzod, 3 masnaviy hamda axloqiy-didaktik mazmundagi "Rohati dil" manzumasi kirgan. Devondagi ilk she'rlarida ro'za, namoz, zakot, haj, jannat va do'zax bilan bog'liq mavzular yoritilgan, g'urur, manmanlikni tanqid qiluvchi, tavoze, qardoshlik va to'g'riso'zlikni ulug'lovchi hikmatlarga keng o'rin berilgan. Huvaydoning she'rlarida tasavvufiy unsurlar — nafsni jilovlash va dunyodan o'zni uzoq tutish bosh g'oyalardan biri. Dunyo lazzatining insonni baxtli eta olmasligiga ishongan shoir Allohga, abadiy baxtga erishmoq uchun inson o'zligidan kechmog'i kerakligini anglaydi.

Shoirning "Rohati dil" axloqiy manzumasi pandnoma turining go'zal namunasidir. Unda ochko'zlik, tamagirlik, vafo, boqiylik, foniylik, yaxshilikning foydasi, yomonlikning zarari, go'zallik va mehnatsevarlik, moddiy va ma'naviy poklik kabi xilma-xil axloqiy mavzulardagi ibratli hikoyalar keltirilgan. Huvaydo diniy-axloqiy mazmundagi "Ibrohim Adham" nomli she'riy doston ham yozgan.

Huvaydo vafotiga bag'ishlab uning shogirdlari, muxlislari tomonidan marsiyalar, ta'rixlar yozilgan. U haqda ibratomuz rivoyatlar, yodnomalar paydo bo'lgan. Shoirning otasi G'oyibnazar Eshon shajarasi daxmasi hozir ham ziyoratgoh joylardan hisoblanadi.

"Devoni Huvaydo"ning bir qancha qo'lyozma nusxalari va litografik nashrlari bo'lib, ulardan chevarasi Salohiddin Soqib (1838–1910) va Mirza Hakim ibn Mirza Umid Marg'iloniylar ko'chirgan nusxasi Samarqand davlat universiteti kutubxonasida saqlanadi (inv. №3903).

G'AZALLAR

Iloho, san karam birla kechurg'il, ey Xudovando,
Gunohi jumla mo'minni, ayo ma'budi behamto!

O'shal sahroda qaynar mag'zi sar misli qazon yanglig',
Tilim tizga tushurib tashna aylab qilmag'il rasvo.

Kelur nayza bo'yi xurshidi tobon favqi sar uzra
O'shal kun boshimizga chodari rahmatni qil paydo.

Kurilsa ul "famay-ya'mal"da mezonim sabuk qilma,
Savobimni gunohimdan, ayo sattori ma'yubho!

Qadam qo'ysam yiqitmog'il sirotal mustaqim uzra,
Giriftori jahiym aylab qulingni qilmag'il rasvo.

Hamma ish bizga mushkuldir, saning oldingdadir oson,
Sen o'qsan barchani Parvardigori halli mushkulho.

Umidim ko'pturur lo taqnatuv mir rahmatillohdin,
Agar chandiki noshoyista ishlar aylasam barpo.

O'shal havli qiyomatni, Iloho, aylag'il oson
Bahaqqi sayyidi kavnayn subhonallaziy asro!

Na xush baxti saodatdur Muhammad "ummatim" desa,
"Saningdek ummatim yo'q" desalar faryod-u vovaylo.

Xaloyiq oldida sharmanda bo'lib termulib qolsam,
Qaro kunlar o'shal soat boshimga bo'lg'usi paydo.

Quruq til birla ayturman: "Muhammad ummatiman", deb
Yemak-ichmak ishim bo'ldi, qani toat, qani taqvo?

Shafoat bahridin serob qilg'il jumla mo'minni
Tufayli yaxshilar man osiy qulni, yo rasullulloh!

Ayo Ahmad, manga bir qatrayi bahri shafoatdin
Darig' etma, Huvaydo garchi bo'lsa osiy-u gumroh.

* * *

Man osiyman, bechoraman, darmondaman, yo Mustafo,
Ul ruhi pokingga sani ilgim ochib qildim duo.

Isyon cho'lin yurdim kezib, qoldim aro yo'lda ozib,
"Vasma'u da'ana vastajib", ey jumla elga rahnamo.

Bechoralar g'amxorisan, dardi dilim tiymorisan,
Pusht-pano ummatga san, ey shofe'yi ro'zi jazo.

Berohibar yo'lga kirib, qoldim aro yo'lda horib,
Ozg'urdi yo'ldin, naylayin, yo Ahmado, nafs-u havo.

Yo rohmatal-lil-olamin, ey anbiyolarga nigin,
Ey sayyidi ro'yi zamin, ey peshvoyi anbiyo.

Sansan rasuli olamin, sansan imomul muttaqin,
Sansan shafiy'ul-muznibin hodiil muzillin, ihdino.

Zuhd ahli birla hamnishin, ishq ahliga aynul-yaqin,
Mir'oti qalbi ul-mo'minin, ey oftobi vaz-zuho.

Misbohi ayvoni rusul, san-san imomi juzu kull,
Ey hodiyi ahli subl va chashmi jonga to'tiyo.

Sansan anodin mehribon, sandin tilarmiz ko'p omon,
Kelsa mango harna ziyon, sansan sipar yanglig' pano.

Sango rasuli mujtabo, badr ud-dujo, nur ul-xudo
Aylar Huvaydo ko'p duo ruhingga har subh-u maso.

* * *

Beadad mandin duo, ey choryori bosafo,
Sizga, bu Bakr-u Umar, Usmon, Aliyi murtazo.

Sidqu ixlosim bila, Ey oli as'hobi rasul,
Ruhingizga qo'l ochib, shom-u sabo aylay duo.

Tortti Ahmad javr-u mehnat ushbu foniy dunyoda,
Ummat ersang, bo'lg'il emdi payravi ul mustafo.

Birisi sidqu sadoqat avjida badri munir,
Birlari adl-u adolat burjida shamsi zuho.

Birlari hilmu hayo iqlimida bahri hayo,
Birlari lutf-u karam avrangi koni saxo.

Nuri chashm Haydari karrorni zolim Yazid
Qip-qizil qonga bo'yab, qildi shahidi Karbalo.

Ey Huvaydo, ishq ahli ushbu so'zni aydilar:
"Sobirini bil — balo-u, roziyini bil — qazo".

* * *

Siynani sadpora qilding, ey pari, qoshi qaro,
Tiyri mujgoning bilan qilding yurak-bag'rim yaro.

Kelmag‘ay hargiz farohim siynayi chokim mani
Tori zulf-u so‘zoni mujgon bilan qilmay rufo.

Bu maning dardimga, ey dilbar, tabib darkor emas,
Ey saning darding, tabib, kulli dardimga davo.

Xirmani jismimga tushti barqi ishqing, ey pari,
Qolmadi bir zarra jonim o‘rtanib bo‘ldi ado.

Muncha berahm sitamgar yor ekonsan, naylayin,
Kelmadi oshiq sari rahming sani, ey purjafo.

Aql-u hushimni olibsan telbalardek so‘zlatib,
Hoy-u hu deb tortadurman na’rayi vohasrato.

Tashnalab qoldim Furoti g‘amda sargardon bo‘lub,
Lashkari ishqing kelib qildi shahidi Karbalo.

Bo‘lmag‘ay ishq-u muhabbat loyiqi har odami,
Ey Huvaydo, bo‘lmaguncha bu jahonda mosuvo.

* * *

Ishqni mansubasin Majnuni hayrondin tila,
Laylidek xoli siyah zulfi parishondin tila.

Na so‘rorsan oshkora ul sanamni dardini,
Kel, shabi xilvat ichinda oh-u afg‘ondin tila.

Har nechuk nodon tabibdin so‘rma dardingga davo,
Izlagil hoziq tabib, dardingga darmondin tila.

Har tikonda toza gul, har bahrda yo‘qtur sadaf,
Gavhari qimmatbahoni bahri ummondin tila.

Na bilur zog‘-u zag‘an raftori gul, ishq qadrini,
Bulbuli oshuftani qadri gulistondin tila.

Lazzati dunyoni xushlar na bilur tan o‘zgani,
Zavqi-shavqi yorni dil uyida jondin tila.

La’li maqsad har qayu tog‘din topilmas istasang,
Ur riyozat metinin ko‘hi Badaxshondin tila.

Xojanazar osiyga qo‘ydim Huvaydoni laqab,
Bul g‘aribi mustamandni shahri Chimyondin tila.

* * *

Nigorim ishqidin qildim saharlar nolalar paydo,
Yurak dog‘ini kovlab, ayladim xunobalar paydo.

Jamoli orzusidin saharlarda turib yig‘lab,
Ko‘zimdin ayladim chun abri nayson jolalar paydo.

San, ey bulbul, navo qilg‘il guliston mavsumi ichra,
Qilur ma’murayi guldin xazon vayronalar paydo.

Mani parvonaga ayb aylamang shami ruxin ko‘rgach,
Kabutar naslidek “hu” deb bo‘lur parvonalar paydo.

Xumori chashm soqiyi diloromim bayon qilsam,
May ichmay bo‘lg‘usi har go‘shadin mastonalar paydo.

San ey zohid, bugun mayxo‘ralarni aybini qilma,
Birov masjid bino aylar, birov mayxonalar paydo.

Saropo dard erurman, lek darmonin topolmasman,
Labimdin bo‘ldi bag‘rim garmidin tab xolalar paydo.

Ayo bodi sabo, yetkur Huvaydodin bu inshoni,
Yurak zardobidin qildim sanamga nomalar paydo.

* * *

Dardi g‘amiga hargiz qilma davo, Huvaydo,
Ichgil mayi muhabbat bemuddao, Huvaydo.

Zuhdi qilma taqvo, mayxo‘ralik shior et,
Mayxonada muqim o‘l, qilma riyo, Huvaydo.

Ishq-u muhabbat ichra o‘lding, muborak o‘lsun,
Sharti muhabbat uldur: bo‘lmoq fano, Huvaydo.

Ming uqbayi pur oshub ishqing yo‘lida bordur,
Yo hodiyal-muzillin, der ehdino, Huvaydo.

Hayratdaman, nigoro, yo‘q qo‘lda ixtiyorim,
Sarmoya yo‘q qo‘lumda, g‘ayri rizo, Huvaydo.

Gar tavfi Ka’ba qilmoq, ey ko‘nglum, istor esang,
Qil tavfi ka’bayi dil, ey porso Huvaydo.

Ishqida bir sanamni devona bo‘lmasaydi,
Vasfiga qilmas erdim til oshno, Huvaydo.

* * *

Dardi yo‘q bedard kishilar dard qadrin na bilur,
Dunyoda nomard ko‘pdur, mard qadrin na bilur.

Za’faron bo‘ldi chiroyim yor uchun, ey do‘stlar,
Bilmagonlar bu chiroyi zard qadrin na bilur.

Jon uzub, jonni ulodim kokili jononaga,
Fahmi yo‘q befahmlar payvand qadrin na bilur.

Oz erur jononaga sarf aylasam man mol-u jon,
Qilmag‘on nodon kishi jon, mard qadrin na bilur.

Yig‘ladi harchand Huvaydo, bilmadi el qadrini,
Tushmagan dard boshiga bodard qadrin na bilur.

* * *

Yigitlikda may ichmak na xush-u, baxt-u saodatdur,
Qarilik mavsumi mehnat, yigitlik vaqti rohatdur.

Guliston mavsumi bo‘ldi, may ichmakni g‘animat bil,
Tiriklik ko‘p emas, bir ko‘z yumib-ochquncha soatdur.

Kel, ey soqiy, ketur jomi, payo-pay bodani sof et,
Yurutgil kosayi davron, bu damlar ham g‘animatdur.

Dafu tanbur-u benay boda ichmak oncha xo‘b ermas,
Qil, ey mutrib, g‘azalxonliq, bu kun ayyomi ishratdur.

Gulistonlar aro sebargalarni yostonib yotib,
Tamoshoyi chaman aylab,
may ichmak xush nazokatdur.

Tiriklikni g‘animat bil, may ich, umringni xush o‘tkar,
Tepib o‘t dunyo molini, hama ranj-u falokatdur.

Huvaydo, tavba qilma boda ichmakdin qaridim deb,
May ichmaklik qarig‘onda g‘izoyi ruh, rohatdur.

* * *

Nigorim dardidin yig‘lab, na orom-u, na xobim bor,
Ko‘zimdin har taraf bo‘lg‘on ravona, turfa obim bor.

Umidi xo‘bluq yo‘qtur tanimda, titrashur jonim,
O‘larman begumon emdi, ajab holi xarobim bor.

Qilibdur va’da dildorim: “Jamolim ko‘rsatay o‘lsang”,
Kel, ey qobiz, manga emdi, o‘lay deb ko‘p shitobim bor.

Mani yig‘log‘onimg‘a “yor” deb, ayb etma, ey zohid,
Aromizda sanam birla o‘lum otlig‘ hijobim bor.

Icharg‘a bodayi gulrangki har kecha qurub majlis,
Tong otquncha tamosho, nag‘mayi chang-u rubobim bor.

Bihisht-u hur-u, g‘ulmon-u du olamni unutqaysan,
Ayo zohid, agar ichsang, basi qattig‘ sharobim bor.

San, ey zohid, mani mun’imni qilma, may harom ermas,
Riyo-u taqvodin bir kosa mayda ko‘p savobim bor.

Huvaydoni may ichmakdin nasihat qilma, ey zohid,
Qachon bir kosa maydin, to tirikman, ijtinobim bor.

* * *

Yo‘liqti tun arosida ko‘zimga dilrabo yolg‘uz,
Kulib boqib, qoshin qoqib, qilib o‘tti imo yolg‘uz.

Oyog‘i naqshiga surtub yuzim, bo‘si kanor aylab,
G‘ubori rohidin qildim ko‘zimga to‘tiyo yolg‘uz
.
Mani ahvoli dardimdin borib albatta ayg‘oysan,
Sanamni oldiga borsang, ayo bodi sabo yolg‘uz:

Yotibdur go‘shaida “yor-yor” deb bir g‘aribi zor,
Boshin yerga urub yig‘lar, degil, aylab navo yolg‘uz.

Shikasta muztarib ahvol dardimdin bayon etg‘il,
Ani ko‘nglig‘a shoyad rahmini solg‘ay Xudo yolg‘uz.

Sani husni kamolingga Huvaydoyi g‘arib miskin
Qilur, degil, saharlarda ochib ilgin duo yolg‘uz.

* * *

Tun oqshom keldi kulbamga nigori mehribon yolg‘uz,
Olib burqa’ jamolidin, o‘zin qildi ayon yolg‘uz.

Kulub ohista-ohista kelib, uyqudin uyg‘otti,
“Sahar bo‘ldi, yotarsanmu”, dedi shirinzabon yolg‘uz.

Qo‘limdan ushlabon aydi: “Na holing kechti yoz-u kuz,
Kuyub hajr o‘tida bo‘lg‘on, ayo ey notavon yolg‘uz”.

O‘zumdin bordim ul soat yurakda qolmadi holat,
Qilolmodim anga ahvoli dardimdin bayon yolg‘uz.

Yonimda o‘lturib chandon tarahhum birla so‘z qotti,
Berolmadim javob angaki, lol o‘ldi zabon yolg‘uz.

Kelib holimga, ko‘z ochtim, qo‘limga kosa may berdi,
May ich, deb ul pari ketti, bo‘lub yo‘lga ravon yolg‘uz.

Huvaydoyi g‘aribin ul pari shirin so‘zi birlan
Yuragiga solib o‘t, o‘rtadi jon-u jahon yolg‘uz.

* * *

Ishq bozorida man bo‘ldum xaridoring saning,
Ikki olam arzimaydur zulfi zunnoring saning.

Masti “loya’qil” bo‘lub, aylar ishimni bilmadim,
Yotaman, ingronaman bo‘lub chu bemoring saning.

Burnodin nodon ekonman, bilmadim qadringni man,
Keldi ishqing, emdi bildim qadri diydoring saning.

Doimo g‘aflatda erdim, bilmadim man g‘am nechuk,
G‘am yetushti, chunki bo‘ldum emdi bedoring saning.

Har kishi tolib bo‘lib, qilsa jamolingni talab,
Boshidin hargiz tuganmas zulmi dushvoring saning.

Ey Huvaydo, dil uyida zarracha ag‘yordin,
Bo‘lsa, yetmas yorga bu nola-u zoring saning.

* * *

Dilbaro, ishqing o‘tida kuydi bu jonim mening,
Jon na ermish, balki kuydi nuri iymonim mening.

San agar lutf etmasang man xastayi bemorga,
Bu tiriklikni netorman, xushdur o‘lgonim mening.

Sansizin manga bu qilg‘on xonumon-u ro‘zgor,
Bir go‘ristondek ko‘rinur, ko‘shk-u ayvonim mening.

Ko‘rmasam bir dam yuzungni, ey nigoro nozanin,
Nuh falakni kuydurur bu oh-u afg‘onim mening.

Sansizin bir luqma osh yo parchayi non tishlasam,
Og‘zima andoq uroy, sinsun bu dandonim mening.

Ey nigori mehribon, ko‘rsam yuzungni man ayon
Ul qiyomat kunida, yerga yetar yonim mening.

Ey pari, miskin Huvaydo ko‘rmay o‘lsa der sani,
Dog‘lar bag‘rimda qolg‘ay ham yuz armonim mening.

* * *

Gunbazi davvor ichinda o‘rgulur boshim mening,
Yor vasliga yetolmay, to‘kulur yoshim mening.

Yuraman giryon-u nolon darbadar devonadek,
Hech holim so‘rmadi yori qaro qoshim mening.

Barcha bildi holi dardim, bilmading holimni hech,
So‘rmading: “Oyo nechuksan”, deb bag‘ir toshim mening.

Sadqayi darding qilurman dunyoni aysh-u hushin,
Aysh erur xobu xayolu dard yo‘ldoshim mening.

Bu g‘ariblik shahrida muhtoj emasman xeshga,
Kulfating bo‘ldi ag‘o, darding qarindoshim mening.

Qay kuni berdi ko‘ngil sanga Huvaydo, ey pari,
Hech forig‘ bo‘lmadi g‘amdin g‘arib boshim mening.

* * *

Bir buzuq vayronadur ul uydakim yor o‘lmasa,
Yor ila obod erur ul uyda ag‘yor o‘lmasa.

Goh ko‘runub, goh qochor oshiqlarin kuydirg‘ali
Ishq lazzat bermag‘ay dilbarki ayyor o‘lmasa.

Oshnolikni uzub yor andin aylar e’tiroz
Ul kishim yoridin har dam xabardor o‘lmasa.

Ko‘p balo o‘qin otar oshiq sari, oshiq emas
Ko‘ksin ochib yorini oldida tayyor o‘lmasa.

Bo‘lmag‘ay oh-u fig‘on tong otkucha bedorlik,
Oshiqi dilxastani yori sitamkor o‘lmasa.

Yeb yotib orom ila oshiqlig‘i bekor erur,
Charbi shirin yeb-ichordin kimki bezor o‘lmasa.

Avval o‘zung qil amal, so‘ngra nasihat elga de,
Ey Huvaydo, so‘zlama sanda amal bor o‘lmasa.

* * *

Arzimni aydim bodi sabog‘a,
Yetkursa holim ul dilrabog‘a.

Qilsa xudoyim ko‘nglin muloyim,
Rahm aylagaymu man mubtalog‘a.

Qilg‘aymu xayrin o‘z qo‘li birla,
Borsam ko‘yiga miskin gadog‘a.

Dedi raqiblar yorga yomonlab,
Soldi judolig‘ naylay arog‘a,

Ko‘nglumda yo‘qtur zarra gumonim,
Kimki yomondur soldim xudog‘a.

Holimni aytsam yorim inonmas,
Emdi qo‘yubman yavm ul jazog‘a.

Yorsiz kishini parvosi yo‘qtur,
Suydum sanamni qolđim balog‘a.

Dushmanlarining noz-u, naimda
Parvarish aylab soldi g‘inog‘a.

Do‘stini yorim ranj-u alamda
Qo‘ydi el ichra javr-u jafog‘a.

Miskin Huvaydo sabr-u tahammul
Aylab, hamisha yig‘lar xudog‘a.

* * *

Rahm aylasang-chi devonalarg‘a,
Ishqinda bo‘lg‘an afsonalarg‘a.

Aylab judolig‘, ey hamnishinim,
Qilding jafolar hamxonalarg‘a.

Kuydurma jonim rashk o‘ti birla,
Ochib yuzingni begonalarg‘a.

Sajda qilay deb, shirin, butimg‘a,
Bordim so‘roqlab butxonalarg‘a.

Maygun labingdin bir bo‘sa bergil,
Sinsun xumori mastonalarg‘a.

Har dam tilorman husni kamoling,
Urub boshimni ostonalarga.

Yondir, kuyoyin xilvat ichinda,
Shami jamoling parvonalarga.

Ishqingni ganji vayron ko‘ngilda,
Qo‘ysang turarmu koshonalarga.

Ey mayfurushim, bir kosa may ber,
Keldi Huvaydo mayxonalarga.

* * *

Icharg‘a bodai sahar mavsumi chaman yaxshi,
Navoyi mutribi xush majlisi, anjuman yaxshi.

Suzub piyolayi mayni, yig‘ilsa ishrat eli,
Suzarga mug‘bachai may kosayi Xo‘tan yaxshi.

Xush o‘tkar umri azizing jahon g‘amini yemoy,
May ich, tiriklik aro sihhati badan yaxshi.

Kishikim ichmasa mayni tirik emas, o‘lgan,
Aningdek odamig‘a go‘r ila kafan yaxshi.

Namoz-u ohni maqbul qilay desang oshiq,
Vuzuni may bila qil, sajdayi be alan yaxshi.

May ichmayin chu Huvaydo umrni o‘tkarsang,
Saningdek odamiylardin lachakli zan yaxshi.

* * *

Hech kishiga so‘zlamasdim, dod etdurdi falak,
Ko‘p xaloyiq oldida faryod etdurdi falak.

Arzi holim aytgudek bir yori hamdam topmadim,
Shod ko‘nglumni, netay, noshod etdurdi falak.

Man g‘arib-u xastani hardam firoq o‘ti bilan
Kuydurub, ko‘kka kulim barbod etdurdi falak,

Soldi ko‘nglum saydiga har lahza g‘am shahbozini,
G‘amni man bechoraga sayyod etdurdi falak.

Ey Huvaydo, bo‘lma gul bu charxi kajraftorg‘a,
Lahzada yuz shevalar bunyod etdurdi falak.

* * *

Sani ishqingdin, ey dilbar, ajab devonalar bo‘ldum,
Xaloyiqg‘a bo‘lub kulgu, basi afsonalar bo‘ldum.

Qilur ta’na ko‘rib hakim mani holimga, ey mohim,
Bu elni og‘zida har go‘shada afsonalar bo‘ldum.

Hama qavm-u qarindoshim mani ko‘rsa qilur nomus,
Baridin yuz o‘gurdum, bir yo‘li begonalar bo‘ldum.

Sani ilkingdin, ey dilbar, muhabbat jomini ichtim,
O‘shal kundin beri bilmay o‘zum mastonalar bo‘ldum.

Shabiston ichra, ey yorim, jamoling shamini ko‘rdum,
Boshingdin o‘rgulub har subhidam parvonalar bo‘ldum.

Visoling izlabon, dilbar, Huvaydoyi g‘arib miskin,
Gadolardek so‘rab eldin yurub ovoralar bo‘ldum.

* * *

Na qildim sango man, yorim, jamolingdin judo qilding,
Boshimda gardi g'amni chun charog'i osiyo qilding.

Hamisha kuydurub shami firoqing birla jonimni,
Mani parvonani xokistarini zeri po qilding.

Judoliq aylar ekonsan, oyo Laylivashi Shirin,
Na deb avval o'zungg'a man g'aribni oshno qilding.

Nigoro, bori g'am birla faqir-u notavon aylab,
Alifdek qomatimni lom, alif yanglig' duto qilding.

Firoqing osmonidin solib bir barqi olam so'z,
Vujudim xirmanin o'rtab, ado qilding, ado qilding.

O'shal ro'zi: "Bilurmusan mani", deb aytding, ey yorim,
"Bale", dedim, sani suydim, baloga mubtalo qilding.

Ayo dilbar, Huvaydodek balokashni eshiklarda,
Solib ko'zdin asir-u benavo, zor-u gado qilding.

* * *

Sabo yetkur salomimni qaddi sarvi ravonimg'a,
Qaro ko'zluk, qaro kokul o'shal shirin zabonimg'a.

Yotibdir bir g'aribi zor o'lib og'ishtayi tufroq,
Bu holimni borib aytg'il mani oromijonimga.

Mani boshim oni yo'li arog'a har balo kelsa,
Boqarman, ey birodarlar, qachon sudu ziyonimg'a.

Falak charxi uzildi-yu, yiroq soldi mani andin,
Qachon qo'shgoy xudovandim aningdek mehribonimga.

Oni dard-u firoqi o‘lguncha mandin judo bo‘lmas,
Taralmish jismimda jondek tamomi ustixonimga.

Huvaydoni firoqiga oni hech kelmadi rahmi,
Qaro toshlar suv bo‘ldi rahm etib oh-u fig‘onimga.

MUJRIM OBID

(XVIII–XIX asr)

Mujrim Obidning asl ismi Mirakxo'ja o'g'li, Buxoro viloyatining Kumushkent qishlog'ida tug'ilgan. O'z davri Buxoro adabiy muhitining zabardast vakili. Mirarab madrasasida tahsil ko'rgan. Mujrim taxallusi bilan she'rlar yozgan, so'ngra Buxoro amiri Haydar unga Obid taxallusini bergan.

Lekin u Mujrim taxallusidan ham voz kechmay, har ikkala taxallus bilan ijod etgan. U Amir Haydar saroyida muboshirlik vazifasida ishlagan.

She'rlarida Navoiy va Mashrab, forsiy she'rlarida Bedilga izdoshlik qilgan. Uning turkiy devonida 459 ta, forsiy devonida 206 ta g'azal bor. Bundan tashqari, devonda muxammas, qit'a, ruboiy, masnaviylar ham mavjud.

Mujrim Obid an'anaviy uslubda go'zal ishqiy g'azallar yaratgan. Ularda so'fiyona ruh kuchli. Qit'a va ruboiylarida shoirning axloqiy qarashlari, pand-nasihatlari aks etgan.

G'AZALLAR

Zamona har kima bir tarz ro'zgor qilur.
Biravni vosili davlat, biravni xor qilur.

Biravni qo'lig'a berur madori mulki jahon,
Biravni to dam o'tguncha bemador qilur.

Biravni g'am bila, qayg'u bilan ado aylar,
Biravni ishrati olamg'a poyidor qilur.

Biravni diydayi binosidin judo aylab,
Tamomi umrin asokashga intizor qilur.

Biravga siym-u zar behisob ro‘zi etar,
Biravni bir pul uchun yo‘l yuzida zor qilur.

Visol birla yil o‘tsa zamoncha ko‘rinmas,
Biror zamongina hijronni yil shumor qilur.

Falakdin har nechakim dard-u g‘am nuzul aylar,
Yurgim ichra kelib, jo tutub diyor qilur...

Biravni ko‘nglida kibr-u g‘urur, zavq-u huzur,
Biravni ko‘yi g‘ariblikda xokisor qilur.

Ko‘ngulki jazbayi ishq o‘qiga nishona erur,
Chu dard teksa qachon bir zamon qaror qilur.

Bu dayrda kishi bir-birdin ayrila tushsa,
Sharobi vasl nafas etmayin xumor qilur.

Biravga mehri fulus jahonga shatta urar,
G‘arib-u g‘amzadalar ko‘nglini shikor qilur.

Biravki ko‘ngliga ishq o‘tidin sharora tushar,
Junun boshig‘a tusharga nechuk qaror qilur.

Chunonchi ahli muhabbat yo‘luqsa bir-biriga,
Hikoyati g‘am-u afsonasi, baror qilur.

Chu oshno hamaga beg‘araz erur Mujrim,
Aning uchun hamani xolis e’tibor qilur.

* * *

Guliston ichra kirsam holima sarv-u suman yig‘lar,
Qilur bulbul fig‘on-u nolalar birla chaman yig‘lar.

Eshitsalar mani boshimga tushgan muncha savdoni,
Biyobonlarda Majnun, tog‘ ichinda Ko‘hkan yig‘lar.

Osildi ishq tug‘yoni bilan Mansur dor uzra,
Analhaq na’ra tortib, cho‘bayi dor-u rasan yig‘lar.

Yurak qon bo‘lmag‘uncha didadin xunoba yo‘q jori,
Birovga tekmasa bir dardi bedarmon qachon yig‘lar.

Mening ishqim hadisi tushsa gar mahfil arosig‘a,
Kuyar parvona-yu, motamda shami anjuman yig‘lar.

Bu hasrat birla oxir dahri foniydin guzar qilsam,
O‘qub g‘amnomayi hajrimni har bir mard-u zan yig‘lar.

* * *

Oxir ul bedodgar qasdi meni jonimdadur,
Yoki tig‘in tez etarga muddao qonimdadur.

Ko‘ching ey mardumki bir tun bo‘lmag‘aysiz g‘arqi xun,
Muncha selobi balokim chashmi giryonimdadur.

Yerga tushgan shu’lasiga toqati nazzora yo‘q,
Ul haroratkim maning xurshedi tobonimdadur.

Sog‘inurman kosh Majnun bo‘lsa erdi ulfatim,
Hurmatim tutmas xirad ahliki, davronimdadur.

Xoh sotsun, xoh qo‘ysun, xoh ozod aylasun,
Bandayi farmonidurman hukm sultonimdadur.

Har kima dard-u alam darkor, kelsun manda bor,
Chug‘zi oliy himmatam, bu ganj vayronimdadur.

Ko‘nglum afgor o‘lg‘anin andin xaloyiq fahm etar,
Kim xaroshi dog‘ kashfi oh-u afg‘onimdadur.

Tifllar devonadur deb, oldilar tegra to‘shim,
Necha tifli ashk ko‘rkim yona mujgonimdadur.

Esdin ozg‘on, telba bo‘lg‘on, charx urg‘on, bag‘ri dog‘,
Xalq har til bila yod aylar mening shonimdadur.

Har kim o‘z holig‘a olam yona o‘z nafsig‘a band,
Hech kim bilmas na hasratlar mening jonimdadur.

Til shikoyatg‘a turib, o‘z holima solmay nazar,
Nafsima boqsamki, ul ham bandi nuqsonimdadur.

Mujrim anglab xalqi olam ko‘rdilar ko‘zga haqir,
Bilmadilar xosiyatlar band-u zindonimdadur.

* * *

Ko‘nglumni hirs-u, nafs-u havo xona qildilar.
Aqlimni oldilar, meni devona qildilar.

Dushman so‘zumni aydi yomon, do‘st ko‘rdi xush,
Minnat alarg‘a til bila afsona qildilar.

Mardumki, ko‘z-u qoshdek edi yaxshi oshno,
Ne toptilar bazmdaki, begona qildilar.

Ul shami bazm partavidin jong‘a tushti o‘t,
Go‘yo meni mushobihi parvona qildilar.

Kofir ko‘zi, qaroqchi qoshi, o‘g‘ri kifrigi,
Muncha sitamni qaysi musulmona qildilar.

Ul ko‘y itlari sorig‘a ayladim guzar,
Shodamki, xulq-u xo‘yi muhibona qildilar.

Onlarki, to‘la boshlari mag‘zi xirad edi,
Har shod, g‘amni qismati peshona qildilar.

Sandin ham o‘tti ilgari Mujrim shumori ko‘p,
Andin xabar yetishmadi oyo na qildilar.

* * *

Har so‘zda har biravga ne shirin nukoti bor,
Bol tomdi og‘zidinki tilinda naboti bor.

Tasxir bo‘lmag‘an kishi qolmas bu dahr aro.
Ul sho‘xning bu navda gar iltifoti bor.

Vaslini istagan o‘zidin qat’ etar hayot,
Andin kechar biravni, kerakli hayoti bor.

Shohini ko‘nglum etmadi parvoz — boli yo‘q,
Har qushg‘a [kim] boqarman ucharg‘a qanoti bor.

Ishq ahlining do‘konida yo‘qtur matoyi sabr,
Oshiq yo‘q ulki, qavlan-u fe’lan saboti bor.

Sharhi g‘aming ruqumig‘a devoni xotirim,
Mijgon qalam, qora qosh-u ko‘zdin davoti bor.

Xalqi zamona ta’nayi Mujrimliging qilur,
Ogoh yo‘qki, haqdin umidi, najoti bor.

* * *

Seningdek yordin begona bo‘lmoq bor ekan oxir,
Muqimi kunji hasratxona bo‘lmoq bor ekan oxir.

Falotun tablar birla o‘zumni teng bilur erdim,
Na bildim, bexirad, devona bo‘lmoq bor ekan oxir.

Umid birla tuzub erdim hisori oshnolig‘ni,
Bu ta’mirimg‘a ham vayrona bo‘lmoq bor ekan oxir.

G‘ami ishqingni, jono, har necha eldin nihon tutdum,
Xaloyiq og‘zida afsona bo‘lmoq bor ekan oxir.

Qochaydim o‘t degandin, o‘tmas erdim joni shirindin,
Jamoling shamig‘a parvona bo‘lmoq bor ekan oxir.

Ko‘zum mag‘ruri vasl erdimu ko‘nglumda havo o‘zga,
Nigohi oshno begona bo‘lmoq bor ekan oxir.

Bo‘lub Mujrim va lekin kaj yozilg‘on xatti peshoni,
Mukallaf jonibi zindona bo‘lmoq bor ekan oxir.

* * *

Eshitdim ul pari ag‘yor birla oshno bo‘lmish,
Meni ko‘zumg‘a bu ravshan jahon shomi qaro bo‘lmish.

Ko‘zum oq-u qarosi do‘stlar bo‘lmas xaridorim,
Magar bozori mehr ichra matoim kam baho bo‘lmish.

Jahondin shavkat oti qat’-u kulli murtafi’ bo‘ldi,
Ki bu bechorag‘a ahbob ko‘p nomehribon bo‘lmish.

Hujumi hasrat-u g‘amdin silindi hosili jismim,
Kamoli za’f ko‘rkim po‘st birla ustuxon bo‘lmish.

Qaribsan ham ko‘ngulni zavqi dunyodin ko‘tarmassan,
Na der Mujrim demay xalqi jahon ishing xato bo‘lmish.

* * *

Darig‘ aylanmadi charxi falak bir kun maromimg‘a,
Tazarvi baxt ilinmay, rom bo‘lmay o‘tti domimg‘a.

Yaqosig‘a qo‘lum yetmay, cholib domonidin tutmay,
Falak ne qilg‘animg‘a aylanibdur intiqomimg‘a.

Qorang‘u ro‘zgoram balki xoram, joni afgoram,
Ajab yo‘qtur agar tabdil topsa subh shomimg‘a.

Bu kunlarkim jahonni buzg‘udekdur shiddati ohim,
Quyosh qo‘rqub kirolmas muncha to‘fonlig‘ maqomimg‘a.

Uyum atrofini selobi ashkim qildi daryo-ye,
Eshik masduddur, ey g‘am, bukun kelma salomimg‘a.

Nuqudi umr xalqi dahr savdosig‘a sarf o‘ldi,
Qiziq bozor sard o‘ldi hama savdoyi xomimg‘a.

Ne obidlig‘da masruram, na Mujrimlig‘da mahjuram,
Nu tole yor yo‘q, miqdor yo‘qdur muncha nomimg‘a.

* * *

Guliston intizoring, sarv qadingni xiromon qil,
Qaro zulfingni och, sunbul dimog‘ini parishon qil.

Chekar bulbul fig‘on, gulg‘uncha aylar pirahan pora,
Bukun men nola aylay, sen dog‘i choki giribon qil.

May ich, mahbub quch, mutrib bilan chu beg‘am o‘lturg‘il,
Oyog‘ing qo‘yma zinhor ilgidin o‘lguncha davron qil.

Qizorib chiqti gardundin quyosh mehring so‘rog‘inda,
Takalluf bartaraf xurshedi ruxsoringni tobon qil.

Boshingg‘a har nechuk savdo ketursa dahr oshubi,
Haros etma qo‘lingdin kelsa, ayshingni du chandon qil.

Seni qo‘ndurg‘ali qildim muhayyo jon aro joying,
Buzuq koshonamizg‘a bir kecha o‘zungni mehmon qil.

Samandingni jilovin saqla Mujrim dodxohingdur,
Desun arzini xohi dora chek-u, xohi zindon qil.

* * *

Na xushdur har kishig‘a ishq o‘tdin asar bo‘lsa,
Samumi oh birla yo‘q taajjub bahravar bo‘lsa.

Ko‘zi xunob ila to‘lg‘an, chiroyi za’faron bo‘lg‘on,
Muhabbat birla qon yutqan eranlardin nazar bo‘lsa.

Fano mayxonasidin no‘sh aylab har kishi jome,
Ko‘rarlar nash’ayi dilhoh, kimning xalqi tar bo‘lsa.

Xush ul rindeki mol-u mulki olam ko‘zga ilmaydur,
Qaro tufroqcha bilmas, oldida anbuh zar bo‘lsa.

Muhabbat ko‘nglung ichra bo‘lsa, qobil hamdaming uldur,
Yuroki dardsizni dema hamdam gar padar bo‘lsa.

Alam maydonida razm ayla Obid, himmating keng tut,
Na dersan el quloqig‘a eshitmak birla kar bo‘lsa.

* * *

Ayg‘il manga ko‘nglim nedur asrori nihoning
Lol o‘ldi magar hajrida go‘yo bu zaboning.

Aqlim sening aqlingdur-u, hushim seni hushing,
Jismim seni jismingdur-u, jonim seni joning.

Sen podshohi mulki tan-u qal’ayi jonsan,
Ilgim, oyog‘im ikkalasi taxti ravoning.

Bir maslahatim ayg‘il-u yo‘limg‘a ravon qil,
Shoyadki qabuli haq esa ushbu ravoning.

Shodim borida shodsan, g‘am bila g‘amda,
Jonim meni jonim edi qo‘ynimda makoning.

Ey bulbuli tab'im na havodur bu chamanda,
Behuda erur nola-yu, faryod-u fig'oning.

Obidni balolarga giriftor qilibsan,
Ayg'il manga ko'nglum nedur asrori nihoning.

* * *

Ne taraf azm aylasam oldimda istiqbol g'am,
Boqmay o'tsam ham kelur, soya kabi dunbol g'am.

Kecha hambolinu kunduz hamdami yori safar,
Har qayon borsam anisim muncha moh-u sol g'am.

Ey masihim bir zamon boshimg'a yetkurgil qadam,
O'lgali yettim, manga ko'rguzdi bu ahvol g'am.

Ey xush o'l rindi xarobotiki bir sog'ar bila,
Osmon yemrulsa kelmas ko'ngliga misqol g'am.

Hamdilillah, ishq aro sohib rivoji dahr man,
Dard baxt-u toleim idbordur, iqbol g'am.

Soqiyo, may berki tavba eshikin masdud etay,
Tobakay qilsun mani mahjurni pomol g'am.

Gohi Obidlig' otim birla qilib ko'nglimni shod,
Gohi Mujrim deb yozib, o'zimga hasbi hol g'am.

* * *

Bu kecha koshonam uzra yor mehmon kelmadi.
Qolibim beruh qoldi, lutf etib jon kelmadi.

Posishab nolam eshitib, bo'ldi bulbullar xamush,
Ne uchun ushbu sahar ovozi afg'on kelmadi.

Va'dasi yolg'on edi yo man qildi g'ayr ani,
Ya'ni ul bebok tabi qavli yalg'on kelmadi.

Chashmayi chashmim mururi ashkdin qoldi qurub,
Ul tasalli baxsh ashki chashmi giryon kelmadi.

Boshimi gardun sari yetkurmadi fayzi qadam,
Olloh, olloh, qomati sarvi xiromon kelmadi.

Ko'p sog'ingandin ko'zumda qolmadi bir zarra nur,
Partavi zulmatzudoyi mohitobon kelmadi.

Bu masaldur, Obido, xalq ichrakim, qaysi yatim,
Og'zi tegdi oshg'a-yu, burnidin qachon qon kelmadi.

* * *

Tong otdi chiqma uydin har tarafg'a qilma nazzora,
Mabodo bo'lmag'ay oy-u quyoshning pardasi pora.

Yuzungga xalqi olam ko'z solurg'a orzu aylar,
Tavahhum ulki yakson bermagaylar jon yakbora.

Labingdin g'uncha kulmak istaru nargis nigohingdin,
Tarahhum ayla poymol o'lmasun gul kirma gulzora.

Fidoyi iltifoting bir bo'lak bag'ri adolardur,
Faqir-u benavoyu, mubtaloyu zor-u bechora.

Biror daf'a seni ko'rgan ayirmas ko'z jamolingdin,
Qiyo boqmas agar xurshed bo'lsun o'zga ruxsora.

Sen ul pokiza atvor-u maqoli bebahodursan,
Xaridoring bo'lub Yusufni ko'rkim kirdi bozora.

Qarosh holimg'a, ey dildor, gohi marhamat birla,
Meni Obid sening yo'lingda sargardon-u ovora.

* * *

Ajab baxti yomonman, yaxshilar ichra guzorim yo‘q,
Bo‘lubman g‘arqi bahri dard umidi kanorim yo‘q.

Xarob-u, notavon-u abtar o‘ldi kishvari ko‘nglum,
Tarahhum birla obod aylagay ul shahsuvorim yo‘q.

Qolibman tangnoyi zulmat obod ichra naylarman,
Zamoni xush kechurgundak yorug‘liq ro‘zgorim yo‘q.

Qayong‘a yuzlanay, ahvoli zorim kimga sharh aylay,
Na holing bor, nechuksan degudek bir do‘stdorim yo‘q.

Meni mujrim qilibdur shohi iqlim, hasad ko‘nglum.
Na kim amr aylasa qilmoqdin o‘zga ixtiyorim yo‘q.

Mayi vaslin tilab sargarmi jomi hajri bo‘lmishman,
Ajal paymonasidin o‘zga bir dafi xumorim yo‘q.

Ko‘ngulning dastidin oxir jahon ovorasi bo‘ldum,
Ba soni zarra bir yerda turolmasman, qarorim yo‘q.

Na bir Mujrim bo‘lub ahli gunoh oldig‘a yo‘l topdim,
Na bir Obid ekan deb ham jahong‘a e’tiborim yo‘q.

* * *

Sansiz, ey mahvash, ko‘ngul sayri guliston istamas,
Balki jismi notavonim rohati jon istamas.

Shahdi jondin ham suchukdur har takallum qilg‘oning,
Lazzati la’lingni ko‘rgan obi hayvon istamas.

Itlaring mehmonim o‘lsa pora bag‘rim tu’masi,
Telba ko‘nglum mundin o‘zga yaxshi mehmon istamas.

Izzu johi Misr ila mehri Zulayho ma’n etar,
Yusuf etmas yod Ya’qubini kanon istamas.

Qoshi yodur, kifriki o‘q, ko‘zlari jon olg‘uchi,
Dam-badam yuz qon to‘kar, qon ahli tovon istamas.

G‘unchag‘a solmas nazar, og‘zingdin o‘lg‘ay bahravar,
Orazing beparda ko‘rganlar guliston istamas.

Bu ne qaddu, bu ne qomat, bu nechuk tarzi xirom,
Bir tamosho aylagan sarvi xiromon istamas.

Xilvati jon kechalar shami jamolingdin yorug‘,
Oncha mustag‘ni ziyoyi mohitobon istamas.

Mujrim o‘lmish ishq fayzi birla daryoyi alam,
Langari tabi rasodur vahmi to‘fon istamas.

* * *

Naxli qadi orosta sarvi chamanimsan,
Gulrezi suxan, to‘tiyi shakkar shikanimsan.

Monandi sadaf qo‘ynuma jo qilg‘ali ko‘nglum,
Azbaski qadam tufrog‘i durri adanimsan.

Ko‘nglum sanga vobastavu, jonim sanga sar,
Sultoni saropardan iqlimi tanimsan.

Paydoyi jahon hosili umrum sanga masruf,
Bir sarvi chaman zeb-u mahi sim tanimsan.

Ko‘nglumni olur choqda aziz oqibatim xor,
Xush dilbari, jon parvar-u, pur makr-u fanimsan.

Jon isimu sendin keladur xasta mashoma,
Ko‘z mash’alig‘a Yusufi gul pirahanimsan.

Mujrim sanga ko‘z pardasini qildi rahandoz,
Kel, kel bukun, ey shu’layi baytul-hazanimsan.

Olami foniyda kulfatsiz makone topmadim,
G‘ayri andih-u g‘am-u, oh-u fig‘one topmadim,
Bir anisi shod-u g‘am shirin zabone topmadim,
Mehr ko‘p ko‘rguzdum, ammo mehribone topmadim,
Jon base qildim fido, oromi jone topmadim.

Dahr aro yolg‘iz o‘zumdek xokisore ko‘rmadim,
Bekas-u, beyor-u beg‘amxor-u xore ko‘rmadim,
Bir xazoni noumidi navbahore ko‘rmadim,
G‘am bila jonimg‘a yettim, g‘amgusore ko‘rmadim,
Hajr ila dilso‘xta bo‘ldum, dilsitone topmadim.

Kim ko‘rubdur men kibi rasvoyi davron bag‘ri qon,
Vola-u shaydo erur aqlim ani ko‘rgan zamon,
Sarf bo‘ldi xizmatida garchi joni notavon,
Ishq aro yuz ming malomat o‘qig‘a bo‘ldum nishon,
Bir kamon obruda tuzlukdin nishone topmadim.

Ohi dard oludim uchun ravnaqi ishqim ayon,
Subhi iqbolim erur idbor shomig‘a nihon,
Bormu yo‘q gulzori olam ichra mandek bog‘bon,
Ko‘nglum ichra sarv o‘qdur g‘uncha paykon, gul tikan,
Dahr bog‘i ichra mundoq gulsitone topmadim.

Fahmig‘a loyiq amal qilg‘uchi olim ko‘rmadim,
Ko‘rdum, ammo tabini bir so‘zda solim ko‘rmadim,
Ey ko‘ngul sendin ba juz ranji muloyim ko‘rmadim,
Husn mulki ichra sendek shohi zolim ko‘rmadim,
Ishq ko‘yida o‘zumdek notavone topmadim.

Toki har devoni tahrir ayladi g‘am qissasin,
Darj qildi daftari ko‘nglida bobi g‘ussasin,
Garchi ko‘rmay qolmisham ushshoq jismi jussasin,

Ko‘p o‘qudum Vomiq-u, Farhod-u Majnun qissasin,
O‘z so‘zumdin bul ajabroq dostone topmadim.

Obidi sargashtayi mahjur dog‘i anjuman,
Bir duogo‘yi haqiri sokini baytul-hazan,
Yetmasun ag‘yordin dildor ko‘ngliga suxan,
Ul amon ichinda bo‘lsun, ey Navoiy, garchi man,
Bir zamon ishqida mehnatdin amone topmadim.

NISHOTIY

(XVIII asr)

Muhammadniyoz Nishotiy Xiva madrasalarida o'qigan. Xorazm xonligida siyosiy ahvol og'irligi tufayli Nishotiy Buxoroga kelgan, g'ariblik va muhtojlikda yashagan. Adabiy merosi "Husn-u Dil" dostoni, "Qushlar munozarasi" manzumasi hamda 1500 misra she'r, 38 g'azal, 14 muxammas, 1 qasida va musaddasdan iborat.

Lirikasi dunyoviy muhabbat mavzusida. Unda shoir o'z kechinmalari, zamona haqidagi fikr-mulohazalarini ifodalagan, vafo, sadoqat, go'zallik va nafosatni kuylagan. "Qushlar munozarasi"da 14 xil qushning o'zaro bahs-u munozaralari orqali o'sha davrdagi ijtimoiy tuzumga xos illatlar, jaholat, mansabparastlik va boshqa majoziy shaklda tanqid qilingan, mehnat ahlining kamtarligi ulug'langan.

"Husnu Dil" dostoni (1779) Sharq xalqlari orasida mashhur syujet asosida nazmda yaratilgan. Doston 15584 misra, 62 bobdan iborat. An'anaviy kirish (1–5-boblar)dan so'ng shoir o'zi haqida, dostonning yozilish sabablari, so'z va uning qudrati, xamsanavislar (Nizomiy, Xusrav Dehlaviy, Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiy va boshqa.) haqida fikr yuritgan.

Asosiy qism 11-bobdan boshlanadi va asar xotima bilan yakunlanadi. Yetakchi mavzusi — sevgi. U Husn va Dilning murakkab sarguzashtlarida o'z aksini topgan. Aql, Ishq, Vafo, Mehr, Nomus, Himmat, Sabr, Raqib kabi obrazlarda kishilardagi muayyan xususiyatlar ifodalangan.

Doston Husn va Dilning to'y tantanasi, ya'ni ezgulikning yomonlik ustidan g'alabasi bilan tugaydi. Asarda Vatanni sevish, xalqparvarlik, ma'rifat va adolat, mardlik, sevgi-sadoqat, yaxshi xulq-odob kabi g'oyalar ilgari surilgan.

Yorab, nechuk balodur boshimg‘a shomi hijron,
Ne dardig‘a nihoyat, ne mehnatig‘a poyon.

Ne sabr-u, ne qarorim, ne hush-u ixtiyorim,
Ne yor-u, ne diyorim, ne jon manga, ne jonon.

Har kunda boshqa g‘avg‘o, har tunda o‘zga savdo,
Ne manzil-u, ne ma’vo, yo‘qtur makonim imkon.

Mehnatg‘a davri purfan ko‘nglimni qildi ma’man,
Boshimni etti maskan, g‘am lashkarig‘a davron.

Ko‘zimda ashki hasrat, ko‘nglimda xori g‘urbat,
Boshimg‘a tushdi kulfat, andoq yog‘orki bo‘ron.

To soldi ul sumanbar jon-u dilimg‘a axgar,
Ohimni qildi sar-sar ashkimni etti to‘fon.

Pinhon nazardin ul moh, ne munisu ne hamroh,
Dil so‘zim otashin oh, hamsuhbatimdur afg‘on.

Ortib balo-u shiddat, yuz muncha bo‘lsa mehnat,
Ne g‘am etursa nakhat ul zulfi anbarafshon.

Tortib fig‘oni g‘ulg‘ul, hajringda misli bulbul,
Sensiz ko‘zimga, ey gul, mujgoni nish-u paykon.

La’ling shahidi, ey dil, bo‘lmas kafang‘a moyil,
Bas jism uzra hoil rangin kafan qizil qon.

Ochg‘onda doli zulfing, yetkach shamoli zulfing,
Qildi xayoli zulfing toroji din-u imon.

Zulm etti charxi zolim, qildi fuzun malolim,
Ko‘p mushkil o‘ldi holim, yo Rab, san ayla oson.

Lutf aylabon bir oni, boqg‘il buyon nihoni,
Bo‘lsun Nishotiy joni boshinga sadqa, ey jon.

* * *

Bihamdillohki, jononim meni masti nigoh etti,
Ko‘zim bog‘in niholi qomatiga jilvagoh etti.

O‘tub har yong‘a yuz ming sheva-u, noz-u ado birla,
Gahe ko‘rguzdi ruxsorin, gahe ilkin panoh etti.

Yuz uzra donayi xolin namudar aylabon qushdek,
Ko‘ngulni mubtaloyi halqayi zulfi siyoh etti.

Quyoshdek orazi uzra chu to‘kti zulfi mushkinin,
Qorartib ro‘zgorim, holi zorimni taboh etti.

Parizodi eram yo hur deb tavsifi ruxsorin,
Junundin telba ko‘nglum dedi hazyon ishtiboh etti.

Ajab ermas damo-dam bo‘lsa zavqi sajda ko‘nglumg‘a,
Azal naqqoshi ul oy qoshi yosin sajdagoh etti.

Gadoyi xokisori xo‘blar gar bo‘lsa tong ermas,
Ul oyni lutfi izzu husn elig‘a qiblagoh etti.

Kulub yuz noz ila hardam chiqib qasridin ul mahvash,
Hamisha kor-u borim, nola-u afg‘on-u oh etti.

Diloromim harimi nozdin chiqg‘ach ado birla,
Nishotiy ko‘nglini aysh-u tarabdin iydgoh etti.

* * *

Yorab, na xush kun erdi so‘rmaqg‘a arzi holim,
Yuz ishva birla keldi ul mushkbo‘ g‘azolim.

Oldi niqobi gulgun gul yuzdin ul parizod,
Ko‘rguzdi chehrayi ol, daf’ ayladi malolim.

Har bir kunim edi oy, har oy erdi bir yil,
Ul zulf-u yuzni ko‘rgach xush bo‘ldi moh-u solim.

Dedimki: shomi hijron tul erdi ham qorong‘u,
Dediki: ko‘zung oydin topting bu tun visolim.

Ko‘rsatti yuz nazokat ul bel ila og‘izdin.
Bor-u yo‘qim fidosi ham sadqa qiylu qolim.

Ul qosh-u ko‘z, qad-u zulf ermish niholi ra’no,
Tark ayla yaxshi ey aql desam ani niholim.

Yondashturub jamolin mehri falakka dedi:
Insof qil, Nishotiy, ul mehr ro‘ jamolim.

* * *

Tushda la’lin ko‘rdim ul oyning to‘la kulgu bila,
To qiyomat subhi yo Rab, qo‘y mani uyqu bila.

Shodlig‘ ashkin oqizg‘an ko‘zga surtub orazin,
Dard-u g‘am gardin aritdi ko‘zlarimdin suv bila.

Otashin jannat gulidek ochilib ko‘rguzdi yuz,
Emdi hargiz yuz ko‘rushkum yo‘q qaro qayg‘u bila.

Gavhari ashkimni man aylarga la’lin tishladi,
Ziynatafzo bo‘ldi la’li jonfizo inju bila.

Og‘zima ruxsor ko‘zgusin tutar za’fim ko‘rub,
To hayotimdin nafas fahm aylagay ko‘zgu bila.

Tiyra hijron shomi ichra bo‘ldi nuroni ko‘zim,
To qaro suyin supurdi vusmalig‘ abru bila.

Siymiyodin yoki zohir bo‘ldi yuz turlik xayol,
Yoki hamxo‘ o‘ldim oxir nargisi jodu bila.

Qildi ul ko‘zning qarosi zahri hijrondin xalos,
Qayda pozahr o‘lg‘usi bu nav har oh-u bila.

Orazi minusida gulzori husnin ko‘rgali,
Yo‘q Nishotiydek ishim bu gunbazi munu bila.

MUXAMMAS

Bo‘ldi xoki tan quyun ul sarvi xush raftorsiz,
Bo‘lmag‘ay olamda mendek baxti barxurdorsiz,
Bir qurug‘on naxldek kim bo‘lsa bargu borsiz,
Navbahor ayyomi bo‘lmishman diyor-u yorsiz,
Bulbul o‘lg‘andek xazon fasli gul-u gulzorsiz.

Oh vovayloki nega topmayin so‘z-u gudoz,
Qumrilar xaylig‘adur maskan niholi sarvi noz,
Goh sham o‘ti bila parvona bordur sarafroz,
Goh sarv uzra, gahe gul uzra bulbul nag‘ma soz,
Vahki man-man gung-u lol ul sarvi gulruxsorsiz.

No‘sh ishrat, nesh mehnat birla bordur tav’amon,
Kim bahori vaslg‘a oxir firoq o‘ldi xazon,
Voy kim bu dard qildi g‘unchayi ko‘nglumni qon,
Topmadim gulrang jomi be xumor, ey bog‘bon,
Vahki bu gulshan aro gul butmas ermish xorsiz.

Orazi gar bo‘lmasa tushsun gulistonimg‘a o‘t,
Gulshani ko‘yidin ayru bog‘i rizvonimg‘a o‘t,
G‘unchayi bog‘i jinondur dog‘i pinhonimg‘a o‘t,
Ravza ashjori o‘tundur gullari jonimg‘a o‘t,
Mumkin o‘lsa anda bu yanglig‘ dami dildorsiz.

Eyki kirding rohi ishqa boqmag‘aysan sog‘-u so‘l,
Ya’ni har bir bulhavasdek sunmag‘il har sori qo‘l,
Kir Nishotiydek xarobot ichra shod-u, forig‘ o‘l,
Ahli zuhd ichra Navoiy topmadi maqsadg‘a yo‘l,
Vaqtingizni xush tutung, ey jam’, kim xummorsiz.

MUSADDAS

Vah necha aql-u xirad tuproqig‘a past bo‘lay,
Xayli nojins bila hamdam-u hamdast bo‘lay,
Borayin dayri mug‘on ahlig‘a payvast bo‘lay,
Topibon nash’ayi may sheri zabardast bo‘lay,
Tobakay rishtayi donish bila pobast bo‘lay,
Qo‘ying, ahbobki, loyaqil o‘lay, mast bo‘lay.

Hodi rohi murod o‘lmas ekan har gumroh,
Bo‘lg‘ucha savmaayi zohid aro oliy joh,
Bo‘layin piri xarobotg‘a xoki dargoh,
Ichib ilkidin aning bo‘lmay o‘zimdin ogoh,
Tobakay rishtayi donish bila pobast bo‘lay,
Qo‘ying ahbobki loyaqil o‘lay, mast bo‘lay.

Pok ichib dayri mug‘on ichra bo‘lay mast-u yalang,
O‘ynayin bahri mayi nob aro andoqki nahang,
Lutf jomidin agar etsa karam soqiyi shang,
Sumuray o‘ylaki qochsun ko‘rubon nom ila nang,
Tobakay rishtayi donish bila pobast bo‘lay,
Qo‘ying ahbobki, loyaqil o‘lay, mast bo‘lay.

Husha kelturgali hardam manga afsun qilmang,
Demangiz pand-u mening dardimi afzun qilmang,
Demang afsona-u afsun, manga qonun qilmang.
Tashnalabman meni juz may bila mamnun qilmang,
Tobakay rishtayi donish bila pobast bo‘lay,
Qo‘ying ahbobki loyaqil o‘lay, mast bo‘lay.

Aylang, ey aql-u xirad, o‘zga taraf uzra xirom,
Kunji mayxona aro man dag‘i aylab orom,
Qutulub bir yo‘li sizdin bo‘layin masti mudom,
Qoching, ey or ila nomus, keting nang ila nom,
Tobakay rishtayi donish bila pobast bo‘lay,
Qo‘ying ahbobki loyaqil o‘lay, mast bo‘lay.

Do‘stlar pand bu kim, jom ila may no‘sh qiling,
O‘zni bilmasdek ichib, shom-u sahar jo‘sh qiling,
Zuhdu taqvi bila toatni faromush qiling,
Beribon jomi labolab mani madhush qiling,
Tobakay rishtayi donish bila pobast bo‘lay,
Qo‘ying ahbobki loyaqil o‘lay, mast bo‘lay.

Aql neshi bila boshdin ayoq ozor o‘ldim,
Hush eli ta’nasidin vahki dilafkor o‘ldim,
Sabr zindonida donishg‘a giriftor o‘ldim,
Borchadin zor Nishotiy kabi bezor o‘ldim,
Tobakay rishtayi donish bila pobast bo‘lay,
Qo‘ying ahbobki loyaqil o‘lay, mast bo‘lay.

QUSHLAR MUNOZARASI

Do‘stlar, tabim imtihon qilayin,
Qushlarning bahsini bayon qilayin.

Qish chiqib, hut yetti chun tahvil,
Bo‘ldi Laklak tamom qushg‘a dalil.

Qat’ etib yo‘lni shahri Kesh keldi,
Sevunub xalq dedi: “Xush keldi!”

Qilibon g‘usl ila tahoratni,
Tavf qildi yurub mazoratni.

Didbon bo‘lubon minora chiqib,
O‘z boshi uzra shodiyona qoqib.

Dedi: “Inak yetishti fasli bahor,
Mo‘tadildur havoyi laylu nahor”.

Tikdi chodar shukufa bo‘stonda,
Bitdi yuz nav’ gul gulistonda.

Bo‘ldi tongning eli Masih nafas,
Uyqudin ochdi ko‘zlarin narkas.

Chunki Laklak bu nav’ qildi nido,
Tushti yuz guftugo‘y qushlar aro.

Ul kun erdim faqir gulshanda,
Ko‘zlarim erdi sarv-u savsanda.

Bir yig‘och tubida turub erdim,
Go‘shaye olib, o‘lturub erdim.

Bahs etar erdilar Akka-yu Zog‘,
Zog‘ dediki:— Sen kim-u bu bog‘?!

Man chekarman malomatin bog‘ning,
Bog‘ ichinda tamomi meva saning.

Dog‘uli behayoyi lo‘lisan,
Tut-u zardoluning chug‘ulisan.

Akka dediki:— Ey qaro yuzluk,
Sho‘r tumshuqliq-u achiq so‘zluk.

Sandayin zog‘din farog‘atman,
Bog‘ boshiga ahli xidmatman.

Bir makondin bu bog‘ mulkiga
Kirgali yo‘l yo‘q shaqal, tulkiga.

Ul sababdin mani chug‘ul dersen,
Behuda muhmalekim oytursen.

Sen kim-u, bu bog‘ ichinda sayr etmak?!
Bor buzuqliqni saqla chun cho‘g‘zak.

Qumri keldi bular qoshig‘a ravon,
Qoldi bu ikkisiga ul hayron.

Dedi:— Nevchun urushasiz, qullar?
Qushlar ichra bahosi bir pullar!

Sonmangiz o‘zungizni odam siz,
Barcha qushlar arosida kamsiz.

Bog‘-u masjidlaring muqrisiman,
Hazrati zuljalol qumrisiman.

Tengri soldi azalda o‘z shavqin,
Hamchu bo‘ynimg‘a bandalik tavqin.

So‘fidek bo‘ynuma rido soldim,
Bog‘-u masjid ichinda joy oldim,

Bog‘-u bo‘ston ichinda bir xushxon,
Bo‘lmag‘ay man kabi fasih zabon.

Foxtak eshitib bu loflarni,
Muncha behuda u gazoflarni,

Dedikim:— Ey g‘alatnamo Qumri,
Yuzunga kelmadi hayo, Qumri.

O‘zungni toni, haddin oshmog‘il,
Hadingni bil, dag‘i taloshmog‘il.

Sandin ortuqdurur par-u bolim,
Sarv-u shamshod — bori poymolim.

Aylasam chun duo mani miskin,
Qo‘l chiqorib chinor der omin.

Bu duo birla bog‘ barpodur,
Rashki firdavs-u huldi a’lodur.

Shoxi sarv uzra gar desam ku-ku,
Oyturam “Lo iloha illohu”.

Tengri qildi mani azalda aziz,
Hech qayungiz manga yetushmassiz.

Bulbul ul damda qon yutub gulsiz,
Zor yig‘lab, bo‘lub tahammulsiz.

Dedi: Ko‘p lof urma behuda,
Ayta ko‘rma dimog‘ing oluda.

Man borinda sanga ne son bo‘lg‘ay,
Ushbu ish barchag‘a ayon bo‘lg‘ay.

Subhidamlarki, boshlasam nola,
Soluram shavq ahlini bir hola.

Kecha-kunduz haqqa sano derman,
O‘zimi bandayi Xudo derman.

Boshlag‘ach bu nido mani g‘amnok,
Eshitib gul qilur yaqosin chok.

Bulbul erdi bu so‘zdakim nogah,
Bo‘ldi To‘ti bu qissadin ogoh.

Xil’atin sabz etib zumurraddin,
Tavq edi bo‘ynida zabarjaddin.

Xizr yanglig‘ yetishdi manzilga.
Dedi: Ko‘p so‘zlama, anodilga.

Bo‘lma mag‘rur gulga, ey Bulbul,
Bo‘ston ichra necha kundur gul?!

Lolavu gulda bo‘lmag‘ay bunyod,
Berur oni xazon eli barbod.

Muttasil Hinddur manga manzil,
Xizrdek kiyganim erur yoshil.

Ichganimdur mudom obihayot,
Yeganimdur mudom qand-u nabot.

El ichida g‘izom shahd-u shakar,
Qaysi bir qushda bor muncha hunar?!

Erdi bu so‘zda To‘ti-yu Bulbul,
Ki yetishdi aroga Qirg‘ovul,

Dedi: Ey To‘ti, xudilmo bo‘lma,
Akkadek sho‘x-u behayo bo‘lma.

Odam ersang, o‘zuyiga ber insof,
Yeganim qanddur deb urmag‘il lof.

Muncha deding bu qand ila asale,
Nafsidin demadi nabi-yu vale.

Yuzuming qizilin ko‘rub ibrat,
Balki yozdi muni yadi qudrat.

Qani bir qushki, bo‘lg‘ay ul mancha,
Ursoq oning bila necha panja.

Tushgach o‘rtog‘a zo‘r-u panja so‘zi,
Qah-qah urub yetishti Kaklik o‘zi.

Ko‘zlari qip-qizil erdi qondek,
Tog‘ ichidin yetishdi qaflondek,

Dedi Qirg‘ovulakim: Ey nodon,
Barchag‘a mokiyon urishi ayon.

Ko‘ch bila o‘z-o‘zingni o‘lturma,
Go‘shaye olu emdi lof urma.

Ko‘hu homunda aylaram qah-qah,
La’l koniga onda topdim rah.

Yeganimdur hamisha donayi la’l,
Tumshuqimda, erur nishonayi la’l.

Kaklik ul lahza lofi dur-u daroz —
Boshlab erdi, yetishti nogah boz.

Qo‘rqub ul yerda kakliki avbosh,
Rozi bo‘ldi yorilsa ul dam tosh.

Kirsa ul toshning arosig‘a,
Qolmasa Qarchig‘ay balosig‘a.

Qarchig‘ay achchig‘i bila turdi,
Barcha qushdin yuqori o‘lturdi,

Dedi: Ey qushlar, o‘lturung absamt,
Urmag‘ayman baringizi barham.

Goh tog‘ ustida qilib javlon,
Gah ko‘tarib qo‘lig‘a hazrati xon.

Solg‘ochin ul yagonayi ofoq,
Oluram O‘rdak ila qashqaldoq.

Qarchig‘ay so‘zni muxtasar qildi,
Anda qushlar bari hazar qildi.

Qildi Tovus anda jilva magar,
Ko‘rsatib noz ila hazor hunar.

Chatr qildi boshig‘a quyruqini,
Ko‘rungiz emdi tengri buyruqini!

Chatrining ostida turub chun hur,
Bo‘ldi o‘z husniga base mag‘rur,

Dedi: Manman baringizga sulton,
Manzilimdur diyori Hinduston.

Ko‘rmak uchun parimni savdogar
Shahrdin shahrlarga elturlar.

Erdi o‘rnum bihishti jovidon,
Ozg‘urib soldi dunyog‘a shayton.

Dahrda qoldim ushbu holatg‘a,
Uchradim yuz tuman malomatg‘a.

Qilmay erdi bu so‘zni Tovus ado
Ki, yetishti bu holat ichra Humo.

Anda qushlar barisi qo‘pdilar,
Kelibon ayoqini o‘pdilar.

Qo‘pmadi o‘rnidan magar Tovus,
Anda qildi Humo base nomus.

Dedi:— Ey beadab, ne xo‘dur bu?
Yaxshidur yaxshilarg‘a xo‘yi naku.

Surating xo‘b-u siyrating nochoq,
O‘zungga boqma — bu ayoqingga boq.

Anda iblisa rahnamun bo‘ldung,
Ul sababdurki sarnigun bo‘ldung.

Bor sanda hanuz istig‘no,
Tengri amrin keturmading bajo.

Har kishining boshig‘a man soya —
Solg‘achin ul topar ulu poya.

Oti xalq ichra podshoh bo‘lur,
Podshohi jahonpanoh bo‘lur.

Yururam nafsdin amon birla,
Sabr etib quruq ustuxon birla.

O‘zima luqmani halol etdim,
Nafsi zolimg‘a go‘shmol etdim.

Dahr aro budur kor-u borim,
Hech jonivarg‘a yetmas ozorim.

Bo‘ldi Tovuski anda sharmanda,
Dedi: Sensen amir-u man banda.

O‘rnidin qo‘pti-yu dedi: Taqsir!
Bo‘ldi anda humoy uzrpazir.

Yod qildi xato tabohidin,
Osha kechdi aning gunohidin.

Erdi guftu shunid qushlar aro,
Tortdi bir oh Bulbuli xono:

Qaydasen, Hudhudi fasih zabon,
Toki qilsang bu mushkili oson!

Achchig‘idin Humoyi farrux fol
Dedi: Ollimda Hudhuda ne majol?

Haddi yo‘qturki munda dam urg‘ay,
Poyadin yuqori qadam urg‘ay.

Dema Hudhudki, haddin o‘zi bilur,
Kelgachin ayoqimg‘a sajda qilur.

Tutdim oniki bek-u mehtardur,
Shoh ila posbon barobardur.

Munfail bo‘ldi bulbuli miskin,
Qildi Humoy so‘zi opi g‘amgin.

Yana dediki: Qaydasan, rahbar,
Toki qilsang bu mojarog‘a nazar!

Barchag‘a sar-u peshvosan san,
Murshidi qutb-u muqtadosan san.

Ko‘ngli tasbeh ila topib taskin,
Erdi Hudhud uyida chillanishin.

Ki quloqig‘a etdi Bulbul uni,
Dedi: Bo‘ldi magar bahor kuni!

Chunki Hudhudga yetti bu payg‘om,
Qolmadi anda sabr ila orom.

“Hu” dedi, chiqdi chilladin filhol,
Gasht etib bog‘ sori urdi bol.

Ko‘rdi bir majmaiki, jami tuyur,
Etibon bir-biriga yuz shar-u sho‘r.

Keldi Hudhud taqi bu holatda,
Andalib erdi yuz malomatda.

Oldi Hudhud bila bu kallayi dast,
Sevunub dedi onda Bulbuli mast:

Yaxshi kelding, farishtaxo‘, Hudhud,
Barcha qushlarg‘a obro‘ Hudhud.

Haq yo‘lida yurub talab birla,
Keldi-yu turdi yuz adab birla.

Dedi: Ne bahsdur, muni bilsam,
Rohi tadbirini oning qilsam.

Ochchig‘din Humo dedi: Tak tur,
Haddingga yarasha bugun lof ur.

Sonmakim bo‘lubon sapga tobe’,
Aylagaybiz bu umrni zoye.

Tortdi Hudhud bir oh ul damda,
Bo‘lmag‘ay andoq oh olamda.

Dedikim: Ey Humo, dema zinhor,
Manmanlikni sevmagay jabbor.

Erdi shayton muqarrabi dargoh,
Bo'ldi manmanlikda ul gumroh.

Ul Sulaymonki dunyoni tutdi,
Rif'ati yetti charxdin o'tdi.

Erdi Tengrig'a ul nabsho rasul,
Qilur erdi so'zim hamisha qabul.

Eshiting, sizga bor bir tamsil,
Kelturay sizga bir nazir-u dalil:

Bir kuni tushti ko'kdin boron,
Ko'rsakim er, muhit bepoyon.

Munda tushti-yu munfail bo'ldi,
Tushkaniga base xijil bo'ldi.

Dedi:— Man munda kimki jo qilsam,
Bahr ila bahs, mojaro qilsam.

Ko'rgach o'zini kam o'shul yomg'ur,
Sadaf ichiga tushti-yu bo'ldi dur.

Hudhud ul dam so'zin ado qildi.
Barcha qushlar anga duo qildi.

Ul zamonda Humou g'ayri Humo
Qo'pti-yu qildi barcha sa'yat ango.

Kirdigoro, rahim-u rahmonsan,
Bilguchi borcha rozi pinhon san.

Gar Nishotiy erur parishon-e,
Boshidin ayoqig‘a isyon-e.

Lutf etib sen kechur gunohin aning,
Boqmag‘il nomayi siyohin aning.

O‘tdi umri tamom g‘aflat ila,
Yurudi subh-u shom g‘aflat ila.

Jon-u dil birla qilmadim toat,
Bo‘lmadim begunoh bir soat.

Sidq ila qilmadim ibodatni,
Ro‘zi qilg‘in manga saodatni.

AMIRIY

(1787–1822)

O'zbek mumtoz adabiyoti taraqqiyotiga salmoqli hissa qo'shgan zullisonayn shoir Amir Umarxon (Amiriy) Qo'qonda tug'ilgan. Ilk ta'limni uyda olgan va yoshligidan saroy xizmatiga jalb qilingan. Akasi Olimxon Qo'qon xoni (1807–08) paytida unga Farg'ona hokimligini topshirgan.

Umarxon Andijon hokimi Rahmonqulibiyning qizi Mohlaroyim (Nodira)ga uylangan. 1810–1822-yili Qo'qon xonligini boshqargan. Umarxon Qo'qon xonligi hududini kengaytirish, hokimiyatni mustahkamlash uchun kurashdi. Rossiya bilan diplomatik munosabatlar o'rnatishga harakat qildi.

Umarxon davrida Qo'qon, Toshkent, Turkiston, Chimkent, Sayram, Avliyootada masjid va madrasalar qurilib, qabristonlar tartibga keltirilgan. Shahrixon shaharchasi barpo etilgan, yangi qishloqlar vujudga kelgan.

XIX asrning 1-yarmida Qo'qonda ilmiy-adabiy muhit yaratgan. Saroyda 70 dan ortiq shoir va adiblar yig'ilgan. 1821-yilda Fazliy Namangoniy rahbarligida 63 shoirning she'rini o'z ichiga olgan "Majmuayi shoiron" tazkirasi tartib berilgan. Shoir sifatida aruzning yengil va o'ynoqi vaznlarida she'rlar yozgan. Asarlarida ishq-u muhabbat mavzusi, an'anaviy timsollar va tasavvufiy ruh yetakchilik qiladi.

O'zbek va fors tilidagi she'rlarini to'plab, devon tartib bergan. Devonida g'azal, muxammas, musaddas, tuyuq janrlaridagi 10 ming misradan ortiq she'r jamlangan.

G'AZALLAR

Bo'ldi to tabdin harifi la'li jononim anor,
Gul qilur xuni jigardin xori mijgonim anor.

Husn bog‘i mevasiga yor noz aylab dedi:
Lablarim anjirdur, sebi zanaxdonim anor.

Bog‘ gul birla anorig‘a agar noz aylasa,
Yor aytur:
Orazim — gul, la’li xandonim — anor.

Lablari shaftolusig‘a zormen, ey bog‘bon,
To‘kmasun behuda istig‘no bila qonim anor.

Sharbatim qondur agar topsang ul oy bazmig‘a bor,
La’li xandonig‘a yetkur arzim, ey jonim, anor.

Yoralig‘ ko‘nglumni ko‘z yoshida qildim parvarish,
Kim erur bu bog‘ aro maqbuli sultonim, anor.

Sebi g‘abg‘ablar firoqida bihidek sarg‘orib,
Qon yutarmenkim emastur bobi dandonim anor.

Ko‘z, labing unnobi hijronida yig‘larkim, to‘kar
Qatra-qarta qon yoshimdin jayb-u domonim anor.

Orazing rammonini bu bo‘g aro istar, Amir,
Muddaodur ango, ey sarvi xiromonim, anor.

* * *

Ohkim, yor menga yor o‘lmas,
G‘ami o‘lturdi-yu g‘amxor o‘lmas.

Ne balo noz-u tag‘ofildur ango,
Kuydim ishqida — xabardor bo‘lmas.

Bulhavas ishq ramuzin na bilur,
Bexirad mahrami asror o‘lmas.

Zulfi birla na taloshur sunbul,
Har xashak nofayi totor o‘lmas.

Orazin ko‘r xatidin o‘lma malul,
Qaysi guldurki anga xor o‘lmas.

Ishq vayronasidur turfa maqom,
Anda hargiz daru devor o‘lmas.

Kulmangizlar meni rasvolig‘ima,
Telbada nang bila or o‘lmas.

Nigorondur ko‘zum oyina misol,
Nega shoyistayi diydor o‘lmas.

Oshiq o‘ldum, nega sendin yoshuray,
Begunoh mo‘jibi inkor o‘lmas.

Bu jamol-u, bu latofat birla,
Kimdur ul senga giriftor o‘lmas.

Qaysi kundurki yuzung hasratidin
Ko‘zlarim ashk ila sarshor o‘lmas.

Xatidin shikva na hojat, ey ko‘z,
Qaysi oyinada zangor o‘lmas.

Na bilur ishqni kayfiyatini,
Yaxshilar-la kishi hamroz o‘lmas.

Har ko‘ngul ishqdin ogoh ermas,
Har sadafda duri shahvor o‘lmas.

Gavhari nazm bahosizdur, Amir,
Anga har sifla xaridor o‘lmas.

* * *

Jahon, jono, jamolingga tasadduq,
Dil-u jin, xatti xolingga tasadduq.

Chamanda sarv-u, shamshod-u sanavbar,
Erur mavzun niholingga tasadduq.

Labing sarchashmayi obi baqodur,
Xizt xatti zulolingga tasadduq.

Tutarman tan aro jonni kiromi,
Bo‘lur bir kun nisoringga tasadduq.

Qolib erdi vujudimdin xayoli,
Ani qildim xayolingga tasadduq.

Labing hajrida zahri g‘am yutarmen,
Halovat yodi bolingga tasadduq.

Erursan husn mulkini Amiri,
Jahon johu jalolingga tasadduq.

* * *

Qoshingg‘a tekuzmag‘il qalamni,
Bu xat bila buzmag‘il raqamni.

Butxonalar ichra hech tarso,
Bir ko‘rmadi sen kibi sanamni.

Oshiqlaringga tarahhum etgil,
Ko‘p aylama javr ila sitamni.

Naqshi qadaming muyassar o‘lsa,
Naylay bu jahonda jomi Jamni.

Ko‘nglum qushi toyiri hariming,
Sayd etma kabutari haramni.

To bevatan o‘lmasun ko‘ngullar,
Zulfungdin ayurma pech-u xamni.

La’ling g‘amidin ko‘zum to‘kar qon,
Behuda kechurmagil bu damni.

Yo‘lungda g‘ubori roh bo‘ldum,
Boshimg‘a yeturmadim qadamni.

Sen yordin o‘zga kimga dermen,
Ko‘nglumdagi dard ila alamni.

Bir kosa sharobi arg‘uvoniy,
Pomol qilur hujumi g‘amni.

Iqlimi vafo Amiridursen,
Ey shoh, bu gadog‘a qil karamni.

* * *

Visolingga ko‘ngul mushtoq edi, ey yor, xush kelding,
Ko‘zum nurini ravshan aylading bisyor, xush kelding.

Xumorim za’fidin betob edim, bazm ichra, ey soqiy,
Xiromon shishayi sog‘ar tutub sarshor, xush kelding.

Ko‘ngul bog‘ida har yon dog‘i ohim sarv ila guldur,
Bu gulshan sayrig‘a, ey sarvi gulruxsor, xush kelding.

Bu shakl-u, bu shamoyil birla bazmi noz ora kirding,
Sihi qadlarni qilding soyayi devor, xush kelding.

Xazin mushtoqlarg‘a yori firdavs xayolidin,
Yeturding mujdaye tovusi xushraftor, xush kelding.

Kecha kulbamg‘a pinhon keldi ul mahvash, Amir aydi:
Bu lutf-u marhamatni bilmasun ag‘yor, xush kelding!

* * *

Ishq asrorini pinhon aylaram ag‘yor aro,
Bir musulmondurki dinin yoshurur kuffor aro.

To ko‘nguldur mushtari gisuyi xattu xolig‘a,
Yuz tuman savdo erur boshimda bul bozor aro.

Gulshani ruxsoring uzra tushti qoshing soyasi,
Shakli xatti sarv paydo bo‘ldi bul gulzor aro.

Gul uza rayhonmu yo mushkin qoshingni soyasi,
Yo xatingni sabzasidur gulshani ruxsor aro.

Ayladi zohid gumonkim, subhayi sad donadur,
Tushti zulfungdin girehlar halqayi zunnor aro.

Gar taror bo‘lsang sochingni chekma beparvo tarog‘,
Baski bordur yuz asir o‘lg‘on ko‘ngul har tor aro.

Ikki jodu nargisingdurmu yuzung bog‘ida mast,
Yo xarob o‘lmishmu bul bemorlar gulzor aro.

Ko‘zlaring bedodini husnung, Amiriy, so‘rmasa,
Netgay erdi jon bu ikki zolimi xunxor aro.

* * *

Xat chiqording, la’li xandoning kerakmasmu sango,
Xizra verding, obi hayvoning kerakmasmu sango.

Toza qildim noxuni g‘am birla ko‘ksum dog‘ini,
Yod qilmassan, gulistoning kerakmasmu sango.

Bir itingman, dargahingdan quvmag‘il ag‘yor uchun,
Ey nekular shohi, darboning kerakmasmu sango.

Keldi vayron ko‘ngluma ul oy xayoli yoshurun,
Pos tut, ey diyda, mehmoning kerakmasmu sango.

Javr aylab kechalar yondurma ohim o‘tini,
Ey falak, bu qasr-u ayvoning kerakmasmu sango.

Boqma, ey oyina, ul oy orazig‘a, bo‘lma suv
Intizori chashmi hayroning kerakmasmu sango.

Zinhor ag‘yorlar bazmida la’li shavqidin
Ey ko‘ngul, dam urmag‘il, joning kerakmasmu sango.

Barqi ohim anjuming jam’iayatin aylar taboh,
Javr etarsan charx somoning kerakmasmu sango.

Orazi shavqida bir o‘tlug‘ so‘z aytdim, ey Amir,
Solmag‘il daftarg‘a, devoning kerakmasmu sango.

* * *

Ko‘rsaturlar jilva birla bizlara gulzorlar,
Nozpiyrolar, sumanbarlar, chaman ruxsorlar.

Ishq elin qatl etguchi berahm dil ozorlar,
Jam’ o‘lub bir bazm aro suhbat etarlar yorlar.

G‘uncha yanglig‘ ko‘nglumi yuz noz ila qon ettilar,
Sho‘xlar, beboklar, raqqos-u xushraftorlar.

Buzdilar dinim uyini, qildilar ko‘nglum xarob,
Anjuman piro parivash ko‘zlari bemorlar.

Jilva aylab anjuman sahnini gulshan ettilar,
Guljabinlar, g‘uncha og‘izlar, shakar guftorlar.

Ohkim, ishq ahlini qonini bilmishlar halol,
Javrning oyinida bu ko‘zlari xummorlar.

Telba bo‘lmay naylayin ishq-u junun vodiysida,
Ko‘nglum oldi bir suruk oh-u kibi ayyorlar.

Rahm qil, yorabki ahvolimg‘a, cho‘q mushkul erur,
Menda bordur bir ko‘ngul, bor necha dilozorlar.

G‘amza birla noz etib, biz ko‘z uchi birla boqib,
Bismil etmishlar bizi bu ko‘zlari xunxorlar.

Bu ajab gullarni javridin qutulamassen Amir,
Oldilar yuz noz ila ko‘nglumni bu dildorlar.

* * *

Toblarkim, sunbuli zulfi parishonidadur,
Har biri qullobdek ishq ahlini jonidadur.

Zulfi sharbangi ayog‘i uzra qo‘ymoqlikg‘a bosh,
Soya yanglig‘ sarnigun sarvi qadi yonidadur.

Ikki mushkin qoshlari bu satr zebolig‘ bila,
Shoh baytidur yozilg‘on, husn devonidadur.

Va’dalar aylab agarchi qilmading birga vafo,
Lek bu Majnun burung‘i ahd-u paymonidadur.

Fitna tig‘i, g‘amza nayrangi, tag‘ofil surmasi,
Bu adolar barcha oni nozi mijgonidadur.

Bo‘lmag‘ay kavsar suyi birla zuloli Xizraro,
Ul halovatkim, aqiqi la’li xandonidadur.

Yo‘q ajab gar bersa o‘lg‘onga takallum birla jon,
Mu’jizi Iso labini obihayvonidadur.

Man kim-u zuhdu vara' ey porso, ma'zur tut,
Notavon ko'nglum, amir, ishq farmonidadur.

* * *

Meni hayronlig'im, ey nozanin, zebolig'ingdindur,
Qizil yoshim sorig' ruxsor uza ra'nolig'ingdindur.

Muhabbat ahlini afg'oni zulmingdin erur, yoxud,
Bu sho'r ushshoq aro, ey sho'x, nopoydolig'ingdindur.

To'karlar ko 'zlaring qon, voqif o'lkim husni shohisen,
Ko'ngullar mulkida bu fitna beparvolig'ingdindur.

Alifdek qomating jonlar aro sokin erur, lekin
Xiroming elni Majnun etmagi yaktolig'ingdindur.

Senga kim aydi, ey ko'nglum, ani zulfig'a band o'lg'il,
Girftori balo bo'lmoqlig'ing shaydolig'ingdindur.

Muruvvat zohir etting elga oshiq ohidan qo'rqub,
Musulmonliq g'amoyil o'lmog'ing tarsolig'ingdindur.

Mani devonag'a gohi boqib qahr-u itob etma,
Amir olingda, ey siyminbadan mirzolig'ingdindur.

* * *

Dema ne yuzdin ko'rundi diydayi joningda qosh,
Xat chiqording zohir o'ldi la'li xandoningda qosh.

Ey ko'ngul, qaysi kamon abr-u g'amidin zorsen,
Kim erur payvasta yo o'rnig'a qirboningda qosh.

Nimnigohing ko'z uchidin, turdi mijgon saf tuzub,
Xam bo'lub ta'zim etib, yer o'pti farmoningda qosh.

Ko‘kda anjum ichra ko‘p zebo erur shakli hilol,
Ko‘rguzur xoling rivojin chashmi fattoningda qosh.

Qoshlaringni vo‘smadin rangin ko‘rub, aydi Amir,
Obro‘ topti yashil to‘n kiydi ehsoningda qosh.

* * *

Menki savdodin junun ahlig‘a topdim ixtilot,
Bo‘lmayin rasvoyi olam aylangizlar ehtiyot.

Topqoli andak tabassum birla nisbat la’lingga,
G‘uncha piyrahang‘a sig‘mas zohir aylab inbisot.

Orazing gulzorig‘a hayron ko‘zum tushgan zamon
Gul yuzida qatrayi shabnam kibi aylar nishot.

Sarvdek qatting latofat bog‘ini devonida,
Ikki misradur vale bir-birga yo‘qtur irtibot.

Yuz uza zulfung xayolig‘a ko‘ngul tushti Amir,
Kim ani har toridur tamug‘ uzra sirot.

* * *

Halokimdin senga bir so‘z rivoyat qildi mijgoning,
Ko‘zung o‘lturdi-yu, ammo rioyat qildi mijgoning.

Xayoling bazmida ko‘rdi ko‘nglimni qoshingda,
Ko‘zing bedodini aytib shikoyat qildi mijgoning.

Ko‘zung qilg‘on jafolardin ko‘ngulda yuz alam erdi,
Menga ushbu alamlarni ziyodat qildi mijgoning.

Meni o‘lturgudek erdi ko ‘zung mardumlari bori,
Chekin har yon sinon saf-saf himoyat qildi mijgoning.

Agar qasding meni o‘lturmak ermas erdi, ey zolim,
Degil jodu ko‘zingdin nega sabqat qildi mijgoning.

Ikki xunxor jodu ko‘zlaringdin jon qutulg‘oymu,
Bu kofirlarni qatlimg‘a dalolat qildi mijgoning.

Ko‘zung kofirlari, jono, musulmon bo‘lmasa nechun
Qoshing mehriboni ostida toat qildi mijgoning.

Borur erdim, Amir, arzi dilimni senga ayturg‘a,
Muruvvat birla qoshingg‘a ishorat qildi mijgoning.

* * *

Xor tutma paykarimni poymolingdur o‘shal,
Hurmat etkim, zarrayi mehri jamolingdur o‘shal.

Yor aydi: “Qaysi hindudur guliston sahnida?”
Aydim: “Ey siymbadan, yuz uzra xolingdur o‘shal”.

Dog‘i aydi: “Oftob uzra bo‘lurmi yangi oy?”
Men dedim: “Ruxsor uza mushkin hilolingdur o‘shal”.

Aydikim: “Qaysi alifdir jonda bo‘lg‘oy jilvagar?”
Dedim: “Ey sarviravon, ra’no niholingdur o‘shal”.

Dedi: “Ko‘nglung qaysi oh-u chashm sargardonidur?”
Men dedim: “Ovorayi ikki g‘izolingdur o‘shal”.

“Telba ko ‘nglung kimga moyildur”, dedim, aydi Amir:
“Volayi xurshidi husn bezavolingdur o‘shal”.

* * *

Erur xoki tanim yo‘lingda pomol,
Boshimg‘a sarv-u qadding soyasin sol.

Qad-u zulf-u yuzingni hasratidin,
Erurmen vola-u hayron, mahu sol.

Dedim: “Zulfung ayog‘ingga tushubdur”,
Dedi: “Shamshod ostida erur dol”.

Dedim: “La’l ostida gavhardur oyo”,
Dedi: “Maygun labim davrida tabxol”.

Javono, bu qarilarga vafo qil,
Ajoyib bevafodur bu ko‘han zol.

Malohat gulshanisen, ey gulandom,
Soching sunbul, xating sabza, yuzing ol.

Sanavbarni qadingg‘a nisbati yo‘q,
Nuchukkim, sarv birla teng emas tol.

Dam-odam javr-u bedoding o‘qidin,
Mushabbak bo‘ldi ko‘ngil misli g‘irbol.

Amiri husn erursen, ey pariro‘,
Karam qil, bu gadolardin duo ol.

* * *

Shami orazing hardam mahfili xayol ichra,
Jon qushi chu parvona o‘rtadi visol ichra.

Xoli anbariningmu shakkarin labing uzra,
Yo magar chibin qo‘ndi shavq birla bol ichra.

Irningizni madhini qonda yolg‘iz aytarmen,
To‘ti shakkaristonda vasf etar maqol ichra.

Sunbuling ikki yondan qo‘ydi bosh ayog‘ingg‘a,
Qadding ul alif yanglig‘kim, yozildi dol ichra.

Qildilar qaro ko‘zlar beqaror ko‘nglumni,
Tushti go‘yo Majnun bir suruk g‘izol ichra.

Bandamen senga, jono, mulki dil Amirisen,
Lof urub jamolingga tushti kun zavol ichra.

* * *

Junun daryosi tug‘yon aylamakni mendin o‘rgandi,
Talotum birla to‘fon aylamakni mendin o‘rgandi.

G‘am-u, dard-u muhabbat gulshanida gul bila g‘uncha
Yaqo chok-u, ko‘ngul qon aylamakni mendin o‘rgandi.

Hamisha mahfili gulshan aro oyina-u g‘uncha,
Xayolin xobda pinhon aylamakni mendin o‘rgandi.

Nechakim shami mahfil hosili so‘z-u gudoz aylar,
Sirishki oh somon aylamakni mendin o‘rgandi.

Chamanda yig‘ladim ko‘p ul guli oraz firoqida,
Ko‘zini abri giryon aylamakni mendin o‘rgandi.

Ukush oshufta erdim zulfidin, bodi sabo har dam,
Gul avroqin parishon aylamakni mendin o‘rgandi.

Chu to‘ktum ashki otashbor ul mahvash xayolidin
Kech anjum charag‘on aylamakni mendin o‘rgandi.

Muallimmen bukun savdo dabistonida, ey Majnun,
Sahar choki giribon aylamakni mendin o‘rgandi.

Amir, ul oy g‘amidin ayladim dardim ilojini,
Hakimi ishq darmon aylamakni mendin o‘rgandi.

Boshim o'lsun poymol ar tarki savdo aylasa,
Xira bo'lsun ko'z jamolingdin tabarro aylasa,
Jong'a o't tushsin bo'lak dilbar tamanno aylasa,
Ko'nglum o'rtansun agar g'ayringga parvo aylasa,
Har ko'ngul ham kim sening shavqingni paydo aylasa.

Ishq dashtida quyun yanglig' junun tamhid o'lay,
Bu jihatdin zarra oso mahrami xurshid o'lay,
Furqatingda nechakim zindonin jovid o'lay,
O'zgalar vaslin tamanno aylasam navmid o'lay,
Har kishi ham kim sening vasling tamanno aylasa.

Sendin o'zga yor paydo aylasam chiqsun ko'zum,
G'ayr diydorin tamanno aylasam chiqsun ko'zum,
Gar pari ruxsorig'a vo aylasam chiqsun ko'zum,
O'zgalar husnun tamosho aylasam chiqsun ko'zum,
O'zga bir ko'z hamki husnungni tamosho aylasa.

Necha vasfing bog'ida to'timisol o'lsun tilim,
La'li nobing sharhida shirin maqol o'lsun tilim,
O'zgalar harfini insho qilsa nol o'lsun tilim,
G'ayr zikrin oshkoro qilsa lol o'lsun tilim,
Qaysi bir til hamki, zikring oshkoro aylasa.

Mahvashikim jilvasi barq-u yuzi bir shu'ladur,
O't solur la'li ko'ngul ichra, so'zi bir shu'ladur,
Ishqi olamso'z erur, ammo o'zi bir shu'ladur,
Rashkdin jonimg'a har nargis ko'zi bir shu'ladur,
Bog' aro nogah xirom ul sarv ra'no aylasa.

Ruhparvar la'lidin tong yo'q o'lukni qilsa hay,
So'z chog'i etmish tarashshuh, qatra-qatra mavji may,
Husn bobida topilmas bu nazokat birla shay,
Yo'q og'izdin nukta aytur mahvashimdek bo'lmag'ay,
Gar quyosh har zarrasidin bir Masiho aylasa.

To meni devona qildi ul parizodi habib,
Ishq aro rasvolimg'a ta'nalar aylar raqib,
Telbalig' dardina tushtum vaslidin olib nasib,
Kelturung dafi junonimg'a parixon, yo'q tabib,
Ulkim ansabdur pari har kimni shaydo aylasa.

Har kishikim aylasa mehr-u vafo izhorini,
Tan g'ubori birla tarh etgay fano devorini,
Bir nafasda aylagay barbod yo 'q-u borini,
Subhdek bir damda gardun qo'ymag'ay osorini,
Nogah ahli sidq ko'ngli mehrin ifsho aylasa.

Deb Amir ahli fususi qayd bo'lma nechakim,
Vola-u maftuni amr-u Zayd bo'lma nechakim,
Boqma dunyo shohidig 'a, qayd bo'lma nechakim,
Dahr sho'xig'a Navoiy sayd bo'lma nechakim,
Kun uzori uzra tun zulfin mutarro aylasa.

Fuzuliy g'azaliga muxammas

Balo dashtida g'am tog'in meningdek zor o'landan so'r,
Muhabbat ramzini Majnun kibi afgor o'landan so'r,
Ma'zoqi la'li nobin ishq aro xummor o'landan so'r,
Shifoyi vasl qadrin hajr ila bemor o'landan so'r,
Zuloli zavq-shavqin tashnayi diydor o'landan so'r,

Ko 'ngul Majnuning o'ldi, ishq jurmi birla o'lturma,
Maningdek mubtalodin javr tarkini ravo ko'rma,
Raqibi ro'siyah birla dame o'lturmau durma,
Labin sirrin kelib guftora mandan, o'zgadan so'rma,
Bu pinhon nuktani bir voqifi asror o'landan so'r.

Muhabbat shevasida aql tadbiri erur botil,
Birovkim, ishq aro Majnuning o'ldi ul erur oqil,
Manimkim, yig'lamoqdin manim aylar zohidi johil,

Ko‘z-u yoshlularin holing na bilsun mardumi g‘ofil,
Kavokib sayrini shab to sahar bedor o‘landan so‘r.

Tamanno qildi xatti orazingni bu chamanlardin,
Bu gul shavqida bulbul oshyon qildi tikanlardin,
G‘ururi husn ila qilma tag‘ofil bevatanlardin,
Xabarsiz o‘lma fatton ko‘zlaring javrin chekanlardin,
Xabarsiz mastlar bedodini hushyor o‘landan so‘r.

G‘amingdan hajr aro bir zarra yanglig‘ bo‘ldi timsolim,
Erursen dilrabolar ichra ham berahm-u, ham zolim,
Yetib savdoyi zulfungdin parishon bo‘ldi bu holim,
G‘amingdan shamtek yondim,
sabodan so‘rma ahvolim,
Bu ahvoli shabi hijron manimla yor o‘landan so‘r.

Malohatlik yuzungdur oftobi avji iqbolim,
Malomat toshlari birla ushaldi bu par-u bolim,
Beling birla dahoning yodi erdi qiyl ila qolim,
Xarobi jomi ishqam, nargisi masting bilur holim,
Xarobot ahlining holini bir xummor o‘landan so‘r.

Sabo to qomating sarvini har yon ayladi moyil,
Ko‘ngul majnunidin hush-u xiradni ayladi zoyil,
Amir ishqimni ko‘rgach, Xizr bo‘ldi ajzig‘a qoyil,
Muhabbat lazzatidan bexabardir zohidi g‘ofil,
Fuzuliy, ishq zavqin zavqi ishqi vor o‘landan so‘r.

Lutfiy g‘azaliga muxammas

Necha dard izhor etsam, ul sanamdin chora yo‘q,
Ne uchun qon to‘kmasun ul ko‘zki namdin chora yo‘q,
Ranj ila mu’tod o‘lanlarg‘a sitamdin chora yo‘q,
Ishq tushsa har ko‘ngulg‘a dard-u g‘amdin chora yo‘q,
Yetsa chun nishtar jarohatg‘a alamdin chora yo‘q.

Soldi zulfi oraz ila ko‘ksum ichra tob-u tab,
O‘rtadi mahzun ko‘ngulni shami muhfildek tutab,
G‘uncha yanglig‘ qon o‘lub bir amr mavhumi tilab,
Ey vujud, ul tor of’izdin hech bo‘lsan, ne ajab,
Ushbu yo‘lda yurug‘anlarga adamdin chora yo‘q.

Chun nihon etting sochingdin, orazing, ey mahjabin,
Bu ado birla yoshurding kufr shomi ichra din,
Talx etti ayshimi baxtim qaro, ko‘nglum hazin,
Bir tutub zulfingni yuz ming zahr toptim zulmidin,
Ore-orekim, yilon tutqong‘a samdin chora yo‘q.

Baski yo‘q ushshoq xayli ichra men yanglig‘ g‘ayur,
Gar Amir o‘lsam muhabbat kishvari ichra bo‘lur,
Qilmag‘il ma’yus aylab notavonlardin nufur,
Eshikingdin qavlama, bu Lutfiyning jurmin kechur,
Kim bu bob ichra karimlarg‘a karamdin chora yo‘q.

TUYUQLAR

Orazing gulzori jannat bog‘idur,
Tori zulfung jon qushini bog‘idur,
Halqayi zunnor zulfung davrida
Kofiri ishq o‘lmog‘onlar bog‘idur.

* * *

Bodasiz betobmen bu kecha men,
La’ling istab emdi jondin kechamen,
Sohili maqsadg‘a yetgaymanmu deb,
Ko‘z yoshim daryosida suv kechamen.

* * *

Benavomen yor ko‘z-u qoshidin,
Telba ko‘nglum kelmas oni qoshidin,
Kofir-u mo‘min aning hayronidur,
Kufr izhor etti zulf-u qoshidin.

* * *

Ul pari jonimg‘a o‘tlar yoqadur,
Kuygonim ko‘nglig‘a yaxshi yoqadur,
Ishqida har yon tushub jaybimg‘a chok,
Telbamen piyrohanim beyoqadur.

* * *

Navxatim zulfidin ochg‘on chog‘da chin,
Munfaildur mushkdin ohuyi Chin,
Chini Mochin zulfi purtobidadur,
Bu so‘zum yalg‘on emastur, barcha chin.

FAZLIY

(XVIII–XIX asr)

Shoir Fazliy Namangoniyning asl ismi Abdulkarim bo'lib, Amir Umarxon davrida Qo'qon adabiy muhitining yetakchilaridan bo'lgan. XIX asr boshlarida To'raqo'rg'on va Namanganda turli mansablarda ishlagan. Umarxon hukmronligi davri (1810–22)da Qo'qonga kelib, o'z iste'dodini namoyish qilgan, tez orada "malik ush-shuaro" nomini olgan.

Amir Umarxonning hayoti, faoliyati, harbiy yurishlari, hukmronligi davridagi voqealarni "Umarnoma" dostonida tasvirlagan. Xon topshirig'iga ko'ra, Fazliy "Majmuayi shoiron" ("Shoirlar majmuasi", 1821) tazkirasini tuzgan.

Unda Qo'qon adabiy muhitining 100 dan ortiq vakillari haqidagi qimmatli ma'lumotlar va asarlaridan namunalar jamlangan. Fazliyning qasida, g'azal, masnaviy, muxammas, ruboiy va tuyuqlari turli majmua va bayozlarda uchraydi. "Devon"i saqlanmagan.

G'AZALLAR

Gul yuzungda zulfungni bog' aro namoyon qil,
Lola birla sunbulni dog' etib parishon qil.

Lolagun qabo jaybing tugmasin ochib goh-e,
Gul yaqosini chok et, g'uncha bag'rini qon qil.

Davlati visolingga shukur etmaganlarni,
G'am o'tig'a dog' aylab, mubtaloyi hijron qil.

Soqiyo, yuzung aksi qildi bodani gulgun,
Lola rang sog'ar tut bazmni guliston qil.

Ey ko‘ngul xarobingga kelsa yoshurun dardi,
Voqif o‘lmasun mardum ko‘z uyida mehmon qil.

Oshiqi talabgoring mardlarni shohidur,
Bo‘sayi dahoningdin nazri shohi mardon qil.

Fazliyo, Umar sulton dargahiga yo‘l topsang,
Ko‘zlaringga tufrog‘in surmayi Sulaymon qil.

* * *

Gul chog‘i xushdur qilib sayri guliston o‘ynamoq,
Yor ila gulshanda sarmast-u xiromon o‘ynamoq.

Yor la’li birla o‘ynab bo‘lmas, ey shaydo ko‘ngul,
Bas degil insof ila osonmudur jon o‘ynamoq.

Turfa sarkashdur samandi noz surma tund ani,
Kim anga odat erur qilg‘onda javlon o‘ynamoq.

Halqayi zulfungga chindur ko‘ngul o‘ynab berganim.
Yo‘qsa ishq oyinida bordurmu yolg‘on o‘ynamoq.

Bok emas gar tarqasa ashkim yuzum atrofina,
Yoshlarg‘a rasmdur haryon parishon o‘ynamoq.

Keldi yoding ko‘ngluma ashkim yugurdi har taraf,
Tiflg‘a odat erur kelganda mehmon o‘ynamoq.

Ey ko‘ngul, vayronalig‘lar birla xush tut xotirin,
Gar sening birla tilar ul tifli nodon o‘ynamoq.

Ishq osondur va lek jon o‘ynamoq dushvor erur,
Bulhavas ham o‘ynar erdi bo‘lsa oson o‘ynamoq.

O‘ynag‘il Fazliy vafo nardin qurub jon naqdini
Gar tilar bo‘lsa saningla tabi jonon o‘ynamoq.

* * *

Soqiy-o, sensiz manga bo‘ldi bu oqshom kom talx,
Dam-badam la’ling xumoridin icharman jom talx.

Nargising aylar nigohi tund, la’ling zahrxand,
Vah nadindur bu chamanda pistavu bodom talx.

Zulf-u simin soid-u maygun labing hijronida,
Boda yo‘qkim qon yutarman subhdin to shom talx.

Zahri g‘am yutmak labing hajrida odatdur manga,
Kim emas maxmurlarga bodayi gulfom talx.

Hajr og‘usidin ikroh etmazam la’ling tilab,
Necha may talx o‘lsa bilmas oni may oshom talx.

Sarva ko‘rguzma qadingni, gulg‘a arz etma jamol,
Qilma gulshan ayshini, ey sarvi gulandom, talx.

Nash’ayi sahbo kabi Fazliy guvorodur manga,
Garchi bordur yor shirin la’lidin dashnom talx.

* * *

Ey sabo, kel bog‘ aro ko‘rgan tamoshodin gapur,
Sarv ila guldin dema, ul sarvi ra’nodin gapur.

Pistavu bodomdin dam urmag‘il, ey bog‘bon,
Ul labi xandondin aytib, chashmi shahlodin gapur.

Topsang, ey shaydo ko‘ngul, nogah ani ko‘yig‘a yo‘l,
Ul pari olida bu Majnuni rasvodin gapur.

Yor zulfidin girih ochmoq hunardur, ey nasim,
Nuktadonlar ichra bu mushkul muammodin gapur.

Zuhd ta'rifini qil zohidg'a bo'lsang hamnishin,
Rindlar bazmida sog'ar birla minodin gapur.

Xudnamolikdin mukaddardur ko'ngul, ey mayfurush,
Urma dam oyinadin, jomi musaffodin gapur.

Ey mudarris, ishq darsini ramuzidur daqiq,
Muxtasar qil ushbu so'zni "Sharhi mullo"din gapur.

So'zla ey Fazliy, Umar sulton shukuhi adlidin,
Men qachon aydim Skandar birla Dorodin gapur.

* * *

Sham boshi yona keldi yona tob ustindadur,
Bu jihatdindurki "shin" doim shabob ustindadur.

Oncha ul bemor ko'z hajrida log'ar bo'ldi tan,
Boshim anda nuqtaidurki xarob ustindadur.

Mehri ruxsor ustida payvasta qoshingdur sening,
El gumon aylarki "madde" oftob ustindadur.

Ko'zga qo'yg'aymu qadam deb bir kun ul chobuk suvor,
Egma qaddim rokibi doim rikob ustindadur.

Sarvdek yaktosen, ey shamshod qadlar sarvari,
Qomatingdur ul "alif" kim intixob ustindadur.

Terlagan ruxsoring uzra lolagun burqa'mudur
Yo tarovat birla gul bargi gulob ustindadur.

Ko'zlari maqtulini Fazliyga te'dod etgali,
Qoshi ul "he" sargahidurkim hisob ustindadur.

* * *

Biravkim ul guli ra'no visolini xayol etmish,
Sarig' aylab yuzini ashk selobini ol etmish.

Tarab shamini ravshan aylab ul oy chehra tobidin,
Ko'zum mardumlarini mahrami bazmi visol etmish.

Ravo qil hojatni, aylar duo, tund o'lma, ehson qil,
Labingdin kom istab bo'sae ko'nglum suol etmish.

Gul andomeki ra'no qad bila har dam xirom etgach,
Chamanda sarv-u gulni soya yanglig' poymol etmish.

Yuzungdin qatra-qatra xay tarovat shikor etgach,
Hayo gul shabnamini g'arqi bahri infiol etmish.

Ko'rub gul bargi ruxsoringni-yu shahdi kalomingni,
Tahayyur bulbul-u to'tini gulshan ichra lol etmish.

Yuzin ko'rmakka ko'z mushtoq, hojatmand edi ko'nglum,
Nadur vajhi bukun oyinakim arzi jamol etmish.

Manga sen anbar-u sunbul isin ey bod, kelturma,
Nasimi nakhati zulfi meni oshifta hol etmish.

Topolmas muddao Fazliy xayolidin aalal hargiz,
Nedinkim xizmati Kayxisravi sohib jamol etmish.

* * *

Ul pari paykarki majnunman ani savdosidin,
Bir boqib holimni so'rmas, o'ldum istig'nosidin.

Har necha mahkam edi sabrim binosida asos,
Qolmadi obod hijron xaylini yag'mosidin.

Qoshlari yoyiga qurbon erdi ko‘nglum nogahon,
G‘amza paykoni qadaldi nargisi shahlosidin.

Yor azmi gulshan etdi bordi keynidan raqib,
Umr borgandek shitob aylab o‘lum orqosidin.

Xo‘blar mehrini tark et, dema, ey nosih, manga,
Telba o‘lg‘aymu parilar ishqini da’vosidin.

Dahr bog‘i bevafodur, ne uchun, ey andalib,
Ko‘ngul uzmassen bu gulshanning guli ra’nosidin.

Shayx zuhdidin malul erdim xusho, piri mug‘on,
May bila qutqordi ul iblisni vasvosidin.

* * *

Ko‘ngul dog‘in dedim ishq ibtilosidin nishondur bu,
Ko‘zum aydiki mandin sachragan bir qatra qondur bu.

Tanimda ko‘r o‘qung zahmini ko‘p qilma taajjubkim,
Erur ul dard tog‘i g‘am qushig‘a oshiyondur bu.

Qadalgan novakingni chekma ko‘ksum zahmidin o‘lmay,
Nedinkim notavon jismim aro ruhi ravondur bu.

Hujmi xat g‘uborin la’lidin so‘rdum, kulib aydi
Badaxshon mulkiga kelgan xitoyi korvondur bu.

Dedim zulfung na yuzdin orazingda pechutob aylar,
Dedi o‘t shu’lasida iztirob etgan ilondur bu.

G‘amingda bu sarig‘ ruxsor ila andog‘ zaif o‘ldum,
Gumon aylar meni ko‘rgan kishi bir par somondur bu.

Degay ahboblarg‘a o‘qugon lavhi mazorimni,
Shahidi novaki bir dilbari abri kamondur bu.

Agar g‘am lashkaridin bo‘lsa maqsuding amon topmoq,
Xarobat ichra manzil aylakim dorulomondur bu.

G‘urur etma nasab piroyasiga, hosil et ma’ni,
Na sud andin degaylarkim falon ibni falondur bu.

Xirad ahli junun ko‘yida ahvolimni ko‘rganda,
Demishlar oshiqi devonayi husni falondur bu.

Taarruz aylama ey muddaiy Fazliy kalomig‘a,
Radifi shohbayti Xisravi sohibqirondur bu.

* * *

Chiqti tun kish bo‘rkini egri qo‘yub qosh ustina,
Shamdek o‘tlar tutashti shavqidin bosh ustina.

Gar tazallum zohir etsam solma chin qosh ustina,
Surma gavhar mavjidek tig‘i g‘azab bosh ustina.

Ikki zolim qoshlaring bosh endurub qatlim uchun,
Ro‘baro‘ o‘lturdilar bir yerga kengosh ustina.

Baski gulgun to‘n kiyib raxsh uzra javlon aylading,
Qon o‘lub chiqti jigar pargolasi yosh ustina.

Ko‘zni husnung xonidin o‘z yoshi qildi benasib,
Bo‘lsa betoli’ yatim burni qonar osh ustina.

Notavon ko‘nglumda g‘amlardur sanamlar javridin.
Qo‘ydilar yuz tog‘ni bir dona xashxosh ustina.

Tira dillarga jamoling tobidin yuz xiraliq,
Javr o‘lur xurshed partav solsa xuffosh ustina.

Yer qattig‘ ko‘ngli ashkimdin muloyim bo‘lmadi,
Sud qilmas har necha yomg‘ur yog‘ar tosh ustina.

Shahsuvorikim erur ko‘k toqidin kursi anga,
Sahl himmatdur agar o‘ltursa Ko‘ktosh ustina.

Shohlardur xirmani ehsonidin ummidvor,
Ore har yerda gadolar g‘avr etar josh ustina.

To abad bo‘lg‘ay muxallad davlati Sulton Umar,
Soya soldi ra’fati Fazliyi qallosh ustina.

MUHAMMAD ALIXON

(1805–1842)

Qo'qon xoni Umarxon va Nodiraning o'g'li. Otasi Umarxon vafotidan keyin 17 yoshida taxtga o'tirgan. Xonlik hududini kengaytirishga uringan. Muhammad Alixon hukmronligi davrida sug'orish ishlari yo'lga qo'yilgan, Toshkent yaqinida Xonariq qazilgan. Rossiya bilan savdo va diplomatik aloqalar yaxshi yo'lga qo'yilgan. Muhammad Alixon maktab va madrasalar qurilgan, Qo'qonning eski o'rdasi ta'mirlangan.

Muhammad Alixonning hukmronligi Qo'qon-Buxoro munosabatlari keskin yomonlashadi. Buxoro amiri Nasrullohxon Qo'qonni zabt etdi, 1842-yil aprelda Buxoro amiri Muhammad Alixon va uning ukasi Sulton Mahmudxon hamda onasi Nodirabegimni qatl ettirdi.

Muhammad Alixon g'azallar yozgan, uning buyrug'iga binoan xattotlar Navoiy asarlarini miniatyuralar bilan bezab ko'chirgan, ko'plab tarixiy asarlar fors va arab tillaridan o'zbek tiliga tarjima qilingan.

Muhammad Alixon "Xon" taxallusi bilan she'rlar bitgan, "Devon" tartib bergan. Asarlarida Navoiy, Bobur, Fuzuliy va Amiriy an'analarini davom ettirgan.

G'AZALLAR

Dirilur zor tanim la'li duraxshoningdin,
Ochilur uqdayi dil g'unchayi xandoningdin.

Charx ovjina biroqdim adami shu'layi oh,
Dun kecha hasrati ul sarvi xiromoningdin.

Veriram istading jon esa, yo‘x imkoni,
Podshohim, banga chixmak seni farmoningdin.

Zarra-zarra sharari charxa chiqan anjumdur,
O‘da yohqoj tanimi otashi hijroningdin.

Qatra-qatra sochilur qon gejalar chashmimdin,
Ruhi gulgunung ila zulfi parishoningdin.

Geja o‘lduqcha falak yera biroqsa gushanin,
Na ajab sha’sha’ayi mehri durafshoningdin.

Bir yolon so‘z ila cho‘x injima, ey mohliqo,
Ishq mulkini musaxxar edajak Xoningdin.

* * *

Kasb aylamading gardi rahi simbarimdin,
Bir zarra dagil sud banim chashmi tarimdin.

Narm etmadi qotti dilini sochilan ashkim,
Afsus banim tosha sotashqon guharimdin.

Ul zolimi ogoh sonur holima ko‘nglum,
Bechora xabardor dagil bexabarimdin.

Bing bulbuli xomush edaram o‘lmasa vahmim,
Kim injila gulrux sanamim nolalarimdin.

Ohim o‘di mehringda surayyoya erishdi,
Ey moh, soqin charxa buroxan shararimdin.

Xonning dili purxunina rahm ila murur et,
Gezdukda sabo ul yuzi gulbargi tarimdin.

* * *

Ohkim do‘kdi falak qonimi mijgonimdin,
Qilmadi bok dam-badam do‘kulan qonimdin.

Mavji to‘foni balo boshima do‘ndirdi falak,
To judo etdi hazing jonimi jononimdin.

Ko‘nglimi seli balo birla xarob etdi sipehr,
Bo‘lur obod g‘ubori dili vayronimdin.

Kechalar g‘uncha kabi ko‘nglimi qon bog‘ladug‘i,
Subhlar zohir o‘lub choki giribonimdin.

Ohkim hajr tuni qochdi dilim hasratidin,
Soya ham ketdi firoqing kechasi yonimdin.

Sham uzun til bila yonmish, negakim zulmi o‘tdi,
Haddim ermas demaga g‘ussayi pinhonimdin.

Ey ko‘ngil, sonmaki zoil bo‘lur oshuftalig‘im,
Jam qil xotiringni holi parishonimdin.

Subh-la diydayi giryonima rahm ayla, sabo,
Bir xabar ber menga ul g‘unchayi xandonimdin.

Xon kabi mahvashim shami ruhin yod edaram,
Yonajakdur falak ohi dili so‘zonimdin.

* * *

Oyru dushdim yana ul g‘uchayi xandonimdin,
No‘la gar tinmasael nola-yu afg‘onimdin.

Dam-badam orazi yodi ila ashkim guhari,
Qatra-qatra sochilur didayi giryonimdin.

Ketdi aldin xami zulfi-yu parishon o‘ldum,
Voqif o‘lmaz banim ahvoli parishonimdin.

Ro‘zgorim qoradur zulfi kibi ul mohing,
To qadam chekti banim kulbayi ihzonimdin.

Ey sabo, kuyina gar dushsa guzoring nogah,
Verako‘r bir xabar ul sarvi xiromonimdin.

Bosh chekar shu’layi ohim sharari garduna,
Hazar etmazmi falak otashi so‘zonimdin.

Jismi zorim o‘da yondirdi g‘ami pinhoni,
Ohkim ogoh emas ul g‘ami pinhonimdin.

Yashurub yer yuzini siymi sirishkim guhari,
Necha yildurki ketib siymbarim yonimdin.

No‘la Xoning kibi gar uzsam ilik jonimdin,
Gardishi charx ayirdi bani joninimdin.

MUXAMMAS

Parichehralar ko‘p jafo qildilar,
G‘am-u dard bilan mubtalo qildilar,
Muhabbat bila oshna qildilar,
Meni ro‘zgorim qaro qildilar,
Jafokorlardur, jafokorlar.

Alar ishqida xastayi zormen,
Qaro ko‘zlari birla bemormen,
Jafo tig‘idin bag‘ri afgormen,
Na zulm etsalar jonima, yormen,
Dilozorlardur, dilozorlar.

Shahi mulki Homun qilurlar meni,
Bu dasht ichra Majnun qilurlar meni,
Sirishkimni Jayxun qilurlar meni,
Ko‘zim yoshi gulgun qilurlar meni,
Sitamkorlardur, sitamkorlar.

Chu men qoshi yoylarni qurboniyam,
Giriftori zindoni hijroniyam,
Bu qotillari asr-u hayroniyam,
Alar kushtayi tig‘i parroniyam,
Bu xunxorlardur, bu xunxorlar.

Qadim xamligi qoshlari yosidin,
Xarob o‘lmag‘im chashmi shahlosidin,
Ko ‘zim qoni la’li tamoshosidin,
Jununim o‘shal zulf savdosidin,
Nigunsorlardir, nigunsorlar.

Ko‘zingdur menga fitna barpo qilan,
Boshim uzra yuz sho‘r-u g ‘avg‘o qilan,
Meni olam ahlig‘a rasvo qilan,
Ko ‘ngul maxzani ichra yag‘mo qilan,
Bu ayyorlardur, bu ayyorlar.

Chamanda xirom aylamish ul pari,
Qilib jilva andoqki kabki dari,
Yuz ustida gul bargidin chodari,
Boshi uzra solmish qizil me’jari,
Guli norlardur, guli norlar.

Ajoyibki bu bir necha dilrabo,
Demaslarki bu shoh erur, yo gado,
Agarchand xoni zamonam, bango,
Hama eldin ortiq qilurlar jafo,
Ajab yorlardur, ajab yorlar.

GULXANIY

(XVIII–XIX asr)

O'zbek mumtoz adabiyotining yirik namoyandalaridan biri Muhammad Sharif Gulxaniy XVIII asrning so'nggi choragi va XIX asrning birinchi yarmida Qo'qon adabiy muhitida faol ijod bilan mashg'ul bo'lgan. O'zbek badiiy nasri taraqqiyotiga jiddiy hissa qo'shgan. Adib taxminan 1770–80-yillar orasida dunyoga kelgan. Namangan madrasalarining birida tahsil olgan. Bir necha yil hammomda o't yoquvchi — go'laxlik vazifasida ishlagani uchun Gulxaniy taxallusini qabul qilgan.

Gulxaniyning o'zbekcha-forscha g'azallari g'oyaviy-badiiy jihatdan nihoyatda pishiq bo'lib, ularni muhabbat lirikasining yetuk namunalari deb bilish mumkin. Gulxaniy keyinchalik Jur'at taxallusini qabul qilib, shu taxallus bilan ham qalam tebratgani ma'lum. Milliy adabiyotimiz tarixidan mashhur "Zarbulmasal"ning muallifi sifatida o'rin olgan. "Zarbulmasal"da jiddiy ijtimoiy mazmun majoz yo'li bilan ifodalangan. Unda hayot muammolari, jamiyatdagi murakkab munosabatlar, urf-odatlar, xalq marosimlari haqida so'z boradi.

"Zarbulmasal"da asosiy mazmun bilan mantiqan bog'langan o'ndan ortiq nasriy va nazmiy masal, qissa va hikoyatlar mavjud. Bular orasida "Maymun bilan Najjor", "Tuya bilan Bo'taloq" va "Toshbaqa bilan Chayon" kabi masallar alohida sujetga ega bo'lgan mustaqil asarlar bor. Rang-barang tasviriy vositalardan, nasrdagi qofiya — saj'dan keng foydalanib yozilgan o'rinlar talaygina.

G'AZALLAR

Lola ko'ksidek bag'rim tah-batah qaro qonlar,
Hajr ibtidolisidin naylay, ey musulmonlar.

G‘amza o‘qidin har yon bosh chiqardilar chandon,
Jismi notavonimdin dasta-dasta paykonlar.

Bir dam ayla mardumlig‘ diydam ichra manzil qil,
Durru la’l sochsunlar maqdamingga mijgonlar.

Va’dalar qilib eding, shod etay sani g‘amdin,
Ushbu g‘amda jon berdim qoni ahd-u paymonlar.

Sen nechuk paridursan, topmadim so‘rog‘ingni,
Kezmisham quyun yanglig‘ vodiy-u biyobonlar.

Gulxaniyni qon tortdi azmi ko‘yi yor yetti,
Qatl etarga mijgonlar chekti tig‘i uryonlar.

* * *

Ko‘ngul ozodadur, dunyog‘a arzi ihtiyoj etmaz.
Tariqat soliki bu yo‘lda mayli izdivoj etmaz.

Dili vayronadin, jono tavaqqu’ qilma dog‘ingni,
Buzulgan mulkdin, albattakim, sulton xiroj etmaz.

Etoking tutqoli ko‘nglumda andog‘ tebramak go‘yo,
Tutub nabzimtabibi shahr, idroki mizoj etmaz.

Rahi ishqingda dard-u dog‘i hijroning matoyimdur,
Qaroqchi aylamas toroj oning kimsa boj etmaz.

Asiri qomating gar soyadek tuproqqa yastanmish,
Gadoyi dargahing ham orzuyi taxt-u toj etmaz.

Sen o‘z diningni tuz, zohid, meni ko‘p yo‘ldin ozg‘urma,
Bu surat sham yondurdung ziyosi pur rivoj etmaz.

Qam-u bemora la’lidin shifo bermish Masih oso,
Nadin ul sho‘x anglab, Gulxaniy, darding iloj etmaz.

* * *

Terlamish may tobidin gulbargi ruxsorin ko‘rung,
Rahzani din o‘ldi tori zulfi zinnorin ko‘rung.

Bel-u og‘zidin nishon gar bir sari mo‘desalar,
Aylaram inkor-u iqror etmazam vorin ko‘rung.

O‘z makonini tilar har gah qafasdin qochsa qush,
Eyki istarsiz ko‘ngulni zulfi har torin ko‘rung.

G‘amzasi jonim olur, novaklari bag‘im tilar,
Zolimi berahm ozor uzra ozorin ko‘ring.

Soqiyo, hajr ilgida xunoba yutdim, Gulxaniy,
G‘ayr ila bazm ichra oni jomi sarshorin ko‘rung.

* * *

Yetmadi Majnung‘a men ko‘rgan balolardan biri,
Hajr vodiysi aro chekkan jafolardin biri.

Rahm etib, holimni so‘rmaslar ko‘rung bedodlig‘,
Siyimbarlardin biri, gulgun qabolardin biri.

Dosha izhor ayladi Farhod Shirin dardini,
Ishq oyinida uldur behayolardin biri.

Qosh-u ko‘z-u, xol-u zulfi birla ulfat tutma cho‘x,
Qilmasin rasvo seni yuzi qarolardin biri.

Senga, ey Majnun, junun ilmida taslim aylaram,
Sen rasolardin biri, men norasolardin biri.

Gulxaniy, tinmay duo qilg‘il shahi voloni sen,
Negakim ul podshohdur, sen gadolardin biri.

AHMAD TABIBIY

(1868–1911)

Shoirning ismi — Ahmadjon, otasining ismi Ali Mahram, taxallusi Tabibiydir. Ahmadjon Tabibiy shoir va tazkiranavis, tabib, xattot va musannif.

Zullisonayn shoir sifatida "Devon" tartib bergan. Fuzuliyning "Haft jom" asarini, Zohir Kirmoniyning "Vomiq va Azro" dostonini, Vahshiy Bofaqiyning "Nozir-u Manzur" masnaviysini fors tilidan o'zbek tiliga tarjima qilgan.

MUXAMMASLAR

Qaysi dilafgorning sho'xi sitamkorisan,
Qaysi tani bemorning la'li shakar borisan,
Qaysi ko'zi xunborning qotili xunxorisan,
Qaysi sitamdiydaning dilbari g'amxorisan,
So'yla manga ey sanam, kimni sevar yorisan.

Keldi uzoring biri oy-u, biri gul misol,
Ikki qoshing ham alar ustida bordur hilol.
Kimsa degaymu munga o'zgacha bir ehtimol,
Sandin agar aylasam chun man bedil savol,
So'yla manga ey sanam, kimni sevar yorisan.

Ey yuzi husni jamol avji uza oftob,
Ishq aro ko'nglim uyin ayladi zulming xarob,
Lutf ayla tark aylabon lahza-ye qahr-u itob,
Ushbu savolimg'a ham emdi berib tur javob,
So'yla manga ey sanam, kimni sevar yorisan.

Xatmu erur kim labing uzra erur oshkor,
Bo'ldimu otash aro yoki ayon sabzazor,

Obihayot uzra tutdimu rayhon qaror,
Subh uzoringg'a yo keldi yovuq shomi tor,
So'yla manga ey sanam, kimni sevar yorisan.

Nargis ikki chashmingga volavu hayron erur,
Ko'rgali gul orazing choki garibon erur,
Zulfingga sunbul boqib zor-u parishon erur,
Qadingga aylab nazar sarv ham uryon erur,
So'yla manga ey sanam, kimni sevar yorisan.

G'amza bila aylabon dahr aro sayyodlig',
Bo'ldi qo'lingdin hama ishq ila faryodlig',
Ko'ngluma tegurmading vasling ila shodlig',
Bo'yla ham ekan(mu) zoİim-u bedodlig',
So'yla manga ey sanam, kimni sevar yorisan.

Ayladi mushkin qoshing hayrati qaddimni yo,
Nashtari kipriklaring jonima tiri balo,
Dahrni fikri soching qildi ko'zimga qaro,
Necha Tabibiy kibi joni fidodur sango,
So'yla manga ey sanam, kimni sevar yorisan.

Navoiy g'azaliga muxammaslar

1

Shahi anjum hukumat tig'ini chun subhidam chekdi,
Shafaqdin arsayi olam aro gulgun hasham chekdi,
Ziyovu nur xaylini arabdin to ajam chekdi,
Sahar xovar shahikim charx uza xayli hasham chekdi,
Shuoyi xatt bila ko'hsor uza oltun alam chekdi.

Kavokib shohi soldi subh aro anvor itolgusin,
Falak maydonida sayd aylamakka shom ohusin,
Kuduratdin musaffo qilg'ay ruxsor ko'zgusin,
Qazo farroshi chekdi subhning siymin supurgusin
Muzahhab parlarin, andoqki tovus, haram chekdi.

Qilurg‘a dahr nazhatgohini zeb ila ta’mirin,
Namudor etdi abnoyi qazo asnofi tadbirin,
Eshit, qilg‘umdurur hushing quloqi birla taqririn,
Kitoba sun’ kilki surayi “Vash-shams” tafsirin,
Falak toqi havoshisig‘a zarhaldin raqam chekdi.

Runud ahli rajo ovozasin olamg‘a yetkurdi,
Munojot ahli ham nassi biym isbotida kelturdi,
G‘araz dahi ichra har kim nukta aro maqsudin surdi,
Muazzin Ka’ba toqi uzra gulbongi samad urdi,
Barahman dayr ayvonida ohangi sanam chekdi.

Gahi ishq ahli o‘zni vosili bazmi visol etdi,
Gahi ma’shuqlar javr-u jafosin e’tidol etdi,
Ulum ahli gahi mabhas aro jang-u jadol etdi,
Ma’oniy ahli gohi nukta uzra qiylu qol etdi,
Mug‘anniy xayli gohi nag‘ma uzra zer-u bam chekdi.

Vafo-yu mehr ila har kimki bo‘lsa ishq aro sodiq,
Bilur ul Vomiq-u, Farhod-u, Majnundin o‘zin foyiq,
Taassuf aylabon oning bu yanglig‘ holig‘a loyiq,
Yaqo chok etdi gohi ul motamg‘akim oshiq
Bu muhlik shomi hijron ichra yuz xunobi g‘am chekdi.

Falakkim doim el qatlig‘a tez aylar duduam tig‘in,
Onga maqsad xaloyiq qasdig‘a chekmak alam ta’yin,
Chekarda teng gado-yu shoh, xohi muhtasham
Zamona kuldiul g‘ofilgakim davron sitam tig‘in,
Onga ravoqi Moniy anglab o‘zgaga tig‘i sitam chekdi.

Jahon bog‘ida fursat iqtizosiz umrni anglab,
Nigoring birla tuz suhbat binosiz umrni anglab,
Zamiring shod-u masrur et, baqosiz umrni anglab,
Xusho ulkim muningdek chog‘ vafosiz umrni anglab,
Sabuhi jom ahbob birla dam-badam chekdi.

Kishikim dilbari husni bila olamda toq o‘lsa,
Sumanbarlar ruxi shirin, labi siymin saqoq o‘lsa,
Ne tongki ishq yo‘lida onga boshdin ayoq o‘lsa,
Agar ko‘nglida bir gul hajridin xori firoq o‘lsa,
Bahona yig‘lamoqg‘a bir necha jomi alam chekdi.

Necha yil ishq aro doim yutubon xunobayi furqat,
Ko‘zi giryon, o‘zi nolon-u, ko‘ngli ichra yuz hirqat,
Yetib ul chog‘da nogah charx davridin ango navbat,
Agar xud vasl iqboli muyassar bo‘lsa bir soat,
Faridun taxti uzra bazm tuzdi, jomi Jam chekdi.

Xusho ulkim bo‘lub hijron g‘amidin forig‘-u vorast,
Bo‘lub zavq ila dildori visoli bazmig‘a payvast,
Nishotu inbisot ila mayi lutfig‘a topg‘ach dast,
Bo‘lub matlubi ruxsorig‘a mahv jomdin sarmast,
Yuzin tufroqig‘a qo‘ydi boshini, oldig‘a ham chekdi.

Niqobini ko‘targach ul pariruxsor yuzdinkim,
Tarashshuh ayladi yoqutson xunoba ko‘zdinkim,
Bo‘lub xomush qolib g‘arqayi hayratda so‘zdinkim,
Na davlatdurki bu holatda ondog‘ bordi o‘zdinkim,
Baqo iqlimidin raxtini to mulki adam chekdi.

Tabibiy har kishikim bastayi domi firib o‘lg‘ay,
Qachon ul shohidi maqsad vaslig‘a qarib o‘lg‘ay,
Fig‘oni Olloh bo‘lub har kecha ishq ichra adib o‘lg‘ay,
Navoiy shoyad ul rahravg‘a bu maqsad nasib o‘lg‘ay,
Kim ul dashti fano qat’ etkali yillar qadam chekdi.

2

O‘qing yuragimda jo bo‘lubdur,
Ul vajhdin ul yaro bo‘lubdur,
Chekmak mango ish jafo bo‘lubdur,
Ko‘zing ne balo qaro bo‘lubdur,
Kim jong‘a qaro balo bo‘lubdur.

Darding mani to qoshimg‘a keldi,
Jondek badanim aro qotildi,
Bal jonima jo bo‘lub yoyildi,
Majmu’ davoni dard qildi,
Darding mango davo bo‘lubdur.

Ey orazi misli mohitobon,
Va ey la’li sharobi obi hayvon,
Xoling ki yuzingdadur namoyon,
Ishq ichra oning fidosi yuz jon,
Har jonki sango fido bo‘lubdur.

Ey kirpiki o‘q, qoshi kamonim,
Va-y vasli hayoti jovidonim,
Desam sango gar sirri nihonim,
To qildi yuzing havosi jonim,
Yuz sori onga havo bo‘lubdur.

Yo‘qdur xabari bu mubtalodin,
Kim o‘lgali nimi shom anodin,
Bir nukta desam bu mojarodin,
Begona bo‘lubdur oshnodin,
Begonaga oshno bo‘lubdur.

Ogahiy g‘azaliga muxammas

Bo‘ldi ko‘zimga jilvagar bazm ichra to qosh-u ko‘zing,
Qildi mani oshuftavu zor-u gado qosh-u ko‘zing,
Mundoqki ko‘rganga erur haytarfizo qosh-u ko‘zing,
Vah ne balodur bilmadim, ey dilrabo qosh-u ko‘zing,
Kim bir nazarda soldi o‘t jonim aro qosh-u ko‘zing.

Bo‘lmoq tilab doim hama oshiqlar ichra kokiling,
Qildim talab olam aro firdavsoso mahfiling,
Vah naylayinkim suhbating qurbida bo‘lg‘och vosiling,

Oldi qaror-u toqatim oq siyna-yu, nozik beling,
Soldi qaro kun boshima ikki qaro qosh-u ko‘zing.

Fosh aylasang lutf-u ado birla farax oyin yuzing,
Beshak eshitsa jon topar har xasta miskin so‘zing,
Vasf aylasam tahqiq ila, ey yor xush tamkin so‘zing,
Ham yuz o‘lukni tirguzur la’ling aro shirin so‘zing,
Ham ming tirikni o‘ltirur aylab jafo qosh-u ko‘zing.

Hijroning ichra ro‘z-u shab chekdim base ranj-u ta’ab,
Vaslingni qildim sidq ila Tangri taolodin talab,
Nogah bugun ko‘rgach seni, ey dilrabo oliy nasab,
Qosh-u ko‘zing bedodidin dod aylasam ermas ajab,
Kim ne jafolar qilmadi oxir manga qosh-u ko‘zing.

Ne chora aylay sokini mayxona bo‘lmay, ey pari,
Majnun kibi har ko‘y aro fasona bo‘lmay, ey pari,
Qayg‘u hujum etsa ne deb mastona bo‘lmay, ey pari,
Man zor-u hayroning nechuk devona bo‘lmay, ey pari,
Kim aql-u hushim ayladi mandin judo qosh-u ko‘zing.

Keldik yuzing, ey dilrabo ko‘rgach bo‘lib hayronikim,
Bulbul kabi subh-u maso erdim oning nolonikim,
Emdi desam holim sanga, ey xo‘blar sultonikim,
Ishqing aro yurmak manga yo‘qtur tirik imkonikim,
Jonimni yo qaddi yuzing olg‘usi, yo qosh-u ko‘zing.

Ko‘rgach uzoring qolmayin dahr ahlida sabr-u qaror,
Ul zorlarga bas emas erdimu bu kim, ey nigor,
Zulfing kamandig‘a tushub band o‘ldi jonlar beshumor,
Qosh-u ko‘zing iymosidin bo‘ldi qiyomat oshkor,
Go‘yoki olam ofati qilmish Xudo qosh-u ko‘zing.

Qosh-u ko‘zingdur mushafi mehr-u jamoling fehrasi,
Man ham erurman ajz ila ko‘ying gadoyi bekasi,
Chekdim oning hijronida dard-u su’ubatlar base,

Aylay hayotim naqdini hamdam nisor-u sadqasi,
Yoshurmog‘il man zordin aylab hayo qosh-u ko‘zing.

Shahdi labingkim, bordurur lutf-u halovat ma’dani,
Emdi tarahhum ko‘rguzub, ey sho‘xlarning po‘rfani,
Shavqida tinmaydurur Tabiboso fig‘on-u shevani,
Shirin labingdin Ogahiy jismig‘a jon berkim, oni
O‘lturdi bir iymo qilib boqg‘och qiyo qosh-u ko‘zing.

MAXMUR

(XIX asr)

Maxmur XIX asrning I yarmida Qo'qon adabiy muhitining vakillaridan biridir. Shoir o'zbek adabiyoti tarixida satiraning rivojlanishiga hissa qo'shdi.

Maxmur o'zining "Hapalak" she'rida xonlar va beklar zulmi ostida ezilgan mehnatkash dehqonlarning naqadar og'ir va mashaqqatli hayot kechirganlarini real ifodalar bilan tasvirladi.

Shuningdek, bir necha hajviy she'rlarda poraxo'r qozilar, tirriq va g'irrom boylar, ochko'z amaldorlarning iflos basharalarini rahmsizlik bilan ochib tashlab, ularning sharmandasini chiqardi.

Uning xalq o 'rtasida "Olim zolim" deb nom chiqargan Qo'qon xoni amir Olimxonning (vafoti 1811) o'limiga yozgan ta'rix — she'ri ayniqsa diqqatga sazovordir. Bu she'rida shoir Olimxonning o'limiga "Zolim mardud" ("Rad etilgan zolim") ta'rix tushiradi. Vafoti taxminan 1845-yillar atrofiga to'g'ri keladi.

Maxmurning lirik she'rlari bizga to'la holatda ma'lum emas. Uning o'zbek va tojik tillarida yozilgan ayrim g'azallari va Hofizning "Agar on turki Sheroziy badasti orad dili moro" deb boshlanadigan g'azaliga bog'lagan muxammasi davrdan nolish, og'ir qismatidan shikoyat motivlaridan iboratdir.

Maxmur she'rlari 1951- va 1954-yillarda O'zbekiston Fanlar akademiyasi tomonidan nashr etilgan. Bu xrestomatiyaga kiritilgan she'rlar 1954-yilda nashr etilgan "Maxmur" kitobidan olingan.

MUNOJOT VA DARGOHI QOZIYUL-HOJOT

(Hojatlarni chiqaruvchi qozi dargohiga munojot)

Amr-u nahying rohi botil uzra emish yodimiz,
Kecha-yu kunduz sifotingdur bizi avrodimiz,
Sendin, ey xalloq yo ‘qdur nola-u faryodimiz,
Lek charxi kajravishni dastidindur dodimiz,
Senki lutf aylab aning dasturi davron aylading.

Xor qilding oqibat har kimki ardi arjumand,
Past etding soyadek, naxleki bo‘ldi sarbaland,
Barcha fe’ling nosutuda, jumla vasfing nopisand,
Yusufi Misrini aylab chohi zindon ichra band,
Piri kan’on manzilini bayt-ul ahzon aylading.

Qaysi bir zulming etay te’dod, ey garduni dun,
Kim sening bedod-u javring hadd-u g‘oyatdin burun,
Behunar johilga berding beadad dunyoyi dun,
Jam’i donolarni qilding holini zer-u zabun,
Zog‘ni a’lo qilib, to‘tini nodon aylading.

Siynalar ma’murasini seldek qilding xarob,
Ahli dil bag‘rini hasrat o‘tida etding kabob.
Fe’l-u atvoring mukaddar, guft-u go‘ying nosavob,
Lutfing ermas beg‘araz, in’oming ermas behisob,
Tifldek bo‘ldung pushaymon kimga ehson aylading.

To qalam chekti qazo lavhi vujudi kun fakon,
Kelmadi bir rostliq naqlingda, ey kaj doston,
Muttahamdursan yomonlig‘da na hojat imtihon,
Nahli idboring uza murg‘eki qo‘ydi oshyon,
Tuhmi anjum gardishidin sangboron aylading.

DAR SIFATI QISHLOQI HAPALAK KI BA MAXDUM MAXMUR TAALLUQ YOFTA

(Maxmur maxdum aloqador bo'lgan Hapalak qishlog'ining sifatida)

Ey jahondori zafar, kavkabayi davri falak,
Go'sh qil qissayi qishloqi xarobi Hapalak.

Turfa qishloqi g'azab karda ki parrandalari,
Tovuqi ignachi-yu, o'rdag-u g'ozi kapalak.

Vor-u yo'q uylarini banda bayon gar qilsam,
Bir katak, ikki kappa, uch olachuq, to'rt katalak.

Dema uy, balki zaminkandur agar kirsa kishi,
Har taraf betiga urgaylar aning ko'rshapalak.

Xalqini ko'rsang agar o'lasi-yu, qoq-u xarob,
Ochlikdin yetilib qomati misli kamalak.

Ajirig' tomirini o'g'urida mayda tuyub,
Qaynatib kunda ichar, otini derlar sumalak.

Gar tahorat qisa qavmi suv topolmay nochor,
Betini qum bila yub (ko'z) ga surgay guvalak.

Ey falak, qadr-u adolat shiyami mulk-u malak,
Marhamat chog'ida rahm ayla ba holi Hapalak.

Kecha go'yo eshitib shuhrati tillo pulini,
Hapalak qo'rqusidan uchdi misoli kapalak.

Himmating yo'lida bir tepa karomat qilg'il,
Kapalak boz qo'nub joyiga bo'lgay Xapalak.

G ‘AZALI QOZI MUHAMMAD RAJAB AVJ DAR BORAYI XUD

(Qozi Muhammad Rajab Avjning o‘zi to‘g‘risidagi g‘azali)

Kelgil, ey ahbob, avval tarsi raftorimni ko‘r,
Ba’d davri gumbazi dastor davvorimni ko‘r.

Kimki dastorimni ko‘rsa o‘rni(din) qo‘rqub (turar),
Betahorat aylagan olamni murdorimni ko‘r.

Gohkim boshimga sallam o‘lmasa, ul dam qarab,
Rasm-u rohi, to‘hmat-u shaltoq kirdorimni ko‘r.

Qozilikda jam qilgan pulni savdo aylasam,
Asfalosofil degan davrida bozorimni ko‘r.

To adamdin azmi dunyo ayladim yuz voy kim,
Qo‘ymadim olamda bir kun nafsi qahhorimni ko‘r.

Boshlanur boshi sabohi uyqudin to nim shom
Olti eshik, yetti teshik, non-u nondorimni ko‘r.

Bir magarmajmanki yuz ming ajdaho gar uchrasa,
Aylaram bir luqma devi juyi ashrorimni ko‘r.

Garchi men qildim taxallus Avj yolg‘ondur hama,
Xalqning ostida qolgan baxti jabborimni ko‘r.

ANSOFI HOJI NIYOZ

(Hoji Niyoz sifatlari)

Uchinchi erur hojiyi (bad burgut),
Bo'lur yetti boshliq yuho, ikki put.

Tutar o'zini hojiyi Makka ham,
Boribman degay Makkaga yakka ham.

Nishonida yo'q zarrayi fayzi haj,
Ani hoji desang erur bul xaraj.

Gumonimga haj qilmagan bo'lsa ul,
Tariqi haram bilmagan bo'lsa ul.

Qigan bo'lsa maqbuli haq bo'lmagan,
Duosi ijobat qarin bo'lmagan.

Magar yo'lda ul jinniyi ro'siyoh,
Sotib hajni xarj aylagan ul baroh.

Zi bas loda, ma'juniyi badkayfdur,
Anga yaxshi madh-u sano hayfdir.

Olib necha pulni payi nafsi rev,
Zihi makr-u nayrang-u afsuni dev.

Ko'rung mevayi rizq isbotini,
Biling domi tazviri avqotini.

Gahi hojjyi favji farzonalar,
Gahi jinniyi jami devonalar.

Gahi mirshab, gah sipohi bulur,
Gahi osilar ro'siyohi budur.

Gahi doxili sadri ahli suluk,
Gahi qobili bazmi toj-ul-muluk.

Gahi amri ayyor-u, gah dog‘uli,
Gahi navbahori, gahi omuli.

Gahi sohibi ganji asror ham,
Gahi tolibi she’r-u ash’or ham.

Yig‘ib necha kun xotiri ka’bidin,
Tug‘ub bu g‘azal mochayi tab’idin.

DAR SIFATI HAKIM TUROBIYI HAZOR XALTA BUDIR

Bihamdillah tabibi shahr-u Buqroti xaloyiqman,
Ajaldin ham bani odamni o‘ldurmoqqa foyiqman.

Tabibi shahr nomi oyda bir bemor o‘ldursa,
Vale men kunda yuz bemor o‘ldurmoqqa hoziqman.

Meni badbaxt to zarb-ul-masal bo‘ldum tabiblikda,
Jahon voricha aknun ko‘p haqoratlarga loyiqman.

Hakimi shahr deb, oldimga har kim keldi o‘ldurdim
Tariqi rostim shuldurki, jallodi xaloyiqman.

Erur ko‘p nohaq (ishlar) gardanimga tavqi la’nat kim,
Jahannam sadriga bu jurm ilan sardori sobiqman.

Adamdin to kelibman davri olamda xisolim shul,
Musulmonlarga hosidman, munofiqqa muvofiqman.

MUNIS XORAZMIY

(1778–1829)

Shermuhammad Avazbiy o'g'li Munis Xiva yaqinidagi Qiyot qishlog'ida Mirob oilasida dunyoga keldi. Munis uning adabiy taxallusi bo'lib, lug'aviy ma'nosi "ulfat", "hamdam", "do'st" demakdir. U dastlabki ma'lumotni tug'ilgan qishlog'ida olgan, keyinchalik Xiva madrasalarida o'qishni davom ettirgan. Munis madrasa ta'limidan so'ng Sharq mumtoz adabiyotini izchil o'rganishga kirishdi.

1800-yilda otasi vafot etgach, Avaz Muhammad Inoq Munisni saroyning farmonnavis kotibi qilib tayinlagan. Munis zamonasining mashhur olim, shoir va san'atkorlari bilan yaqin aloqada bo'lib, bilimi, salohiyati va kuch-quvvatini she'riyatga, ilm-fan va ma'rifatga bag'ishlagan.

G'AZALLAR

Base g'am boridin chekmish og'irni,
Yog'ir bo'lmish hazin ko'nglim yog'irni.

Falak g'am yuklarin solg'onda elga,
Yog'irnimg'a mening qo'ymish og'irni.

Bilursan g'am yukin ko'p chekkanimni
Yog'irnim ustida ko'rsang yog'irni.

Iting ko'rsam, manga uns aylasun deb,
Berurman gah ko'ngulni, gah bog'irni.

Raqib ollingda bo'lmoqdin hazinman,
Tilarman ko'rmasam ul bo'lmog'irni.

Zamon ahlig‘a bo‘lmish shikva oyin,
Netong, sevsam agar gung-u sog‘irni.

Najote istasang Munisg‘a g‘amdin,
Ayoqchi, tut anga har dam chog‘irni.

* * *

Vahki, ul zolim meni mazlumga qotil hanuz,
Ya’ni ag‘yorimg‘a yuz ming mehr ila moyil hanuz.

Yoshurun sirrimni demay, xalq anglab, voykim,
Aytib anglatmoq bila holimni ul g‘ofil hanuz.

Vah, nechuk bahr erdi hijronkim, minib g‘am zavraqin,
Har necha qat’ aylaram, mavjud emas sohil hanuz.

Ko‘z-u ko‘nglumdin balog‘a qoldim, ore, kimsaga
Sud yetkurgan emas ahbobi noqobil hanuz.

Nafyi ilmi ishq etib, qilmoq nedur isboti vavq,
Kelmamish, zohid, jahong‘a sen kibi johil hanuz.

Muniso, hushing bor ersa, dahri dun tarkini tut -
Kim, oning bo‘lg‘on emastur moyili oqil hanuz.

* * *

Ko‘ngluma bir gul g‘amidin sonchilibdur xorlar,
Ohkim, har xoridin jonimdadur ozorlar.

Aylamish ko‘nglumni majnun jilvayi laylivashi
Kim, asiri g‘amzasidurlar pariruxsorlar.

Turfa ayyoreki, din naqdin olurda turrasi,
O‘rganurlar andin o‘g‘riliq ishin tarrorlar.

Gardishi chashmidadur kayfiyati davri qadah,
Men bilibdurmanki, bilmaslar ani hushyorlar.

Muniso, ag‘yor gar hamsuhbat o‘lsa yor ila,
Bo‘lma mahzun, hamdami gul bo‘lg‘usidur xorlar.

* * *

Istading, ey dil, ko‘zin, joning kerakmasmu sanga?
Kufri zulfin sevding, imoning kerakmasmu sanga?

Dard-u g‘am seli bila buzding ko‘ngil koshonasin,
Ey malohat ganji, vayroning kerakmasmu sanga?

Jam etib, o‘tlug‘ ko‘ngullarni muqayyad aylading,
Halqayi zulfi parishoning kerakmasmu sanga?

Tiyri g‘amzang muddaiy ko‘ngliga zoye qilmakim,
Ul xadafdur xora, paykoning kerakmasmu sanga?

Sarsari ohimni, ey gardun, qilursan tundu tez,
Mash’ali xurshedi raxshoning kerakmasmu sanga?

Ey gul, aylarsan jafo xorin urub, Munisga javr,
Andalibi dilkash ilhoming kerakmasmu sanga?

* * *

Tabassumda ko‘rub rangin labingni nogahon g‘uncha,
Qilib diltanglik zohir, ichidin bo‘ldi qon g‘uncha.

Sabo tahrikidin, yo‘q, balki og‘zing sharmidin boshin
Quyi solmoqqa moyil bo‘lg‘usidur har zamon g‘uncha.

Ochiq chehrangni to ko‘rdi dema, ey, gul ochilmishdur,
Xijolat g‘oyatidin aylamish kulgu ayon g‘uncha.

Ko‘ngul tor og‘zinga bir xandada oldurdim, ey gulro x,
Kishi ko‘rganmu erkan bu sifat bir dilsiton g‘uncha?

Omonlik istasang bu bog‘ aro, xomush bo‘l doim
Ki, ofatdin omondur sirrin aytar to nihon g‘uncha.

Sening og‘zing xayolidin qilur ko‘nglum qushi nola,
Erur bois chu bulbul qilsa faryod-u fig‘on g‘uncha.

Ko‘ngul jam’iyati topsa xalal ermas, taajjubkim,
Emas bu bog‘ aro oshufta bo‘lmoqdin omon g‘uncha.

Nedur bu razmgoh ichra boshingga istamaklik xud
Ki, el xayli o‘qig‘a bordur avvalroq nishon g‘uncha.

Shitobon bo‘lma, rif’at qullasig‘a to kun ermassen,
Kamin aylab yotibdur yo‘lda sheri osmon, g‘uncha.

Fig‘onkim, barcha bu gulshan vidoidin emas emin -
Ki, gah gul uzmak etmish da’b, gohi, bog‘bon g‘uncha.

Aning ruhsor-u la’li o‘yla rangindurki, ey Munis,
Agar ko‘rsa, bo‘lur afsurda gul ham notavon g‘uncha.

* * *

Qilurlar bir-birining suhbatin garchi havas ahbob,
Emaslar lek davron gardishidin dastras ahbob.

Falak mundog‘ki dushmankomlig‘ zohir qilur har dam,
Emaslar hech forig‘ g‘am chekardin bir nafas ahbob.

Muhabbat rasmidin ogoh etib, minnat tutub bergil,
Agar jon naqdini sendin qilurlar multamas ahbob.

Zamona ahlining manzuridur chun moli jam’iyat,
Qachon topg‘ay meningdek bir g‘arib be hechkas ahbob.

Erurmen o‘yla bekaskim, borurg‘a bog‘lasam mahmil,
Topilmas aylamakka nola andoqkim jaras, ahbob.

Tutay kimdin umidi marhamatkim, yoqg‘ali jonim –
Urarlar otash a’dovu solurlar xor-u xas ahbob.

Desang, a’do shikasti davlatimg‘a topmasunlar dast,
Yig‘ atrofingg‘a, ey shoh, adl birla pesh-u pas ahbob.

Shakar yanglig‘ jahon ahlig‘a shirinkomliq yetkur,
Hujum etsun desang ustingda andoqkim magas ahbob.

Erur bir gul havosi bilra Munis ko‘ngli bolafshon,
Nechuk saqlarlar aylab oni maḥbusi qafas ahbob.

* * *

Bo‘lmasa jinsi jamolingga xaridor oftob,
Ne uchun zarposhlig‘lar aylar izhor oftob?

Senki shohi husnsen, har kun qilib qulluq sanga,
Sajda aylarga qo‘yar tufroqqa ruxsor oftob.

Chiq jamolingni ochib, to elga husnin sotg‘ali,
Qilmasun olam aro ko‘p arzi diydor oftob.

Xokbo‘sing husn eliga mujibi izzatdurur,
Charx uza chiqmas yo‘lingda bo‘lmayin xor oftob...

Shami vaslingdin agar yetsa furug‘e basdurur,
Andin o‘zga shomi hajrimg‘a ne darkor oftob.

Davri ruxsoringda mushkin zulf emastur go‘yo,
Qildi fosh oyinasi girdida zangor oftob.

Ne uchun shom-u sahar boshing uza aylanmasun,
Ko‘rmamish husning kibi bu charxi davvor oftob.

Rutbayi oliy tilarsen, sof qil ko‘nglingnikim,
Irtifo‘ aylarg‘a mundindur sazovor oftob.

Yurutur yaxshi amal qabringni, yo‘qsa, sud emas,
Tojing uzra bo‘lsa gar har durri shahvor oftob.

Bo‘l tafarrudpesha, Muniskim, Masihog‘a maqom
Bo‘ldi bu ishdin sipehr avjida to bor oftob.

* * *

Kulbam sari jononim kelmasmu ekin oyo,
Hajrida yomon holim, bilmasmu ekin oyo?

So‘rmoqqa borur yorim oshiqlari ahvolin,
Deb ul meni ham oshiq, kelmasmu ekin oyo?

Hajrida qolib yillar, olmas xabare mandin,
Ollida kishi yodim qilmasmu ekin oyo?

So‘rg‘ay edi holimni, oshiqlaridin bilsa,
Gar bilsa, dog‘i ko‘zga ilmasmu ekin oyo?

Xanjar chekib el bag‘rin tilmakdin etar ehson,
Bag‘rimni mening yorab, tilmasmu ekin oyo?

Baskim to‘ladur yoshdin, ko‘zni ocha olmasman,
Bir lutf iligi oni silmasmu ekin oyo?

Gulzori visolig‘a Munis yeta olmas hech,
Aylab talabin yeldek yelmasmu ekin oyo.

* * *

Uzoringda nure ayondur, ayon
Ki, andin kun-u oy nishondur, nishon.

Balo o‘qlarin otg‘ali jonima,
Iki egma qoshing kamondur, kamon.

Raqibingdin o‘lmas ayon yaxshilik,
Ki qavli-yu fe’li yomondur, yomon.

Hayotimg‘a zikri labingdur sabab,
Yo‘q ersa, tiriklik gumondur, gumon.

Manga sud erur sudi ishqing g‘ami,
Aning harna g‘ayri ziyondur, ziyon.

Erursan gahi ko‘z, gahi jon aro,
Senga bu iki yer makondur, makon.

Nechuk el erur ohi sardim mening,
Jahon bog‘i andin xazondur, xazon.

Jigar birla ko‘nglum qilib qon g‘aming,
Iki ko‘z yo‘lidin ravondur, ravon.

Ulus kelsa mendin fig‘onga, netong,
Ishim kecha-kunduz fig‘ondur, fig‘on.

Netong chiqmasa Munis ul ko‘ydin,
Ki, ul anda g‘amdin omondur, omon.

* * *

Ashk xun, ruxsor zard-u dil hazing, tole qaro,
Dard gunogun, falak dun, ahli davron bevafo.

Jon ga’min, xotir mushavvash, aql majqudul — asar,
Hajr qotil, yor g‘ofil, ishq g‘olib borho.

Zaxm muhlik, tiri g‘am parron erur, romi falak,
Za’f mustavli, badan majruh erur, marham fano.

Do‘st beparvo, ko‘ngul oshuftavu dushman qaviy,
Muddaiy ko‘p, ta’na bisyor-u jafokor oshno.

Ham havo bordur samumi oh-u, ham har so‘z ashk,
Mazra’ ofat, shohi naxli umr benash’u namo.

Yor hamsuhbatligidin toki ayrildim, erur
Hamdamim ranj-u ano, hamroz g‘am, mahram balo.

Kishvari mehnat shahimenkim, manga bordur mudom,
Boshg‘a sochqan xok toj-u taxt — eski bo‘ryo.

Maskanim xoki mazallat, bistarim xori taab,
To‘mam anduhi nadomat, ishratim tutmoq azo.

Majlisim qayg‘u, mayim xuni jigar, jomim firoq,
Lekin, ey Munis, bu hangom ichradur soqiy qazo.

* * *

G‘unchalar ochildi-yu, ko‘nglum ochilmaydur hanuz,
Bulbuloso xotirim gul mayli qilmaydur hanuz.

Za’f aro ushshoqg‘a ibrat bo‘lubman, ohkim,
Ko‘zga ahvoli nizorim yor ilmaydur hanuz.

Va’dayi vasl aylab erdi, ayladi ta’xir ko‘p,
Yo ibo qildi-yu, yo yodig‘a kelmaydur hanuz.

Pesha aylab charx zoli tinmayin tun-kun dame
Dilbarimcha javr oyinini bilmaydur hanuz.

Yerni ashkim g‘arq etib, zo‘r etti ohim sarsari,
Nedin erkandur falak toqi yiqilmaydur hanuz?

Yuz nadomat birla emdi o‘zni o‘ltursam, netong,
Sajda qilmoqliqg‘a boshim bir egilmaydur hanuz.

Ixtiyor etsa agar Munis yana sargashtalik,
Pand qilmangkim, jununidin oyilmaydur hanuz.

* * *

Vahki, mendin ishq aro ozurdajonroq yo‘q kishi,
Husn aro sendek dog‘i nomehribonroq yo‘q kishi.

Kimga za’fim shiddatin zohir qilurmen munglashib,
Chu o‘zumdek g‘am chekardin notavonroq yo‘q kishi.

Seli ashk-u g‘am yiqibdur jism ila ko‘nglum uyin,
Men kibi ushshoq aro bexonumonroq yo‘q kishi.

Jonlar isoring qilib ko‘rdum jâfo, vahkim, sanga,
Necha qilsam yaxshilik, mendin yomonroq yo‘q kishi.

Uzv-uzvimdin fig‘onlar bosh chekibtur til kibi,
Ishq asrorig‘a mendin tarjimonroq yo‘q kishi.

Ishq o‘ti Munis vujudin kuydurubdur o‘ylakim,
Emdi andin o‘zga benom-u nishonroq yo‘q kishi.

* * *

Kimnikim do‘st dedum, dushmani jon topdim oni,
Neki andin tiladim sud, ziyon topdim oni.

Yor mehrin tilab, ag‘yor jafosin ko‘rdum,
Mayki gulgun talab ettim, qaro qon topdim oni.

G‘unchayi xotirim ochmoqg‘a nasime tiladim,
Goh o‘tlig‘ yel-u, goh bodi xazon topdim oni.

Nekxohim deganim barcha bor erkan badxoh,
Onikim anglar edim yaxshi, yomon topdim oni.

Ishq anduhi nihon qolmoqi imkon ermas,
Menki yoshurmoq ishim erdi, ayon topdim oni...

Vaqtdur, dilbarig'a topsa nishone Munis
Kim, g'ami ishq aro benom-u nishon topdim oni.

* * *

Bordim sari ko'yingg'avu xirmon bila yondim,
Vaslingni tilab, mehnati hijron bila yondim.

Bordim labi xandon bila tavfi haramingg'a,
G'amgin ko'ngul-u, diydayi giryon bila yondim.

Og'zingni tilab, zulfingga jon bo'ldi giriftor,
Diljam' borib, holi parishon bila yondim.

Mendan asare istamangiz juz bir ovuch kul
Kim, ishq kibi otashi so'zon bila yondim.

Munis kibi vasling tilab, topmadim oxir,
Maqsudima bir yetmadim, armon bila yondim.

DILSHODI BARNO

(1800–1905/06)

Ma'rifatparvar shoira Dilshodi Barno O'ratepada tug'ilgan. Maktabdorlik qilgan — xotin-qizlarga xat-savod o'rgatgan. Anbar Otin Dilshodi Barnoning iqtidorli talabalaridan bo'lgan. Dilshodi Barno g'azal, muxammas, musaddas, chiston bilan birga xotiranomalar ham yaratgan.

Uning 91 ta o'zbekcha va 51 ta forscha she'ri, "Tarixi muhojiron" ("Muhojirlar tarixi") badiiy-tarixiy asari bizgacha yetib kelgan. Turkistonni chor Rossiyasi bosib olishiga bo'lgan munosabatda shoira zamondoshlaridan ilgarilab, bu hodisaning barcha oqibatlarini to'g'ri tushungan. Dilshodi Barno lirikasida muhabbat va sadoqat mavzusi, Vatan va inson ozodligi masalasi uyg'unlashib ketgan.

Dilshodi Barnoning "Tarixi muhojiron" asarida XIX asr Qo'qon xonligidagi tarixiy, ijtimoiy-siyosiy voqealar aks etgan. Ayollarni ma'rifatli, erkin, jamiyatning teng huquqli a'zolari bo'lishga chorlagan. Shuningdek, asarda O'ratepa va Qo'qonda yashagan 30 dan ortiq shoir va shoiralar ijodi haqida ma'lumot keltirilgan.

G'AZALLAR

Bu muhabbat jomidur, deb dahrdin chiqdi nido,
"Yor aksin mayday ko'r", deb jomdin chiqdi sado.

Xonaqoh ahlig'a aytdim: "Alvido, ey so'filar",
Dayra kirdim, rindliqni emdi qilg'um ibtido.

Man ichib ishq bodasini, boy berdim mazhabim,
Har na bo'lsa ko'rsa ko'zim, jon anga bo'lsin fido.

Bu qadah ichra ko‘rundi orazi ul yorning,
Zanjiri ishqini soldi bo‘ynuma, ermish rido.

Oshiqini g‘ul urub band aylasa ma’shuq agar,
Shukur qilg‘ay, bo‘lmasam deb, bandidin hargiz judo.

Jannat-u do‘zax barobar oshiqi zor oldida,
Ishq imomig‘a hamisha aylamishdur iqtido.

Garchi Barno zordur bir orazi yor oldida,
Ishq imomig‘a hamisha aylamishdur iqtido.

* * *

Odam aytibdur avval ulug‘ nurg‘a qarab,
Bir marta kulgil, ey nur, qaro yerg‘a qarab.

Xovar boqibdur ul dam anvor mehr ila,
Zulfin etib parishon, soy-u qirg‘a qarab.

Yer aylanib turibdur, parvona xovar uzra,
Hayo teri oqibdur Amu-yu Sirg‘a qarab.

Chiqqanda dona-dona buloq ko‘zidin ul ter,
Hayratda xovar o‘lmish ul on dirg‘a qarab.

Sir-u Amu oqibdur, kishvari kokilidek,
Nazar solmabdur aslo adirg’a qarab.

Odam qo‘lida oxir o‘libdur rom Jayxun,
Ta’zim etibdur ul dam ul Sirg‘a qarab.

Inson payravi bo‘l, Dilshod o‘lg‘aysan,
Ta’zim etma hargiz beg-u mirg‘a qarab.

* * *

Keling, qizlar, chalaylik daf ila soz,
Bir osoyish zamonni chorlaylik boz.

Diyorimizni ta'rif aylamakka
Hamma maqsadni birga aylaylik soz.

Qo'shiqni Nodira she'rig'a bog'lab,
Bo'layluk sozig'a bizlar hamovoz.

Uvaysiy birla Mahzuna qoshida
Turayuluk suhbat aylab birga damsoz.

G'azallar pardasini har qanoti,
Hayotlik ko'nglimizda etsa parvoz.

Kimiki misli ma'dan ersa rangin,
G'azallar husni ermas, balki pardoz.

Jamoli misra asli ersa, Barno,
O'qug'an odam aylar oncha e'zoz.

* * *

Qalam tekkizma qoshingga, buzilmasun bu xat,
Falakdin oy misoli uzilmasun bu xat.

Ikki chiziqda mujassam yosin ayladi pay,
Bu ikki mast qo'yilmay tuzilmasun bu xat.

Qo'shingni ko'rsatib oyg'a, xijolat etma ani,
Yuzingda doira shakli so'zilmasun bu xat.

Yuzungga boqsam o'qurman mashaf oyatini,
Ilohi ishqim o'tidek qo'zilmasun bu xat.

Mujgon o‘qi hamisha qoshinggadur mahram,
Qiyomat o‘lg‘ucha hargiz to‘zilmasun bu xat.

Toq uzra tut hamisha ikki qamar yanglig‘,
Jahon nuri yog‘urmish ezilmasun bu xat.

“Val-layli val-qamar” oyat yozar ermish Barno,
Xurufi oyat uzra birdek tizilmasun bu xat.

* * *

Orazing, yor, sanga mavzuyi shior o‘lsun,
Qomating diyorimda mavsumi bahor o‘lsun.

Forsiy guftam abro‘i tu, gar so‘zlasam qoshing,
Bog‘ aro ikki rasta gul-u sabzavor o‘lsun.

Turkey aytganim ko‘zing, forsiy — chashmi ohuvor,
Kechalarda yuzingga termilib xummor o‘lsun.

Novakest mijgonat, forsiy agar go‘yam,
Gulshanimda girdogird soqchidek qator o‘lsun.

Yuzlaringni tavsifin garchi so‘zlasam, yorim,
Bog‘ aro zanaxdonim olma-u anor o‘lsun.

Forsi ba dandonat alqiyos agar oram,
Ar guloyingda sheroza bobi e’tibor o‘lsun.

Qo‘llaringda sochimning torini sanab boqding,
Soli umri Barnora zulmat oshkor o‘lsun.

MUXAMMAS

Yo falak hargiz meni dardimga darmon aylamas,
Yo tabibi xoziqimni hech qadrdon aylamas,
Mushkulim ko‘pdur, aqalli birin oson aylamas,

Orzum borasida hargiz imkon aylamas,
Manga himmat ilgidin bir yo‘la ehson aylamas.

Dod deb qichqirg‘animg‘a rahm etmaydi falak,
Ishq sirrin o‘ylamakdin qong‘a to‘ldi bu yurak,
Yer ostonig‘a yetmoqlig‘in dil aylar tilak,
Shum raqiblar dastidin yo‘l izlab o‘tmoqlik kerak,
Bu tilakning borasida fikr chandon aylamas.

Subhi o‘lmaydi tunim, hargiz yorishmas bunda shom,
Bu habashni lashkari oshiqdin olur intiqom,
Saf tuzib kuz manzarida, qo‘lida tig‘i nayyom,
Telmirib yig‘lab turarman, tashnaman, qo‘limda jom,
Xovari tun lashkarini nest-u yakson aylamas.

Sho‘r baxtimg‘a azizim yuzni pinhon ayladi,
Va’da qildi-yu visolin, bag‘rimi qon ayladi,
Yig‘latib ishqida ko‘zdin abri nayson ayladi,
Oxiri bus hum raqibin qasdi bir jon ayladi,
Hech ma’shuqa oshiqini bo‘yla sarson aylamas.

Emdi yorim rahm etib, qiniga solsun tig‘ini,
Nogahon bir zarb ila qirqmay muhabbat bixini,
Adl birla o‘zi bersun shum raqib ta’zirini,
Shodmon o‘lg‘um, yo‘qotg‘um, qayg‘u birla yig‘ini,
Bu vafoni dilbarimdin o‘zga sulton aylamas.

Bu muammo qay kuni hal bo‘lg‘usi, bilmam hanuz,
Ishq g‘olib bo‘lmog‘i, zulm ketgusi, bilmam hanuz,
Pardayi ismat oxir yirtilg‘usi, bilmam hanuz,
Oy ham o‘zdin niqobin olg‘usi bilmam hanuz,
Naylayin bu matlabim xurshidi tobon aylamas.

Charxi kajrav to‘g‘ri yursun bu g‘arib Barno uchun,
To‘g‘ri yo‘llar nomin aytsun axtarib Barno uchun,
Baxt qonuni yozilsun o‘zgarib, Barno uchun,
Ishq vasli ham bo‘ladur anqarib Barno uchun,
Bu niyatni emdi Barno hech pinhon aylamas.

HIKMATLI BAYTLAR

Odamga faqat husn erur ruyiga zeb,
Botinda jamil o‘lmasa, bu husn bekor.

* * *

O‘zungni o‘ylama tanho, el ichra sodiq bo‘l,
Naxo‘dcha yetsa ziyoning, o‘zing hayotdin kech.

* * *

Rostlikka zavol o‘lmas emish, biling,
Xalqingni halok etmagil, ey yer.

* * *

Yoshlik senga bir yo‘l kelib, yana ketar,
Qadrig‘a yetib uynamog‘ing darkor.

* * *

Odamdin nur oldi har laylu nahor,
Tarixning hisobin topg‘on har odam.

* * *

Jahonda yaxshilik inson yuziga ziynatdur,
Nabot bersa, zaqqum bil, bari yamondin kech.

* * *

Daraxt besamar o‘lsa bog‘ida,
Bog‘bon tanida qolmag‘ay halovat.

* * *

El ichra ishla, el birla tirik bo‘lgil amalda,
Ki, tanho nom chiqarmas yaxshilikda, dedilar ustoz.

KOMIL XORAZMIY

(1825–1899)

Pahlavonniyoz Abdulla Oxund o'g'li Komil Xorazmiy Xiva shahrida tug'ilgan. Komil ancha yosh chog'idayoq shoir sifatida yaxshi nom qozonadi. Komil oddiy mirzo, keyin esa mirzoboshi sifatida xon saroyiga ishga qabul qilinadi. Komil tanbur, g'ijjak, santurda nihoyatda yaxshi mashq qilar edi. Komil Xorazmiy xon saroyida turli ma'muriy ishlarga ham qatnashgan, 1861-yilda Buxoroda Amir Muzaffar zamonasida Xorazmdan Buxoroga elchi bo'lib borgan. Xorazm klassik kuylarini o'zi tomonidan yaratilgan chiziqlar — notaga ko'chirdi.

Komil merosidan bizga bitta "Devon"i yetib kelgan. Komilning devoni o'zbek adabiyotida davom etib kelgan an'ana asosida tuzilgan bo'lib, unda g'azal, mustahzod, muxammas, murabba', musaddas, musamman, tarji'band, masnaviy janrlari o'rin olgan. "Devon"ga Komilning fors tilida yozgan g'azal, muxammaslari ham kirgan.

QASIDA

Manzilim chun bo'ldi ushbu yil diyori Toshkand,
Jon-u ko'nglum doim istar xor-xori Toshkand.

Burji mezonda edi masnadnishin shoxi Xo'tan,
Ham barobar erdilar laylu-nahori Toshkand.

Nur-u zulmat o'lchanib tun-kun ufuq maydonida,
Birdek erdi subhi sof-u shomi tori Toshkand.

Sarbasar ashjor zarrin bargidan bodi xazon,
Farsh qilg'on barcha qasri zarnigori Toshkand.

Xush havolig‘ muncha bo‘lsa anda ayyomi xazon,
Yo Rab, erkandur nechuk fasli bahori Toshkand.

Bo‘ldi mehmon joyimiz haq lutfidin bir bog‘kim,
Mevazor-u, lolazor-u naxldori Toshkand.

Garchi anda bog‘ ila bo‘stong‘a yo‘q xaddu shumor,
Ziynat afzoliqda chun xoli uzori Toshkand.

Vus’at-u nazhatda rashki jannatul-ma’vodurur,
Kavsari tasnimi nahr-u jo‘ybori Toshkand.

To‘bi oso bosh chekib charxi muallo sorig‘a
Archavu el birla shamshod-u chinori Toshkand.

Har kuni sayr aylar anda hur-u g‘ilmon o‘rniga,
Sarvqaddu, guljabinu, guluzori Toshkand.

Lekin ushbu yilg‘a to‘g‘ri aylabon bead hisob,
Dedi tarixini hotif chashmasori Toshkand.

Umr boqiy bo‘lsa olti yil yana Komil senga,
Yozg‘il oning soli tarixin shumori Toshkand.

MUXAMMAS

Qaysi falak burjining mehri puranvorisan,
Qaysi sadaf durjining gavhari shahvorisan,
Qaysi Xo‘tan ohusi nofayi totorisan,
Qaysi chamanzorning lolayi gulnorisan,
So‘yla menga, ey sanam, kimni sevar yorisan.

Qomatingga bandadur bog‘ aro sarvi ravon,
La’li labing rashkidin g‘uncha erur bag‘ri qon,

Chunki chaman sahnida bo‘lsa yuzing gulfishon,
Nolasin aylar fuzun bulbuli bexonumon,
So‘yla menga, ey sanam, kimni sevar yorisan.

Yig‘latur oshiqlaring la’l labing xandasi,
Qumri nolon erur sarv qading bandasi,
Husn-u jamol avjining axtari tobandasi
Ko‘rsa agar orazing, bo‘lg‘usi sharmandasi,
So‘yla menga, ey sanam, kimni sevar yorisan.

Sen kabi bir dilbari guruhi siminbadan,
Vaqti takallum aro to‘ti shirinsuxan,
Majlis aro aylasang sha’badau la’bu fan,
Vola o‘lurlar senga ahli zamon-u zamon,
So‘yla menga, ey sanam, kimni sevar yorisan.

Oy yuzi — husn-u jamol bog‘ining ahmar guli,
Jon ila ko‘nglum erur ushbu guling bulbuli,
Qumri nolon erur sarv qadingning quli,
Yo‘q esa nechun ani bo‘ynida bordur g‘uli,
So‘yla menga, ey sanam, kimni sevar yorisan.

Aysh-u nashot istabon g‘amg‘a duchor o‘lmog‘on,
Mehringa dilbastayi zor-u nazor o‘lmog‘on,
La’l labing shahdig‘a bormu xumor o‘lmog‘on?
Dahr aro yo‘qtur senga oshiqi zor o‘lmog‘on,
So‘yla menga, ey sanam, kimni sevar yorisan.

Bir kecha aylab menga mehr-u muhabbat ayon,
Hamrah-u yo‘ldoshsiz barcha ulusdin nihon,
Kulbayi ahzonima bo‘lsang agar mehmon,
Komili mahzuningga rostini etkil bayon,
So‘yla menga, ey sanam, kimni sevar yorisan.

G‘AZAL

Vahki, ko‘zlarim giryon qildi la’li xandonlar,
Jam’ qo‘ymadi ko‘nglum kokuli parishonlar.

Bog‘-u g‘uncha sayridin bo‘ldim emdi mustag‘ni,
Ochti gul xadangingdin ko‘nglum ichra paykonlar.

Orazi araqnoking ko‘rdi chun chaman ichra,
G‘ullar o‘ldi shabnamdek, barcha chashmi hayronlar.

Toki g‘amza-u nozing ko‘z uyin maqom etti,
Tashqarida mijgonlar bordurur nigahbonlar.

Ishq so‘z-u dardidin nola qilma ko‘p, ey dil,
Bo‘lmasunlar ozurda bu aziz mehmonlar.

Qaysi xoli orazining dog‘idur chamanlarkim,
Lola dog‘u, gullarga chok erur giribonlar.

Chini ostiningdur, mavji javhari shamshir,
Yig‘nama bu zoringni qatl etarga domonlar.

Bu shahodat iqbolin kim topar ekan, yo rab,
Nozi oldi mijgondin qo‘lg‘a tig‘i uryonlar.

Kimki husn shohig‘a begunah — gunahkor ul,
Anga zulf erur zanjir, choh erur zanaxdonlar.

Husni ko‘zgusi bordur mazhari jamolullo,
Mani ishqim etmanglar, ey guruhi nodonlar.

Komilo, shahanshohing nazmi gavhar afshonin,
Ko‘rsa banda bo‘lg‘aylar Fazli-yu Umarxonlar.

YUSUF SARYOMIY

(1840–1912)

Saryomiyning asl nomi Yusuf mulla Abdushukur o'g'li bo'lib, Chimkent viloyati Saryom (Sayram) qishlog'ida tug'ilgan. Toshkent, Buxoro madrasalarida tahsil olgan.

Samarqand, Toshkent, Qo'qon adabiy harakatchiligida faol qatnashgan. "Beklar begi" madrasasida o'qigan va unga atab she'rlar yozgan.

Yusuf Saryomiy xattotlik — kotiblik bilan kun ko'rgan, kosibchilik, muhrdorlik bilan ham shug'ullangan.

Shoir she'rlari hayotligida "Bayoz" (1893), "Armug'oni Xislat" (1911), "Bayozi Muhallo" (1912), "Bayozi Haziniy" (1912) kabi bayozlarda bosilgan. 1914-yil Tavallo Yusuf Saryomiy she'rlarini to'plab, "Devoni Mavlavi Yusuf Saryomiy" nomi bilan nashr etgan.

Sayram tarixi haqida an'anaviy diniy mazmunda bitilgan "Risola"ni Yusuf Saryomiyga nisbat beradilar. Xalq orasida shoirning g'oyat hozirjavob, nohaqlikka murosasiz ekanligini tasdiq etuvchi ko'plab rivoyatlar, afsonalar yuradi. Ko'plab g'azallari ("Yali-yali" kabi) hozir ham el orasida mashhur.

G'AZALLAR

Mashriqi miynodin urdi dam mayi subhi xudo,
Davri xurshidi qadahdin yetti gardung'a sado.

Fathi bob o'ldi bu kun mayxonayi fayyozi jud,
Al-farah, ey rindi jom, bodapaymo, as-salo.

Ul mandurkim, anga gardun — sabo', xurshid — jom,
Aylagay har zarrani no'sh etsa, shams-u uz-zuho.

Hasrati bu jomi maydin charx sargardon kezar,
Shomdin qonlig‘ etak ham subhdin yirtuq yaqo.

Gardishi bu jomdur hay-yu huviyyat halqasi,
Mayparastdin davrig‘a yo‘q ibtidou intiho.

Shavq ahli jonida kayfiyyati bekayf-u kam,
Zavq ahli komida lazzati bechunu charo.

Durdayi ul may kelibdur sayqali mir’oti dil,
Bir qadahdin jon o‘lur oyinayi getinamo.

Soqiyi bu jomi may Xizr-u Masihodin buyuk,
La’li — obi zindagoniy, tobi zulfi — ajdaho.

Bir tarashshuh yetsa andin tashna lablar komig‘a,
Aylamas hargiz havoyi chashmayi obibaqo.

Takyae har kim topar bu maykada tufrog‘idin,
Masnadi Jam xoki rahdur anga, sultonlig‘ — gado.

Ey xush ul rinde, sabukashlikda xam bo‘lmish qadi
Chun hiloli iyd davri jomdin angushtnamo.

Durdakashlar jonida kayfiyati xamru alast,
Boshida bu shiddati ranj-u xumor o‘lmish balo.

Boda sunsa mug‘bacha, o‘psam ayog‘in jon bilan,
Aylasam bir g‘amzasig‘a yo‘q-u borimni fido.

Istaram bu dayr aro bir jom vahdat xummidin
O‘zlukum bunyodini yiqsa yetib faqr-u fano.

Tashnalabman, to‘ldurub tut dam-badam labrez jom,
Ey shahi Misri malohat, soqiyi Yusufliqo.

Qatrayi topsang bu maydin, rahni jom aydar eding
Xirqa-u, dastor-u, tasbeh-u ridoyi, zohido.

Kecha erdim bexud ul mug‘ dayri tufrog‘ida mast,
Qaydi imkondin bariy, domi taalluqdin raho.

Tobi xurshidi mayi jomi azal labrez edi,
Zarradyok jon-u ko‘ngul bu nagya’adin bedastu po.

Soqi-yu, gulchehra-yu jom-u may o‘lg‘ay to abad,
Yusufiy xoki dari mayxona-u dasti duo.

Soqiyo, tut dam-badam sog‘ar mango maydin to‘lo,
Rahm qil, boshimg‘adur hushyorlig‘ qattig‘ balo.

Bodadek hech bo‘lmag‘ay davron g‘amini daf’iga,
Bo‘lmasa bexudlug‘um, o‘ldurgusi ranj-u ano.

Sho‘xi badmastim sunub may, olsa mandin naqtsi xush,
Qolmag‘ay lavhi dil-u jonimda naqshi mosuvo.

Dayr piri hidmatida bosh qo‘yarman yer o‘pub,
Kosh yetkay gardi rohidiy ko‘zumg‘a to‘tiyo.

Sarvqad gulchehra soqiy sunsa man sori ayog‘,
Go‘yiyokim yetti bo‘lg‘ay misga fayzi kimyo.

Yorni ag‘yorsiz dahr ichra hargiz topmadim,
Shahdni — bezahr, lutfni — beqahr, ganjni — beajdaho.

Ta’n toshidin egiq, boshdin ayoqim zangi g‘am,
Istaram mayxonada may durdasidin mo‘miyo.

Dard ahli sho‘xlar bedodidin g‘am chekmaso‘n,
Chunki piri maykada dargohidur dorushshifo.

Changdek man xo‘blar bazmi uchun ko‘b ingradim,
Chun xami zulfi kabi oxir, ko‘rung; qaddim duto.

Rashkdin bog‘larda gullar kosa-kosa qon ichar,
Chiqsa gulgasht etgali, ul sho‘xi bargigul qabo.

Mavji xat ko‘rgach, labi la’lida dudi ohdin,
Yusufiy ko‘rdi butun tun bir necha ko‘ngli qaro.

* * *

Ajz yonindin bo‘lak yo‘l yo‘q, ba vajhi Kibriyo,
Munda bir qilcha bukulsang, anda “sin”dur toqi“yo”.

Iktisob aylab sinuqlik, qo‘yma xudluqdin asar,
Chunki qattig‘ saddi raxdo‘r, zarrayi kibr-u havo.

Zuhdu taqvo xirmanin gar aylasang yuz ko‘h-ko‘h,
Bo‘lsa o‘rtar gar samum sum’au barqi riyo.

Bo‘lma toat birla emin, jurm birlan noumid,
Qahr-u lutfidin ani tut domani xavf-u rijo.

Kim etar haqdin sani, mashg‘uli but derlar ani,
Hojat ermasdur but-u butxona qilmoqlik bino.

Fazl-u adli oldida dargohig‘a teng keldilar,
Zohid-u pashminapo‘ shu fosiq-u noporso.

Aylagil izhori qulluq, intizori fazli bo‘l,
Bo‘lmag‘ay qulluqdin o‘zga qulga hargiz muddao.

Har dame andin yetar sarmoyayi naqdi hayot,
Har nafas sandin ketar so‘yi adam gardi fano.

Bilmading, har lahza ortar, dam-badam haddin fuzun,
Sandin isyon-u xatolar, andin ehsoni ato.

Kim beribdur shohidi gulchehrasiga ob-u rang,
Kim tikibdur sarv qaddig'a zumurradgun qabo.

Lola jomini to'lo kim qiddi gulgun bodadin,
Kim bu o't tobidin etmish dog'i bag'rini qaro.

Bu chamanda kim binafsha xirqasin qilmish kabud,
Chunki osibi xazondin bog'lar motamsaro.

Bu dabiston-u chamanda sarv-u g'ul avroqidin,
Kim o'qurlar dam-badam bulbul — fig'on, qumri — navo.

Buyi ulfat istamaz kavnu makon gulzoridin,
Yetsa zulfi yordin kimga nasimi atrso.

Dastgohi e'tiboring, Yusufiy, bir mushti xok,
Qo'yma o'zlukdin asar, sindur tilismi naqshi po.

* * *

Ilohi, hamdinga qilg'il til-u dilim go'yo,
Hamisha sanga deyin jon-u dildan zikr-u sano.

Qilib karam, manga berding vujudi javhari ruh,
Edim haqirki, bir mushti xok-u besar-u po.

Yetib sani karamingdin manga hayoti vujud,
Chu aql-u sam'-u basar, surat-u qadi zebo.

Dimog'im aylading o'tlug' sharori ishqingdin,
Boshimg'a sodding o'zung istamak uchun savdo.

Bu to'rt, yetti va to'qquz, o'n ikki va o'ttuz,
Ki bu takavvunu kasrat na bor edi ado.

Hama zamon-u makon sun'i pok-u lutfungdin,
Topib vujud adam, barcha yo'q bo'lub paydo.

Na nur-u zulmat-u, na xor-u gul, na shodi-yu g‘am,
Na shahd-u zahr bor erdi, na ranj-u to‘y-u azo.

Tamomi kavnu makon bor bo‘ldi amringdin,
Bu zebi ziynat ila borgohi arzu samo.

Ki yuz ming olami etmak damida osondur,
Ilohi, qudrating oldida ming sirriu surro.

Bu xoki tiyraga berding charog‘i gavhari aql,
Bu nur fayzi bilan bo‘ldi zumrayi uqalo.

Qo‘yub chirog‘ig‘a san ravg‘ani hidoyat, ilm,
Yetib o‘zungdin alarga furug‘i nuri ziyo.

O‘zing o‘zing tonitib qilding ahli urfondin,
Yo‘q erdi bo‘lmasa, birov o‘diyi xayrpaymo.

Ilohi, fazling ila Yusufiyg‘a ko‘rsatg‘il,
Rizoyi ma’rifating sorig‘a tariqi xudo.

* * *

Zihi tufayli vujudi va judi arz-u samo,
Chirog‘i mahfili kavnayn, shami jami xudo.

Habibi haq, anga rizvon g‘ulomi, arsh — sarir,
Tamomi kavnu makon nuridin erur paydo.

Jamoli shamini parvonasi rasul-u malak,
Kamoli husni uchundur ikki jahon shaydo.

Tuniki, olami ruhoniyg‘a yeturdi qadam,
Yuzini partavidin topti nur arshi a’lo.

Shahiki, ahli samovot bo‘lsa xoki dari,
Yer o‘pgali tun-u kun xizmatida subh-u maso.

Riyozi Ka'ba harimi qaddi niholig'a bog',
Guli ruxi chamanidur hadoyiqi Batho.

Malak sujudig'a, odam vujudig'a bois,
Xatibi ilmul asmo-u toji karramno.

Tufayli nuri Muhammad sarodiqi malakut,
Ochildi chun bu sharafkim, ko'rar o'g'uldin ato.

Vujudi gavhari bahri inoyati azali,
Durudi mohi jami xututi sahvu xato.

Jahong'a qo'ydi qadam, bori botil o'ldi adam,
Jami but yiqilib, sarnigun o'lub Kisro.

Jahon to'lub shu tuni g'ulg'uli maloiqtsin,
Yer-u osmondin o'tub, aydadi o'zin bolo.

Zihi saodati, olam chu bog'i jannat o'lub,
Bu tiyra xok bo'yalub bor mo'shki anbarso.

Tushurmadi na uchun Haq yer uzra soyasini,
Chu mahzi nur edi, zoti poki ayni ziyo.

Bo'lundi ilkida qursi qamar ishorat ila,
Ki toshqa cho'n dedi, zarrin daraxt bo'ldi bino.

Kafi kifoyatida sangreza deb tasbeh,
Faseh til bila aytur xudog'a hamd-u sano.

Daraxt amrig'a farmonbar erdi, gar tilasa,
Ki jon bila yugururdi, chu qatra besar-u po.

Der erdi murg'i havo arzi hol, ohuyi dasht,
Qilur edi borisin jumla hojatini ravo.

Damiki, arz qilur puxta go‘shi buzg‘ola,
Chu zahr birla pishurmish, manhi emang, a’do.

Nechunki xatmi rusul mo‘jizoti behadd-u ad,
Desam tamomini to ro‘zi hashr bo‘lmas ado.

Ilohi, Haq habibing shafoatig‘a mani,
Yetur, oqordi sochim, jurm birla noma qaro.

Ilohi, na’ti habibing demaqda Yusufiyni,
Ba sad qusur ne hadkim, san etmasang go‘yo.

FERUZ

(1845–1910)

Xiva xoni Muhammad Rahimxon II shoir va bastakor ham bo'lgan. Qo'ng'irotlar sulolasidan. Xiva shahridagi Arab Muhammadxon madrasasida tahsil ko'rgan. Otasi Sayid Muhammadxon vafotidan so'ng (1864) Xiva taxtiga o'tirgan. Feruz murakkab sharoitda yarim asrga yaqin muddat davomida Xiva xonligini boshqargan. Feruz saroyga adabiyot va san'at arboblarini to'plagan. Ogahiy, Komil, Tabibiy saroyning yetakchi shoirlari edilar.

Feruz kitobat ishlariga katta ahamiyat bergan: devon tuzish, tar'ix yozish, tarjima ishlarini rivojlantirgan. Xorazmda tarjima maktabi yaratgan.

Fors va arab adabiyotining eng nodir tarixiy, adabiy, ilmiy asarlarini o'zbek tiliga tarjima qildirgan. Uning hukmronligi davrida Ogahiy va Bayoniy tomonidan Xorazm tarixiga oid asarlar yozilgan. Xivada bosmaxona tashkil ettirgan.

Feruz mumtoz she'riyatning an'anaviy janrlarida lirik she'rlar yaratgan. She'rlari, asosan, ishq-muhabbat mavzusida. Inson va hayot, sevgi va sadoqat Feruz ijodining g'oyaviy asosini tashkil qiladi.

Shoirning ko'pchilik g'azallari o'z zamonasida sozandalar va go'yandalar tomonidan kuyga solib, kuylanib kelingan. She'rlariga "Devoni Feruz" nomi bilan tartib bergan (1879).

Bu devon Muhammad Sharif tomonidan qayta ko'chirilgan (1900). Feruzning o'zi Pahlavon Mahmudning 350 ruboiysini qo'lda ko'chirib, kitob holiga keltirgan.

Feruz Shashmaqom kuylarini o'rgangan, saroyda maqom ansamblini tuzgan. "Navo", "Dugoh", "Segoh" maqomlariga bog'lab kuylar yaratgan.

G‘AZALLAR

Zihi bordur zuhuringg‘a azal birla abad paydo,
Tafakkur aylabon zoting, qila olmas xirad paydo.

Ne hikmatdurki, guldek yuz ato bir kimsaga aylab,
Birovda bulbuloso oh-u afg‘on beadad paydo.

Qachon hamdingga go‘yo aylagum tilni mane bekas,
Manga gar bo‘lmasa altofi fazlingdin madad paydo.

Bu ham bor qudrat-u sun’ing tasdiqiga bir burhon
Ki, qilding bu to‘qquz qat osmonni beamad paydo.

Nechuk maqbullig‘ topg‘usidur ahli jahon aro,
Ul odamkim, onga qahring soridin bo‘lsa rad paydo.

Borisi xohishi taqdiring ila bo‘lg‘usi mavjud,
Nekim gar bandadin olamda bo‘lsa nek-u bad paydo.

Topar kavnayi ichra maqsad ila komini Feruz,
Inoyoting bila bo‘lsa anga gar masnad paydo.

* * *

Bo‘lsun salom behad anga subh ila maso
Kim, dedi vasfini oni furqon aro Xudo.

Xoki qudumin ayladi bo‘sa hama rasul,
Bildi o‘ziga shoh oni jumlayi anbiyo.

Ul shomkim, haq amri bila ayladi uruj,
Topti hama murod ila maqsudini ravo.

Albatta hashrda topar oning shafoatin,
Har kimsakim, jahonda qilur inqiyod ango.

Har kimki, amri shar'iyg'a gar sunmag'ay bo'yun
Ro'zi jazoda bo'lgusi ikki yuzi qaro.

Har kim salom-u salovot etsa odatin,
Shahd shafoatin ichadur tong-la hashr aro.

Feruzdek shafoating umidin etgamen,
Hosil qil oni lutfing ila bobini masho.

* * *

Yorab, ish subh-u maso jurm ila isyondur manga,
Iki ko'zum ushbu g'ussa birla giryondur manga.

Boshlag'il tavfiq ila rohi hidoyat sorig'a
Kim, ko'ngul har dam zalolat birla javlondur manga.

Man ayon qilmoq sanga lozim emasdur har nafas,
Kim sanga bordur namoyon neki pinhondur manga.

Sen agar lutf-u, inoyat-u karam anlasang,
Jumlayi mushkul iki olamda osondur manga.

Afu hajridin bir qatra ehson aylagil,
Kim hamisha jurm ila isyon farovondur manga.

Ma'rifatning jonibig'a boshla yo'lkim borho,
Jahl sori xotiri afkor jo'yondur manga.

Qil ato bir jur'ai fazling bilakim, Feruzing,
Subh ila shom orzu daryoyi g'ufrondur manga.

* * *

Nigoro, oldi hushim, tarzi raftoringg'a sallamno!
Yorutti tiyra kulbam, mehri ruxsoringg'a sallamno!

Ishim qotil ko‘zung bedodidin bo‘lmish, base, mushkul,
Ichib qonimni to‘ymas, chashmi xunxoringg‘a sallamno!

Labing so‘zdin berur jon o‘lgan elga dardi ishqingdin,
Ravoniarvar dabi jonbaxshi guftoringg‘a sallamno!

Hama ishq ahlidur, ey mug‘bacha, zulfning giriftori,
Bori din ahlini band etdi — zunnoringg‘a sallamno!

Deding: “Lutf aylagum!” o‘lturding, ammo necha noz aylab,
Agar lutfing bu ersa, javr-u ozoringga sallamno!

Qilursan noz, agar man har necha arzi niyoz etsam,
Sitamkor mahvasho, bu nav’ atvoringg‘a sallamno!

Senga, Feruz, o‘lub baxt, etding ul op qaddi, zulfin vasf,
Bu yanglig‘ tabi nozik birla ash’oringg‘a sallamno!

* * *

Ul oy vasfini virdetsam zabonda,
Necha yillar ado bo‘lmas bayonda.

Debon ma’shuqing asr-u bevafodur,
Manga ko‘p ta’nalar aylar jahonda.

Netaykim, ishq zo‘r anlab ko‘ngulga,
Ul oyning mehrini asratdi jonda.

Habibimg‘a chu mahram bo‘ldi ag‘yor,
Erurman ushbu hasratdin fig‘onda.

Firoq ichra mening bag‘rim qilib qon,
Nigorim, bilmadim, ermish qayonda.

Humoyun baxt ila bo‘lsun salomat,
Agar bo‘lsa habibim har makonda.

Agar Feruzlik iqboling esa,
Visolig‘a yetushkung bir zamonda.

* * *

Gul yuzungga bulbuloso o‘tlug‘ afg‘onim fido,
Sarvi ozodingg‘a qumridek xush alhonim fido.

Xirmani guldek bo‘lub kirgil quchog‘im ichrakim,
Gul kibi islab yuzung, aylay sanga jonim fido.

Vah, nechuk kofirdurur ikki ko‘zingkim, bir qiyo
Holima boqmas ham etsam naqdi imonim fido.

Goh-gohi man sori qo‘yg‘il qadamkim, aylayin
Maqdaming gardig‘a jon, ey ko‘nglum olg‘onim, fido.

Ey parivash kulbamg‘a eldin nihon-u oshkor
Kelki, to aylay sanga paydo-yu pihonim fido.

Chashmi umidim yor o‘lg‘il mehrdek yuz birlakim,
Bahri kon etsun sanga chashmi durafshonim fido.

Baxti Feruz ila gar topsam visoling davlatin,
So‘z durrin bazmingda aylay, ey suxandonim, fido.

* * *

Ruxsorin ochib bir pari keldi bu tun bazmim aro.
Boshdin oyoqi bor ekan mehr-u vafo, noz-u ado.

Chiqsa falakka har sahar oh-u fig‘onim, ne ajab,
Aylar fuzunroq har kecha ul oy menga javr-u jafo.

Bilmon, ne ofat erdi ul bo‘lg‘och nazarga jilvagar,
Aql-u xirad, islom-u din o‘ldi bori mendin judo.

Joning uchun har dam manga ko‘rguz tarahhum, ey pari
Kim, sabr-u toqat qolmadi javring chekib subh-u maso.

Oydek yuzungning partavi tushsun karo kulbamg‘a ham,
Qo‘yg‘il qadam, ey mahliqo, ochib uzori dilkusho.

Ne sud, tole bo‘lsa gar yuz oy-u kun, har subh-u shom,
Nechunki bor Feruzg‘a mehr-u jamoling muddao.

MUXAMMASLAR

Ko‘rmak tilab yuzungni, ey sho‘x guluzorim,
Qonlar to‘kar damo-dam bu chashmi ashkborim,
Quchmoq tilab belingni hech qolmadi qarorim,
Yo‘lungda tufroq o‘ldi bu jismi xokisorim,
Oromijon nigorim, sarviravon nigorim.

Bo‘lg‘och nazarda zohir tovusdek xiroming,
Aqlimni qildi hayron ta’zim ila saloming,
Lol ayladi tilimni to‘tisifat kaloming,
Yo‘qtur jahonda mandek bir kamtarin g‘uloming,
Oromijon nigorim, sarviravon nigorim.

Sen husn shohidursen, rahm ayla bu gadog‘a,
Kelmasmu hech rahming bu zori mubtalog‘a,
Qahringdin aylab afzun ko‘p qo‘ymag‘il balog‘a,
Lutf-u karam shior et, xo‘y aylama jafog‘a,
Oromijon nigorim, sarviravon nigorim.

Gulgun uzoring uzra chiqmish xatti zumurrad,
Bu xat bila bo‘lub sen husn ahlig‘a saromad,
Go‘yo sanga bo‘lubdur shams-u qamar obo jadd,
Mundin ziyod etarga vasfingni yo‘q manga had,
Oromijon nigorim, sarviravon nigorim.

Qadding xayoli tushgach xotirg‘a, ey sumanbar,
Ermas nazarg‘a manzur shamshod ila sanavbar,
Bo‘lmas esa muyassar ul kokili muanbar,
Tutg‘oymu o‘rnin oning rayhon-u sunbul-u tar,
Oromijon nigorim, sarviravon nigorim.

Qil holima tarahhum, ey soqiyi diloro,
Soldi sipohi ishqing jon kishvarig‘a yag‘mo,
Mani zor bedilingg‘a lutf aylagil nigoro,
Qolmadi furqatingda sabr-u qarorim aslo,
Oromijon nigorim, sarviravon nigorim.

Mehri kamardek olib toj-u kamarni pinhon,
Oxir bosh-u beliga ziynat eturdi ul jon,
Qilsang muni tafakkur, ey shoiri suxandon,
Bir sho‘xi dilraboning ismi bo‘lur namoyon,
Oromijon nigorim, sarviravon nigorim.

Bo‘stonda bazm etarga jam’ o‘lsalar sanamlar,
Ul bazm ichida Feruz o‘lsun desang suxanvar,
O‘z ilking ila tutg‘il bir lolarang sog‘ar,
Yuz noz-u ishva birla kirganda bog‘a dilbar,
Oromijon nigorim, sarviravon nigorim.

* * *

Chekib hijronda ranji bekaron ohista-ohista,
Yutar erdim labi fikrida qon ohista-ohista,
Bu holimdin topib bu kun nishon ohista-ohista,
Manga rahm aylab ul shirinzabon ohista-ohista,
Yetushti boshim uzra nogahon ohista-ohista.

Shabi hijronda aylab dard-u mehnat kulbasin maskan,
Sochar erdim sirishkim donasin har sori yuz xirman,
Bu hol ichra tarahhum ko‘rguzub ul dilbari purfan,
Firoqida qororg‘oh ko‘zlarimni ayladi ravshan,
Ochib ruxsorayi xurshidson ohista-ohista.

Qudumi intizorida bo‘lub tong otgucha bedor,
Chekib har damda gardun sori yuz ming ohi otashbor,
Bo‘lub g‘am tig‘i birla sarbasar jon-u tanim afgor,
Yedim hijroni dardi shiddatidin o‘lgudek bemor,
Yetushti vaslidin suhbat ravon ohista-ohista.

Minib raxshig‘a bukun man sori atfi inon aylab,
Shitob ichra araqni gul uza shabnam fishon aylab,
Kelib bazmim qudumi birla gulzori jikon aylab,
Masiho mo‘jizin jonbaxshi la’lidin ayon aylab,
O‘luk jismimga berdi toza jon ohista-ohista.

Rusumi dilrabolig‘ ko‘rguzub gul yuzli jononim,
Bilib hijron o‘ti kuydurganni boshdin oyoq jonim,
Ko‘rub rahm aylabon jismi nizor-u chashmi giryonim,
So‘rub dildorlig‘ rasmi bila holi parishonim,
Qilib oshino dilbarlik ayon ohista-ohista.

Tarahhum ko‘zguzub har dam fuzun a’dodi imkondin,
Tabassum aylabon yuz ishva birla la’li xandondin,
Takallum boshlabon har lafzni aylab chuchuk jondin,
Dedi: “Ey oshiqi zorim maloli dardi hijrondin,
Bo‘lubsan asr-u zor-u notavon ohista-ohista”.

Mayi la’limni dardingga davo aylarga kelmishman,
Zamiringda ne ersa muddao aylarga kelmishman,
Nekim rasmu muhabbatdur, sango aylarga kelmishman,
Bu dam vaslim bila koming ravo aylarga kelmishman,
Maqomingg‘a bori eldin nihon ohista-ohista.

Qilib tun-kun visolim bazmig‘a yetmakni andisha,
Urub Farhod yanglig‘ ranj-u mehnat tog‘ig‘a tesha,
Qilib ishqimda ko‘nglungni musaffo, o‘ylakim, shisha,
Necha kun dardi hijronim aro sabr aylading pesha,
Bo‘l emdi vaslim ichra shodmon ohista-ohista.

Edi hijron aro maqsuding o‘pmak borho la’lim,
Quchub nozik belim ko‘nglungga so‘rmoq muddao la’lim,
Bugun koming ne ersa qilg‘usi oni ravo la’lim,
Agar istarsan o‘pmaklikni, eng jonfizo la’lim,
Qucharsan, quch belim, yeng-u miyon ohista-ohista.

Manga iqbol yanglig‘ bo‘ldi chun ul hamdam-u hamdast,
Oyoqing o‘pkali man ollida tufroqg‘a bo‘ldum past,
Talattuf birla ul la’lin labimga ayladi payvast,
Man o‘ldum yor la’li bodasi birla bo‘lub sarmast,
Firoqi ranjidin toptim omon ohista-ohista.

Ko‘zumdin oqizib ashkni hijron ichra suv yanglig‘,
Bo‘lub obiravon ondin ayon har sori jo‘ yanglig‘,
Riyozat tortibon aylab tanin za’f ichra mu yanglig‘,
Kishi gar sodiq ersa ishq aro vasl ichra bu yanglig‘,
Bo‘lur Feruzbaxt-u komron ohista-ohista.

Ogahiy g‘azallariga taxmislar

Rangin takallummu bo‘lur chunkim guharafshon labing,
Fayz-u farah yetkurgusi ko‘nglumga bepoyon labing,
Fahm etmadim ne xosiyat qilmushdurur pinhon labing,
Yoqutdurmu bilmadim yo la’l ey jonon, labing,
Yo orazing gulzorida bormu guli xandon labing.

La’ling firoqida bo‘lub asr-u zaif-u xasta jon,
Jismi nizorimdin olib qadding g‘ami tob-u tavon,
O‘lmakka yetganda yovuq kelding boshimg‘a nogahon,
La’lingni bir o‘pmak bila toptim hayoti jovidon,
E’jozi Isomu ekan yo sharbati hayvon labing.

Javr-u jafolar aylabon jonimga bu garduni dun,
Qildi labing hijronida ashkimni qon, bag‘rimni xun,
Dardim erur behad fuzun, kun-kundin ahvolim zabun,

Ko‘zdin to‘kub hijron aro doim sirishqi lolagun,
O‘pmaklik aylab orzu tun-kun yutarman qon labing.

Ko‘nglumga bo‘lmishdur labing bir bo‘sa qilmoq muddao,
Muft ermas ushbu matlabim, bo‘lsa agar, sandin ravo,
Oltun-kumish xud sahl erur, ey dilbari shirinliqo,
Gar bo‘sa la’lingga jon naqdin qilur ersang baho,
Olg‘um nedinkim bir o‘pub o‘lganga na armon labing.

Taqvoyi toat aylabon zuhd ahli tinmay ro‘zi shab,
Jannatga kirmak orzu aylab chekar ranj-u taab,
Aql eli ko‘ying borida jannatni qilgaymu talab,
Feruz, jannat ravzasin, gar, istamas ermas, ajab
Kim, orazing jannat guli, kavsar suyi, ey jon, labing.

* * *

Bir jilvagar bo‘lg‘och ko‘zum ollida to qosh-u ko‘zung,
Fahmi xiradin ayladi mandin judo qosh-u ko‘zung,
Jonimni oldi aylabon noz-u ado qosh-u ko‘zung,
Vah ne balodur bilmadim, ey dilrabo, qosh-u ko‘zung
Kim, bir nazarda soldi o‘t jonim aro qosh-u ko‘zung.

Ham Xizri xatting dilkusho, bordur masihoniy so‘zung,
Ham ko‘z-u qoshing qotili jonbaxshga erur, rangin so‘zung,
Ham beqaror o‘lg‘on ko‘ngullarga berur taskin so‘zung,
Ham yuz o‘lukni tirguzur la’ling aro shirin so‘zung,
Ham ming tirikni o‘lturur aylab jafo qosh-u ko‘zung.

Tun-kun so‘rog‘ing aylabon istab muallo manziling,
Ko‘rgach musaffo orazing, bo‘ldum asiri bediling,
Jon-u ko‘ngul betob erur so‘rmoq tilab shirin labing,
Oldi qarori toqatim oq siyna-yu, nozik beling,
Soldi qaro kun boshima ikki qaro qosh-u ko‘zung.

Boqgoch ko‘z ila qoshinga, bo‘ldum asir, ey no‘shlab,
Jonim yoqar oshiq o‘ti, qosh-u ko‘zung bo‘ldi sabab,

Emdi fig‘onlar aylabon hijroning ichra ro‘z-u shab,
Qosh-u ko‘zung bedodidin dod aylasam ermas ajab,
Kim, ne jafolar qilmadi oxir mango qosh-u ko‘zung.

Farrux yuzung husn avjining bordur mohitobonikim,
Xanling erur mahbublar, sansan alar sultonikim,
Mankim tamanno aylamak, san sho‘x beparvonikim,
Yo‘qtur manga ishqing aro yurmak tirik imkonikim,
Jonimni yo qaddu yuzung olg‘usi, yo qosh-u ko‘zung.

Husn ahli shohisan, erur mulkung malohat kishvari,
Ikki ko‘zung jodu erur, qoshing alarning xanjari,
Majnundek o‘ldi ko‘rgach, ul husning jahon donolari,
Man zori hayroning nechuk devona bo‘lmay, ey pari
Kim, aql-u hushim ayladi mandin judo qosh-u ko‘zung.

Istab visoling bazmini, ey xo‘blarning ahsani,
Iqboli Feruzing kibi ko‘b justujo‘ aylab sani,
Ko‘rgach yuzung ishq o‘tiga qo‘pdi vujudi xirmani,
Shirin labingdin Ogahiy jismig‘a jon berkim, ani,
O‘lturdi bir imo qilib boqg‘och qiyo qosh-u ko‘zung.

MUSADDASLAR

Subhkim, ul sarvi gulro‘x sayri gulzor ayladi,
Sarvi gulg‘a qaddu ruxsorni namudor ayladi,
Sarv qaddig‘a egib bosh qulluq izhor ayladi,
Gul yuzin surtub poyig‘a o‘zini xor ayladi,
Rashk tig‘i joy ila ko‘ngulni afgor ayladi.
Do‘stlar, ul dilrabo ishqi mani zor ayladi.

Gar nafas qilgach nazora ul quyosh ruxsorga,
Jon ko‘nglum qoldi ishqi ranjidin ozorg‘a,
Aylasam jonim fido boqmay man bemorga,
Har nafasda ko‘rguzur yuz iltifot ag‘yorg‘a,

Aylamas bir rahme zohir man g‘arib-u zorg‘a,
Do‘stlar, ul dilrabo ishqi mani zor ayladi.

Jonfizo la’lin takallumga oyursa nogahon,
Har kalomidin topar o‘lgan badan ruhi ravon,
Go‘yiyo uldur bu davron ichra Isoyi zamon
Kim, kishi ko‘rmaydur andoq mahvashi shirinzabon,
Ayb qilmang, istab oni, aylasam oh-u fig‘on,
Do‘stlar, ul dilrabo ishqi mani zor ayladi.

Xo‘b emastur qaddi to‘bi qomati raftoricha,
Dilkash ermas ravzayi rizvon yuzi gulzoricha,
Yo‘qturur xurshid nuri jabhayi anvoricha,
Sunbul ermas atrparvar zulfi anbar boricha,
Tong emas, vaslin talab qilsam agar jon boricha,
Do‘stlar, ul dilrabo haqi mani zor ayladi.

Ohkim, tarki muhabbat aylabon ul dilrabo,
Notavon jonimg‘a ko‘rdi hajr anduhin ravo,
Muncha ham bo‘lg‘oymu bir bedilg‘a qilmoqlik jafo,
Dilrabolig‘ rasmida avval qilib mehr-u vafo,
So‘ngra qildi mehnat hijroni birla mubtalo,
Do‘stlar, ul dilrabo ishqi mani zor ayladi.

Ul quyoshdin ayru bir zarra qarorim qolmadi,
Aql-u hushim ketdi-yu, sabr-ixtiyorim qolmadi,
Dardi hijron chekkali tanda madorim qolmadi,
Vasl uchun aylab gadoliq nangu orim qolmadi,
Yig‘lamoqdin o‘zga hajr ichra shiorim qolmadi,
Do‘stlar, ul dilrabo ishqi mani zor ayladi.

Ishq mulkida edim Feruzbaxt-u komkor,
Amrima ma’mur erdi necha sho‘xi guluzor,
Lekin oni ko‘rgach o‘ldum bandasi beixtiyor,
Qolmayin ko‘nglum aro bir zarracha sabr-u qaror,
Aql ila hush-u xiradni qildi mandin beqaror,
Do‘stlar, ul dilrabo ishqi mani zor ayladi.

* * *

Ul pari egnida gulrang libosini ko‘rung,
Mehrdek orazining nur-u ziyosini ko‘rung,
Nutqi jonbaxsh-u, labi ruhafzosini ko‘rung,
Otg‘oli g‘amza o‘qin qoshlari yosini ko‘rung,
Vahki, ul mehrliqo noz-u adosini ko‘rung,
Jonima har nafas ozor-u jafosini ko‘rung.

Orazidin olib ul mehr-u jahontob niqob,
Zeb uchun ko‘zga chekib surma, urub yuzga gulob,
Ko‘zlari fitnasidin qilg‘oli olamni xarob,
Yuzi o‘ti bila aylarga jigarlarni kabob,
Vahki, ul mehrliqo noz-u adosini ko‘rung,
Jonima har nafas ozor-u jafosini ko‘rung.

Gul xijil bog‘ aro oning gul ruxsoridin,
Sarupo dar gul erur qomati raftoridin,
Lol erur qumri-yu bulbul labi guftoridin,
Sindi shakkarga baho la’li shakkar boridin,
Vahki, ul mehrliqo noz-u adosin ko‘rung.
Jonima har nafas ozor-u jafosini ko‘rung.

Jon olur har boqishi birla qaro ko‘zginasi,
Toza jon ham berur elga shakkarin so‘zginasi,
Qoshi yoy, kipriki o‘q, ofatijon yuzginasi,
Fitnagar chobuk xudroyi erur o‘zginasi,
Vahki, ul mehrliqo noz-u adosini ko‘rung,
Jonima har nafas ozor-u jafosini ko‘rung.

Ko‘z yumub noz ila gohi chekibon xomyoza,
Qosh qoqib gah qilibon jilvayi beandoza,
O‘ziga har dam etib g‘amza fununi toza,
Qildi oshiqlig‘im olam eliga ovoza,
Vahki, ul mehrliqo noz-u adosini ko‘rung,
Jonima har nafas ozor-u jafosini ko‘rung.

Jilvayi qomatig‘a tu’bini rizvon banda,
Mutabassim labig‘a g‘unchayi xandon banda,
Ikki shahlo ko‘zig‘a nargisi fatton banda,
Orazi mehrig‘a xurshidi duraxshon banda,
Vahki, ul mehrliqo noz-u adosini ko‘rung,
Jonima har nafas ozor-u jafosini ko‘rung.

Toki ul sho‘x g‘ami ishqig‘a duchor o‘ldum,
Dam-badam dardi balo xayli bila yor o‘ldum,
Kokili domiga pobasti giriftor o‘ldum,
Talab vaslida Feruz kibi zor o‘ldum,
Vahki, ul mehrliqo noz-u adosini ko‘rung,
Jonima har nafas ozor-u jafosini ko‘rung.

RUBOIYLAR

Ey sho‘x, tarahhum aylakim, zoringman,
Jon-u dil-u din ila giriftoringman.
Gar vaslingga aylasang baho jon naqdin,
Yuz jon esa ham berib xaridoringman.

* * *

Qilmish mani bir dilbari zebo oshiq,
Boshdin oyoqi latif-u ra’no oshiq,
Yo‘q mumkin o‘zi xoli hamsuhbati man,
Bo‘lg‘aymu maningdek yana paydo oshiq.

* * *

Jonbaxshi kaloming erur ul nav’ fasih,
Iso kibi jon bergusidur elga sarih,
Har sho‘xki, husn ichra tutar o‘zni sabih,
San borchasidin sabih ham asr-u malih.

* * *

Ko‘rgach yuzung, ey dilbar, farxunda sifot,
Hech qolmadi ko‘nglum aro orom-u sabot,
Xosiyati la’ling obi hayvon yanglig‘,
So‘rg‘on kishiga bergusi jovidi hayot.

* * *

Kam etmadi qahrin manga dildor hanuz,
Tark aylamadi javr ila ozor hanuz.
Man hajrida subh-u shom yig‘larman qon,
Xushnud erur bazmida ag‘yor hanuz.

* * *

Gar dilbarim o‘lmasa mango hamsuhbat,
Naylay esa yuz hurliqo hamsuhbat,
Ul sho‘x agar anisim o‘lmas ersa,
Darkor emas ushbu dahr aro hamsuhbat.

* * *

Ro‘zi sanga borcha kom bo‘lsun, yo Rab!
Iqbol-u man mudom bo‘lsun, yo Rab!
Ham davlati mustadom bo‘lsun, yo Rab!
Ham ishrati bardavom bo‘lsun, yo Rab!

ZAVQIY

(1853–1921)

Ubaydulloh Solih o'g'li Zavqiy Qo'qondagi "Madrasayi oliy" va "Madrasayi chalpak"da tahsil olgan (1870–74). Maxsido'zlik bilan shug'ullangan. Ma'lum muddat mirzalik qilgan, Xo'jand, Samarqand, Buxoro, Toshkent, O'sh, Andijon, Marg'ilon shaharlarida bo'lgan. Madinani ziyorat qilgan (1900). 1903-yil Qo'qonga qaytgan.

Zavqiyning g'azal, muxammas, muvashshaxlarida o'zi yashagan muhit va tuzum, mehnat ahlining ahvoli tasvirlangan. U turmush alam-iztiroblari, hijron azobiga visol umidi, vafodorlik, sadoqat tuyg'ularini qarama-qarshi qo'yadi, kishilarni turmush go'zalliklaridan zavqlanishga, uni sevishga chorlaydi.

Zavqiy hajvchilik yo'lini davom ettirib, o'zbek adabiyotida hajviy yo'nalish taraqqiyotiga katta hissa qo'shdi. "Ajab ermas" radifli muxammasi XX asr boshlari o'zbek she'riyatida muhim hodisa bo'ldi. Zavqiyning she'rlari turli bayoz, majmua, vaqtli matbuot hamda og'zaki manbalar orqali bizgacha yetib kelgan.

G'AZALLAR

Jahonda kamsuxan kim bo'ldi, asrori nihon bo'ldi,
Kimiki so'zladi ko'p, bilki rasvoyi jahon bo'ldi.

Nazokat orturay desang, misoli g'uncha xomush bo'l,
Nadinkim og'zini to ochdi gul, bargi xazon bo'ldi.

Chamanda arg'uvondek surat oro bo'lmag'ing xo'b yo'q,
Pisharda mevasiz sharmandadur, sirri ayon bo'ldi.

Dema mashhur bo'lmoq yaxshi, bug'doy donasi pinhon,
Daraxti qildi javlon, sarg'ayib oxir samon bo'ldi.

Birodar, ol meni(ng) pandimni, o‘z qadringni sindirma,
Kishi o‘z izzatini bilmadi, oxir yomon bo‘ldi.

Agar izzat talabsan kamnamolig‘ orzusin qil,
Qay-u ajnos bisyor o‘lsa sudi yo‘q, ziyon bo‘ldi.

Sadaflar ko‘p og‘iz ochmak bilan ko‘ksi bo‘lur xoli,
Ki ba’zisi labin kam vo qilib durri yagon bo‘ldi.

Ey Zavqiy, xasta og‘zing kam ochib, ibrat ko‘zing ochg‘il
Ajabkim qo‘l yaqoda yurgudek turfa zamon bo‘ldi.

* * *

Yor kelur zamona yo‘q, kelmasa-kelmasun netay,
Sarf etarg‘a xazona yo‘q, kelmasa-kelmasun netay.

Maskani ko‘z ichra desam, mardum aro kalon ekan
Taklif etarg‘a xona yo‘q, kelmasa-kelmasun netay.

Eski buzuq xarobada chug‘zdek ayladim vatan
Bir tuzuk oshyona yo‘q, kelmasa-kelmasun netay.

Man etarga kelmagin, ko‘p emish istixoralar,
Mundin o‘tar bahona yo‘q, kelmasa-kelmasun netay.

Ta’na zanonlar o‘qlari ko‘ksimizi hadaf qilur,
Qolmagidin nishona yo‘q, kelmasa-kelmasun netay.

Jur’ayi jomi vaslidin bermasa-bermasun menga,
Bazmi mayi mug‘ona yo‘q, kelmasa-kelmasun netay.

Kunduzi partav afkanim bo‘lmasa shami anjuman
Va’dasi bir shabona yo‘q, kelmasa-kelmasun netay.

Jon-u ko‘ngulni(ng) torini, soz chekarga shunchakim,
Mutribi xush tarona yo‘q, kelmasa-kelmasun netay.

Ko‘zni tikib qudumiga tokay o‘lurman intizor,
Ilmasa ko‘zga kulbami, kelmasa-kelmasun netay.

Ishq elini(ng) dodiga solmasa yurt-u el quloq
Odili bir zamona yo‘q, kelmasa-kelmasun netay.

Ul ko‘zi vahshimiz buyon bo‘lmasa rom ne ajab,
Zavqiyda dom-u dona yo‘q, kelmasa-kelmasun netay.

* * *

G‘addor falak sitam nishona
Kajdor, mariz, ey zamona!

Yaxshi hama dahr aro nigunsor,
Har yerda rivojdur yomona.

Hech kambag‘al o‘lmagay qarindosh,
Boylarni birov demas begona.

Pul bo‘lsa kifoya, mayli dushman,
Bepul qaramaydi do‘st jona.

Zog‘-u zag‘ani yuribdi ozod,
Bulbulga qafas berur zamona.

Inson sharafi-la qadrsizdur,
Hayvon jasadi-la mardumona…

Sardorlar o‘ldi bexiradlar
Aql ahli yuragi to‘ldi qona.

Ey tez zabon-u mardum ozor,
Qil fikr, ne ish erur chayona?

El tanida shikvayi zamondin
Zavqiy ishing o‘ldi bu fasona.

Yuzingni ko‘rsatib avval o‘zungga bandalar qilding,
Yana ko‘nglum olib yuz noz birla xandalar qilding,
Jamoling partavin solib, ajoyib jilvalar qilding,
Masihdek bir boqishda murda jismim zindalar qilding,
“Senga men to qiyomat oshno”, deb va’dalar qilding.

Qani menga vafoyi ahd qilg‘oning, guli g‘uncha,
Qani bulbulsifat oldingda turgonim ochilg‘uncha,
Qani bizlarg‘a hamsuhbat raqiblardek tong otquncha,
Sani dardi firoqing aytib-aytib yig‘lay o‘lguncha,
Na deb ey mehri yo‘q, men xasta qulg‘a g‘amzalar qilding.

Deb erding: kecha-kunduz men seni yoring bo‘lurman deb,
Tikandek suhbatingda bir guli noring bo‘lurman deb,
Jafoni senga oz aylab, vafodoring bo‘lurman deb,
Umidim ko‘p edi, yolg‘iz xaridoring bo‘lurman deb,
Ajabkim xalq ichinda bulhavas deb shikvalar qilding.

Manga mardumlar aydi: berma ko‘ngul bevafo yora,
Seni ovora aylar, ahdi yolg‘onlar, sitamkora,
Vafosi yo‘q, ishonma so‘ziga, sho‘xi jafokora,
Dedimkim, nosiho in’om ko‘pdur oshiqi zora,
Netay, ey bemuruvvat, oxiri sharmandalar qilding.

Tariqi oshnoliqni buzub nomehribon bo‘lding,
Meni jononim erding, emdi kimga jonajon bo‘lding,
Necha kun menga ulfatlik qilib oromi jon bo‘lding,
Ko‘zimni mardumida necha soat mehmon bo‘lding,
Qalandardek tanimg‘a g‘am haririn jandalar qilding.

Kima aytib, kima yig‘lay bu zolim yor jafosini,
Haqiqat qilmasa ma’shuq degan oshiq xatosini,
Hamisha furqatin tortsam, raqib ko‘rsa vafosini,
Qay-u Layli sifat mundog‘ qilur Majnun gadosini,
Yuzingni bir ko‘ray desam qo‘lingni pardalar qilding.

Agar bilsam edi begona bo‘lmoq ixtiyoringni,
Boshimg‘a solmas erdim behuda savdoyi koringni,
Hama aytur nechuk qilding, o‘shal mastona yoringni,
Ko‘ngulda ginasi bor, arz qil ahvoli zoringni,
Solib bo‘ynumga hajring zanjirin badkardalar qilding.

Yuragim rahna bo‘ldi, bas qil istig‘noni, jononim,
Firoqing torta-torta yoshligimda ketti darmonim,
Arazingni qo‘yub, lutf aylasang hech yo‘qtur armonim,
Ko‘zim nuri tanimni quvvatisan, ey dil oromim,
Na xo‘b bir necha kun Zavqiy qulingga shevalar qilding.

* * *

Dildagi rozimni, ey bodi sabo, men kimga dey,
Sen ko‘ngul sirriga mahram oshno, men kimga dey,
Chekkanimni zulm-u, bedod-u, jafo, men kimga dey,
Hasratim ko‘p, bir parig‘a mubtalo men kimga dey,
Ishqida kuygan yurak bag‘rim ado men kimga dey.

Qayda zikri shahd etay, shirin maqolimni demay,
Gulni(ng) vasfi yo‘q kerak, ruxsori olimni demay,
Sarvlar fikri kerakmas navniholimni demay,
Husn mulkin shohi bo‘lsa arzi holimni demay,
Termilib yo‘lidagi yotgan gado, men kimga dey.

Andalibi bog‘ o‘lub ilhon chekardin tinmadim,
Goh-gohi nolayi pinhon chekardin tinmadim,
Savti gulbongi sado nolon chekardin tinmadim,
Gul yuzingni shavqida afg‘on chekardin tinmadim,
Bu chamanda bulbuli dastonsaromen, kimga dey.

Qo‘rqmagan kimdurki oshiqlarni ohi sardidin,
Bestun tog‘idagi Farhodi g‘am parvardidin,
Bu junun sahrosida Majnuni olam gardidin,

Aql nosih, ishq bebok — ikkisini(ng) dardidin,
Ayta olmay hech kimga bu mojaro, men kimga dey.

Soqiyo, sadqang bo‘lay, bir no‘sh tutg‘il Zavqiyg‘a,
Yo‘q, g‘alat derman sharobi xush tutg‘il Zavqiyg‘a,
Rindlar ichra mayi madhush tutg‘il Zavqiyg‘a,
Garchi ikrohi tabiat go‘sh tutg‘il Zavqiyg‘a.
Senga demay arzi holim, dilrabo, men kimga dey.

* * *

Zolim falak bisotida ozor muncha ko‘p,
Inson sharafli nomi bila xor muncha ko‘p,
Har ko‘chalarda qashshoq ila zor muncha ko‘p,
Tarhi jahon binosida badkor muncha ko‘p,
Xo‘qand aro baloga giriftor muncha ko‘p.

Hamroz-u do‘st topilsa-yu jonlar fidosidur,
Orzu shukim: kamina ko‘ngil muddaosidur,
Xush suhbati majruh dilim davosidur,
Maqdami ko‘zuma ayni shifo xoki posidur,
Yo‘q andog‘ anisim, dunyoda ag‘yor muncha ko‘p.

Nodon sevar zamona, dod ilkidin netay,
Boshim olib fig‘on ila yo bir tomon ketay,
Ushbu diyori masxarani emdi tark etay,
Tinmay shikoyat ila yomonga raqam bitay,
Jumla falokat ahlig‘a g‘amxor muncha ko‘p.

Dorilamon bo‘ldi ajab fohishaxonalar,
To‘lmasmi kasofatdin oxiri paymonalar,
Dono ko‘rub bu kulfat o‘tida yonalar,
Qolsin fisq-u fujuri boshidin ordonalar,
Qarg‘ishga nishon benomus-u beor muncha ko‘p.
Ilm-u hunarlar o‘rnig‘a puldor to‘ng bo‘yin,

Uch-to‘rti yig‘ilib qilishur it kabi o‘yin,
Ehson g‘aribg‘a yo‘q, shohona qilur to‘yin,
Aytsa ado bo‘lmas, sira minba’d fe’l-u xo‘yin,
G‘ussa dilim sharh aylasam asror muncha ko‘p.

Qishloq eli shaftoli qoqi, non topolmagay,
Kiygan libosini tortsa (belini) yopolmagay,
O‘ldi sovuqda ko‘pi och, o‘tun yoqolmagay,
Ko‘rdiki bu mashaqqati hargiz yo‘qolmagay,
Qish chillasida yozga umidvor muncha ko‘p.

Kim tashna yer uchun, kimida ikki-uch haram,
Birovi bevatan-u, birovda bog‘i eram,
Birovni(ng) so‘zi zulfiqor, birovni(ng) qaddi xam
G‘addor falak, doim ishing bo‘ldi besh-u kam,
Kajdor zamona, dog‘uli makkor muncha ko‘p!

Birov siym-u zar ila o‘limdin omon bo‘lur,
Yetib murodg‘a biri hakimi zamon bo‘lur,
Aqcha uchun kishi rohizan yomon bo‘lur,
Bechora kosib ahlig‘a, bilgil, ziyon bo‘lur,
Nohaq qon to‘karga bosmachi xunxor muncha ko‘p.

Derlar birov ulug‘u birini(ng) past taqdiri
Biri to‘q-u, biri och, balolarni(ng) sobiri,
Inson sharafli nomida emasmi har biri?
Yoxud ona tug‘ganida bo‘lganmi bir siri,
Yolg‘on e’tiqod ila bid’at shior muncha ko‘p.

Zavqiy, kim aydi, muncha shikoyati daroz qil,
So‘zni muxtasar aylab, iboratni oz qil
Kim zimiston ko‘ngillarni bahor-u yoz qil,
Qad rost turub, so‘z bila elni sarafroz qil,
Aytmay desang, munosibi ash’or muncha ko‘p.

MURABBA

Bu ravzaga kimki kelib,
Bir kechasi mehmon ekan.
Umrida bir ko‘rgan kishi
O‘lganda bearmon ekan.

Ikki tarafdin soy deng,
Ko‘m-ko‘k musaffo choy deng,
Har dam ichib hoy-hoy deng,
Obihayoti jon ekan.

Osmonga qo‘ygan nardbon,
Chiqsang tamosho bir jahon.
Nahri ulug‘, har so‘y ravon,
Ko‘rmakka ko‘z hayron ekan.

Keldik yetib mohi rajob,
Har kim ko‘rar aylar ajab,
Na pors ko‘rgan, na arab,
Bir jannati rizvon ekan.

Boloda tang-tang ko‘chalar,
Turg‘ayki, shayx-u xo‘jalar,
Kelsa tovuq ham jo‘jalar,
Yozmoqda dasturxon ekan.

Bad shakl-u bal xo‘, badiamo,
Botinda kiyna, fisq riyo,
Kim uchrasa shilqim gado
Sulloh ozori jon ekan.

Sahni ajoyib xush havo,
Ham ruhparvar, jon fizo,
Xushbo‘ ko‘ringay har giyoh,
Jambil bilan rayhon ekan.

Kabiklari bo‘ynin cho‘zib,
Yuz sovt ila nag‘ma tuzib,
Bulbul navolar ko‘rguzib,
To‘tisi xush ilhon ekan.

Bo‘lsa kerak bul tog‘lar,
Kam-kam chiroyli bog‘lar,
Hech kimsa ko‘rmas dog‘lar,
Ko‘ngli aro qolgan ekan.

Zavqiy kelib ko‘p turmadi,
Tursa rafiqlar qo‘ymadi,
Oyo nasiba bo‘lmadi,
Ehromi uchqo‘rg‘on ekan.

IS'HOQXON IBRAT

(1862–1937)

Is'hoqxon Junaydullaxo'ja o'g'li Ibrat ma'rifatparvar shoir, zabardast tilshunos, tarixshunos olim, ilk o'zbek matbaachilaridan bo'lib, 1862-yilda Namangan yaqinidagi To'raqo'rg'on qishlog'ida tug'ilgan. Dastlabki ma'lumotni eski maktabda, so'ngra onasining qo'lida tahsil oladi. Qo'qon madrasasida o'qigan. Is'hoqxon Ibrat 1886-yilda madrasani tugatib, To'raqo'rg'onda yangi maktab ochadi, 1907-yildan bu maktab usuli jadida yo'sinida ta'lim bera boshaydi.

She'rlarida mahalliy va chor amaldorlari kirdikorlarini fosh etgan, ilm-u ma'rifatni targ'ib qilgan. 1901-yilda arab, fors, hind, turk, o'zbek va rus so'zlaridan tarkib topgan "Lug'ati sitta-alsina" ("Olti tilli lug'at") tuzadi. Mazkur lug'at jadid maktablarida sharq va rus tillarini o'rganishda birdan-bir qo'llanma sifatida foydalanib kelindi. Is'hoqxon Ibratning 1912-yilda yozuvlar tarixiga bag'ishlangan asarida lotin, yunon, xitoy, hind, arab, kirill yozuvining kelib chiqishi, rivojlanish tarixi haqida ma'lumot berilgan "Jome ul-xutut" ("Yozuvlar majmuasi") asarini yaratdi. Ibrat chin qalbdan o'z xalqining ilmli, ma'rifatli bo'lishini istadi. O'ttiz yillik poetik ijodining majmuyi "Devoni Ibrat" she'rlar to'plamini tuzdi. Tarixga oid "Tarixi Farg'ona", "Tarixi madaniyat" va "Mezon uz-zamon" ilmiy asarlarini yaratdi. Deyarli hamma asarlari Ibrat tomonidan tashkil etilgan "Matbaayi Is'hoqiya"da chop etilgan.

G'AZALLAR

Sarv bo'yluq xush qadam ra'no sifat, xush keldingiz,
Yurishing tovus kibi barno, sifat xush keldingiz.

Lablaring shahd-u shakar, oq tishlaring durdonadur,
Ko'zlaring bodomi tar Laylo sifat, xush keldingiz.

Ham kelinlik davrini sursang kerak bir necha vaqt,
Nuri diydam, tojsar, kelin oyim, xush keldingiz.

Umringiz bo‘lsin daroz ham baxtingiz bo‘lsin kushod,
Oxuni barno bilan qo ‘sha qaring, xush keldingiz.

O‘n to‘rt o‘g‘il, yetti qiz bersun Xudovandi jahon,
Uning, o‘sing, ey bo‘tam, kelin oyim, xush keldingiz.

Qaynotangiz davlatin Sizga nasib etsun egam,
Toleying bo ‘lsun baland, yonsun chiroq, xush keldingiz.

* * *

Dunyo aylab safarlar, topmadim xo‘b orqadosh,
Hasrati dilni deyolmay, hech etmay sirni fosh.

Asrimiz insonlariga bo‘lmadi bir dardkash,
Kimni so‘rsang suhbat aylar sanda bo‘lsa non-u osh.

Hech vaqti teng kelurmu husnida ham quvvati,
Ham bahorda kim qilur har yerda qari birla yosh.

Yoshlar bazm-u taashshuq suhbati gulchehralar
Birla doim ijtihod-u qarilar ko‘zida yosh.

Bo‘lsa sanda siym-u zar, har kim qilur ulfatchiliq,
Qayda bo ‘lsang suhbatingni aylagaylari talosh.

Faqirlikda aylamaslar majlisingni orzu,
So‘zlama dahr ahlig‘a, Ibrat, solib og‘zingga tosh.

* * *

Sen uchun bu dam kirmish gulistonga jononlar,
Rashki bog‘i jannatdur yuz tuman gulistonlar.

Qurug‘aydi ko‘z yoshim ul parilar ilkidin,
Seli ashkimni ko ‘rgach, chekti barcha domonlar.

Ishqing ichra, ey Shirin so‘zli Layli, yo‘qtur men
Kezmag‘on-u qazmog‘on ko‘h ila biyobonlar.

Rahm ayla, ushshoqing har safar jafo uzra
Chok etarlar oh aylab subhdek giribonlar.

Dahr gulistonini andalibi lol o‘ldi,
Gul yuzing firoqidin toki chekdi afg ‘onlar.

Yetkamiz nechuk, yo Rab ul sitam — jafopesha,
Bizgamu jafo aylar, o‘zga lutf-u ehsonlar.

Ey buti pari tal’at, chekti qaddingga oxir
Domi zulfi zunnorin murg‘i jon-u iymonlar.

Ochilibmu nargislar sabzlar orosida,
Ikki davri mujgoning ichra chashmi fattonlar.

O‘smalik qoshingmudur yoki qon to‘kib usru,
Zang bog‘lamishdurlar ikki tig‘i burronlar.

Ikki yuz, ikki zulfi dilbaringmudur, Ibrat,
Gullar uzra yo tutmush sunbul ila rayhonlar.

* * *

Tiriklik zahmatidin ushbu kunlardan qalaysizlar?
Bu tiriklik yili bug‘doy-u unlardan qalaysizlar?

Hamani qo‘ymadi o‘z holig‘a, tashvishlar soldi,
Mushavvash aylagan bu ahli dunlardan qalaysizlar?

Jahon hech kimga gardish etmadi iqbolina tavri,
Zamoni holi mol, qofi unlardan qalaysizlar?

Bosib xalqi jahonni, ayladi toroj o‘g‘rilar,
Salomat yotdingizmu, bo ‘yla tunlardan qalaysizlar?

Fasod-u olam etti shu kabi har yerda insonni,
Bu tarzda fitna-yu toroj bunlardan qalaysizlar?

Ki har bir kishida ming xil alomat-u qiyomatlar,
Mashaqqat vaqtini umri o‘rinlardan qalaysizlar?

* * *

Ey dahr eli, bilinglar, turfa zamon bo‘lubdur,
Beandisha xaloyiq fe’li yamon bo‘lubdur.

Olim bila faqirda zuhd-u amal bo ‘lunmay,
Yoinki amri ma’ruf go ‘yo nihon bo‘lubdur.

Shayxlarni(ng) xonaqosi qolmay ani baqosi,
Bir-birin shikva qilmoq ul ham tamom bo‘lubdur.

Madrasalar ichinda ko‘b fitna birla sho‘rish,
Har kunda o‘n xil urish, oq salla non bo‘lubdur.

Bermas zakot boylar, sandiqqa pulni joylar,
Chipta-u necha toylar, so‘z amirkon bo‘lubdur.

Dehqon eli bilingiz, xirmonni kecha olg‘ay,
Bir dona xayr qilmas, oxir zamon bo‘lubdur.

Bopanda yo duradgor yoki barcha ustolar
Ishin bitirmas aslo, yalg‘onga kon bo‘lubdur.

Qassob-u qo‘yfurushlar — jang-u jadal urishlar,
Bechoralar fuliga go‘sht ustuxon bo‘lubdur.

Novvoyda yo‘qdur insof, andin o‘tadur allof,
Ko‘r, chaksa un xamiri qirq ikki non bo‘lubdur.

Ko‘b qozixonalarda ushbu zamonalarda
Ishdin zakunchilar ko‘b, emdi yamon bo‘lubdur.

Janjalni axtarurlar ful olmoqqa xaloyiq,
Janjal fuli alarga choy ila non bo‘lubdur.

Ellikboshi deganlar uy boshidan yeganlar,
O‘z mansabiga mag‘rur, go‘yoki xon bo‘lubdur.

Har ko‘chada qorovul, yo‘qdur qo ‘lida dovul,
So‘zlar chaqib bo‘lusga, misli chayon bo‘lubdur.

Alhol muhtasib yo‘q, bir-ikki qilsa ul do‘q,
Ichkuga xalq rog‘ib, doim fiyon bo‘lubdur.

Ushbu zamon onlar, topdi rivoj yamonlar,
Yo ‘q emdi nuktadonlar, qanday zamon bo‘lubdur.

Har yerda oshkora fohish ishi-la lu’bat,
Nosih muhtasiblar basta dahon bo‘lubdur.

Boy ila kambag‘al yo‘q, yo‘q zanlarini farqi,
Barcha libosi haftrang, bir nogahon bo‘lubdur.

Xalq o‘ldi emdi tartib, ro‘molga burnin artib,
Moshina aylamasdan, kiymas chofon bo‘lubdur.

Mahbubi naxshixonlar, ko‘zi qaro juvonlar
Gasnitsalarda yurib, sarfi ziyon bo‘lubdur.

Manzuma soli tarix, bu dahri inqilobi,
Ming ikki yuz to‘qson ikki bayon bo‘lubdur.

Ibrat, bu yerda turma, bunlar bila o‘lturma,
Bu xalqi fe’li-huyi senga ayon bo‘lubdur.

* * *

Ishqing dil-u jona jo bo‘lubdur,
Jon-u dil ango fido bo‘lubdur.

San aylamasang agar davosi,
Dardi, mani bedavo bo‘lubdur.

Ohim tuguni-la ro‘zg‘orim
Yaldo tuniday qaro bo‘lubdur.

Tan bog‘idin andalibi jonim
Ko‘yingni tilab jalo bo‘lubdur.

Ishq ichra chu man kibi nasibi,
Yori soridin jafo bo‘lubdur.

Husn ichra vafo yo‘q emish, jon,
Ki san kibi bevafo bo‘lubdur.

Vaslingga yeturga ibrat asr-u
Hajr ilkig‘a mubtalo bo‘lubdur.

* * *

O‘shal bulbul qilar afg‘on sahar vaqti chaman ichra,
Qo‘nar gul deb tikan uzra sahar vaqti chaman ichra.

Qilar bag‘rini bulbul qon, tikan uzra beray deb jon,
Bo‘lur gul zavqidin qurbon sahar vaqti chaman ichra.

O‘shal bulbul bo ‘lur dog‘lar, chamanni gasht etib chorlar,
Qizil gulni tilab yig‘lar sahar vaqti chaman ichra.

Chiqar bulbulni afg‘oni, chaman ichra oqib qoni,
Tasadduq gul uchun joni sahar vaqti chaman ichra.

Muhabbat birla mast erdi, ani yo‘lida jon berdi,
Qizil guldin xabar so‘rdi sahar vaqti chaman ichra.

Muyassar bo ‘lsa ul jonon, ato qilsa o‘shal subhon,
Yo‘lida jon qilay qurbon sahar vaqti chaman ichra.

Ibratiy, bexabar bo‘lma, yana g‘aflat bila o‘lma,
Gunohi beadad qilma sahar vaqti chaman ichra.

* * *

Ramuz, dilbari jonon, mani ado qilasiz,
Bu telbalarni yana g‘amga mubtalo qilasiz.

Suchuk til bila tabassum qilib, so‘rab holim,
Avvalda va’da berib, oxiri jafo qilasiz.

Libosi atlas kamzul kiyib, havo aylab,
Raqiblar oldida ko‘z bila imo qilasiz.

Ko ‘zum qarosi kuygayki, boshqaga qarasam,
Agar gapursam, tilimni tilim-tilim qilasiz.

Agar g‘azab bila borib, mozorima tebsang,
Ayog‘im og‘ridi deb, qabrima jafo qilasiz.

Labingni xolini o‘pmoqchi bo‘lib savol etsam,
Xiroji Misr-u Badaxshon debon baho qilasiz.

G‘amingda Qozi quling yig‘layur hama doim,
Qoshingni yoy etibon, kiprikni qaro qilasiz.

MURABBA'

Guldek yuzingni, dilbarim,
Ko'rgoni keldim sog'inib.
Sen shohinolam, men gado,
Ko'rgoni keldim sog'inib.

Kel-kel mani holim so 'rab,
Ey, oshiqi holim xarob,
Bo'ldi yurak-bag'rim kabob,
Ko'rgoni keldim sog'inib.

Ishqingda dilbar zor-zor,
Yig'lab yuribman, ey nigor,
Kel ey, bukun, ko'zi xumor,
Ko'rgoni keldim sog'inib.

Sizdin bo'lak yo'qtur kishim,
O'zga bilan yo'qtur ishim,
Mastona ko'zli mahvashim,
Ko'rgoni keldim sog'inib.

Tan ichra jonim sen eding,
Xush mehribonim sen eding,
Shirinzabonim sen eding,
Ko'rgoni keldim sog'inib.

Man xasta dil hayron bo'lub,
Ishqingda sargardon bo'lub,
Parvona yanglig' orgulub,
Ko'rgoni keldim sog'inib.

Darding bilan darmondaman,
Topkin iloj, bemoraman,
Vasling bilan aftodaman,
Ko'rgoni keldim sog'inib.

Ey dilbari nozik badan,
Ham tishlari durri Adan,
Oy yuzlari bog‘i chaman,
Ko‘rgoni keldim sog‘inib.

Bog‘-u bahorim san mani,
Ko‘zi xumorim san mani,
Shirinzabonim san mani,
Ko‘rgoni keldim sog‘inib.

Mandin yashirma yuzlaring,
Yodimg‘a tushdi so‘zlaring,
Kuydurdi, yorim, ko‘zlaring,
Ko‘rgoni keldim sog‘inib.

Ko‘yingda, dilbar, zor-zor,
Shom-u sabo, layl-u nahor,
Yo‘q emdi bizda ixtiyor,
Ko‘rgoni keldim sog‘inib.

Ibrat quling qildi duo,
Sandin ijobatdur yano,
Doyim deyur hamd-u sano,
Ko‘rgoni keldim sog‘inib.

MUXAMMAS

Namangan ahlig‘a xo‘b o‘ldi, bir yaxshi zamon keldi,
Murodoti xaloyiq uzra bir jon-u jahon keldi,
Dema jon-jahon avqot uchun bu xalqqa don keldi,
Dema don, balki bunlarga maishat uzra non keldi,
Ajib bir foyizi arzoqi insoniy vagon keldi.

Namangan ahliga bormoq edi Xo‘qandga ko‘b mehnat,
O‘tursa sart aroba uzra mehnat ustiga kulfat,

Aroba mehnatidin bormoqqa bo‘lmas edi jur’at,
Bu dayo-yu aroba mehnatidin aylanbon uzlat,
Ajib bir foyizi arzoqi insoniy vagon keldi.

Hama olamni kori bori oson o‘ldi foyizdin,
Barobar Mag‘rib-u Mashriq chu yak son o‘ldi foyizdin,
Bu xalqullolara arzoqi arzon o‘ldi foyizdin,
Matoe jumla ashyo keldi, bir qon o‘ldi foyizdin,
Ajib bir foyizi arzoqi insoniy vagon keldi.

Tashabbus ayladi kelturmoqqa hurmatli Essin,
Bilib erdi Namangan mavzein bu xalq barchasin,
O‘qub erkan handasa ilmini ko‘bdin alifbosin,
Muboraklar desin xalqqa, ishiga ofarin desin,
Ajib bir foyizi arzoqi insoniy vagon keldi.

Namangan ila Xo‘qand o‘rtasi garchand yaqin yo‘ldur,
Hama qum birla ochug‘ suv ila to‘lgan yamon ko‘ldur,
Yo‘lovchini bosib o‘ldurmoqqa bosmachiga qo‘ldur,
Temiryo‘l aylamoqqa lozimi lobad maxmuldur,
Ajib bir foyizi arzoqi insoniy vagon keldi.

Ming uch yuz-u yigirma sakkiz erdi bu temiryo‘lga,
Kelib ish boshlagan erdi qaramay o‘ng ila so‘lga,
Xaloyiq ish boshlashib past-u baland, ko‘l ila cho‘lga,
Bihamdullah, bu ishda keldi ko‘bni maqsadi qo‘lga,
Ajib bir foyizi arzoqi insoniy vagon keldi.

Bo‘lub bu shahrimiz navzodi bunyod o‘ldi ijodiy,
Safarni zahmatidin xalqlar oldi xatti ozodiy,
Namanganni nihodiga nasimi yetti obodiy,
Qilurmi hargiz emdi ul kirokash zahmatin yodi,
Ajib bir foyizi arzoqi insoniy vagon keldi.

Namangandin chiqarduk sart aroba mehnatin tortub,
O‘turub besaranjom, yuk ila sirka qovoq ortub,

Urub otlarni qumlarda va yo ko ‘llarda ko‘b xortub,
Arobakash ila xo‘b mushtlashib, ko‘b oh-voh tortub,
Ajib bir foyizi arzoqi insoniy vagon keldi.

Yurarga bo‘ldi go‘yo tasxir bodi Sulaymoni,
Yeturgay muddaoga yetmayin bir lahza, bir oni,
Ko‘targay bir shahar arzoqini tahsinga yo‘q joni,
Ko‘b erur xonasi anvoyini yo‘qtur haddi soni,
Ajib bir foyizi arzoqi insoniy vagon keldi.

Edi katta xatar yo‘lchilara bu shahar bahri,
Agar toshsa, bu daryo o‘tib bo‘lmas Xudo qahri,
Munga yalab temir ko‘prik go‘yo bir etib nahri,
Umumiy ko‘b mashaqqat o‘ldi oson hikmati dahri,
Ajib bir foyizi arzoqi insoniy vagon keldi.

O‘qingiz, ilmi himat sizga, bu ish katta Ibratdur,
Agar ilm o‘rganursiz barcha ishda sizga nusratdur.
Agar ilm o‘lmasa, nodon umri barcha kulfatdur,
Bu ashyoyi jadidi mubaddini asli hikmatdur,
Ajib bir foyizi arzoqi insoniy vagon keldi.

* * *

Ey ko‘ngul, malomatdin och ko‘zing hilol ichra,
Jon labimg‘a yetkurmush jurmi infiol ichra.

Ey chirog‘i dil, tavfiq ka’basina azm etgil,
Umr Mahdi yuz qo‘ymay pardayi zavol ichra.

Murg‘i ruh jon uchmoq fikrig‘a parishondur,
Bir alifdurur qaddim go‘yiyoki bol ichra.

Farq kosasi uzra botil o‘ldi ko‘rmakdin,
Harfi fi kibi ko‘zlar qoldi bu soqol ichra.

Jurni qiyl-u qolimdin o‘tkarib bukun, yorab,
Solmag‘il kashakashg‘a tong-la qiyl-u qol ichra.

Ka’ba zoyiri yanglig‘ qismatim savob aylab,
Dayr rohibi monand qo‘ymag‘il vubol ichra.

Buzdi umr bunyodin ..... lar fikri,
Seldek yetib hardam vodiyi xayol ichra.

Fisq loyig‘a botqon bosh-oyog‘imni ko‘rgach,
Xunfishondurur ko‘zdin ruhi jon bu hol ichra.

Bandalik shioridin so‘rsa gar xudovandi,
Qolmagay edi, Ibrat, nutqi tong-la lol ichra.

* * *

Ey yori sumanbari yagona,
Bayzo ruhi charxi oshiyona.

Hajring o‘ti ichra man talabgor,
Vaslingda chu shami yona-yona.

Dargohinga bosh qo‘yarg‘a ko‘nglum
Aylar edi namozni bahona.

Vasl qushi rom etarga ashkim
Yuz uzra to‘kuldi dona-dona.

Hajring g‘ami daftarini yozdim,
Ko‘nglumni etib kutubxona.

Zohid, berib urma to‘g‘ri yo‘ldin,
Pandingni biz elga mushfiqona.

Har yo‘lki sanga rizo xudoyo,
Ul yon aylagil mani ravona.

Har kimsaki jon yo‘linda bergay,
Ul topqusi umri jovidona.

Ibratni o‘zing tarafg‘a undab,
Rasvoyi qilma ikki jahona.

* * *

Ey niholi qomati sarvi sanobardin o‘tar,
Lablarin qirmizligi shahd-u shakkardin o‘tar.

Yuzlari ko‘z nurini aylar munavvar har zamon,
Ko‘zlarini shu’lasi obdori gavhardin o‘tar.

Shahd so‘zlarga takallum aylasa jon baxshidur,
Jonga tekkanda mazoqi hushi mahshardin o‘tar.

Ul hiloli jabhasi davrada hola misl,
Badr yuzi nurida ko‘p shohi anvardin o‘tar.

Nav zulfi xattidur manday oshiq ahlig‘a,
Hajrida oshiqqa der rayhon anzordin o‘tar.

Xulqi xo‘bi ham kulosi doimo egri turar,
Boshiga qo‘ygan u toji afsardin o‘tar.

Oy yuzi tug‘rosida maddi kamoni yuzi,
Lablarini rangida yoqudi ahmardin o‘tar.

Lablarini rangida o‘lg‘usidur oshiqi,
Hajrida dilda rangi gohi asfardin o‘tar.

Ibrat, o‘lma ishq yo‘lida bularga mubtalo,
Ming baloga kulfati har kunda boshingdin o‘tar.

* * *

Jahondin aysh izlab, ahli haqdin olmading ibrat,
Hama qori jahon borini etding, topmading nusrat.

Sanga tanbih emasmu mu'taqid dunyoga u shaddat,
Behisht taylab bino ko'rmay o'ziga soldi haq furqat.

Uzun umri-la olam ahlig'a shoh o'ldi ul Qorun,
O'lib ketdi, hama dunyodi qoldi, oldimu muhlat.

Xudodin yoki xat oldingmu o'lmaslikka dunyoda,
Qo'lingda bo'lsa ko'rsat o'lmasligingga bir xatt-u hujjat.

Tilingda bandamen dersan, qo'lingdan kelmagay bu ish,
Tasarruf aylamay dunyoni nafsingga qilib jur'at.

Agar Abdulahadsan, mosivolardan umiding uz,
Jamolulloh agar qalbingda bo'lsa, maqsadi ru'yat.

Maqomi banda qandoq bo'lsa hajoga nozir,
Shuhudi g'aybda bo'lg'usidur xoja sanga ulfat.

Makon istarmusan yoki makinmu aslida qasding,
Makon istar kishig'a ko'zlamak lozim emas jannat.

Sanga qaydin bo'lur qalbi safo og'ushi dunyosan,
Qabuli haq emassan yetmaguncha xalqdin uzlat.

Amal qil o'z so'zingg'a, bo'lma nosih xalqqa munda,
Amallik banda bo'lsang, topkay erding dunyoda izzat.

Tamanno aylama uxroda bu ilmim Xudodir deb,
Valiylar ham o'tolmas oxirat ko'prukidin belat.

So'zingda haqni savdosi, o'zingda zarra zuhding yo'q,
Taxallus aylamushsan xalqaro otingni deb Ibrat.

HAZINIY

(1867–1923)

Haziniyning asl nomi Ziyovuddinxon Kattaxoja o'g'li bo'lib, Qo'qon yaqinidagi Katta Kenagas qishlog'ida tug'ilgan. Qo'qondagi Jome madrasasida tahsil olgan.

Qur'on, tafsir, hadis, fiqh, kalom, adabiyot ilmlarini chuqur o'zlashtirgan. Tasavvuf ta'limoti bilan izchil shug'ullangan. Dehqonchilik bilan kun kechirgan. Bog'lar barpo qilgan, binolar qurdirgan.

XIX asr 2-yarmi va XX asr boshlarida ko'chirilgan ko'plab qo'lyozma bayozlar va majmualardan Haziniy she'rlari o'rin olgan. 1910–1515-yillarda Toshkentning Orifjonov, Porsev va Laxtin matbaalarida "Bayozi Haziniy" to'plamlari bir necha bor nashr etilgan.

Haziniy mumtoz she'riyat janrlaridan g'azal, murabba, muxammas va musaddaslar yozgan. Adabiy merosi 4000 misra atrofida. Shoirning tasavvuf ruhidagi asarlarida sof so'fiyona ma'no va mazmun tarannum etilsa, axloqiy mavzudagi bitiklarida poklik, odamiylik, saxovatpeshalik kabi yuksak insoniy fazilatlar ulug'langan.

G'AZALLAR

Jahoni bevafodin oxiri bir kun ketar bordur,
Bu dunyo bir rabot, har kim qo'nub bir-bir o'tar bordur.

Ishonma bog'-u rog'ing, mol-u mulk-u, taxt-u baxtingga,
Quyoshdin ibrat olg'il, turmayin oxir botar bordur.

Agar ming yil umr ko'rsang, jahong'a podsho bo'lsang,
Bo'lub xoki mazallat, go'r arosida yotar bordur.

Ibodat aylag‘il tangrig‘a doim, uxlamay tunlar,
Imoningni salomat eltgali necha xatar bordur.

Yigitlik davrini surgil, qarib toat qilursan deb,
Savobingg‘a xudo muhtoj emas, deb o‘rgatar bordur.

Haziniy, bandalikda, bas yurursan bexabar, g‘ofil,
“Kiroman kotibayn”kim xayr-u sharringni bitar bordur.

* * *

Gunahga tavba aylab, emdi toat qilmasam bo‘lmas,
Xato-yu ma’siyatlarga nadomat qilmasam bo‘lmas.

Abas o‘tti yigitlik, sad darig‘o, bexabarlikda,
G‘animatdur, tiriklikda ibodat qilmasam bo‘lmas.

Na yuz birla borurmiz tuhfasiz Haq qoshig‘a fardo,
Hayotim boricha emdi, ibodat qilmasam bo‘lmas.

Sulukim — Qodiriya, rahbarimdur piri pironim,
Saharlar zikri ollohuni odat qilmasam bo‘lmas.

Yurub nafsim uchun shul vaqtqacha, toatni tark ettim,
Qanoat shahrig‘a borib, tijorat dilmasam bo‘lmas.

Fujur-u fisq-u isyonim xaloyiqlar aro shuhrat,
Madina, Makkatulloni ziyorat qilmasam bo‘lmas.

Egosiz it kabi umrum o‘tubdur darbadarlikda,
Haziniy ixtiyori emdi, hijrat qilmasam bo‘lmas.

* * *

Qay-u jonlik jahong‘a kelsa, oxir o‘lmayin qolmas,
Tiriklikda xaloyiq bir-biri qadrini bilmas.

Ajab motamsaro dunyo erur, poyoni yo‘q, bilsam
Ki, san dunyog‘a mag‘rur o‘lmag‘il, hargiz vafo qilmas.

Ayog‘ing ostig‘a boqg‘il, hamma yer ichra pinhondur,
Manam shundek bo‘lurman, deb sani parvoyinga kelmas.

Lahad ichra yotursan, yoz-u qish o‘tgonini bilmay,
O‘g‘ul-qiz, yor-u do‘sting bir kelib sandin xabar olmas.

San o‘lgan so‘ng hama farzandlaring molingni olg‘aylar,
Sani holing nechuk kechgay qaro yerda, bular bilmas.

O‘lum yosh-u qari, shoh-u gadolarg‘a barobardur,
Biling, jon olg‘uchi elni nazarga zarracha ilmas.

Bu besh kunlik umrg‘a joy-u manzil ham kerakmasdur,
O‘lumni o‘ylagan odam bu dunyoga nazar solmas.

Jahannam otashini, go‘r azobin o‘ylagan odam
Sirotul-mustaqimdin o‘tmaguncha yig‘lagay, kulmas.

Haziniy, oxiratga har kishi imon bilan borsa,
O‘shal yerda ani san anglagil, o‘lgan bila o‘lmas.

* * *

Bu o‘tar dunyoga, do‘stlar, bog‘-u bo‘stoning g‘alat,
Barchani tashlab ketarsan, ko‘shk-u ayvoning g‘alat.

Har kishi dunyog‘a keldi, oxiri bir kun ketar,
Toat etmay doimo behuda yurgoning g‘alat.

O‘ylagilkim, kettilar deb jumlayi xesh-u tabor,
Bir kuni san ham ketarsan, munda turgoning g‘alat.

Anglagil, shoh-u gadolarga barobardur o‘lum,
Qil safar asbobini, behuda yurgoning‘ g‘alat.

To‘sha olmasdin borur bo‘lsang xudoni oldig‘a,
Tuhfa kelturdingmu, deb so‘rgonda armoning g‘alat.

Ey Haziniy, bu nasihatga kishi solsa quloq,
Muddaiylar sanga aytur, harna ayg‘oning g‘alat.

* * *

Qo‘ydi ham ko‘ksum aro yuz ming jafolarni firoq,
Ajratib bizdin yana ko‘p oshnolarni firoq.

Vodarig‘o, hasrato, ketti hama ahboblar,
Ham judo etti yana xesh-aqrabolarni firoq.

Lof urub, olam — mani mulkum, degan shahlar qani?
Qo‘ymagay oxir, biling, shoh-u gadolarni firoq.

Dardig‘a topmay davo, ketti Falotundek hakim,
Oldi yer qo‘ynig‘a ko‘p aqli rasolarni firoq.

Ahmadi Muxtor kettilar jahondin, do‘stlar,
Yuz yigirma to‘rt ming ham avliyolarni firoq.

Shoh bo‘l, xohi gado, dunyo vafo qilmas sango,
Barchamizni qo‘ymag‘ay ham rahnamolarni firoq.

Ey yoronlar, bilsangiz, dunyo erur ko‘hna rabot,
Xotun, erkak qo‘ymagay ham yosh balolarni firoq.

Xonaqohda o‘lturub zikr aylagan shayxlar qani?
Jonini oldi, biling, ko‘p avliyolarni firoq.

Naqdi umringni dilingga olgucha toatda bo‘l,
Ey Haziniy, aytasan zikr-u sanolarni firoq.

* * *

Xalildek otashi Namrudga kirsam, o‘lsa gulzorim,
Himoyat aylagay xoliq, o‘zi bo‘lsa xaridorim.

Chiqibon ko‘hi Turga, “rabbano” deb man sado qilsam,
Nidoyi “lantaro”nikim mango yetkur Sattorim.

Boshimg‘a arra qo‘ysa, Zikriyoni zikrini aytsam,
Xudog‘a ma’qul o‘lg‘aymu mani bu fe’l-u atvorim.

O‘shal Yahyo kabi cho‘llar aro oh-u navo qilsam,
Egamni dargahiga manzur o‘lg‘aymu mani zorim?

Vujudimg‘a tushub qurtlar ọ‘shal Ayyubi sobirdek,
Qazosig‘a rizo bo‘lsam, mango rahm etsa G‘afforim.

Kechibon taxt-u baxtimdin o‘shal Ibrohim Adhamdek,
Chaqirgaymu gadolikka qiyomat kun talabgorim?

Firoqi Layli birlan yig‘lasam monandi Majnundek,
Kelib holimni so‘rganmu o‘shal kun joduvash yorim?

Iloho, Mustafoni hurmatidin kech gunohimni,
Haziniy osiyman, afv et, xatoga ketsa guftorim.

* * *

Siz ani odam demang, ko‘nglida himmat bo‘lmasa,
Balki imoni xatarlik, anda g‘ayrat bo‘lmasa.

Kimki johildur, biling, hamd-u sanoda xordur,
Mo‘mini sodiq emas ul, tanda jur’at bo‘lmasa.

Qoni bo‘lsa qatra nayson gar, sadaf durr bo‘lg‘usi,
Badnihode qolgusi, anda qanoat bo‘lmasa.

Hotami Toy kofir erdi, kuymadi do‘zaxda, bil,
Kuydurur erdi egam, anda saxovat bo‘lmasa?

Foniy dunyodin lahadga dastxoli bormagil,
Na qilur xoliq sani, tuhfang ibodat bo‘lmasa?

Jon berar vaqtida shaytondin o‘zing qil ehtiyot,
Bandalik noming g‘alat, imon salomat bo‘lmasa?

Xalqaro rasvo bo‘lubman deb, Haziniy, g‘am ema,
Yetmagay hech kim salomatga, malomat bo‘lmasa?

* * *

Ey banda, xudo yo‘lida toatni unutma,
Ro‘z-u shab-u har lahza, ibodatni unutma.

Jon boricha izlab, tun-u kun haqni rizosin,
Albatta, birodar, bu nasihatni unutma.

Bu foniy jahon ayshig‘a mag‘rur bo‘lubsan,
Diydori xudo birla u jannatni unutma.

Ming yil yashasang, oxiri bir kun o‘ladursan,
Oxir bo‘lasan, xoki mazallatga unutma.

Hech kimg‘a vafo qilmadi, dunyoni bilursan,
Sango keladurgon u kun, navbatni unutma.

Ey odamiyzod, asling-u nasling sani tufroq,
Yalg‘uz yotar birla qiyomatni unutma.

Shukur ayla, Haziniy, sani olamg‘a kelturdi,
In’omi xudo, rizq ila ne’matni unutma.

* * *

Xudoni yodi birla yig‘lagil shom-u saharlarda,
Yaqongni chok etib, san yig‘lagil shom-u saharlarda.

Fig‘on aylab, gunohing vahmidin qo‘rqub, nadomat qil,
Alam o‘tig‘a bag‘ring dog‘lagil shom-u saharlarda.

Ayo tolib, o‘zingni tashlagil haqni rizosig‘a,
Riyozat po‘tasini bog‘lagil shom-u saharlarda.

Ayo, ey bexabar odam, o‘lumni yod qilmassan,
Ketib xesh-u taboring, o‘ylagil shom-u saharlarda.

Sirot ul-mustaqim otlig‘ yo‘lungda bir xatar bordur,
O‘tarni, ey birodar, ko‘zlagil shom-u saharlarda.

Jahannamning azobidin o‘zingni qutqaray desang,
Tilingni ma’siyatdin saqlagil shom-u saharlarda.

Ikki olam murodig‘a yetay deb orzu qilsang,
Haziniy, rohi Bag‘dod ko‘zlagil shom-u saharlarda.

* * *

Vafo qilmas jahon bizgaki, ul Odam ato o‘tti,
Ko‘ring, ikki jahonning sarvari ul Mustafo o‘tti.

Kecha-kunduz Rasulullohni oldidin judo bo‘lmas
Abu Bakr-u Umar, Usmon, Aliyi Murtazo o‘tti.

O‘lum changolidin oxir qutulmas jon-u jonvarlar,
Nechukkim, ul Hasan birlan Husayni Karbalo o‘tti.

Jahondin anbiyo-yu avliyo yig‘lab kecha-kunduz,
O‘turmiz, deb o‘lumni vahmi birlan mubtalo o‘tti,

O‘lumni dastidin, do‘stlar, yurak-bag‘rim kabob o‘ldi,
Nechukkim, keldi navbat bizga, ul ota-ano o‘tti.

Ko‘ring, bu intizor-u xastadil aylab Haziniyni,
Yurub der darbadar doimki, umri bebaho o‘tti.

* * *

Siza jon fido yo hayot an-nabiy,
Qilay man gado yo hayot an-nabiy.

Otingiz — Muhammad, rasuli xudo
Ki, siz Mustafo yo hayot an-nabiy.

Ki, xayrul-bashar, sayyid al-mursalin,
Risolatpano yo hayot an-nabiy.

Mani osiyni yetkurur ravzaga
Qachon ul xudo, yo hayot an-nabiy?

Tavof aylasam xonayi Ka’bani,
Budur muddao, yo hayot an-nabiy.

Qolay “Jannatu-l-Baqya” xokida man
Ki, etsa qazo yo hayot an-nabiy.

Hama ummatingiz umid aylashur
Ki, ro‘zi jazo yo hayot an-nabiy.

Haziniy duosi bo‘lurmu qabul,
Bu g‘arqi guno yo hayot an-nabiy?!

Mustafoga dunyo vafo qilmadi,
Zikriyoga dunyo vafo qilmadi,
Anbiyoga dunyo vafo qilmadi,
Avliyoga dunyo vafo qilmadi.

Abu Bakr-u Umar, Usmon, Alini,
Zuhra birlan Hasan, Husayn al valiyni,
Oldi ajal barcha mursal-nabini,
Murtazoga dunyo vafo qilmadi.

Qayon ketti o'ttuz uch ming sahoba
Kim, yuttilar hasraṭ birla xunoba,
Dunyo erur bir raboti xaroba,
Rahnomaga dunyo vafo qilmadi.

G'avsul A'zam avliyolar rahbari,
Ul Muhammad ummatini g'amxori, —
Masihoga jon bag'ishlar guftori,
Muttaqoga dunyo vafo qilmadi.

Tohirni ko'r, Zuhroga dil bog'ladi,
Ishq o'tig'a yurak-bag'rin dog'ladi,
Tig' ustida o'lmoqlig'in chog'ladi,
Ul shahloga dunyo vafo qilmadi.

Ul Mavlaviy Jomiy bilan Hamdamim,
Mirzo Husayn der erdilar mahramim,
Bahrom aytur, dil-u jon-u Gulandomim,
Haziniyga dunyo vafo qilmadi.

* * *

Olam aro yozding ani shuhratin
Sanga yaqin kimki tutsa millatin
San suyarsan beshak ani ummatin,
Rahmatingdin bizni raho qilmag‘il.

Abu Bakr-u Umar, Usmon, Alini,
Soqiy etting kavsaringga Alini,
Bizga rahbar qilding shundog‘ nabini,
Hurmatidin bizga jazo qilmag‘il.

Hasan-Husayn, Xayrunniso hurmati,
Bandam degil, kull anbiyo hurmati,
Avliyoyi ahli rizo hurmati,
Haziniyg‘a fardo jazo qilmag‘il.

Bir yor uchun tong-la rasvo qilmag‘il,
Sharmandayi ro‘zi jazo qilmag‘il,
Nomasiyah, vohasrato qilmag‘il,
Tong-la safi qavmi tarso qilmag‘il.

Mustafoni bizg‘a qilding payambar,
Shafqatlari biz osiyg‘a barobar,
Ummatlarg‘a pusht-u panohi mahshar,
Rasulingni bizdin judo qilmag‘il.

MUXAMMASLAR

Ikki olamda erursiz osiylarga rahnamo,
Rahmatan-lil-olamin, deb ko‘z tutar ro‘zi jazo,
Qabringizda mavj urodur, rahmati nuri xudo,
Har kishi qilsa ziyorat, dardiga topgay davo,
Ravzayi pokingga keldim, yo rasuli Mustafo.

Bir nazar qilgil mango.Odam safiyni hurmati,
Ham Halili bosafo, Nuhi nabini hurmati,

Ham Abu Bakr-u Umar, Usmon, Alini hurmati,
Yuz yigirma to‘rt ming o‘tgan nabini hurmati,
Ravzayi pokingga keldim, yo rasuli Mustafo.

Tanda-jismimda imon, shoista qilgil tavbaga,
Ul umid birlan borib boshimni ursam ravzaga,
Hazrati Odam duosi bo‘ldi maqbul Ka’baga,
O‘lmasidin bul Haziniykim, boribdur Baqyaga,
Ravzayi pokingga keldim, yo rasuli Mustafo.

* * *

Voy, xor o‘ldi shariat, dinimiz bo‘ldi g‘arib,
Bu nechuk turfa alomat, dinimiz bo‘ldi g‘arib,
E yaqindurmu qiyomat? Dinimiz bo‘ldi g‘arib,
Ko‘p rivoj oldi sharorat, dinimiz bo‘ldi g‘arib,
Barchadin ketti adolat, dinimiz bo‘ldi g‘arib.

Tavba denglar, ey birodarlar, turub shom-u sabo,
Aylashib zor-u tazarrular, tilang haqdin pano,
Doimo toat-ibodatda bo‘lub, aylang duo,
Shoyad etsa rahm rabbim podshoh, bizlar gado,
Jurm etib, qilmay nadomat, dinimiz bo‘ldi g‘arib.

Xonaqohda zikri haq mone, sharorat oshkor,
Barcha nokaslar hukumatda sayiddur, xoja xor,
Kimda dunyo bo‘lsa, holo xalq ichra e’tibor,
Olim-u shayxi zamon xilvatda yig‘lar zor-zor,
Joriy bo‘lmasdin shariat, dinimiz bo‘ldi g‘arib.

Yaxshilarga sabr qilmakdin bo‘lak yo‘qtur iloj,
Bu na mushkuldur, musulmonlar berur mushrikka boj,
Turmayin Farg‘ona ichra emdi, Baytulloga qoch,
Jurm etib, qilmay nadomat, dinimiz bo‘ldi g‘arib.

Har qayonda bo‘lsa, donolarni holo bag‘ri qon,
Bu falak raftori kaj dastidin aylarlar fig‘on,
Qo‘l yaqoda, tavba deb aylang, yana pir-u javon,
Bexabar turma, Haziniy, anqarib oxir zamon,
Vodarig‘o, bu na hikmat, dinimiz bo‘ldi g‘arib.

* * *

Ul shariat mazhari ro‘yi g‘ubor o‘ldi, darig‘,
Ketti holo ravnaqi islom, xor o‘ldi, darig‘,
Qozilar hukmi, ajab, bee’tibor o‘ldi, darig‘,
Zikri haq mone, sharorat oshkor, o‘ldi, darig‘,
Yaxshilarga turgali Farg‘ona tor o‘ldi, darig‘.

Kimni imoni qaviy bo‘lsa, o‘shal hijrat qilur,
Ul Madina shahriga borsam, debon niyat qilur,
Ravzayi payg‘ambarimni oldida xizmat qilur,
Zindalikda o‘lmayin ul joyini jannat qilur,
Ba’ziga bormas bahona ravzaga o‘ldi, darig‘.

Mard-u zan, yosh-u qarida qolmadi sharm-u hayo,
Bu sababdin boshimizga yog‘ilur turluk balo,
Kim erur sohibhukumat, shevadur ango g‘izo,
Bebizoat xordur, izzatda holo ag‘niyo,
Ba’zilar dunyo uchun dindin guzor o‘ldi, darig‘.

Dinimiz bo‘ldi g‘arib, bu xalq holo bexabar,
“Ko‘p alomatlar bo‘lub o‘tgay”, — dedi, — xayrul-bashar
Kim, hadisi Mustafo chun “Qulli yavmindur batar”,
Deb edi, “Ummatlarim dunyo uchun dinin sotar”,
Pul uchun mushriklara mo‘min qaror o‘ldi, darig‘.

Tavba denglar, ey birodarlar, turub shom-u sahar,
Qo‘l ochib qilsang duo, bergay xudo dinga zafar,
Na alomat, na qiyomat, necha yo‘l kuydi qamar,

Turma bu yerda, Haziniy, ravzaga qilg‘il safar,
Anqarib Dajjol xar uzra suvor o‘ldi, darig‘.

* * *

Kimki Haqqa bandadur, farmonidin ayrilmasun,
Kecha-kunduz toati subhonidin ayrilmasun,
Barcha mo‘min rahmati rahmonidin ayrilmasun,
Payravi Ahdam — shafoat konidin ayrilmasun,
Jon berarda gavhari imonidin ayrilmasun.

Haq taolo dedi do‘stim tun-sahar bedorni,
Va’da qildi onlara jannat ila diydorni,
Haq suyar, qilsa saxovat banda harna borin,
Rahmatidin benasib etgay chu dilozorni,
Tong-la rohat istagan ehsonidin ayrilmasun.

Bu jahong‘a kim kelibdur, bo‘lmasun baxti qaro,
Ushbu illatga kishini qilmasun haq mubtalo,
Bu kasal hargiz tuzolmas, dorusi yo‘q, bedavo,
Sud yo‘q, ko‘kdin tushib Iso ango qilsa duo,
Rahmati haq doimo insonidin ayrilmasun.

Odam o‘g‘lig‘a ajal kelguncha yurgay bexabar,
Oxiratni o‘ylamas, ko‘nglida yo‘q xavf-u xatar,
Moli dunyoni yig‘ushturgan bilan tashlab ketar,
To qiyomat tongi otquncha hamon go‘rda yotar,
Hasrato birla o‘tub, xandonidin ayrilmasun.

Yor-u do‘st-u, aqrabolardin judo qilgan firoq,
Hasrat-u anduh ilan qaddim duto qilgan firoq,
Barchani xoki mazallat ichra jo qilgan firoq,
Bir-biridin ajratib sohibazo qilgan firoq,
Bu Haziniy, doimo suygonidin ayrilmasun.

* * *

Nazar sol osiy ummatga, tasadduq, yo Rasulullоh,
Hamisha kori g‘aflatga, tasadduq, yo Rasulullоh,
Mani boshlang hidoyatga, tasadduq, yo Rasulullоh,
O‘shal mahsharda jannatga, tasadduq, yo Rasulullоh,
Soling daryoyi rahmatga, tasadduq, yo Rasulullоh.

Yig‘ilsa avval-u oxir o‘shal sahroyi mahsharga,
Xaloyiq ergashurlar barchasi hodi-yu rahbarga,
Tarahhum qil o‘shal soat bizningdek osiy, muztarga,
Borurmiz barcha tashna suv tilab soqiyi kavsarga,
Berar ahli saodatga, tasadduq, yo Rasulullоh.

Xudo qozi bo‘lub, tong-la gunohimni hisob etgay,
“Hama bandam mani qoshimg‘a kelsun!” deb xitob etgay,
Muhammadga kimikim ummat ermastur, azob etgay,
O‘shal kunni kishikim, o‘ylasa doim, savob etgay,
Yetar ummat sharofatga, tasadduq, yo rasulullоh.

Lahaddin bosh ko‘targanda hama vohasrato derlar,
Qiyomat shiddatidinkim hama vovaylato, derlar,
Hama ummatlaring yig‘lab yana yo Mustafo, derlar,
Muhammad sajdaga boshin qo‘yib, voummato, derlar,
Qolur ummat xijolatga, tasadduq, yo Rasulullоh.

Tarozug‘a solur a’mol elini ul qiyomatda,
Gunohidin savobi ko‘p esa, albatta rohatda,
Bihisht ichra kirar, hur-u qusur birlan farog‘atda,
Haziniy osiy ummat, saqlagil hifz-u himoyatda,
Qilay jonimni hazratga tasadduq, yo Rasulullоh.

* * *

Fikr birla aylagil shafqat o‘lumdin ilgari,
Dargohiga aylagil xizmat o‘lumdin ilgari,

Jurm etgoningga qil hasrat o‘lumdin ilgari,
Ro‘z-u shab tangriga qil toat o‘lumdin ilgari,
Manzilingni aylagil jannat o‘lumdin ilgari.

Jon amonatdur jasad ichra, g‘animat — zindalik,
Tangriga purgirya bo‘lgil, bo‘lmagil ko‘p xandalik,
Ro‘zi mahsharda shaqovat xalq aro sharmandalik,
Haq taologa qilinglar zindalikda bandalik,
Elga dining bermagil — g‘aflat, o‘lumdin ilgari.

Ey birodar, har kishi vaqti sahar bedordur,
Haq taolo, bil, o‘shandog‘ bandasiga yordur,
Toatimiz dilga jannat bilan diydordur,
Haq taoloni rizosi sanga ko‘p darkordur,
Haq sani bandam desa, davlat, o‘lumdin ilgari.

Bu o‘lum haq barchamizga, o‘ylagil, ey oshno,
Bil, nazar qilg‘il, qayon keti! Tamomi anbiyo,
Bir nafas qo‘ymas jahon ichra, agar yetsa qazo.
Hasrato birla ketarsan, mulk-u ashyo bevafo,
Ol go‘ristonga borib ibrat o‘lumdin ilgari.

Pirga qo‘l ber boriyozat, ketmayin ostonadin,
Pir misoli shami ravshan, ibrat ol parvonadin,
Yodi Haq birla bo‘lub, saqla tiling afsonadin,
Ket, Haziniy, ravzayi Ahmadga san Farg‘onadin,
Dam g‘animat, aylagil hijrat o‘lumdin ilgari.

* * *

Kulli ashyoni egam qudrat bilan bor ayladi,
Bandalarga bir necha sun’ini izhor ayladi,
Ba’zini gumroh etib, ba’zini hushyor ayladi,
Necha mursallar etib, mushrikni inkor ayladi,
Kimki kim imoni yo‘qtur, doxili nor ayladi.

Odam o‘g‘lin yer yuziga nechasin sulton etib,
Davr-u davron surdirib, ko‘ngullarin xandon etib,
Bu o‘lumdin bexabar yurdi alar, javlon etib,
Taxt-u baxtini ajal bir kun ani vayron etib,
Barchasin xoki mazallatga giriftor ayladi.

Ba’zisin qildi g‘aniy, bir nechani qildi g‘arib,
Dasti ko‘tohlik bilan doim alar g‘amga qarib,
Bul jahondin o‘ttilar javr-u jafolarni ko‘rib,
Munda yig‘lab o‘tguchi rohat ko‘rar anda, borib,
Bul jahonda yaxshilarni barisin xor ayladi.

Kim g‘arib bo‘lsa agar, ko‘nglida ko‘p anduh-u g‘am,
Doimo eldin yetar onlarg‘a ham javr-u sitam
Kim, jarohatdur yurogi barisi, ko‘rsa alam,
Bu falakdin boshiga kulfat yetodur dam-badam,
Kotibi qudrat ani g‘urbat bilan yor ayladi.

Aksari odamg‘a farzand bermadi hargiz xudo,
Ba’ziga bergonini qo‘ymay yana oldi qazo,
Ona birla otasin qon yig‘latib, qildi judo,
Ushbu illatg‘a kishini qilmasin hech mubtalo,
Ey Haziniy, ba’zini farzand uchun zor ayladi.

* * *

To yetim bo‘lmay kishi, bilmas atoni qadrini,
Jon-u dilda tarbiyat qilg‘on anoni qadrini,
Bilmagay hech kim ako birlan ukoni qadrini,
Bir necha xesh-u tabor-u aqraboni qadrini,
Ajragay-bilgay ako birlan ukoni qadrini.

Tandurustlik lazzatin bemor bo‘lganlar bilur,
Ko‘p yotib, farzandlarig‘a xor bo‘lganlar bilur,
Boshi yostiqda yotib afgor bo‘lganlar bilur,
Parchaye non qadrini ko‘p zor bo‘lganlar bilur,
Kimki manmanlikda, bilmaydur g‘izoni qadrini.

Do‘st-u dushman, har kishi, begona, xohi oshno,
Qochqusi boshingga mushkil tushsa, sandin bevafo,
San uchun ul bevafo ulfat qilurmu jon fido,
Do‘st qadri bilmagay, boshig‘a tushmasdin balo,
Qari-yu a’mo bo‘lub, bilgay asoni qadrini.

Qo‘lda moling borida begonalardin yor ko‘p,
Davlating ketsa agar, dildordin ag‘yor ko‘p,
Ham qadimiy hamnishinlardin sango ozor ko‘p,
Suhbatingdin ihtiroz aylab yana bezor ko‘p,
Mardumi Farg‘ona bilgay ag‘niyoni qadrini.

Bul jahonda ba’zilarni ayladi tirnoqqa zor,
Ba’zilarga xoliqim farzand berdi beshumor,
Ba’zini qildi aziz, bir nechalarni qildi xor,
Harna qilsa holiqim, shukur aylagil layli nahor,
Bil, Haziniy, sidq ila shukri xudoni qadrini.

MUSADDASLAR

G‘amguzore bul jahon, bir-bir ketarni o‘ylasun,
Yurmasun yalg‘uz, kishi rohi xatarni o‘ylasun,
Vaqti yetganda amonatni tutarni o‘ylasun,
Bul qaro yer barchani bir-bir yutarni o‘ylasun,
Hasrato, vovaylato birlan ketarni o‘ylasun,
Har kishi yer ostida yalg‘uz yotarni o‘ylasun.

Moli dunyoni yig‘ushturgan bilan bir kun qolur,
Jon amonatdur kishiga, oxiri bir kun olur,
Ko‘p xaloyiq mol uchun o‘zini kulfatga solur,
Har kishi dunyoga keldi, bilsangiz, oxir o‘lur,
Hasrato, vovaylato birlan ketarni o‘ylasun,
Har kishi yer ostida yalg‘uz yotarni o‘ylasun.

Anbiyo-yu avliyolar o‘lmayin qolgoni yo‘q,
Qullu nafsin zoiqatul-mavtni bilgoni yo‘q,

Barcha ketganlar bu dunyoga taqi kelgoni yo‘q,
Qaysi soat jon berorini kishi — bilgoni yo‘q,
Hasrato, vovaylato birlan ketarni o‘ylasun,
Har kishi yer ostida yalg‘uz yotarni o‘ylasun.

Bandalik qilg‘il tiriklikda, g‘animatdur nafas,
Kecha-kunduz yig‘lamoqni, ey birodar, qilma bas,
Ushbu dunyo ishlari, behudadur hoy-u havas,
Jon misoli andalibdur, bu jasad misli qafas,
Hasrato, vovaylato birlan ketarni o‘ylasun,
Har kishi yer ostida yalg‘uz yotarni o‘ylasun.

Ushbu dunyodin guzar qildi o‘shal Odam ato,
Shish payg‘ambar ila Nuhi nabi, vohasrato,
Ham yana Ibrohim-u, Ismoil-u ham Zikriyo,
Mustafo ketti, Haziniy yig‘ladi “vo ummato”,
Hasrato, vovaylato birlan ketarni o‘ylasun,
Har kishi yer ostida yalg‘uz yotarni o‘ylasun.

* * *

Ko‘ngulni, ey birodar, bog‘lama dunyoga, hijrat qil,
Tiriklik, bil g‘animat,
turmayin uqboga hijrat qil,
Bino qo‘yma imorat mulk ila ashyoga, hijrat qil,
Kechib, Farg‘ona mulkini berib tarsoga, hijrat qil,
Olib ahl-u ayoling, emdi Baytulloga hijrat qil,
Madina — ravzayi poki rasulullоga hijrat qil.

Tugandi emdi dunyo, ey birodarlar, bo‘ling ogoh,
Dari tavba yopilmay, ketmasang holingga vovaylo,
Xuruji qoldi emdi Mahdi-yu Dajjol ila Iso,
Olib ahl-u ayoling, emdi Baytulloga hijrat qil,
Madina — ravzayi poki rasulullоga hijrat qil.
Hama shug‘l ayladi holo zino birlan sharoratga,

Xudoga bandaman, derlar bo‘yunsunmay ibodatga,
Kerak hijrat qilish payg‘ambarim yotgan viloyatga,
Yaqin turmoq uchun yetgay qiyomatda shafoatga,
Olib ahl-u ayoling, emdi Baytulloga hijrat qil,
Madina — ravzayi poki rasulullоga hijrat qil.

Sayd-u xoja, mullo, yaxshilarga zarra hurmat yo‘q,
Faqirlarning dilida zarracha sabr-u qanoat yo‘q
Ki, ustoz birla shogird ham muriddin pirga xizmat yo‘q,
Nechuk hikmat, Haziniy, xonaqohlar ichra suhbat yo‘q,
Olib ahl-u ayoling, emdi Baytulloga hijrat qil,
Madina—ravzayi poki rasulullоga hijrat qil.

ANBAR OTIN

Qo'qon adabiy muhitida yashab ijod qilgan shoiralardan biri Anbar Otin edi. Anbar Otin g'azallarida jamiyatning og'riqli muhiti, mazlum, zahmatkash xalqning chekkan jabr-sitamlari, sodda insonlarning dard-u alamlari aks etgan.

Shoira yurtdagi chirkin hayot, ildiz otib ketgan jaholatni qoralaydi. Odamlarni undan ogohlantiradi. "Bir zamonni o'ylag'ayman, hech zamong'a o'xshamas", "Qay kuni bo'lg'ayki, bo'stonimg'a bir mehmon kelur", "Kelub xushnud avlodim, mani mulkim qilur obod" g'azallarida shoiraning orzusidagi diyor qalamga olingan.

Shoira g'azallarida qo'llanilgan tashbeh, tanosub, talmeh, istiora, tashxis, takrorlar, xalq og'zaki ijodi unsurlari fikr ta'sirchanligini oshirishga xizmat qilgan.

G'AZALLAR

Jahon — og'uga kelgan Anbar otinman,
G'am-u qayg'uga kelgan Anbar otinman.

Yamon soatda keldim man jahonga,
Ini jodug'a kelgan Anbar otinman.

Adab ahli oyoq ostida xordur,
Chunin yog'dug'a kelgan Anbar otinman.

* * *

Ey do'st, jaholat ahlig'a oshno bo'la ko'rma,
To kelguncha baxt-u saodat shaydo bo'la ko'rma.

Har kimki o‘zin o‘yladi, eldin xabari yo‘q,
Ul ablahi bedin ila savdo qila ko‘rma.

Ilmiki adab, ishq-u muhabbatga yiroqdur,
Bilgilki san ul ilmni aslo bila ko‘rma.

Har kim amali el foydasig‘a jori emasdur,
Oning yuzini umringda san bir yo‘la ko‘rma.

Har mug‘bacha daf cholsa, ayo Anbari xushro‘y,
To oshiq emas, ishqida bag‘ring tila ko‘rma.

* * *

Ey zamon, rahm aylagil, vaqti zavolimni ko‘rub,
Yashnamay pajmurda bo‘lgan nav-niholimni ko‘rub.

Qay kuni bo‘lg‘ayki, san mandek gadolar holig‘a,
Aylagaysan bir tarahxum bu maholimni ko‘rub.

Husni xo‘bimmi gunohim, pardayi ismatdami,
Kunduzi ham tun bo‘lubdur labda xolimni ko‘rub.

Yo uzun sochlarmu bu zulmatda yotgan yillarim,
Oy o‘zin abr ichra soldi qaro toleyimni ko‘rub.

Bir o‘zimni aytmag‘ayman zinhor, ey do‘stlar,
Rahm etingiz zulmat ichra ko‘p ayolimni ko‘rub.

Dudi ohim arsh-a’log‘a chiqar, ko‘rgilki, shayx,
Anbarim bo‘ldi hazin to‘sdek bu yolimni ko‘rub.

* * *

Singiljon, hamsoya bo‘lding, sirni pinhon etmagil,
O‘zbek-u g‘ayriya bu deb, millat isyon etmagil.

Millating rus, odamiyatda durust af'ollaring,
Yoshurib odatlaring xotir parishon etmagil.

Har nechuk ozodalik bo'lsa, yarashgay bizga ham,
Vahshilik pobandimizdur, bizni hayvon etmagil.

Hamnafas sanga erur noib, nasihat aylag'il,
Sart millatlarni xo'rlab, chashmi giryon etmagil.

O'zbek ahlidin nechand olimlar chiqqandir bilsangiz,
Shak kelturib ilmimizg'a, fe'li shayton etmagil.

Mushk, Anbar konini topkay musulmon bo'lsa ham,
Manga bo'lg'an xayrixohlikdin pushaymon etmagil.

* * *

Ey bolam, Xayrullaxon maktab ochibdur, boringiz,
Albatta, shu yangi maktabda o'qungiz, boringiz.

Yerda o'lturmay xorrakda o'ltururmish bolalar,
Toza turgay ust-bosh-u jomayi dastoringiz.

O'rgatarmish turk tilida har ilmdin borini,
Kelgusida shu bilimlar birla bo'lg'ay koringiz.

Har o'qushning ma'nisig'a tez tushunsangiz agar,
Yaxshi mullolar kabi olis borar raftoringiz.

Otajoningiz hamiyat bersa, o'qishg'a doimo,
Ul Xudo sog'liqda saqlab bo'lsa doim yoringiz.

Bibixon yaxshi qarab, har kun jo'natsa vaqtida,
Yashnasa, maktab qoshida bog'cha-yu gulzoringiz.

Bolalar, ozoda bo'lsangiz, adabli bo'lsangiz,
Mushk-u anbar hidi bergay kuylagan ash'oringiz.

* * *

Quloq solgil manga, ey do‘xtir birpas,
G‘animatdur bizga o‘tgan har nafas.

Do‘stlarni uyiga borib qaraysan,
Ayovsiz ushatgil bo‘lsa gar qafas.

Man bo‘ldim ul mudhishga giriftor,
Mandin o‘zga yo‘liqmasun hech kas.

O‘rus kelib ham bo‘lmadi osuda,
Zulm-u dahshat yo‘qolsun endi bas.

Man g‘arib bistarda yotib yig‘lasam,
Xudo yetkursa oxir bo‘lmag‘ay abas.

Yoshlarning umrini xazon etdilar,
Ko‘z olaytib u nomussiz hama nas.

Yoshlar yuzin ko‘rsun xurshidi tobon,
Anbar dilida qolmasun bu havas.

* * *

Xudoning ne’matini bo‘lub olg‘onlarg‘a o‘t tushsin.
Shariat hukmini yo‘ldin chiqarg‘onlarg‘a o‘t tushsin.

“Ayolllar sochi uzun, aqli qisqadur” deganlarg‘a,
Tovuqcha aqli yo‘q, axlatni titkanlarg‘a o‘t tushsun.

Tariqcha ilmi yo‘q “qozi kalonman, muftiman” deydur,
Abu Sino, Ulug‘bekdin ko‘z yumg‘onlarg‘a o‘t tushsin.

“Xotunlar mol qatori sotiladur” deb mushtiparlarni,
Zulayho, Layli, Shirinni tan olmaganlarg‘a o‘t tushsun.

Bo‘yi xush Anbar kabilar hayf bu haromxo‘rlar uchun,
Sudxo‘ri fohishaboz, so‘zi yolg‘onlarg‘a o‘t tushsun!

* * *

Bismil o‘lg‘an murg‘ni ko‘rsam, yuragimni o‘ylayin,
Chug‘zi-yu vayrona ko‘rsam, manzilimni o‘ylayin.

Naylayin koshonalarni anda-munda qo‘qqaqib,
Turganini ul tavongar, man elimni o‘ylayin.

Ko‘rinishda mullodek, ammo ilmdin bexabar
Mullo o‘rniga fununi zufununni o‘ylayin.

“Bu savob-u, bu uvol” deb fatvodin nedur murod?
Ma’nisig‘a tushmag‘an nodon elimni o‘ylayin.

Men zaifman dod-u faryodim yetarmu joyig‘a?
Anbarin bo‘yin taratkan kokilimni o‘ylayin

* * *

Ne uchun gul faslida purhanda bo‘lmaydur bu bog‘?
Xanda qilg‘an bog‘ni qay dunyodin aylay so‘rog‘?

Ishtiboh etmoq nechunkim, tegmag‘ay bodi nasim,
Bahri ummondin bu bog‘ yo‘li erur behad yirog‘.

Bu bahor faslida sabzazor o‘lib turmaydimu?
Ne uchun shamshodlar majnuntoldek bedimog‘?

Manda hayrat bo‘ldi paydo, bu nechuk kunlar erur?
Xonadonda kunduzi ham yoqadilar el chirog‘.

Bu ajab sol o‘ldi, yoz o‘tmay misoli qish erur,
Ayni yoz o‘rtasida “g‘a-g‘a” deyur bum ila zog‘.

Pirazan uyi kabi do‘kon yonida yiltirab,
Jon berur vaqtimi, majruh tan yonadur jinchirog‘,

Boylar uyida anqir udi Anbar hidlari,
Kambag‘al uyida yo‘qdur jinchiroqqa lampa yog‘.

* * *

Bu ohim dudi oxir titratur arshi mualloni,
Duo bo'lg'ay ijobat, yorutur bu shabi yaldoni.

Hamisha qo'l ko'tarib aylagaylar ko'p duo barcha,
Duo qilsam qochurg'ayman karomat uzra dononi.

Deyurlar chin duo qilsa, qilur suvlarni ul tesrav,
Kelur vaqteki, boshqa yo'lg'a burg'aylar bu daryoni.

Duo qilmay muruvvat mujdasi birlan ko'karturgay,
Bu tufroq ko'ksiga jo aylagay gavhar-u kimyoni.

O'shandog' olimi purdiydani bo'lay tasadduqi,
Kelur vaqti, bu orzu naqd qilg'ay har tamannoni.

O'zim — Anbar, bu bistarda yoturman poradur bu dil,
Maning xushbo'lig'im oxir tutodur ro'yi dunyoni.

* * *

Bir zamonni o'ylag'ayman, hech zamong'a o'xshamas,
Bu jahon burjida to'rtdin bir tomong'a o'xshamas.

Dasht-u sahro bosh-oyoq bo'lg'ay tamomi bo'ston,
Bu zamonning bo'stoni bo'stong'a o'xshamas.

Tog'laridan ko'p xazina mani ol deb qichqirur,
Jilg'alar shahri azim-u Ko'histong'a o'xshamas.

Bu zamonda shohdur Iskandar-u Doro kabi,
Man degan kunlardagi bir bog'bong'a o'xshamas.

Bo'ri qo'ylar birladur, daxl etmasa dovrug'idin,
Ul zamonda bo'lg'uchi dorulamong'a o'xshamas.

Xizmatida qirqta qiz xizmat qilarmish bekani,
Kelgusi ozoda hur qiz-u juvonga o‘xshamas.

Molini hisobi yo‘qdur, ko‘zi to‘ymas boyni,
Xalqning molini boqqan qo‘ychibong‘a o‘xshamas.

Mingta shoir she’r yozadi yor dardin kuylabon,
Mushk, Anbar hid socharliq dostong‘a o‘xshamas.

* * *

Kelub xushnud avlodim, mani mulkim qilur obod,
Bu vayrona diyorimda shaharlar aylagay bunyod.

Dabistoni ulumni sar-basar ochib har el ichra,
Kengaytib tahsilini, navjuvonlar aylagaylar yod.

To‘sib daryo suvini, cho‘li bedung‘a yuborib jon,
Hama qishloq elini suv balosidin qilur ozod.

Qorong‘u uyda ingrab o‘ltirurmu man kabi xotun,
Hama ash’orini ovoz ila o‘qub, qilur ijod.

Momom — Vaysiy o‘zini qaydi bandda ko‘rdi har hangom,
Qilib Ho‘qondga rihlat, ro‘zg‘orin ayladi barbod.

Ajoyib Marg‘ilonda ammasini ko‘rmadi otam,
Bobom niz xoharini yod etib, aylardi yuz faryod.

Kelur vaqteki, xeshovand jamojam kun ko‘rar xursand,
Zamonning xotini avlodini ruhi ko‘rar dilshod.

Darig‘okim, bu Anbar o‘tadur ko‘rmay ul olamni,
Bu umrim bo‘ldi ko‘tohkim, falak gardishidin ming dod!

* * *

Qay kuni bo‘lg‘ayki, bo‘stonimg‘a bir mehmon kelur,
Gul ochilg‘an chog‘ida bir bulbuli xandon kelur.

Qaysi kun bayt ul-hazanimni yorutmoq soati,
Bu qaro g‘orim ichiga pirpirab shamdon kelur.

Aslida bo‘ston bo‘lib, g‘orig‘a o‘xshar taqlidi,
Chunki g‘urbatdin asorat-bo‘yi qabriston kelur.

Bor umidim bo‘stonim yashnag‘ay qaytib yana,
Man ila suhbat uchun Nodirayi davron kelur.

Ul ulug‘ ustod keynidin manga mehmon bo‘lib,
Kuylashib shoiralari qoshimg‘a yuz chandon kelur.

Bora-bora dasht-u sahro ham bo‘ladur lolazor,
Navjuvonlar sayr uchun, albatta, bearmon kelur.

Anbarim hidini bo‘ylab, kayfidin xushnud o‘lib,
Evaziga man kabilar dardig‘a darmon kelur.

* * *

Ahli din ichra faqir-u benavolar bir taraf,
Mol-dunyo topgan ul boy, mullolar bir taraf.

Din, shariat hukmini tutgon halol rizqi ilan,
Har adoshgonni qilon hushyor asolar bir taraf.

Bebizoatlarg‘a berib taqvo yo‘lini har mudom,
O‘zlarig‘a keng topib olg‘on fatvolar bir taraf.

Mehnat ahli ayshdin mahrum, ma’yus kun ko‘rar,
Bir g‘ujum gumrohlar ujbu riyolar bir taraf.

Har ayol qiz hurmatini hasb-u hol aylab, hamisha
Aql-u vijdon bobida ham bebaholar bir taraf.

Davlatig‘a ko‘b bino qo‘yg‘on pardoz ahli-yu,
Oq dil, oq yuz, qaro ko‘z mahliqolar bir taraf.

Bu ikki toifadin ham chetda qolg‘on muztarib,
Husni gul Anbar kabi farqi qarolar bir taraf.

NOZIMAXONIM

(1870–1924)

O'zbek ayollari orasidan chiqqan birinchi jurnalist-publitsist bo'lib, tatar, arab va turk tillaridagi matbuotni muntazam kuzatib borgan.

She'r va maqolalari 1900-yildan matbuotda bosilgan. Taraqqiyot, ma'rifat va madaniyatni tashviq etuvchi she'r va manzumalari, jaholat, bid'at-xurofotni fosh etuvchi asarlari, zamonasidagi ijtimoiy tengsizlik va avj olgan milliy istibdoddan keskin norozilik bayon qilingan o'tkir hajviy she'rlari "Shuhrat", "Sadoyi Turkiston", "Taraqqiy" kabi gazetalarda muntazam chiqib turgan. Shoira xotin-qizlarning jamiyatdagi roli va o'rni haqida asarlar yozgan, jaholat va zulm poymol etgan o'zbek ayolining milliy, insoniy haq-huquqlarini talab qilib chiqqan.

Nozimaxonim she'riyati 1905–1917-yillar o'zbek adabiyotining yetakchi tamoyillarini aniqlashda, 20-yillar o'zbek she'riyatining xarakterli xususiyatlarini belgilashda muhim ahamiyatga ega.

G'AZALLAR

Ko'zi suzuk nigorim,
So'zi chuchuk nigorim.

Boqmay qiyo o'tarsan,
Aybim nachuk, nigorim?

Hajringda dard-u g'amdin
Qaddim bukuk, nigorim.

Hijroni otashingdin
Bag'rim kuyuk, nigorim.

Nadur xurshidi tobon,
Sensan buyuk, nigorim.

Vah emdi bitti toqat,
Men bir o‘luk, nigorim.

Ko‘ksimga boq alamdan
Choki cho‘kuk, nigorim.

Rahm ayla Nozimangga,
Ko‘zi suzuk nigorim!

* * *

Besabab yoringni o‘ltirmoq, nachuk?
Men vafodoringni o‘ltirmoq, nachuk?

Farz qilding garchi dushmanman senga,
Bunchalar, bas, xor o‘ltirmoq, nachuk?

Voy, hazar aylab meni devonadin,
Bu dili zoringni o‘ltirmoq, nachuk?

Kuyi vaslingni itidur bu g‘arib,
Telba-yu zoringni o‘ltirmoq, nachuk?

Telmirib bo‘ldi nigoron ko‘zlarim,
Chashmi xunboringni o‘ltirmoq, nachuk?

Dam-badam vasfing tilimda, ey pari,
O‘z duogo‘yingni o‘ltirmoq, nachuk?

Vasli ummidingda yurgay Nozima,
Bas, vafodoringni o‘ltirmoq, nachuk?

* * *

Keldi ayyomi bahor, olam gulistondur bu kun,
Lolalar ochildi, sahro bog‘-u bo‘stondur bu kun.

Jahr-zikr-u xonaqahdin yuz o‘girmoq vaqtidur,
Dahrning zavqi safosi bizga mehmondur bu kun.

Etti navro‘z gul chaman husni rasolar husnini,
Ishqida dil bulbuli behud mastondur bu kun.

Boq, niqob oldi yuzidin sarv bo‘yluk yorlar,
Lazzati la’li labi vah menga armondur bu kun.

Rang-barang oq-u qizil ko‘ylak kiyib dildorlar,
Bizni shaydo aylagan gulgun zanaxdondur bu kun.

Chun alarning husnidin olam hamadur lolazor,
Oshiqi ma’shuqqa boqib mast-u hayrondur bu kun.

Nozaninlar noz birla zeb-ziynatlar taqib,
Sumbuli zulflar parishon rayhon namoyondur bu kun.

Nozima, nazming bila madh et bahor ayyomini,
Gar falak kajravligidin yurt vayrondur bu kun.

* * *

Ko‘rguzub nozik jamolin mast-u hayron ayladi,
O‘zi gul sayrig‘a ketti, bizni bog‘bon ayladi.

Ochilib gul g‘unchadek o‘t soldi jon-u jismima,
Bir tarahhum qilmayin olamg‘a doston ayladi.

Ko‘rgach, ul xurshid yuzin o‘tlar tutashdi jonima,
So‘ldurub umrim gulin, baxtimni vayron ayladi.

Yuz jamoli shamiga parvona bo‘ldim o‘rtanib,
Bilmadi holim hanuz, ag‘yora paymon ayladi.

Misli bulbul gul yuzin shavqida aylarman navo,
Lek eshitmay bir yo‘li ko‘zimni giryon ayladi.

Har kecha ul oy firoqida chekarman ohlar,
Bir tabassum qilmayin holim parishon ayladi.

Mayli, shirin til bila derman kamoli vasfini,
Nozima, garchi seni bag‘ringni biryon ayladi.

* * *

Ichmadim sharbat hayotim chashmasidin bir qonib,
Davr jabridin, netaykim, jism ila jonim yonib.

Xalq dermishlar meni bu yurt aro “ko‘b fozila”,
Lek yurmushman hamisha darbadar, majruh bo‘lib.

Shuncha axtardim jahonni, baxt nedur, topmadim,
Sarsari devona yanglig‘ hosil umrim sarg‘arib.

Men desam adl-u diyonat lafzini hokimlara,
Quvdilar, Majnun debon, hech yerda qo‘ymay bu g‘arib,

Bo‘lmadim hamdam vale ul fosiq-u kazzobg‘a,
El taloshin aylabon har sori o‘zni yetkarib.

Dil uyi ranj-u jafodin bo‘ldi oxir rez-rez,
Qayg‘a borsam o‘rtanurman dam-badam qonlar yutib,

Hech odam bormukin Nozima yanglig‘ daxr aro,
Ichmagan sharbat hayoti chashmasidin bir qonib.

* * *

Vah-vahki, men ham bir jismi bejon?
Kim nogah, anga yetushdi bir jon.

Vah-vahki, man ham go‘yoki Xizri,
Kim, anga yo‘luqti obi hayvon.

Vah-vahki, man ham bir dardli bemor,
Xotifdin yetushdi anga darmon.

Vah-vahki, man ham shikasta Ya’qub,
Kim, bo‘ldi visoli xo‘bi Kan’on.

Vah-vahki, man ham bir mo‘ri pomol,
Kim, berdi nigin anga Sulaymon.

Ey Nozima, bas, shukrona qilg‘il,
Mehr-u visola aylandi hijron.

* * *

Qizil gul, bog‘-u bo‘stonim qayonsan?
Fidodur senga bu jonim, qayonsan?

Qaror-u, sabr-u oromim tugandi,
Ushalmay qolgan armonim, qayonsan?

Erib jon-u jahonim, qoldi jismim,
Zaif holimg‘a darmonim, qayonsan.

G‘am-u dardlarg‘a darmonlar yitildi,
Yo‘qolgan tig‘i xunxorim, qayonsan?

Agar yotsam o‘lub tuproq ichinda,
Topilmas ahd-u paymonim, qayonsan?

Hama oshiqlar o‘ldi yuz gadoying,
Yuzi gul, sunbul afshonim, qayonsan?

Kelubtur eshikingga Nozimang, hay,
Sevintir oni, sultonim, qayonsan?

MASNAVIY

O‘qing rusi zabonin, el aro bu yaxshi xislatdur,
Zaboni bezabon bo‘lmoq, biling, bu koni illatdur.

Bilay desang zamon ichra haqiqiy sirri hikmatni,
Yo‘q et mulki vujudingdin fasod-u kulli bid’atni.

Hamma ilm-u aqoid rus zaboninda muhayyodur,
Agar o‘qsang ani chashm oldida olam surayyodur.

Tamomi ilmi hikmat ham riyoziyot, falakiyot,
Yetilmushdur bayoni bu zaboni ila ki tibbiyot,

Jahonning turli g‘avg‘osi, yangi ko‘p hodisoti ham,
Lisoni rusiyo birla o‘qur oni jami odam.

Agar uqmay ketarsan bu zabonni, chashm erur ro‘yo,
O‘tursan benasib xurshid ziyosidin ro‘siyo(h).

O‘qubsan, Nozima, rusi zabonin, senga xislatdur,
Zaboni bezabon bo‘lmoq, biling, bu koni ofatdur.

XISLAT

(1880–1945)

O'zbek mumtoz adabiyotining so'nggi namoyandalaridan biri. Toshkentdagi Kesakqo'rg'on mahallasi madrasasida o'qigan, o'zbek, ozarboyjon, turk, fors va arab adabiyotlarini puxta o'rgangan.

1908–1909-yillarda Navoiyning "Farhod va Shirin" hamda "Layli va Majnun" dostonlarining soddalashtirilgan nasriy nusxalarini tayyorlagan va o'z hisobidan nashr ettirgan. 1910–1194- yillarda madrasadoshi Sidqiy Xondayliqiy bilan hamkorlikda "Armug'oni Xislat", "Hidoyayi Xislat", "Savg'oti Xislat", "Tuhfayi Xislat" kabi bayozlarini nashr ettirgan. Bu bayozlarda shoirning 100 dan ziyod lirik she'rlari e'lon qilingan.

Xislatning lirik she'rlari dunyoviy g'oyalar bilan yo'g'rilgan. G'azallari Mulla To'ychi va Hamroqul qori kabi hofizlar tomonidan ijro etilgan.

Xislat 1917-yildan keyin ham badiiy ijod bilan shug'ullanib, g'azal va muxammaslar yaratgan. Xislatning adabiy merosida tarjima asarlar katta o'rin egallaydi. Nizomiyning "Layli va Majnun", Firdavsiyning "Shohnoma" dostoni asosida nasrlashtirilgan "Barzuyi sher", "Pahlavoni Ahmad", Ubayd Zokoniyning "Mushuk va sichqon" asarlarini fors tilidan tarjima qilgan, arab va fors mumtoz adabiyotlaridagi bolalarbop rivoyatlar va masallarni she'riy tarjima qilib, ular asosida "Non va halvo" nomli majmua tuzgan.

G'AZALLAR

Hajringda, ey yor, korim fig'ondur,
Tinmay ko'zumdin ashkim ravondur.

Tortib judoliq dardin damo-dam,
Holim xarob-u, rangim somondur.

Ayla tarahhum manga, nigoro,
Ahvoli zorim sanga ayondur.

Ul lola yanglig‘ bag‘rimda qat-qat,
Boz ustiga boz dog‘lar nihondur.

Armon-u hasrat ko‘pdir dilimda,
Desam tuganmas go‘yoki kondur.

Sansan habibim, hoziq tabibim
Dardimga beshak, bu begumondur.

Guldek yuzingning ishqida Xislat
Bulbulga o‘xshash kori fig‘ondur.

MURABBA’

Zulm aylamanglar, qoshlari qarolar,
Tokay qilursiz bizga jafolar.
Duo qilurmiz shom-u sabolar,
Rahm aylamaysiz, ey mohliqolar.

Zulmingni kam qil, mahbubi jonim,
O‘rtandi jismim ham ustuxonim.
Etmasmi senga oh-u fig‘onim,
Rahm aylamaysiz, ey mohliqolar.

Oshiq kishining duosi yaxshi,
Ma’shuqalarning vafosi yaxshi,
Nochor degaymiz jafosi yaxshi,
Rahm aylamaysiz, ey mohliqolar.

MUHAMMADSHARIF SO‘FIZODA

(1880–1937)

Muhammadsharif So‘fizoda o‘zbek ma’rifatparvarlik davri adabiyoti an’analarini davom ettirgan adiblardan hisoblanadi. Adibning tavallud tarixi shu vaqtgacha 1869-yil deb ko‘rsatib kelingan. 1880-yil 29-yanvar kunida Chust shahridagi ko‘nchigarlik jamoasida tug‘ilgan. Dastlab qo‘shnisi Manzura otindan xat-savod o‘rganib, eski maktabda ta’lim olgan. 1893–1899-yillarda u Qo‘qonda yashab, “Vahshiy” taxallusi bilan hajviy asarlar yaratdi. 1899-yili Qo‘qondan Chustga qaytib keladi. Oradan ikki yil o‘tgach, uni amir-amaldorlar dahriylikda ayblab, qatl etishga hukm chiqaradilar.

So‘fizoda Chustdan qochib, avval Bokuga boradi, so‘ng Arabiston, Hindiston va Turkiya mamlakatlarida bo‘lib, oddiy xalq hayotini ko‘radi. 1910-1913-yillarda Qo‘ng‘irotda muallimlik qiladi, ma’rifatparvarlik ruhidagi she’rlarini yozdi. 1925- yil 13-avgustda “Farg‘ona” gazetasida “Xushchaqchaq qalamlar” sarlavhasi ostida uning bir qator hajviy she’rlari chop etiladi. 1934-yilda esa So‘fizoda “Bayram nashidalari” nomli dostonini yozgan.

1926-yil 27-fevralda O‘zbekiston hukumati qarori bilan “O‘zbekiston xalq shoiri” unvoni berilgan.

G‘AZALLAR

G‘ubor dard-u alam siynalarni qildi figor,
Figor qilg‘usi, albatta, zahr-u, zang-u g‘ubor.

Chu dor ostida qoldim, tarahhum ayla, nigor,
Nigor qilsa g‘azab, lozim o‘lmasunmu chu dor.

Shiori shu’layi shavqingda mayl bo‘ldi nahor,
Nahor vasling uchun hajr shom topdi shior.

Fonar yoqsa musaffo bo‘lur Yaman-u Yasor,
Yasor birla barobar qilur Yamandan fonar.

Ki zor So‘fini bebahrasi hamisha mazor,
Mazor bahravari shulki, haq yo‘lini kezor.

Qimorxonaga kirganda dov qo‘ysa na or,
Na or jonni qo‘yib, ishq yo‘linda o‘lsa qimor.

Anor donasidek hasratim qator-qator,
Qator rishtayi nazmimga (boz) terildi anor.

Bu zor Vahshini qadriga Shamsi hoji yetar,
Yetar ham ani qadriga xo‘p yaxshi bu zor.

* * *

Xonim, suyukli soching vor, na sud shonasi yo‘q,
Ochib desam so‘zimi ma’rifat nishonasi yo‘q.

Hilola bengzar u qoshlarki, senda vor anjaq,
Ziyosi millat uchun partavi maxonasi yo‘q.

Yozuv g‘izolini sayyod ko‘zlaring tanimas,
Masalda vorki, aning domi vor-u, donasi yo‘q.

Na xayr umed edilur qirmizi yonoqlardan,
Hijob odat emish boshqa bir bahonasi yo‘q.

Tiling takalluma zangin vale fasohatisiz,
Bu bir g‘ani kabidir millata ionasi yo‘q.

Quloqlaringda go‘zal gushvora vor, ammo —
Quvo’yi someayi nutqi shoironasi yo‘q.

Bayoz allar ila inja-inja barmoqlar
Sanga verurmish ekan fazli kotibonasi yo‘q.

Getub makotaba kasbi kamola iqdom et,
Jamoli maxza g‘urur etmaning zamonasi yo‘q.

Jahon jamilasi o‘lsun adiba o‘lmassa,
Demak o‘lur u qizing ziynati zamonasi yo‘q.

Nasl taassuf edilmas shu hola, oy qizlar,
Vatanni xalqlarini ma’rifatli onasi yo‘q.

Sabab nadur, dushuning, Ovro‘pa usulincha
Biz o‘yla qush kabimiz, vale oshiyonasi yo‘q.

* * *

Yashnatib dil g‘unchasin, fasli bahor aylar gazet,
Suv berib ko‘ngul bog‘ini sabzavor aylar gazet.

Sharqdan Mag‘ribgacha bo‘lg‘on havodisni yozib,
Ne go‘zal marg‘ub xabarlar oshkor aylar gazet.

Ko‘b o‘qur bo‘lsang, bo‘lursen el aro chun nuktadon,
So‘zlaganda so‘zlaringni beg‘ubor aylar gazet.

Gohi-gohi kelmayin qolsa o‘zining do‘stlarin
Shavqida telmirtirib ko‘p intizor aylar gazet.

Chiqsa bir xursandlik safhasida darj o‘lub,
Fikri zavq-la qalbni beixtiyor aylar gazet.

E nexushkim, xalqimiz suymakda kun-kundan seni,
Bir vaqt zarlarni boshingdan nisor aylar gazet.

Noumid bo‘lma, chiqar bir kun haqiqiy do‘stlaring,
Yordam aylab, mushtariyni beshumor aylar gazet.

Yo‘qsul el ahvolidan gar sen yozib bersang xabar,
Darj etib bu yo‘lga jalbi e’tibor aylar gazet.

Gar qorayg‘on dil, to‘nuk ruhlarga berdikchi ziyo,
Bo‘lgani jon doimo boshqa tumor aylar gazet.

* * *

Vatan holindan o‘tru ko‘zlarim saqfinda qon og‘lar,
Na yolg‘iz ko‘zlarim majruh o‘lan jismimda jon og‘lar.

Salohi xonim on fikrinda og‘lar xonadonlar cho‘x,
Faqat bai oshkoro og‘laram, onlar nihon og‘lar.

Qiroatxona-u sho‘rodag‘i maktab-la har balda,
Bu kun ma’mur ekan Farg‘ona benom-u nishon og‘lar.

Muborak mamlakatlar bir taqim hayvonlara holo.
Charogoh o‘ldug‘undan noshi yer-u osmon og‘lar.

Evet, inson sayilmaz o‘lmayanlar ismina mazhar,
Masal vor bizda: “Vijdonsizlaring og‘zida non og‘lar”.

Chiqib kursida voiz onlara sotduqcha rizvoni,
Halosindan jahannam shod o‘lur, bog‘i jinon og‘lar.

Jahondan mahv o‘lib ul qahbalar bir kun ketar onjaq,
Misoid asr ichinda favt o‘lan ushbu zamon og‘lar.

Yozuq oliy Vatan o‘ksiz kabi bir holda dushmushkim,
Agar tahrir edarsan, xomayi mo‘jiz bayon og‘lar.

Sharif o‘lmas u maskanki, sharif o‘lmas esa sokin,
U tanballarki, vor ustinda ya’sindan makon og‘lar.

* * *

Kirib vahdat xumiga nosavodliqni ranglanglar,
Ki qilmoq oshnoliq boridin g‘ayri-la tanglanglar.

Qay-u mazhabda ahli ishqin qatli erur vojib?
Musulmonlig‘ agar shul bo‘lsa, mo‘minlar paranglanglar.

Buni masjid deyurlar, na samo ahlig‘a manzildur,
Boring, ey so‘filar, eshshak kabi sahroda hangranglar.

Hazar qilmanglar, ey ahli muhabbat, muhtasiblardan,
Kirib rag‘bat ila kunju xarobot ichra banglanglar.

Nachun qo‘ymas ekan(lar) bizni may ichgali zohidlar,
Qilichlar qo‘lga olib, bu fasod ahliga janglanglar.

Bihamdillohki, ishqing jur’asiga sarbaland o‘ldum,
Bu bazm ichra kishikim kirsa tiyr-u tapanglanglar.

Qilibdur qozi shari ihtisob ahli muhabbatni
Turing bu beadabni boshiga bir necha sanglanglar.

TAVALLO

(1883–1937)

Asl ismi To'lagan Xo'jamyorov bo'lib, Toshkent shahrida Ko'kcha dahasida dunyoga kelgan. Beklarbegi madrasasida, rus-tuzem maktabida o'qigan. 1905-yildan "Turkiston viloyatining gazeti", "Sadoyi Farg'ona", "Taraqqiy" kabi gazeta va jurnallarida she'r va maqolalari bilan muntazam qatnashgan. 1910-yillardan vaqtli matbuotda "Tavallo" taxallusi bilan she'r va maqolalari bosila boshlagan.

1914-yil 30-avgustda Munavvarqori, Abdulla Avloniy va boshqalar bilan birgalikda Toshkentda "Nashriyot" shirkatini tuzib, kitob chiqarishni yo'lga qo'ygan.

1915-yilda esa Avloniy tashabbusi bilan tuzilgan "Turon" jamiyatida faoliyat ko'rsata boshlagan. 1918–1919-yillarda Toshkentning dastlab Eski shahar, so'ng Yangi shahar ijroiya qo'mitalarining a'zosi bo'lgan. Keyinchalik turli xo'jalik ishlarida ishlagan.

Tavalloning ijodkor sifatida shakllanishida unga sayramlik shoir Yusuf Saryomiy ustozlik qilgan. Tavallo she'rlarida millat va Vatan tushunchalari keng o'rin egallagan ("Yordam etmak kuni yetdi siza Turon ahli..."). "Ravnaq-ul Islom" (1916) she'riy to'plami uning hayotlik davrida chop etilgan. To'plamga 70 ta she'r kiritilgan. Asar turkchilik, islomchilik ruhida. Vazn va ohang an'anaviy — aruzda.

Tavallo 1937-yil 14-avgustda aksilinqilobiy "Turon", "Sho'royi islom" "Ittihodi taraqqiy", "Milliy ittihod", "Milliy istiqlol" tashkilotlarining a'zosi, "Millionerning o'g'li" she'rlarida millatchilik g'oyalarini ilgari surgan"likda ayblanib, qamoqqa olinadi.

1937-yil 10-noyabrda NKVD qoshidagi uchlik hukmi bilan otib tashlagan.

G‘AZALLAR

Dargahingga bosh egib, keldim, Xudoyo, iltijo,
Afv qil yozg‘onlarimda garchi ko‘b sahv-u xato.

Aqli ojiz qudrating avsofida har bandani,
Fahm qosir, san’ating yozg‘on bilan bo‘lmas ado.

O‘n sakkiz ming olami xalq aylabon, ey Bir-u Bor,
Odam-u Havvoni tufroq-loydin qilding bino.

Banda yo‘qtur bequsur, ey Qodir-u Hayyu G‘afur,
Qahr-u lutfingdin hamisha menda ko‘b xavf-u rijo.

Amr-u farmoningsiz unmaydur daraxtda barglar,
Aytadur dasht-u biyobon, tog‘-u tosh hamd-u sano.

Birni baxtin qo‘ldin olib, birni qilmoq baxtlik,
Sanga maxsusdur: gado — shoh o‘lmog‘i, shohlar — gado.

Sandin ermasmu bu yanglig‘ ro‘shnolik bizlara,
Bo‘lmasa, kim qildi bizga muncha hurriyat ato.

Ey Xudovando, nasib ayla jamoling Hashrda,
Bandayi bechoradurman qilmag‘il baxti qaro.

Ostoni ajzig‘a shul kun Tavallo bosh qo‘yub,
Iltijo qildi, qabul ayla duosin, Xoliqo.

* * *

Ey Xudoyo, ber bizingdek bedavolarga davo,
Qildi millat ko‘kragini ta’na tirnoqi yaro.

Jumla Turkiston elidin topmag‘aysiz oxtarib,
Millat uchun qayg‘urarlik bir saxovatli g‘ano.

Dunyoda yo‘qtur gazit bizdan shikoyat qilmagan,
Biz hanuz g‘aflatdadurmiz, korimiz kayf-u safo.

Boshqalar ilm izlasa, bizlar xudoyi osh uchun,
Ertadin to kechg‘acha bo‘lduk eshiklarda gado.

Ilm uchun bersa birovlar oyiga so‘mlar ko‘ring,
Bir paqir-chun biz qilib panjshanba kunlar mojaro.

Necha turli joma kiysa elda atrof odami,
Biz yururmiz qayda ko‘rsang boshyalang, ochiq yaqo.

Rus vatandosh maktabi to‘lg‘on zeb-u ziynat ilan,
Yo qamishdur bizni maktab, yo churigan bo‘riyo.

Yosh jujuqlar borsa maktab, titrayur bezgak kibi,
Loy o‘lur maktab ichi yog‘mur agar yog‘sa havo.

Ilmsizlikdin emasmu, muhtaram kardoshlarim,
Qiz anosidin bo‘lub, o‘g‘ul atodin norizo?

Millata maktab kerak, yo‘qmu g‘anilar, o‘ylangiz,
Sarf etar to‘y-u azo deb necha ming — bari riyo.

* * *

Kim qilur bizdin bo‘lak dunyoda mundog‘ bid’ati,
Xoh Arabga, xoh Ajamga, xoh borg‘il Ovro‘po?

Sharqdin Mag‘ribgacha bizdek jahonda xor yo‘q,
Bizga ne bo‘ldi, bilolmam, yo Rasuli Mustafo?

Yozdi biroz hasratidin, oshnolar, afv eting,
Deb Tavallo aylaramkim, bo‘lsa she’rimda xato.

MUXAMMAS

Ey, qo‘lum, pul tutma hech, millatga yordamlashmasang,
Bo‘lma xushnud, ey dilim, millat g‘amin g‘amlashmasang,
Ravshan o‘lma, ey ko‘zum, yoshing to‘kub namlashmasang,
Fikrim ochilma, agar she’ring yozib hamlashmasang,
Chiq ichimdan, jonim ey, san manga hamdamlashmasang.

Lol agar o‘lsun tilim, mundin bo‘lakni so‘ylasa,
Zaxm etsin husha millatdin digarni o‘ylasa,
Hech dimog‘ ochilmasun, kim o‘zga gulni bo‘ylasa,
To‘ymasun qornum mani, bir kunda besh to‘y to‘ylasa,
Chiq ichimdan, jonim ey, san manga hamdamlashmasang.

Soch oqarsa qayg‘u millatda, yoronlar, shodman,
Tomsa tinmay yoshlarim, o‘rnig‘a qonlar, shodman.
Hasrati millat uchun qilsam fig‘onlar, shodman,
Ukkidek tutsam xarobotda makonlar, shodman,
Chiq ichimdan, jonim ey, san manga hamdamlashmasang.

Na uchun sinsun ayog‘im deb yozurman, do‘stlar,
Chandir o‘lsun nega yog‘im deb yozurman, do‘stlar,
Kar nechuk bo‘lmas qulog‘im, deb yozurman, do‘stlar,
Bilmasun hech is dimog‘im deb yozurman, do‘stlar,
Chiq ichimdan, jonim ey, san manga hamdamlashmasang.

Ko‘rdi elni ko‘zlarim bir zarra ibratlanmadi,
Boshqalar qilg‘onin aqlim bildi, g‘ayratlanmadi,
Borcha eldin ortda qolib ham jur’atlanmadi,
Millat uchun qayg‘ururga dil hamiyatlanmadi,
Chiq ichimdan, jonim ey, san manga hamdamlashmasang.

Doimo yurdim bekor, millatga xizmat qilmadim,
Yedim, ichdim, uxladim, millatni qadrin bilmadim.
O‘zginamni o‘yladim, el-yurtni ko‘zga ilmadim,
Jahldin sharbat ichib xotirda o‘zga kelmadim,
Chiq ichimdan, jonim ey, san manga hamdamlashmasang.

Behuda pul sarf etib, uch pul gazetga bermadim,
Menga kim qildi nasihatlar so‘ziga kirmadim,
Olmadim jurnal, gazet, har satridin gul termadim,
Millatim ahvolini yodimga ham kelturmadim,
Chiq ichimdan, jonim ey, san manga hamdamlashmasang.

Deydilar, bas qil, Tavallo, she’rlar manzur emas,
Millati mahv o‘lsa, parvo qilmayurlar, g‘am emas,
Bunlaring sho‘rbo, palov, norin yebon choy ichsa bas,
So‘ngra ikki yelkasiga tepsalar ham indamas,
Chiq ichimdan, jonim ey, san manga hamdamlashmasang.

(Mazluma qizlar tilindan)

Atolar, ko‘rsating, yo‘l bizga ham ilm-u sinoatdan,
O‘quting, qutqaring bechora qizlarni halokatdan,
Soling har yerga maktab, qo‘l yig‘ing bug‘zu adovatdan,
Zarurdur ilm o‘qutmoq bizlara har qaysi bobatdan,
Kelingiz, foyda yo‘q sizlara to‘y-u ziyofatdan.

Oling bizlar uchun baldoq, marjonlar kerakmazdur,
Bering qog‘az, qalamlar, zebi gardonlar kerakmazdur,
Tumor-u cho‘lfi-so‘lfi, durri g‘altonlar kerakmazdur,
To‘quz-to‘quz cho‘yandin bizga qumg‘onlar kerakmazdur,
Ilm bizlar uchun ortiq sizi qilg‘on bizoatdan.

Bukun bezordurmiz sizni qilg‘on qo‘sh falaklardan,
Bosub chang yotguchi dorlarni ustida alaklardan,
Zar-u, kimxob-u, shol-u, atlas-u turluk ifaklardan,
Qasam billohi kechduk bargak-u oltun ziraklardan,
O‘quting, qutqaring dunyoda bizlarni malomatdan.

Ilohi tikka-tikka o‘lsun ul qo‘ltuq tumorimiz,
Chunon yuz pora o‘lsun uy ichinda zardevorimiz,
Nisor o‘lsun, ato, urfon uchun bu yo‘q-u borimiz,

Bo‘lakdek biz ham emdi ilm o‘qumoqg‘a xumorimiz,
Kanizakmizmu bizlar, qo‘rqung, ey, vahmu qiyomatdan.

Duo aylang, anolar, emdi bid’atlar qurub ketsun,
Bizichun sizni qilg‘on mol sanduqda churub ketsun,
Atolar rahm edub, maktab solub, bizlarni o‘qutsun,
Agar o‘qutmasa, Lut qavmidek bizlarni yer yutsun,
O‘lum bizlarga ortuq ilmsiz dunyoda rohatdan.

O‘qutg‘on so‘ngra vergonda,
kuyov tengdoshimiz o‘lsun,
Ikov ham ilmlik, yoshlikda birdek yoshimiz o‘lsun,
Jahonda shod o‘lub hamoxirat qardoshimiz o‘lsun,
Agar chollarga tushsak, zahr ichkon oshimiz o‘lsun,
Ilohi saqla bizni dunyoda mundoq falokatdan.

Xudoyo, bahra ver bizlarga ham ilm-u fununlardan,
Xabardor o‘l hamisha biz kabi baxti zabunlardan,
Maorif yodi birlan ko‘zdin oqg‘on chashmi xunlardan,
Yetushtur ilm o‘qug‘on bizga yorab, rahnamunlardan,
Tavallo aylayurmiz ko‘z tutub tong-la shafoatdan.

Abdulla To‘qay she’rina tazmin

Jumla fikrim kecha-kunduz sizga oid millatim,
Sen salomat — men farog‘at, illatingdur illatim.

Marhum Abdullo To‘qaydek yosh chog‘imda ketmasam,
Ojizona shoiring bo‘lmoqg‘a vordur niyatim.

Endi yil to‘ldi vafotig‘a To‘qayni deb bu kun,
Bog‘ladim she’rina tazmin, yodlanib durri yatim.

Ey ko‘zum nuri, belimni quvvati, jon-u dilim,
To tirikman, madh etarman millatim, milliyatim.

San tufayli maqsada yetsam tong ermas deb umid,
Aylaram xizmat sanga, yo‘q boshqa mashg‘uliyatim.

Qalb-u vijdonim mani andin bo‘lakni istamas,
Gar xayol aylarda sansan, voy mamnuniyatim.

Bulbuling gul ishqida qilsa chamanda nolalar,
Bir nafas tinmas sani ko‘yingda mavjudiyyatim.

Har zamon dod aylayurman she’ra, tanqid aylayub,
Afv qilg‘il, yozaman, tutganda majnuniyatim.

Har zamon yod etsa millat bizni Abdullodek,
Shul manga iqbol-u maqsad, baxt-u mas’uliyatim.

Millatim, milliyatim, bir yaxshi xizmat qilmadim,
Qil sado, boshimg‘a kel, ketsun boshimdan g‘aflatim.

Gar Tavallo she’ri Abdulloga yoqsa ne ajab,
Topishurdi oxiratda yosh-yosh ikki yatim.

OLAMGA BIR NAZAR

Osmondagi tayyoralar, boqg‘il qayonga boralar,
Ey nafs ila ovoralar, nechun ko‘rolmaysiz hanuz.

Simsiz birovlar so‘ylashib, millat g‘amini o‘ylashib,
Yurganda siz to‘y-to‘ylashib, hech bir uyolmaysiz hanuz.

Askar otib el zamburak, borlarni qildi bod(pa)rak,
Siz bog‘da cholib tartarak, sopqon otolmaysiz hanuz.

G‘irromofo‘n aylar sado, bir igna birla ming navo,
Fatnus olub, ey bedavo, tinch uxlayolmaysiz hanuz.

Gimnoz-u simnorga borub, tahsil ulum yetti o‘qub,
Sizlar hamon zanbil to‘qub, adres yozolmaysiz hanuz.

Maktabni qadrin bilmayin, inson kabi ish qilmayin,
Hozirda o‘zga kelmayin, hech ibrat olmaysiz hanuz.

Ruslardin ibrat olmayin, yoshlarni yo‘lga solmayin,
To‘y-ma’rakadin qolmayin, hech bir turolmaysiz hanuz.

Chiqdi birovlar osmon, moshinasi — ayruplon,
Sizlar tramvaydin hamon, nechun tusholmaysiz hanuz?

Ey Toshkand ahli, bugun, sizlar o‘qung ilmi funun,
Ilmsiz kishi bo‘lg‘ay zabun yokim bilolmaysiz hanuz?!

G‘aflatda ko‘r choyxonalar, boqur ko‘ring bedonalar,
Bilmam qachon uyg‘onalar, siz uyg‘otolmaysiz hanuz.

Ko‘r, Yevrupo ahli, nedan, tinmay o‘qurlar ilm-u fan,
Ko‘krak ochiq sizlar chapan, inson bo‘lolmaysiz hanuz.

Yozdi Tavallo hasratin, bildurdi sizga niyatin,
Suygan ayo o‘z millatin, demang yozolmaysiz hanuz.

QALAMGA XITOB

Ey, qalam, sirrimni sen etting jahonga foshlar,
Bu sababdan bir nechalar bo‘ldilar kundoshlar.

To‘g‘ri yozg‘il hasrat-u, anduh-u mehnat ey qalam,
Ahli vijdon o‘qisa oqsin ko‘zidin yoshlar.

Bizni elga to‘g‘ri so‘z yoqmas takalluf bo‘lmasa,
Qil hamisha onlari haqqinda san maxtoshlar.

Ilm-u fansiz nechalar aylab o‘zini “obrazon”,
Man taraqqiy ayladim deb ursa lof xarxoshlar.

Soch qo‘yub, falto kiyib, bir ruscha maktab ko‘rmayin,
Aylasa sanga nasihat aylag‘il bardoshlar.

Ko‘r, taraqqiyg‘a qadam qo‘ysang ko‘rolmas, ey qalam,
Qobiliyat mahv etar bir necha mone yoshlar.

Avvalo simnor-u gimnoz borsun, o‘rgansun ilm,
Bas, kelib andin keyin bersun sango kengoshlar.

San qalam, qo‘ygil qadam, turma ayog‘ing ko‘tarub,
Cholmasun bir xil sani betarbiyat beboshlar.

Nega kor etmas mani yozg‘onlarim deb ranjima,
Foydamu olg‘oy agar yoqg‘onda yomg‘ur toshlar.

Qilmayin insof o‘zi yo‘l olmayin yotsa hamon,
Yo malaklarmu tushub onlarni yo‘lga boshlar.

Millating qayg‘usi xo‘bdur ema boshqa qayg‘uni,
Ey qalam, aylar adam, borma xudoyi oshlar.

Kel, Tavallo, bo‘l musavvir, ol qalamni qo‘lg‘a san,
Chek frontlar suratin ko‘rsun hama naqqoshlar.

HAQQONA BIR SO‘Z

Fosh o‘ldi olam ichra bul, ey do‘stlar, ahvolimiz,
Hayratda qoldi ko‘rgan el, bizni qilan af’olimiz.

G‘urbatda rangi sarg‘ayib, behuda umrin o‘tkazib,
Yoshlar takalluf axtarib, nafsoniyatda cholimiz.

Qilg‘on ishi doim ziyon, hech bir kushoda ko‘rmagon,
Ketti nedan, bilmam, qayon avvaldagi iqbolimiz.

G‘aflatkashida biz kabi, g‘am birla kulfat hamdami,
Shod o‘lmadik biz bir dame, hasratda qaddi dolimiz.

Maktabni qadrin bilmayur, bir ezgu ishni qilmayur,
Hargiz ko‘chadin kelmayur, nodon bizi atfolimiz.

Bosmay taraqqiga qadam, o‘tkuzsamiz bizlar bu dam,
G‘aflat bizi aylar adam, bo‘lmaski qilu qolimiz.

Ko‘rgil zamona yoshlarin, ne yerga urdi boshlarin,
Oldi o‘zin qardoshlarin, bizni to‘qulsun yolimiz.

Tushsak kurash, tiksoq yamoq, bumi hunar chopsoq uloq,
Isriq supurgi boylamoq, yo‘qtur bo‘lak a’molimiz.

Yo‘q bizda bir fikr o‘ylasak, arzir bukun qon yig‘lasak,
Til yo‘qki, bir so‘z so‘ylasak, dunyoda gung-u lolimiz.

Yozsa Tavallo, turmadi, maktab sarig‘a yurmadi,
So‘zlar quloqg‘a kirmadi qirq yilgi yotkon sholmiz.

AVAZ O‘TAR

(1884–1919)

Avaz O‘tar o‘g‘li Xiva shahrida sartarosh oilasida tug‘ildi. Avazning otasi adabiyot-san’atga qiziqqan, zamonasining olim, shoirlari bilan hamsuhbat kishi edi, shu sababdan yoshlikdan o‘qishga havas ko‘rsatgan o‘g‘li Avazning tarbiyasiga alohida ahamiyat berdi.

Qobiliyatli Avaz tez vaqt ichida savodini chiqarib, adabiyotga qiziqa boshladi va yosh chog‘idanoq she’r yozishga kirishdi.

Avaz O‘tar o‘g‘lining katta hajmli qo‘lyozma devoni bor, undan tashqari anchagina ilm-ma’rifatni targ‘ib etuvchi hamda xon, uning amaldorlari va ruhoniylarni keskin tanqid ostiga olgan satirik she’rlari mavjud.

Avazning g‘azallari revolutsiyaga qadar Xorazmda nashr qilingan to‘plamlarda chiqqan. Hozir O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Sharqshunoslik instituti kitob fondida Avaz devonining uchta qo‘lyozmasi saqlanmoqda. Ilm-ma’rifatga oid va satirik she’rlari Xorazm xalq revolutsiyasidan keyin 1923-yilda nash etilgan “Yug‘urmi” (to‘plam) da bosildi.

Shoir Avaz O‘tar o‘g‘li ijodining barq urib yashnay boshlagan va eng qizg‘in bir davrida, umrining eng navqiron va gullayotgan bir paytida xon istibdodining qurboni bo‘ldi. O‘zining ulug‘ orzu va tilaklariga yetisholmay, mudhish jazo tufayli yo‘liqqan og‘ir xastalik alam-iztiroblari ostida 1919-yili 35 yoshda vafot etdi.

G‘AZALLAR

Qo‘y, ey paripaykar, qadam aylab karam bosh ustina,
Qahr-u g‘azab tarkin qilib, chin solmag‘il qosh ustina.

Zohid ul oydin ijtinob etsa ne tong, ahbobkim,
Gar tushsa o‘lg‘ay lam’ayi xurshid xuffoz ustina.

Izhor etib bedod-u kin oyinini beshak manga,
Borsam izidin ul go‘zal tosh otg‘usi tosh ustina.

Hosildig‘ aylab bu zamon, kim berdi der ahli jahon,
Qiysa yangi xil’at agar qashshoqi qallosh ustina.

Garduni dum zulm-u sitam ozoda elga qilg‘usi,
Javr-u jafo oyinini fosh aylabon fosh ustina.

Bo‘yla muruvvatsiz zamon ahli erurkim, ey Avaz,
Gar topsa fursat bergusi og‘u qo‘shub osh ustina.

* * *

Vafo mehr erur borho hisol manga,
Netongki yetsa agar ishq aro kamol manga.

Nechuk murod ila maqsad topay jahon ichra,
Hamisha tole’ erur baxt aro vabol manga.

Raqib xayli erurkim g‘aniy bu olamda,
Alarning atlasidin ahsan eski shol manga.

Davomat o‘lg‘usidir odatim vafo bila mehr,
Yetishgusi bu jihatlar bila zavol manga.

Agarchi ziynati ko‘p jomi jam ne hojatdur,
Ki yaxshidurki topilsa sinuq safol manga.

Avaz netongki ul oy qomatini hajrida,
Alamning ostida qad bo‘lsa bo‘yla dol manga.

* * *

Ey ko‘ngul, ishq ichra kirding jon kerakmasmu sanga
Kofiri chashmin ko‘rub, imon kerakmasmu sanga.

Yor ruxsorig‘a boqmassan magarkim, zohido,
Oftob ila mahitobon kerakmasmu sanga.

G‘ayr kuyining tamannosin qilursan, ey rafiq,
Yoki ayg‘il jannati rizvon kerakmasmu sanga.

O‘zga dilbar la’lini o‘pmak gar istar esang,
Degil, ey dil, ul labi xandon kerakmasmu sanga.

Ey ko‘z, etgung orzu g‘ayri sumanbor orazin,
Emidi ul oraz mahi raxshon kerakmasmu sanga.

Soqiyo, man xastag‘a may bermayin dog‘ aylading
Yoki miskini hazing mehmon kerakmasmu sanga.

Ey Avaz, nazm aylading asr-u sharaf afshon suxan,
Yodgori daftari devon kerakmasmu sanga.

* * *

Ey parvarish bevafolig‘ aylama,
Kim ko‘p emdi pur jafolig‘ aylama.

Eyki istarsen tarabni dahr aro,
Ishq aro bedast-polig‘ aylama.

Oqil ersang asli ishq ichra kirib,
Notavon-u benavolig‘ aylama.

Gar muroding yetmas ersa yorg‘a,
G‘ayr kuyida gadolig‘ aylama.

Kim tariqi faqr aro soliq esang,
Xisravi kishvar kusholig‘ aylama.

Ey Avaz, bo‘lsang g‘arib-u notavon,
Xon-u boyg‘a oshnolig‘ aylama.

* * *

Bo‘lg‘usi, ey dil, muyassar vasli jonon, g‘am yema,
Kim oning kelmakligiga bordur imkon, g‘am yema.

Topg‘usi tabdil subhi vasl birla oqibat,
Nechakim tul o‘lsa gar ham shomi hijron, g‘am yema.

No‘sh qilsang yor ilgidin agar jomi tarab,
Dur sandin bo‘lg‘usi anduhi davron, g‘am yema.

Tiyri mujgon bila qoning to‘kulsa har qachon,
Bergusi la’li labi kayfiyati jon, g‘am yema.

Laylivashlar suhbatidin ijtinob etgan uchun,
G‘am emishmu erdi majnuni biyobon, g‘am yema.

Hajr aro bo‘lsang Avazdek bekas-u oshufta hol,
Bo‘lg‘usi, ey dil, muyassar vasli jonon, g‘am yema.

* * *

Dilbarimning bor manga atvori xo‘b,
Ham adovu ishva-yu raftori xo‘b.

Bo‘lg‘usi albatta mandek beshikib,
Kimning ersa husn aro dildori xo‘b.

Oshiqi sodiqning ey, ahbob eli,
Bor haqiqatda bari kirdori xo‘b.

Hurdin ham ishq xayli ko‘ziga,
Ko‘rinur beshak o‘zining yori xo‘b.

Ko‘rmagay aslo g‘am-u mehnat yuzin,
Qaysi oshiqing esa g‘amxori xo‘b.

Ey Avaz, bor jumlayi devon aro,
Xo‘blug‘da ul ikov guftori xo‘b.

* * *

So‘rmadi holimni, yorab, oshnolardin birov,
Ul muruvvatsiz, sitamgar, bevafolardin birov.

Yor ko‘yida qilib g‘ammozlik izhorini,
Soldi boshimg‘a qaro kun pur jafolardin birov.

Aylamaskim, aylasa gar ta’na jumla el manga,
Ko‘rmadi hajr ichra man ko‘rgan balolardin birov.

Baski qildi jabr-u zulm-u, qahr-u kiynu ham itob,
Bovar aylab g‘ayr so‘zin dilrabolardin birov.

Noz ila ajzu niyozimni ko‘ziga ilmayin,
Nozaninlig‘ ko‘rguzub, sohib adolardin birov.

Vasl naqdin istabon nokom-u mardud o‘ldimu,
Ko‘yi mahbub ichra man yanglig‘ gadolardin birov.

Ey Avaz, ko‘rgan malol-u, hasrat-u, ranj-u, ano,
Yo‘q jahon mulkida sandek benavolardin birov.

* * *

Har dam manga yuz sitam qilursiz,
Sabr-u xiradim adam qilursiz,

Ming dardga mubtalo qilib voy,
Chashmimni chunonki nam qilursiz.

G‘ayri sariga borib, chu paydo
Jonimda tuman alam qilursiz.

Bir umr g‘aming yuki tagida,
Ey sho‘x, qadimni xam qilursiz.

Qahring kelibon hamisha mandin.
Pinhon ruh, ayo sanam, qilursiz.

Bag‘rimda qo‘yarg‘a dog‘ uza dog‘,
Ag‘yor eliga karam qilursiz.

Bechora Avazni furqat ichra,
Oromini mun’adam qilursiz.

* * *

Man chekmagan dard-u mehnat qolmadi,
Boshimga kelmagan ofat qolmadi.

O‘lagali yetishdim yora yetguncha,
Manga yuzlanmagan kulfat qolmadi.

Chekib dard-u alam yerdan turg‘udek
Jismimda zarracha quvvat qolmadi.

Judolikning har bir kuni qiyomat,
Anda man ko‘rmagan shiddat qolmadi.

Erlarning boshig‘a tushub savdolar,
Ahli himmatlarda himmat qolmadi.

Hijronida o‘tub umrim tamomi,
Yorimg‘a yetarga fursat qolmadi.

Muhabbatsiz ahli olam, ey Avaz,
Go‘yo onlarda bu xislat qolmadi.

* * *

Ohkim, qildi falak, ayr-u diyorimdan mani,
To yiroq solmoqqa bir guruh nigorimdan mani.

Xotirim oshufta bo'lsa ayb qilmag, negakim,
Soldi ayr-u charx ahbob ila yorimdan mani.

Hodisoti dahridin boshimga yuz savdo tushub,
Qolmadi osor qo'lda ixtiyorimdan mani.

Yuzlanib bechoralig' har dam judolig' dog'idan,
Qomagay andak asar sabr-u qarorimdan mani.

Ne manga yoron-u hamdam, ne manga bir mehribon,
Shum iqbolim ayurdi, yo'q-u borimdan mani.

Yor uchun jonim fido qilsam agar ermas ajab,
Kim ayon oshiqlig'im afg'on-u zorimdan mani.

Ey Avaz, qilma taajjub borho noshod esam,
Kim xabar olmas birov holi nazorimdan mani.

* * *

Bukun, ey do'stlar, yori vafodorimni sog'indim,
Anis-u mehribon mahbubi g'amxorimni sog'indim.

Yana faryod-u afg'on aylasam ayb aylamanglarkim,
Hamul shamshod qomat lola ruxsorimni sog'indim.

Ko'rub oy ila kunning kecha-kunduz ichra anvorin,
Hamul husn avjida mehri pur anvorimni sog'indim.

Hanuz ayyomji furqat ranj-u dardining asiriman,
Sisoli ichra ko 'rgan hazzi bisyorimni sog'indim.

Jamoli birla erdi ko‘zlarim subh-u maso ravshan,
Hamul xurshed siymo sho‘x dildorimni sog‘indim.

Erurman bekas-u, bedast-u, poy-u, xasta-yu mahzu,
Taajjub qilmagiz ul behjat osorimni sog‘indim.

Netongkim, ey Avaz, bo‘lsam malul-u telbayi miskin,
Demakka holim ul donoyi asrorimni sog‘indim.

XALQ

Yo‘q jahon mulkida bizdek ojiz-u bechora xalq,
Zulm tig‘i birla bo‘lgan bag‘ri yuz ming pora xalq.

Bir necha avbosh bunda hukmronlig‘ aylasa,
Qolmag‘ay ori na yanglig‘ mehnat-u ozora xalq.

Ne alarda bor durur ilm-u adolatdin asar,
Ne ajabkim, topmasa dog‘i dilig‘a chora xalq.

Yetgan ofatni boshig‘a doimo taqdir deb,
Hasrat-u armon bilan ketgusi bora-bora xalq.

Bo‘lmayin onlarda hech millat, vatanni saqlamoq,
Bo‘ldi qurbon bu sababdin doimo ag‘yora xalq.

Xalqi olamni bari aylar taraqqiy kun-bukun,
Biz tanazzul aylabon qoldiq, edik ne kora xalq.

Ko‘zlarin ohista-ohista agar ochsa zamon,
Ey Avaz, bo ‘lmas buningdek borho ovora xalq.

TOPAR ERKAN QACHON

Topar erkan qachon, yorab, hayoti jovidon millat,
Topib ilm-u hunar birla maorifdin nishon millat.

Vatanparvar — fidoyi firqalar to bo'lmayin paydo,
Na mumkin topmog'i o'lgan taniga toza jon millat.

Fido millat yo'lig'a mol-u jon etmak kerak har kim,
Bo'lay desa agar avlodi mashhuri jahon millat.

Ochin har bir sarida maktabing unvonin aylab cho'x,
Taraqqiy aylamasmi o'qubon behadd-u son millat.

Bu yanglig' olam ahlidin keyin qolmay yurush ayla,
Avaz, bo'lg'ay uyonib komgor-u komron millat.

TIL

Har tilni biluv emdi bani odama jondur,
Til vositayi robitayi olamiyondur.

G'ayri tilini sa'y qiling bilgali, yoshlar
Kim ilm-u hunarlar rivoji andin ayondur.

Lozim siz har tilni biluv ona tilidek,
Bilmakka ani g 'ayrat eting, foydali kondur.

Ilm-u fan uyiga yuboringlar bolangizni,
Onda o'quganlar bori yaktoyi jahondur.

Zor o'lmasun onlar dog'i til bilmay Avazdek,
Til bilmaganidin ani bag'ri to'la qondur.

MAKTAB

Ochinglar, millati vayronni obod etgusi maktab,
O‘qusin yoshlarimiz, ko‘nglini shod etgusi maktab.

Dil-u jon birla el maktab ocharga ijtihod etsin,
Nedinkim bizni g‘am, qayg‘udin ozod etgusi maktab.

Ota birla onaga farz o‘qutmoq bizni majburiy,
Ki bizni yaxshilik qilmoqda mu’tod etgusi maktab.

Qay-u millatga bizdek gar nasimi inqiroz etsa,
Anga albatta mustahkamlik ijod etgusi maktab.

Bu ne navmidlikdur, maktab ochsaq, oqibat bizni
Arusi kom ila maqsudga domod etgusi maktab.

Avaz, himmatni qil oliy ocharga emdi maktabkim,
Baloyi jahl-u nodonlikni barbod etgusi maktab.

FIDOYI XALQIM

Fidoyi xalqim o‘lsun tanda jonim,
Bo‘lub qurbon anga ruhi ravonim.

Gar o‘lsam darbadar mazlumlar uchun,
Budur maqsudi qalbi notavonim.

Mani solsa fano yo‘liga davron,
Yurur ustimdin avlodi zamonim.

Umidim — yashasin maktab bolasi,
Alar har biri bir sehri jayonim.

Na yaxshi o‘ylakim, ma’qul-u manzur,
Avaz, xalqim uchun to‘kulsa qonim.

CHOKAR

(1889–1952)

Quyida keltirilgan namunalar Sharqshunoslik institutidagi Chokarning o'zi tomonidan yozilgan devonidan va "Yug'urum" to'plamidan olindi.

G'AZALLAR

Eyki, sizlar qildingizlar mulk-u millatni xarob,
Ayladi bechoralar bag'rin sitam o'ti kabob.

Johil-u nodonlar o'rnidur taayyush masnadi,
Bo'ldi donolarni joyi g'am bila zeri turob.

Chora bechora tilosa, pora sipohi tilar,
Mulla bir yondin ijorasin so'rab bergay azob.

Maktab ochmay xalq uchun, rais tongub ta'zir urar,
Kelsa dehqon bozora namozlikni so'rob.

Xalq bolasin qo'ymaq o'g'lon — bormu islom dinida,
Anbiyo vorislari bu ishga bermishlar javob.

Taryok-u, ko'knor-u bang mullolara bo'lmish halol,
Xalq chilim cheksa harom deb rais aylab ixtisob.

Mullag'a: "peshing uzun" demak haqoratmish biling,
Harna ish qil, ber sadaqa, degusi, topding savob.

Orifi pashmina po'sh ilmas ko'zingga xalqni,
Harki bo'lsa toza jullik hurmat ahlidin hisob.

O‘rtadin ungan pul buzuq o‘g‘lon, haramlar masrifi,
Bor alarda shul sababdin hovli, bog‘ necha tanob.

Jahl-u g‘aflat kechasida o‘tkusidur umrimiz,
Ma’rifat nuringni sol bizlarga ham, ey oftob.

Mulk-u millat, vah, nechuk tapg‘ay taraqqiy, Chokaro,
Bo‘lsalar ish boshida zulm ahli oshubi davob.

* * *

Ko‘bdur ushbu jahon ichra fuzalo,
Hayfkim, bo‘lmish alardin vale avlo juhalo.

Juhalo xayli agar topsa bu yanglig‘ izzat,
Vah, nechuk kechgusidur dahr aro holi uqalo.

Uqalo xizmatig‘a bog‘la belingni mahkam,
Hosil o‘lg‘ay senga bu yo‘l aro kasbi kumalo.

Kumalo xaylig‘a lozim qilibon yurta duo,
Bilsa dahr aro ne dur vuzaro-u vuqalo.

Vukalo-u vuzarolarg‘a munosibdur bu,
Aylamay zulm raoyog‘ani bo‘lmoq udalo.

Udalo bo‘lsa kishi, rozi bo‘lub ondin haq,
Kelmagay charxdin hargiz oni boshig‘a balo.

Amniyat joyi emasdur bu jahon, ey Chokar,
Ertaroq aylasang emdi xush erur azmi jalo.

* * *

Ohkim, hardam nasibamni firoq etdi falak,
Zulm ila ul nozaninimdin yiroq etdi falak.

Bir parivash ishqig‘a maftuni zor aylab mani,
Furqat o‘tig‘a bu jonim ihtiroq etdi falak.

Ishq eliga go‘yyo qilmoqda javr ila sitam,
Yor ila, vah, kecha-kunduz ittifoq etdi falak.

Ne yomonlig‘ aylab erduk haqqig‘a, oyo, aning
Muncha bizga, do‘stlar, kiynu nifoq etdi falak.

Xasta ko‘nglum komi maqsudini vermay bir nafas
Giryadin ko‘z yoshimi andog‘ buloq etdi falak.

Ko‘yida ag‘yori badkirdordin, vah, naylayin,
Doimo yemak nasibamni tayoq etdi falak.

Yor ollig‘a borib Chokar nechuk arzin desun,
Teshayi zulm ilakim, poyin cho‘loq etdi falak.

* * *

Darig‘o, bo‘lmayin olam tariyqi zindagonig‘a,
Bad ishlardin xalal yetkurdim ayyomi havonig‘a.

Chekib dunyoyi dun izida behad ranj ila mehnat,
Vafo qilmoq yo‘q erkan, bilmadim, dunyoyi foniyga.

O‘zimdin g‘ofil aysh asbobini bir umr qildim jam,
Ki barham urdi gardun so‘ng bisoti komronig‘a.

Bino qilmoq xatodur qasr-u ayvon, so‘ng bo‘lur vayron,
Ne lozim raxt tashlab bu mahalli korvonig‘a.

Jahonning shahlig‘ig‘a hasrat etma, ey ko‘ngul, tahqiq
Ki shahlig‘ odidin yo‘q o‘zga bu shug‘le shabonig‘a.

Nekim avvalda qismat bo‘lsa bo‘lmasdur ziyod-u kam,
Alo ey nafs, qoni’ bo‘l qazoyi osmonig‘a.

Bu gulshanda vafo yo‘q, shahd etib bulbul kibi Chokar,
Qafasni sindir-u elt o‘zni bog‘i bexazonig‘a.

* * *

Menga rahm etgil, ey yori yagona,
Ki hajring shiddati yetkurdi jona.

Qachon desam senga holi xarobim,
Quloq solmay, qilursen yuz bahona.

Farog‘at bo‘lmadim bir lahza g‘amdin,
Ilohi kelmagay erdim jahona.

Vafo yo‘qdur jahon dilbarlarida,
Anga dil bermang, ey ahli zamona.

Tuzub sozingni, kel bazm ichra mutrib,
O‘qub gohi g‘azallar oshiqona.

Nasimi subh, borsang ko‘yi sori,
Menga ul yordin yetkur nishona.

Yuzing shavqi keturdi furqat ichra,
Hazin Chokarni bulbuldek fig‘ona.

* * *

Dilbarlar aylab jilvalar husniga hayron qildilo,
Shavqida bulbuldek ishim faryod-u afg‘on qildilo.

Muhlik firoqi dashtida chun o‘lgudek bemorman,
Dorush-shifoyi vaslidin ne anga darmon qildilo.

Yoqmoq uchun rashk o‘tig‘a men zor-u mahzun bag‘rini,
Bo‘sa dam-odam la’lidin g‘ayrig‘a ehson qildilo.

Guldek yuzini yoshurub mushkin sochini ostida,
Yog‘du jahonni sarbasar ko‘zimga zindon qildilo.

Lutf ila boqmay bir nafas oshiqlarining holig‘a,
Hijron qarong‘u shomida chashmini giryon qildilo.

Zulfini pechin tarqatib, oraz uza yuz noz ila,
Furqatda Majnundek base holim parishon qildilo.

Dildordin ayru edi chun maskanim baytul-hazan,
Chokar, bu tun bazmim kelib, rashki guliston qildilo.

* * *

Ul yorima ish jafo bo‘lubdur,
Ag‘yor eliga vafo bo‘lubdur.

Yuz do‘ndurub ishq elidin har dam,
G‘ayr ahlig‘a oshno bo‘lubdur.

Zohidni nasihatini tutmang-
Kim, aning ishi riyo bo‘lubdur.

Tark etkum oni ne yanglig‘ ishqin,
Ko‘nglim aro mehri jo bo‘lubdur.

To‘ymas ko‘zing ichmak ila qonim,
Bilmon anga ne balo bo‘lubdur.

Qoshing qilichi bila sarosar,
Bag‘r-u yuragim yaro bo‘lubdur.

Chokar sari boqg‘ach oldi hushin,
Ko‘zing ne balo qaro bo‘lubdur.

* * *

Qaltirarman sovuqdin o‘yla qamish,
Ne balo bo‘ldi sovuq ushbu qish.

Sarvdek qomatimni qildi xam,
Man emas yakka, barcha mandek emish,

Bosh chiqormay hama o‘z uyidin,
El aro bo‘ldi qat’ borish-kelish.

Kor-u borini tark etib barcha,
O‘t boshida isinmoq bo‘ldi ish.

Yaxshi bu qishda qo‘y go‘shtidin
Pishurub yesalar kabob necha chish.

Bir-birov birla gah kalom etsa,
Og‘zida til bo‘lur to‘ngub chun tish.

O‘t boshida muqim o‘lub doim,
Zinhor chiqmag‘il, Chokar, tish.

* * *

Qish ichra otashxonada bo‘lg‘usi, vah, ne xush, olov,
Tengi nasib etsa aning yonida gar yog‘li palov.

Ul oyni hajri dashtida oldi meni g‘am lashkari,
Qurshab bori atrofimi har dam g‘irev aylab chu yov.

Vuslat kunining ishrati yodimg‘a tushgach, aylagum
Faryod-u afg‘on, ko‘rsa gar bulbul ani bo‘lg‘ay soqov.

Ta’rif etarsizlar menga, ey kim semuz qo‘y go‘shtini,
Komimg‘a andin ham laziz o‘lg‘usi, bo‘lsa go‘shti ov.

Chun oq soqol o‘lding, kelib hushingg‘a, emdi toat et,
Bu kim xazondindur asar tushsa giyoh uzra qirov.

Rahshingni so‘rding qasd etib qatlimg‘a, ey zebo sanam,
To yetmaguncha boshimi ustig‘a, hech chekma jilov.

Ishqing o‘tidin yonmasun Chokar dil-u joni nechuk,
Kim tob kelturmay yonar, tushsa sharor, albatta, qov.

* * *

Noz otini o‘ynatib chobuksuvorim bu kecha,
Keldi kulbam sori anglab iztirobim bu kecha.

Ne xush ul baxt-u saodat mehr oyini bila,
Kelsa mumtoz etkali ishq ichra yorim bu kecha,

Asrayolmon zor ko‘nglum ichra ishqin kelmasa,
Mahrami rozi nihon-u oshkorim bu kecha.

Muddati no‘sh etmayin maxmur erurman, soqiyo,
Sen berib bir kosa may, tarqat xumorim bu kecha.

O‘lg‘on erkan ne anga moniki bilmon kelmadi,
Va’da aylab erdi borg‘um deb nigorim bu kecha.

Bulbuloso oh-u afg‘on aylagum subh-u maso,
Holima rahm aylagay deb guluzorim bu kecha.

O‘ynatib qosh-u ko‘zin noz-u tag‘ofullar bila,
Aqlim oldi qo‘ymayin sabr-u qarorim bu kecha.

Kelsa pinhon g‘ayr elidin bazmima ul nozanin,
Sarf etar erdim yo‘lig‘a yo‘q-u borim bu kecha.

Orazidin aylabon Chokar hijobin murtafe
Ul parimu ravshan etkan shomi torim bu kecha.

* * *

Jism ichra jonni men netay, bu kecha jono bo‘lmasa,
Ilmas ko‘zimga hech nima ul mohi siymo bo‘lmasa.

Yaksar qorong‘u bo‘lg‘usi ko‘zima bu yorug‘ jahon,
Bazm ichra bir dam yuzi xurshidi oso bo‘lmasa.

Xushdur base ahbob ila bazm aylamas subh-u maso,
Onlar dilida yordin o‘zga tamanno bo‘lmasa.

Majlisga doxil aylamang ul kimsakim olam aro,
Bir gulbadanni ishqiga maftuni shaydo bo‘lmasa.

Chin oshiq ersang ul kishi zohid so‘ziga aldanib,
Ishq ahli birla bazmaro gar boda paymo bo‘lmasa.

G‘am xayli boshimdin meni, vah, ne sifat bo‘lg‘usi raf’,
Bazm ichra may bermakka bir mohi diloro bo‘lmasa.

Yo‘l bermadi vasl ichra, ey Chokar, necha jahd ayladim,
Yaxshi edi gar dahr aro ag‘yor paydo bo‘lmasa.

* * *

Ul pari hajridadurman zor-u hayron, ey tabib,
Ne bo‘lur qilsang meni dardimg‘a darmon, ey tabib.

Tinmayin ul oy visolig‘a tun-u kun ko‘zlarim,
Furqat ichra to‘kkusi yosh o‘rnig‘a qon, ey tabib.

Bir zamon mehri vafo rasmini bunyod aylabon,
Xoli zorim so‘rsa qolmas erdi armon, ey tabib.

Sho‘xlarda yo‘qdurur ishq ahlig‘a rahm aylamak,
Kimki rahm aylar desa, albatta, yolg‘on, ey tabib.

Istabon ul oy visolin kecha-kunduz dahr aro,
Aylaram bulbul kabi faryod-u afg‘on, ey tabib.

Hajr vodisi aro o‘lmakka yetdim, ohkim,
Lutf etib kelmas esa kulbamg‘a jono, ey tabib.

Har zamon yuz ming tuman javr-u jafo izhor etib,
Aylagan qaddin duto Chokarni hijron, ey tabib.

* * *

Qilmas tarahhum holima, vah naylayin, ul g‘uncha lab,
Kun-kundin afzun aylabon men xastag‘a qahr-u g‘azab.

Laylivashimni ishqida, ey do‘stlar, olam aro—
Qolsa, ajab ermas, agar men telbaga majnun laqab.

Ushshoq eliga, zohido, qilg‘ung nasihat dam-badam,
O‘rgangin onlardin kelib sen dog‘i pand ila adab.

Jonbaxsh la’li bergusi o‘lgan tanimg‘a toza jon,
Gar ko‘zlaridin bir qiyo ersa mamotimg‘a sabab.

Hijron qaro shomi aro aylab fig‘on-u nolalar,
Bu zori mahzun qilg‘usi bazmi visolingni talab.

Qilsam tazarru’ har necha boqmas dame ahvolima,
Bo‘lmish azalda qismatim chekmak base ranj-u taab.

Zahri firoqin no‘sh etib yurgum damo-dam, Chokaro,
Bazmi vaslida ichar ag‘yor eli jomi tarab.

* * *

Nigorim bo‘lg‘oli olamda paydo,
Bo‘lubman husniga maftun-u shaydo.

Jafo chekmak ishimizdur tun-u kun,
Qilib behuda yor ishqin tamanno.

Base lab tashnaman, qilsang labingdin—
Na bo‘lg‘ay men hazing‘a bo‘sa ato.

Yuz ochib, qil qaro kulbamni ravshan,
Vafo rasmi bila, ey moh siymo.

Tanimdin jonimi olmoqqa, ey gul,
Erur kipriklaring o‘q, qoshlaring yo.

Raqib ahliga rahm etma, kul o‘ldi.
Yonib rashk o‘tig‘a jismim saropo.

Firoqing dashtida o‘lgusi Chokar,
Karam qilmas esang holig‘a, jono.

* * *

Ko‘zlaringni kofirig‘a kofiriston bandadur,
La’li jonbaxshing so‘ziga shakkariston bandadur.

Orazingni lam’asig‘a, ey parilar sarvari,
Dahrga bergan ziyo xurshidi raxshon bandadur.

Mahvashim la’liga har dam tinglangiz, ahbobkim,
Yuz tuman tortib xijolat obi hayvon bandadur.

Boshida bo‘lg‘on parishon kokuli mushkinig‘a,
Dahr bog‘i ichra yaksar sumbuliston bandadur.

Bo‘yla naqqoshi azal xalq aylagan ruxsoringga,
Qasri jannat ichra bo‘lg‘on hur-u g‘ilmon bandadur.

Chokaro, subh-u maso qilg‘on fig‘on-u nolangga,
Munfaillig‘din bari qumri nolon bandadur.

* * *

Soqiyo, tutg‘il menga majlisda jon oro qadah,
Toki maxmuridin yetdi volau shaydo qadah.

Har zamon men telbaga yuzlangusi ko‘p dard-u g‘am,
Bo‘lmasa gar bazm ichida o‘ylakim hamto qadah.

Ne qilay men zori mahzun yorni, ey do‘stlar,
Mahfil ichra bo‘lmas atokim sipehr oso qadah.

Ichmagumdir o‘zgadin hargiz mani mahzunkim,
Dayr aro gar bo‘lmasa, ul dilbari tarso, qadah.

Man qilma bu junun ichra menikim, zohido,
Jonimi olg‘usidur ma’shuq oxir yo qadah.

Furqat ichra qolmisham, na bo‘lg‘usi, ey mug‘bacha.
Rahm etib men xastag‘a, bersang dame a’lo qadah.

Chokaro, tinmay bu yonglig‘ oh-u faryod aylama,
Qilg‘usi oxir seni dahr ahlig‘a rasvo qadah.

* * *

Jahonda yashay olmas hech millat ilm-u urfonsiz,
Aningdekkim turalmas hayotda jism ila jonsiz.

Maorifdur jaholat dardining darmoni, fahm aylang,
Fanoliq yotgonidur bo‘lsa har bir dard darmonsiz.

Ilmsiz kimsa boylarg‘a bo‘lub qul, o‘tkarur umrin,
Ilm ahli kishiga bo‘lmag‘ay muhtoj ham nonsiz.

Biza bo‘yla ezilmoq qayg‘u-g‘amlar jahlimizdandur,
O‘qusak ilm olur erduk, biz ham olamda armonsiz.

Nega bizda emas maktab, tovongar ahli rohatda,
Olar xohish ilmdin bizga qayg‘u yuzlanib sonsiz.

Bering farzandingiz maktabga, Chokarni so‘zin tinglab,
Jahonda yashay olmas hech millat ilm-u urfonsiz.

MUNDARIJA

O‘zbek mumtoz adabiyotining muhtasham yo‘li *(Hamidulla Boltaboyev)* 3
Sayfi Saroyi 7
G‘azallar 8
Fi avsofi shuaro 14
Qasida 14
Qit’alar 16
Xorazmiy 17
Avval ko‘rushganin aytur 18
G‘azal 18
Bayoni voqeyi aytur 19
G‘azal 20
Masnaviy 20
G‘azal 21
Masnaviy 21
Avvalg‘i nomani aytur 22
Masnaviy 24
Atoyi 25
G‘azallar 25
Hofiz Xorazmiy 38
G‘azallar 38
Qit’alar 52
Ruboiylar 53
Lutfiy 54
G‘azallar 54
Ruboiy va to‘rtliklar 59
Tuyuqlar 62
Gadoiy 64
G‘azallar 64
Mustahzod 83
To‘rtliklar 84
Sakkokiy 85
G‘azallar 85
Yusuf Amiriy 92
G‘azallar 92

Tuyuqlar 95
Husayniy 97
G‘azallar 98
Alisher Navoiy g‘azaliga muxammas 104
To‘rtliklar 105
Muhammad Solih 106
“Shayboniynoma”dan 106
Muhammad Shayboniy 113
G‘azallar 114
Ruboiylar 123
Tuyuqlar 123
Komron Mirzo 124
G‘azallar 124
Ruboiylar 129
Fardlar 131
Zebunniso 132
G‘azallar 133
Turdi Farog‘iy 137
G‘azallar 137
Dar mazammati sipohigari 142
Muxammaslar 142
Pahlavonquli Ravnaq 148
G‘azallar 148
Mustahzod 156
Muxammaslar 157
Qasida 159
Roqim 163
G‘azallar 163
Muxammaslar 167
Masnaviy 170
Marsiya 175
Xo‘janazar Huvaydo 178
G‘azallar 179
Mujrim Obid 195
G‘azallar 195
Nishotiy 209
G‘azallar 210
Muxammas 213

Musaddas 214
Qushlar munozarasi 215
Amiriy 227
G'azallar 227
Tuyuqlar 243
Fazliy 245
G'azallar 245
Muhammad Alixon 253
G'azallar 253
Muxammas 256
Gulxaniy 258
G'azallar 258
Ahmad Tabibiy 261
Muxammaslar 261
Maxmur 268
Munojot va dargohi qozi-yul-hojot 269
Dar sifati qishloqi hapalak kiba Maxdum
Maxmur taalluq yofta 270
G'azali qozi Muhammad Rajab avj dar borayi xud 271
Ansofi hoji niyoz 272
Dar sifati hakim Turobiyi hazor xalta budir 273
Munis Xorazmiy 274
G'azallar 274
Dilshodi Barno 284
G'azallar 284
Muxammas 287
Hikmatli baytlar 289
Komil Xorazmiy 290
Qasida 290
Muxammas 291
G'azal 293
Yusuf Saryomiy 294
G'azallar 294
Feruz 302
G'azallar 303
Muxammaslar 307
Musaddaslar 312
Ruboiylar 315

Zavqiy 317
G‘azallar 317
Muxammaslar 320
Murabba 324
Is’hoqxon Ibrat 326
G‘azallar 326
Murabba’ 333
Muxammas 334
Haziniy 340
G‘azallar 340
Murabbalar 348
Muxammaslar 349
Musaddaslar 356
Anbar Otin 359
G‘azallar 359
Nozimaxonim 368
G‘azallar 368
Masnaviy 373
Xislat 374
G‘azallar 374
Murabba’ 375
Muhammadsharif So‘fizoda 376
G‘azallar 376
Tavallo 381
G‘azallar 382
Muxammas 384
Olamga bir nazar 387
Qalamga xitob 388
Haqqona bir so‘z 389
Avaz O‘tar 391
G‘azallar 391
Xalq 398
Topar erkan qachon 399
Til 399
Maktab 400
Fidoyi xalqim 400
Chokar 401
G‘azallar 401

O‘ 16 O‘zbek mumtoz she’riyati antologiyasi [Matn]: nasr/to‘plovchi va nashrga tayyorlovchilar H. Boltaboyev, D. Qozoqboyeva. – Toshkent: “O‘zbekiston” nashriyoti, 2022. – 416 b.
ISBN 978-9943-8569-8-1

UO‘K 821.512.133.09
KBK 83.3(5O‘)

TURKIY ADABIYOT DURDONALARI

O‘ZBEK MUMTOZ SHE’RIYATI ANTOLOGIYASI

31-jild

Adabiy-badiiy nashr

Muharrir *Malohat Ibragimova*
Badiiy muharrir *Shuhrat Mirfayozov*
Dizayner *Bobur Tuxtarov*
Texnik muharrir *Yelena Tolochko*
Kichik muharrir *Zilola Mahkamova*
Musahhih *Sadoqat Beshimova*
Sahifalovchilar: *Shahlo Buriyeva, Islom Azamatov*

Tasdiqnoma raqami № 4642. 22.07.2020-y.
Bosishga 18-oktabr 2022-yilda ruxsat etildi. Bichimi 60x90 $^{1}/_{16}$.
Ofset qog‘ozi. “PT Astra Serif” garniturasida ofset usulida bosildi.
Shartli bosma tabog‘i 26,0. Nashriyot-hisob tabog‘i 19,31,
Adadi 1 185 nusxa. Shartnoma № 99-1/22. Buyurtma raqami № 22-314.

Original maket O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligining “O‘zbekiston” nashriyotida tayyorlandi.
100011, Toshkent, Navoiy ko‘chasi, 30.
Telefon: (71) 244-34-38, (71) 244-24-91.

“O‘zbekiston” NMIU MCHJ bosmaxonasida chop etildi.
Bosmaxona manzili: 100011, Toshkent, Navoiy ko‘chasi, 30.

TURKIY ADABIYOT
DURDONALARI

O‘ZBEK MUMTOZ SHE’RIYATI ANTOLOGIYASI